**Bronchodilatatorlarning ingalyatsion eritmaları** – bronxospazmni davolashda tanlangan preparatlar.

Ingalyatsion beta2 – adrenostimulyatorlar (salbutamol va tebutalin) noselektiv preparatlar (izoctarin)dan afzalroq, zero ba’zi holatlarda ular samaraliroqdir. Izoprenalin, kuchli ta’sir etuvchi preparat bo’lsa ham, selektiv beta2 – adrenostimulyatorlarga qaraganda tor terapeutik dozaga cga.

- 1) Kislorod ingalyatsiyasi va tekshiruvdvn keyin salbutamol ingalyatsiyasi boshlanadi, 0,1 – 0,25 mg/kg (maksimal bir martalik doza – 5 mg) xar 20 idaqqada (uch ingalyatsiyagacha yoki nafas sonining maksimal normallashuvigacha)
- 2) Salbutamol o'rniga terbutalin tayinlash mumkin, 0,3 mg/kg. Ingalyatsiya uchun eritmasi ishlatalidi. Preparatni salbutamol sxemasiga ko'ra ishlatalilgan; maksimal bir martalik doza – 5 mg.
- 3) Noselektiv preparatlar ularning xavfsizligi va effektivligi aniqlangach ishlataladi. Izoprenalin (0,5% eritma) yoki izoetarin (1% eritma): 0,25 – 0,5 ml preparat 2 ml fiziologik eritmada eritiladi va kislorod aralashmasi ingalyatsiyasi yordamida yuboriladi.
- 4) Mustaqil nafas sonidagi bronxodilatatorlar ingalyatsiyasi IVL sonidagidek samaralidir, lekin IVL sonidagi ingalyatsiyasida pradoksal bronxospazm va pnevmotoraks kelib chiqishi mumkin.

### Kortikosteroidlar

- kortikosteroidlar beta2 – adrenostimulyatorlar samarasizligida qo'llaniladi.
- metilprednizalon 1 – 2 mg/kg v/iga xar 6 soatda yuboriladi, yoki ekvivalent dozada ichishga buyuriladi.

**Suyuqliklar yuborish.** Bronxial astma xuriji vaqtida degidratatsiya yuzaga keladi.

- engil xurujda suyuqliklarni ichish kifoya.
- og'ir xurujda suyuqliklar ichish qayt qilishni chaqiradi, shuning uchun infuzion terapiya tavsisiya etiladi. Birinchi 12 soat ichida fiziologik eritma 5%li glikukoza bilan yuboriladi; infuzion eritmaga kalyi xlorid qo'shiladi, 20 – 40 mekv/l. Yuborilayotgan suyuqliklar xajmi suvg'i bo'lgan minimal talabdan 1,5 marta ko'p bo'lishi kerak. Natijada uni bemor ahvoliga qarab korrektsiyalanadi.

**V/iga bronxodilatatorlar infuziyasi** preparatlarni icha olmaslik, ingalyatsiya va t'oga yuborishning samsarsizligida tavsija etiladi.

**Eufillin.** Matilksantin va beta2 – adrenostimulyatorlarning bronxodilyatatsiya mexanizmlari turlicha.

- eufillin yuborishdan oldin, bemor avval ham eufillin qabul qilganligini aniqlash kerak. Ba'zan preparatning zardobdag'i xajmi kuzatiladi.
- eufillin v/iga 5 – 8 mg/kg dozada xar 6 soatda 20 daqiqa davomida 0,9 – 1,2 mg/kg/s tezlik bilan yuboriladi. Infuziyani to'yintiruvchi dozadan keyin boshlanadi (5 – 8 mg/kg). Eufillin dozasi shunday tayinlanadiki, bunda uning zardobdag'i xajmi 10 – 20 mkg/ml ga teng bo'lishi kerak. Davomli yuborishda eufillin xajmini xoxlagan vaqtida, v/iga yuborilganda – yuborilgandan 30 – 60 daqiqa keyin anilanadi. V/iga 1 mg/kg yuborilganda zardobdag'i xajmi 2mkg/mlga oshadi.

Nojo'ya ta'siri bosh og'rig'i. Taxikardiya. Tremor, quşish va epileptik tutqanoqlar bilan namoyon bo'ladi. v/iga tez infuziya qilish yurak ritmining bzkzilishiga, arterial gipotoniyaga va o'limga olib keladi. Efillinni beta – adrenostimulyatorlar bilan birkalikda qo'llanilganda doimiy EKG monitoringi kerakdir.

- Og'ir holatlarda **beta2 – adrenostimulyatorlarni v/iga yuborish buyuriladi.** Infuziyani reanimatsion bo'limda gemodinamikaning (arterial kateter yordamida), EKG va nafasning doimiy monitoring kuzatuvni ostida olib boriladi.

■ terbutalin tayinlanganda infuziyani v/iga yuborish bilan kombinirlanadi: avval 10 mkg/kg 10 min davomida yuboriladi, keyinchalik 0,4 mkg/kg/min tezlikda infuziya qo'shiladi. Zarur bo'lganda dozani 0,2 mkg/kg/min dan 3 – 6 mkg/kg/min gacha ko'tariladi.

- Yurak ritmining buzilishi xavfi sababli eufillin va terbutalinni birkalikda qo'llash man etiladi. Terbutalinni nojo'ya ta'siri – tremor. Taxikardiya va gipo kaleniya.

**Bronxolit** – erta yoshdag'i bolalarda mayda bronxlarning obstruktsiyasi.

### Epidemiologiya.

2 yosh > bolalar

80% bemorlar < 1yosh

kasallanish yanvardan mart oyigacha kuzatiladi

**Etiologiya.** Asosiy sabab – virusli infektsiya, qo'proq tarqalgan qo'zg'atuvchi – respirator sintitsial virus.

**Tekshiruv.** Bunda degidratasiya va nafas etishmovchiligi darajasi baholanadi.

**Tashxislash.** Kasallik burun oqishi va yo'taldan boshlanib, keyinchalik xansirash, xushtaksimon nafas, ko'krak qafasining kengayishi va yumshoq qismlarini tortilishi qo'shiladi. Isitmalash bulmasligi ham mumkin.

**Klinik belgilari.**

Yaqin anamnezda O'RVI

Distressning asta boshlanishi

Nafas chiqarganda xirillash

Kuchli taxipnoe (60 – 100 ta/min)

Tsianoz

**Davolash**

1. Namnlangan kislород ( $\text{FiO}_2$  40% dan kam bo'lmasligi kerak). Og'ir holatlarda qondagi oksigenatsiya kuzatilinadi ( $\text{pO}_2\text{ni}$  teri orqali aniqlash, puloksimetriya, arterial qon gazlari tahlili).
2. Degidratasiyani bartaraf etish zarur. Nafas etishmovchiligining og'irligiga qarab suyuqliklarni ichishga yoki viga buyuriladi.
3. Og'ir holatlarda IVL tavsiya etiladi.
4. antibiotiklar faqatgina o'rta otit yoki pnevmoniya qo'shilgandagina buyuriladi.
5. ba'zan bronxodilatatorlami viga yoki ingalyatsida yuborish samaralidir.
6. nafas etishmovchiligidagi, immunotanqislikda va og'ir yo'dosh kasallikkarda, RVS bilan kasallanish tasdiqlanganda ribovarin bilan virusga qarshi terapiya tavsya etiladi (6 g kukunni 300 ml konservantlarsiz steril suvda eritib, bug'latgich yordamida 20 mg/ml 12 – 18 s/sut 3 sut davomida yuboriladi, lekin 7 sut dan oshmasligi kerak).

**Yot modda aspiratsiyasi.**

Unga kasallik xushtaksimon nafas bilan boshlanganda, shuningdek retsidivlanuvchi va davoga berilmaydigan pnevmoniya shubxa qilish darkor. Og'ir nafas buzilishlari qizilo'ngachdagiyot moddada ham kelib chiqishi mumkinligini unutmashlik kerak.

**Rentgenologik tekshiruv** diafragmaning paradoksal xarakatidan, jarohatlangan o'pka va ko'ks oralig'inining sog' tomonga siljishidan yot moddani aniqlash imkonini beradi.

**Davolash.** Yot modda aspiratsiyasi og'ir nafas etishmovchiligi rivojlanganda yoki xavfi yuqori bo'lganda shoshobilinch holat bo'lib hisoblanadi. Yot moddani qo'l bilan chiqarish faqatgina buzilishlarning hayotiylikka to'g'ri kelmasligidagina tavsya etiladi.

1. radikal davolash – yot moddani bronkoskop bilan olish.

2. infektsiyalarda antibiotiklar tayinlanadi.

Davomli atlektazlar, pnevmonit, pnevmoniya va emfizemma o'pkada yot modda yoki uning fragmentlari qolganligidan dalolat beradi

**Pnevmoniya** og'ir nafas etishmovchiligin chaqirishi mumkin.

1. Maska orqali kislород ingalyatsiyasi tayinlanadi ( $\text{FiO}_2$  – 30 – 40%); ventilyatsiya etarli bo'limganda traxeya intubatsiyasi o'tkaziladi.
2. qon oksigenatsiyasi nazorat qilib turiladi (arterial qon gazlari tahlili va puloksimetriya).
3. mikrobgva karshi davo .

**Pnevmotoraks**

**Etiologiya.** Spontan pnevmotoraks sog'lom odamlarda o'pka kasalligini chaqirishi yoki kuchaytirishi mumkin.

**Tekshirish va tashxislash**

**Anamnez.** Pnevmotoraks odatda to'satdan boshlanadi.

**Fizikal tekshiruv.** Zararlangan tormonda ovoz dirillashi susaygan, nafas o'tkazish pasaygan, perkutor tovush kuchaygan. Ko'krak qafasining harakati assimetrik, cho'qqi turtkisi siljigan.

O'pka cho'qqisidagi perkutor tovushning xar xilligi xarakterli emas. Fizikal tekshiruvda o'pkaning beriluvchanligi kam axborotlidir.

**Ko'krak qafasining rentgenografiysi.** Katta bo'limgan pnevmotoraksda tashxisni tasdiqlash uchun to'g'ri proektsiyada nafas chiqarayotganda rentgenografiya qilinadi.

**Tasnif.** Katta bo'limgan pnevmotoraks odatda yaxshi o'tkaziladi. Biroq, agar pnvmotoraks parvozqaqtida, samolyot kabinasida mansiy bosim bo'lganda, yoki IVL fonda kelib chiqsa, xavo xajmu plevra bo'shlig'ida ko'payib, hayotga xavf soladi.

■ engil pnevmotoraksda o'pka 30 %ga cho'kadi.

■ og'ir pnevmotoraksda o'pka 30 – 70 % ga cho'kadi.

■ to'liq cho'kishda taranglashgan pnevmotoraksga shubxa qilinadi.

### Shoshilinch yordam

1. Agar davolash xayot uchun xavli bo'lsa, u holda shoshilinch tibbiy yordam tashxislash tugallanmasdan oldin boshlanadi.
2. Agar faqatgina vistseral plevra zararlangan bo'lsa, IVL pnevmotoraksni og'irlashtiradi. Bir vaqtida perietal varaq xam shikastlangan bo'lsa (masalan, qovurg' alarning to'liq sinishida) IVL qutqarib qolishi mumkin.
3. Agar ahvoli stabil bo'lsa, pnevmotoraks katta bo'lmasa (rentgengrafiya ma'lumotlariga ko'ra), bemorni kuzatish turish kifoya va dekstrometorfon bilan yatalni kamaytiradi, kodein yoki morsini xam kullah mumkin. Lekin bu preparatlari nafasni susaytiradi, shuning uchun ularni tavsiya kilganda arterial kon gazlarining monitoringini olib borish shart.

**Taranglashgan pnevmotoraksda** plevral punktsiya o'tkaziladi. Ignani o'rta umrov chizig' bo'yicha ikkinchi qovurg'alar oralig'idan kirgizib, xavo tortib olinadi. IVLda ignani xavo kelishi to'xagungacha qoldiriladi, keyinchalik suv osti sifonli drenaj qo'yiladi.

**Plevral bo'shlig'ni drenajlash takroran** xavo yig'ilishi xavfi yugori bo'lganda o'tkaziladi. Suv osti sifon drenajlashda drenaj trubkasini fiziologik eritma Bilan to'ldirilgan sathga ulab qo'yiladi. Suyuqlik sathi ko'krak qafasi sathidan pastroqda bo'lishi kerak: odatda suyuqli sathni polga qo'yiladi. Bunda xavo plevra bo'shlig'idan suvg'a chiqadi, lekin orqaga qaytmaydi. Agar tizim to'g'ri o'matilgan bo'lsa, u holda nafas olayotganda, plevra bo'shlig'ida mansiy bosim hosil bo'lganda, suyuqlik trubka bo'ylab bir necha santimetrgacha ko'tariladi. Keyinchalik, vistseral va parietal varaqlar yaqinlashaganda, suyuqlik to'lqinlanishi to'xtaydi.

### O'pkaning surunkali kasalliklarining qo'zg'alishi

**O'pka – bronx displaziysi** – o'pkaning surunkali kasalligi, yassi epiteliyning metaplaziysi va bronxlar silliq mushaklarining gipotrofiyasi, alveolalarning bo'shashishi va xavo kistalarining hosil bshlishi Bilan xarakterlanadi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda distress – sindromining asorati

Ko'proq chala tug'ilgan bolalarda uchraydi

Uzoq muddatli ingalyatsiya va yuqori kontsentratsiyali kislорod Bilan IVL qilinganda rivojlanadi

### Klinik belgilari

Tsianozni bartarf etish uchun qo'shimcha O2 berish kerakligi

Surunkali respirator distress

Retraktsiyalar

Nam xirillashlar

Xushtaksimon xirillashlar

Periferik shishli cor pulmonale rivojlnish xavfi

**Etiologiyasi.** Kasallik yuqori bosimli nafas olish va FiO2 bilan IVLda bo'lgan chala tug'ilgan bolalarda kelib chiqadi.

### Tashxislash va davolash

■ ikkilamchi yurak – qon torni rva immun tizim zaralanadi, jismoniy rivojlanish buziladi.

■ o'pkadagi rentgenologik o'zgarishlar turlicha, tiniqligi va qorayishi ortgan sohalar, atlektazlar uchraydi.

■ kasallik og'irlashganda odatda shifoxonaga yotqiziladi.

Umumiy belgilari uyquchanlik va keskin ishtaxaning pasayishi nafas funktsiyasining buzilishini ko'rsatishi mumkin. Bronxiolit va o'pka - bronx displaziyasida bronxospazm yuzaga kelgani kabi. Arterial qon gazlari tahlilida kuchsiz gipoksiya va kompensirlangan giperkapniya aniqlanadi. Ko'pincha o'tkir nafas etishmovchiligi kelib chiqadi. O'pka - bronx displaziysi bor ko'krak yoshidagi bolalarda to'satdan o'lim sindromi xavfi yuqori. Asosatlarga uy sharoitida doimiy kislород ingalyatsiyasini talab etuvchi nafas etishmovchiligi, gipertenziya va pnevmotoraks natijasidagi o'ng qorincha yurak etishmochiligi kiradi. Virusli pnevmoniyalar odatda engil o'tadi, o'pka-bronx displaziyasida og'ir nafas etishmovchiligiga olib keladi, shuning uchun bolani virusli infektsiya Bilan kasallangan bemonlardan ajratish kerak.

Sepsisini davolash.

Oqibati. Tez dekompensatsiya. Respirator infektsiyalarning qaytalanishiga moillik. Tahminan 2/3 bemonlarda tiklanish sekin

### Mukovistsedoz

Bronxospazm og'ir nafas etishmovchiligiga olib keladi. Davolash nafasni tutib turish va bronxodilatatorlarni o'lchamlarini o'z ichiga oladi.

O'pka infektsiyalarining qo'zg'aliishi jismoniy yuklanishni ko'tara olmaslik va kuchayib boruvchi nafas buzilishlari Bilan birga kuzatiladi. O'pkalarning rentgenografiyasida Yangi infiltrativ o'zgarishlar aniqlanadi. Balg'am ekib ko'rulganda Pseudomonas aeruginosa va Stafilococcus aureus topiladi. Massaj, postdural drenaj, kislород ingalyatsiyasi va antimikrob terapiya tavsiya etiladi. Davolash statcionarda olib boriladi.

Ko'krakda og'riq va nafas buzilishlarining to'satdan bo'lganda pnevmotoraksga shubxa qilish kerak.

### Kontrol savollar:

1. Kanday kasalliklar bolalarda yukori nafas yullarining obstruktsiyasiga olib kelishi mumkin?
2. Yukori nafas yullarining stenoz shkalasini gapirib bering.
3. Epiglotitning klinik kurinishini aytib bering va kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
4. Laringotraxeitda laringostenozning klinik kurinishini aytib bering va kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
5. Bugilishdag'i laringostenozning darajalarini gapirib bering.
6. Yukori nafas yullarining yet modda aspiratsiyasini klinik kurinishini aytib bering va kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
7. Peritonzillyar abstsesining klinik kurinishini aytib bering va kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
8. Xalkum osti abstsessining klinik kurinishini aytib bering va kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
9. Diftirianing klinik kurinishini aytib bering va kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
10. Bakterial traxeitning klinik kurinishini aytib bering va kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
11. Utkir bronzial obstruktsiyaning klinik kurinishini aytib bering.
12. Bronzial astmaning davomiy xuruji va astmatik statusini klinik kurinishini aytib bering va kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
13. Astmatik statusini xavfli omilining rivojlanishini aytib bering.

14. Bronxiolitni klinik kurinishini ayтиб беринг ва kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
15. Bronxlarning yo' modda aspiratsiyasini klinik kurinishini ayтиб беринг ва kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
16. Taranglashgan pnevmotoroksnini klinik kurinishini ayтиб беринг ва kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
17. O'pka – bronx displiziyasini klinik kurinishini ayтиб беринг ва kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.
18. Mukavistsidozning upka turini klinik kurinishini ayтиб беринг ва kasallikning rivojlanishida shoshilinch yordam ketma-ketligini gapirib bering.

## OFATLAR TIBBIYOTI ASOSLARI.

Tibbiy ofatlar tibbiyotning shunday bo'limidirki, unda ilmiy bilimlar tizimi va amaliy faoliyat janlangandir. Bunda asosiy etibor avariyalar, ofatlar, tibbiy ofatlarda aholini qutqarish, hayotini saqlab q olish, shikastlanishlarni oldini olish, favqulotda holat vaziyatida qatnashganlarning sog'lig'ini saqlash va tiklashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Zaharovchi omillar.	Tibbiy oqibatlar.
Termik issiqlik.	Kuyish, sovuq urishi, muzlash.
Fizik barozaralarish.	Radiatsion, vibratsion.
Mexonik (zarb to'lqini).	Travmalar, jaroxatlanishlar, kontuziyalar.
Kimyoviy kuyish.	O'tkir va kimyoviy zaxarlanishlar.
Aerogidrodinamik.	Travmalar, cho'kish, muzlash.

Jarohatlangan - bu insonda favqulotda vaziyatda(FV) kuch ta'siri natijasida sog'liqni buzilishi kuzatildi.

Jabrlangan - bu inson, FVlar natijasida moddiy, ma'naviy, ruxiy zarar ko'rgan inson.

Jabrlanuvchiga yordam berishdan oldin, jarohatlovchi omilni ta'sirini yo'qtish kerak.

Lokal va keng masshtabdagi favqulotda holatlarda FVlar uchun birinchi navbatdagi vazifa bu jabrlanganlarni qidirish muammosi hisoblanadi.

Qulagan binolar, yirik yong'inlar, suv toshqini, shamol qidiruvni qiyinlashtiradi.

Xonadonlarda yong'in kuzatilganda bolalar shkaflarga berkinib, gazzlardan zaharlanib halok bo'lishadi. Favqulotda holatlarda jabrlanganlar hayoti qutqarishni tashkil qilishga bog'liq. Favqulotda holatlarda jabrlanganlarni qutqaruvchilar, yong'in xavfsizligi xodimlari qutqaradilar.

Shuningdek quyidagi tashkilotlar: FX boshlig'i, tez tibbiy yordam, sog'liqi saqlash boshqaruvining mahalliy organlari, respublika organlari, mahalliy sanitar -epidemiologik xizmati, mahalliy boshqaruv organlari, FV vazirligi.

Jabrlanganlarni aniqlashda mutaxassislardan tashqari, maxsus o'qitilgan itlar va elektron apparatlar, geofonlar qo'llaniladi. Bu apparatlar hayot uchun zarur a'zolar faoliyatini (tovush, yurak urishi, nafas olishi) masofadan aniqlaydi. Geofonlarni turlari juda ko'p. "Kason" geofoni tovushni 4-8 metr masofadan aniqlaydi. "Trifon-Sekur" 14 metr radiusgacha tovushni aniqlaydi. tosh zARBini 150 metrgacha aniqlaydi.

"Orecon" o'tkazuvchi tebranma kuchaytirgichi bilan jabrlanuvchi tovushini 200 metr masofadan aniqlash mumkin.

Infra qizil nur yordamida ko'ruchchi termik kamera jabrlanganlarni hushsiz holatda aniqlaydi. Hozir jang maydonidagi jangchilarning faoliyatlarini (pulsi, qon bosimi, nafas soni) sun'iy yo'ldosh tizimi orqali aniqlash sinalmoqda.

Bu shoshilinch yordam ko'rsatuvchi maxsus jihozlar – shoshilinch og'riqsizlantiruvchi va jarohatlanganlarni joylashgan joyidan signal uzatish uchun kerak, bu esa qidiruv vaqtini qisqartiradi va tibbiy qutqaruvchilarning o'limini kamaytiradi.

Tibbiy xodimni voqeа sodir bo'lgan joydagи taktikasi.

-Xodisa joyidagi shifokor (tibbiyot xodimi) qutqaruvchilar boshligiga o'z yordamini taklif qiladi va qutqaruv ishlari tibbiy qismining boshlig'i hisoblanadi.

Xodisa joyidagi tibbiyot xodimining majburiyatlarini.

-Jabrlanganlarni yig'ish uchun joy topish (zararovchi omil bo'lmasligi, lekin o'ta uzoq ham bo'lmasligi, kunduzi soya, kechqurun yorug' bo'lishi kerak) va qutqaruv ishlari boshlig'i orqali hamma yig'ilgan jabrlanganlarni tarqatish.

-Xodimlar ishlarini tashkillashtirish – barcha murojat qilgan tibbiyot xodimlari birinchi bo'lib kelgan tibbiyot xodimiga bo'ysunadi.

Boshliq xar bir xodimni mutaxassisligiga qarab guruhlarga bo'ladi, fojea mashtabini baholaydi (jabrlanganlarni sonini aniqlash uchun), o'choqda qanday jihoz va vositalar kerakligini aniklaydi, telefon yoki ratsiya orqali bu ma'lumotlarni tez yordamga etkazish.

-Tez yordam vositalarini yig'ish va etkazishni tashkillashtirish (bintlar, sovuq suv, dorilar).

-Tibbiy saralashni tashkillashtirish.

2. Tez yordam boshlig'i shifokorini majburiyatlyari:

-Bemorlar va jabrlanganlarni tibbiy saralashni davom ettirish.

-Tez yordam brigadasi kuchi bilan jabrlanganlarni evakuatsiyasi, avtotransportda kech kelganlarni va o'zi kelgan engil jarohatlanganlarni evakuatsiyasini tashkillashtirish (1-guruh jabrlanganlar I ta tibbiy xodim kuzatuvida).

-tez yordam stantsiyasiga joriy ma'lumotlarni etkazish.

-Boshliq vazifalari etib kelgan qutqaruv xizmati brigadasining tibbiy boshlig'i topshiriladi.

3. 03, 02, 01 telefonlari orqali mahalliy boshqarmalarni, 05 qutkaruv xizmati va FX boshqarmasini xabardor qilish.

Jabrlanganlar miqdori ko'p bo'lsa tibbiy saralash o'tkaziladi.

### **Tibbiy saralash:**

Bemorlarni og'irlik holatiga qarab saralanadi, malakali yordam ko'rsatish uchun transportirovkaga ko'rsatma va yordam ko'rsatish navbatini aniqlanadi.

Tibbiy ofatlarda qutqarilganlar va tirik qolganlar soni o'z vaqtida yordam ko'rsatganligiga bog'liq, zararlanganlarni har 3-4 tasi shoshilinch tibbiy yordamga muhetoj bo'lishi mumkin.

Baxtsiz xodisalarda, katta yo'qotishlarda barcha jaroxatlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatishning iloji bo'lmaganligi uchun, tibbiy saralash o'tkaziladi.

N.I.Pirogov birinchi marta tibbiy saralashni taklif qilgan va xozirgacha bu nazariya qo'llanilib kelinmoqda.

Tibbiy saralash jaroxatlanganlarning davo profilaktikaga muhetojligi va evakuatsiya tadbirlarini tibbiy ko'rsatmalariga qarab guruhlarga ajratiladi.

Saralashdan maqsad – jabrlanganlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish va evakuatsiyani tashkillashtirish.

### **Fojealarda tibbiy saralash tamoyillari.**

1. Yuqori malakali xodim bo'shamaguncha, qutkaruv tibbiy xodim ishini yaxshi biladigan xodim boshliq bo'lib turadi.

2. Intsidentni tasdiqilaydi va komanda postini tashkillashtiradi.

3. Qo'shimcha yordam chaqirish kerak.

4. Hamma bemorlarni birlamchi baholash kerak.

5. Bemorlarni saralashni boshlash.

6. Xodimlar va jihozlar ko'prok e'tiborga loyiq bo'lgan bemorlarga yo'naltiriladi.

7. Saralovchi boshliq xodimlarni jo'natish, jihozlar va transport vositalarini voqeа joyiga yuboradi.

Asosiy chora tadbirlar, voqealoyidagi ko'p sonli jabrlanganlar, komanda punkti tashkillashtirilgan joyida amalga oshiriladi.

1. Komanda postiga ma'lumot berish.
2. Voqealoyida boshliqni tanishtirish, tayyorgarlik darajasini ko'rsatish.
3. Voqealoyida boshliqning ko'rsatmalariga riyoq qilish.

### Tibbiy saralashni 2 turi bor:

Punkt ichidagi va evakuatsion transport.

Punkt ichidagi saralashda jabrlanganlarni og'irligiga va atrofdagilar uchun xavfligiga qarab, jarohatlanish xarakteriga qarab guruhlarga ajratiladi.

Evakuatsion - transport saralashda - jabrlanganlarni holatiga qarab guruhlarga ajratiladi va evakuatsiya navbati belgilanadi. Transport turi, evakuatsiya yo'nalishi aniqlanadi. Bu saralash jarayonida jarohatlanuvchi tashhisi va holatiga e'tibor beriladi. Saralashning asosiy 3ta Pirogov belgilari mavjud.

- A) Atrofdagilar uchun xavfliliqi
- B) Davolash
- V) Evakuatsion

Atrofdagilar uchun xavfliliqa qarab guruhlarga bo'linadi.

-Maxsus sanitartishlovgaga muxtoj (qisman yoki to'liq).

-Vaqtinchalik izolyatsiyaga muxtoj (infektion yoki psixonevrologik izolyatorda)

-Maxsus (sanitar) ishlovgaga muxtoj bo'lmagan.

Davolash belgisi - jabrlanganlarni tibbiy yordamga muxtojlik darajasi, navbati va joylashgan joyi aniqlanadi.

Muxtojlik darajasi va evakuatsiya bosqichiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

-Shoshilinch tibbiy yordamga "muxtoj"

-Tibbiy yordamga muxtoj bo'lmagan.

-Simptomatik yordamga muxtoj, hayotga to'g'ri kelmaydigan jarohat olganlar.

-Evakuatsion belgi -evakuatsiya ketma-ketligi, transport turi va jarohatlanganlarni transportdagagi holatiga ahamiyat berish kerak.

Shundan kelib chiqib quyidagi guruxlarga bo'linadi:

-Zararlangan zonada evakuatsiyaga muxtoj, boshqa territoriyalarda, mahalliy davo muassasalarini yoki evakuatsion tavsiyaga ega bo'lgan shahar markazlarida.

-Davolovchi muassasada vaqtincha yoki oxirgi oqibatgacha qoldirish (og'irligi bo'yicha)

-Yashash joyiga olib borish yoki qisqa muddat tibbiy kuzatuv uchun tibbiy bosqichda qoldirish.

Tibbiy saralashning oddiy tizimi keltirilgan.

1. Yura oladimi?

-Ha=kechiktirilgan.

-Yo'q=ventilyatsiyani baholash.

2. Nafas bormi?

-Ha=30 tadan ko'p.

- Ha=shoshilinch

-Yo'q=qon aylanishini baholash.

-Yo'q=nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash.

3.Nafas bormi?

-Ha= shoshilinch

- Yo'q = o'lgan.

4.Qon aylanishi adekvatmi?

-Ha=hush darajasini baholash.

-Yo'q=shoshilinch



Katta fojcalarda jabrlanganlarni evakuatsiyasi uchun sanitar, jihozlangan va jihozlanmagan avtotransportlardan foydalaniлади. Jabrlanganlarni maxsus markazlarga olib borish uchun evakuatsiyada aviatsion transportlardan foydalaniлади. Jihozlanmagan transportlardan foydalanganda (yuk mashinalari, avtobuslar, temir yo'l transporti, suv transporti) jihozlangan choralar o'tkazish kerak: zambillarni joylashtirish uchun universal sanitar jihozlar, avtomobilni silkinishiga qarshi, kuzoviga yumshatuvchi ballast qo'yish, kuzovni bint bilan yopish, transportni mato bilan ta'minlash, jun ko'rpalar va boshqalar. Evakuatsiya vaqtida evatransporti saralash va qanday turdag'i transport, qanday holatda tashish kerakligini yoki bo'лmasa maxsus transportlarda tibbiy brigada kuzatuvida olib borish kerakligini aniqlash kerak.

Bunday shikoyatlar bo'лmaganda shu joyda gospital maydonda yordam ko'rsatishni davom ettirish kerak. Evakuatsiyada bolalar va homiladorlar katta ahamiyatga ega, keyin o'rtaча va engil jarohat olganlar.

Zambilli jarohatlanganlar transport shinalari bilan, gips bog'lamlari bilan salonnинг yuqori yaruslarda joylashadi. Zambilning bosh tomoni kabinaga qaragan va 10-15 sm oyoqdan balandoqda joylashishi kerak. Engel jarohatlanganlar (o'tirigidiganlar) oxirida o'tirigichlarga joylashtiriladi. Yuk mashinalarida yog'och o'tirigichlarda, yon bortlarga mahkamlangan holatda evakuatsiya amalga oshiriladi. Transport tezligi 30-40km/s. Albatta evakuatsiyalangan guruhda tibbiy yordam xodimi bo'lishi kerak. Evakuatsiyani umumiy qoidasi zambillarni o'zgartirmaslik xisoblanadi.

Ruxiy qo'зg'aluvchan holatdag'i bemorlarni evakuatsiyasida choralar ko'rildi, transportdan yiqlish ehtimolini istisno qilish kerak, (zambillar fiksatsiyasi, sedativ dorilar yuborish, engil jarohatlanganlar kuzatuvi).

Evakuatsiya "O'ziga" tamoyilida namoyon bo'ladi (tez yordam mashinasi, LPU, regional, tibbiy yordamni teritorial markazlari) va "O'zidan" (jaroxatlangan ob'ekt transportida, qutqaruchi guruh va boshqalar).

Notransportabel bemorlarga o'choqdan tashqaridagi gospital maydonda yordam ko'rsatiladi.

Jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish va saralash, yoki maxsus muassasalarga transportirovka qilish.

Quyidagilarga bo'linadi:

1. Yuqori ustunlik:

- (1) Nafas yo'llari va nafas muammolari.
- (2) To'xtatib bo'lmaydigan va jiddiy qon ketishlar.
- (3) Es-hushni susayishi.

2. Ikkinchchi ustunlik:

- (1) Nafas yo'llari o'tkazuvchanligi buzilmagan kuyishlar.
- (2) Massiv jarohatlanish yoki ko'p sonli kasallar, oyoq-qo'llar deformatsiyasi.
- (3) Bel jarohati.

3. Eng kam ustunlik:

- (1) Minimal kasallar, oyoq-qo'llar deformatsiyasi.
- (2) Yumshoq to'qimalarda kam o'zgarishlar.
- (3) O'lim.

Jabrlanganlar umumiyligi holatiga, jarohat tasnifiga, asoratlarga qarab quyidagi guruhlarga saralanadi:

1. Saralash guruhi - juda og'ir jarohatlanganlar, hayotga mos kelmaydigan jarohatlanishlar, uyqu arteriyasida puls bo'лmasligi bilan, bilak arteriyasida massiv qon ketishi bilan, letal oqibatlarga l necha daqiqada olib kelishi.

Bular davo va parvarishga muxtoj. Evakuatsiyaga muxtoj emas.

2. Saralash guruhi – og'ir jaroxatlar olganlar, organizmning hayotiy faoliyatlarining rivojlanuvchi buzilishlari, hushsiz, bilak arteriyasida puls yo'qligi, buni oldim olish uchun davo choralarini boshlash kerak. Busiz letal oqibat kelib chiqadi.
  3. Saralash guruhi – o'rta og'irlikdagi jaroxatlanganlar, funktksional buzilishlar bilan kechadi. Periferiyada puls aniqlanadi. Hushsiz, lekin hayotiga bevosita xavtsiz holatda. Tibbiy yordam 2 chi o'rinda ko'rsatiladi yoki ma'lum vaqtida. Oqibati nisbatan yaxshi.
  4. Saralash guruhi. Engil va o'rtacha jaroxatlanganlar, travmalar bilan, hushida, maxsus davo muassasalarida davolanishga muxtoj (engil jaroxatlanganlar shifoxonasida) hayot uchun oqibati yaxshi.  
Umumiylashtirilgan taysiyadagi transportda 2 chi o'rinda evakuatsiya qilinadi.
  5. Saralash guruhi. Engil jaroxatlanganlar ahamiyatsiz jarohatlar bilan. Hayot uchun oqibati yaxshi. Mehnat faoliyati tiklanuvchi. Ambulator davoga muxtoj. 2 chi o'rinda evakuatsiya qilinadi.
- O'ta xavfli infektsiya o'choqlaridagi bemorlar gospitilatsiya qilinmaydi yoki evakuatsiyaning maxsus yo'lidan o'tadi, to'xtovsiz, bemoming yig'ilgan ajralmalarini dczinfectsiyalovchi vositalar Bilan zararsizlantrish lozim.
- Yig'uvchi punktda tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.
1. 1-chi guruhga tibbiy xodimlar jalb qilinadi: tez yordamda ishlaydigan, xirurgiya reanimatsiyasida ishlaydigan. Birlamchi reanimatsiya o'tkaziladi.  
(ekspirator SO'V, YuYoM), tashqi qon ketishni to'xtatish (barmoq bosish, bosuvchi bog'lam, jut qu'yish), yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash (og'iz bo'shilig'i tozalash, tilni fiksatsiyalash Safar usuli, Geymlix va Labord usullaridan foydalansh.)
  2. 2-chi guruhga tibbiy xodim va hohlovchilar kiradi. Jismoniy zo'riqishni bajaradiganlar (erkaklar); jarohatlanganlarni oyog'iни ko'targan holatda yotqiziladi, siqib bint bog'laydi, ba'zida qo'llarni immobilizatsiya, improvizatsiyalangan shinalar qo'llaniladi.
  3. 3-guruhga tibbiy xodim va hohlovchi yordamchilar kiradi. Bu jabrlanganlarda qo'shimcha vaqt bor, ular tez yordam shifokorlarini kutishi mumkin. Jabrlanganlarni yonboshiga yotqiziladi. Qo'l va oyoqlar immobilizatsiyasi, sovuq suv bilan og'riqsizlantirilish o'tkazilib, terini butun joylari bog'lanadi.
  4. 4-guruhga tibbiy xodimlar faqat imkoniyatiga qarab olinadi. Registratsiya o'tkaziladi. Immobilizatsiya, sovuq suvda og'riqsizlantirish yoki parenteral dori yuborish.
  5. 5-guruhga tibbiy xodimlar faqat imkoniyatiga qarab olinadi. Jabrlanuvchilar ro'yxatdan o'tkaziladi. Og'riqsizlantiriladi. Hush nazorati o'matiladi. Bemorlar maxsus davo profilaktik muassasa olib boriladi.

#### Nazorat savollari:

1. Tibbiy ofatga ta'rif bering.
2. Tibbiy ofatlar tasnifi.
3. Jabrlanganlarga yig'uvchi punktni tashkillashtirish tamoyillari.
4. Jabrlanganlarga yig'uvchi punkt tashkillashtirish qoidalari.
5. Jabrlanganlarni punkt ichida saralash usullari va qoidalari.
6. Punkt ichida shoshilinch yordamning usullari va qoidalari.
7. Evakuatsion saralash qoidalari.
8. Evakuatsiya qoidalari.
9. Mobilizatsiya qoidalari va favqulodda vaziyatlar haqida.
10. Gospital saralash qoidalari.

## SHOK VA KON KETISH

Shok - impreyalarining kislород ва озуни moddalarga boy bo'lgan qon bilan noadekvat perfuziyasi, hamda to'qimalardan modda almashinuvni jarayoni natijasida hosil bo'lgan qoldiq mabsudotlarning noadekvat chiqarib tashlanishi oqibatida rivojlanadi. Aksariyat holatlarda shok qon ketishi oqibatida yuzaga keladi. Shuningdek umumiy qon hajmi pasayishiga yurak zarbining pasayishi, yirik qon tomirlar obstruktsiyasi, pereferik tomirlar qarshiligining pasayishi, og'ir eksikoz va og'ir diabetik holatlар ham sababchi bo'lishi mumkin. Bolalarda shok klinikasi kattalarga nisbatan kam nomoyon bo'ladi. Tashhis qo'yish uchun boshlang'ich belgilari etarli bo'lmaydi, shuning uchun diqqat bilan anamnez yig'ish va fizikal tekshiruvlar o'tkazish lozim. Bolalarda kompensator mexanizmlar yaxshiligi sabab, shok klinikasini hamma vaqt ham aniqlashning iloji yo'q va shuning natijasida shokga, qarshi chora tadbirlar ko'pincha o'z vaqtida o'tkazilmaydi. AQB ning pasayishi bolalarda shokning kechki davrlarida kuzatiladi. Shuning uchun bolalarda erta shokni va shoshilinch holat belgilarini o'z vaqtida aniqlash juda muhimdir.

**Tavsiy:** Shok- bu noadekvat pereferik perfuziya bo'lib, bunda kislород ta'minlash miqdori organizmning metabolik chtiyorlarini qondira olmaydi.

**Shokning quyidagi turlari farqlanadi:**

1. **Gipovolemik shok:** aylanuvchi qon hajmi keskin kamayib, yurakgacha bo'lgan zo'riqishning pasayishi kuzatiladi ( o'tkir qon yo'qotish, suvsizlanish, anasarka, kuyish va dermolizlangan teri orqali plazma yo'qotilishi).
2. **Kardiogen shok:** yurakning zarb hajmi kamayishi natijasida yurak etarlicha qon haydab bera olmaydi va yurakdan keyingi zo'riqish pasayib ketadi ( aritmiyalar, miokard ishemiyasi, zaharlanishlar)
3. **Vazogen (taqsimlovchi) shok:** periferik qon tomirlar kengayishi natijasida ularning qarshiligi keskin kamayadi va shok holati kelib chiqadi ( sepsis, infektion taksikoz, anafilaksiya, bosh miya simpatik innervatsiyasi susayishi /neyrogen shok/, orqa miya jarohati /spinal shok/, tomir kengaytiruvchi vositalarni ko'p qabul qilish)
4. **Obstruktiv shok** – yurak va katta qon tomirlarda qon oqishiga to'siq bo'ladigan hollarda kelib chiqadi (o'pka arteriyasi emboliyası, yurak tomponadasi , pnevmotoraks).

Bolalar va kattalarda shok sabablari bir hil bo'lsada, uchrash ehtimoli har hildir.

**Gipovolemia** - bolalarda eng ko'p shokga olib keluvchi holat bo'lib, aylanuvchi qon hajmi kamayishi bilan ta'riflanadi.

Sepsis – shokga olib keluvchi sabablardan ikkinchi o'rinda turadi va bolalarda immun tizim yaxshi rivojlanmaganiqligi bilan izohlanadi.

**Kardiogen shok** – bu bolalarda kam uchraydigan holat bo'lib, yurakning haydash faoliyatining birlamchi buzilishidir.

- Gipoksiya
- Atsidoz
- Gipoglikemiya
- Gipotermiya
- Preparatlarning toksik ta'siri natijasida.

**Neyrogen shok** – bolalarda kam uchrab, orqa miya jarohati natijasida klib chiqadi.

**Gipoglikemiya** – bu shok emas, lekin klinik belgilari shokga o'xshash.

**Hushning buzilishi.**

- Rangparlik
- Taxikardiya
- Ko'p terlash

**Bolalarda shokning xususiyatlari:**

- Erta shokni aniqlash juda qiyin.
- Yurak-qon tomir sistemasining yaxshi kompensatsiyasi
- Bolalarda shokning kompensator davri juda tcz dckompensatsiya davriga o'tadi.

**Bolalarda shokning erta belgilari**

- Taxikardiya – buni aniqlash uchun normal ko'rsatkichlar jadvaliga ega bo'lish kerak.
  
- Kapilyar sinama, kapilyarlarda qon aylanish tiklanishi sekinlashadi (2soniyadan ko'p).
- Teri rangpar, marmarsimon, oyoq – qo'llarning sovuq bo'lishi.
- Taxipnoe

**Kechki belgilari:** .

- Percferiyada puls sust yoki aniqlanmaydi.
- Hushini buzilishi.
- Gipotensiya – kechki belgi, yurak to'xtashiga sabab bo'lishi mumkin.
- Birlamchi baholash orqali shok borligini aniqlash mumkin. Ammo shok sababini birlamchi baholashda aniqlab bo'lmaydi. Shokga shubha paydo bo'lganda- gipovolemiyaga qarshi davo o'tkazilishi lozim.

**Bolalarda shok sabablari:**

**Ko'p uchraydigan sabablar:**

## SHOK VA KON KETISH

Shok hujayralarning kislorod va ozuqa moddalarga boy bo'lgan qon bilan noadekvat perfuziyasi, hamda to'qimalardan modda almashinuv jarayoni natijasida hosil bo'lgan qoldiq mahsulotlarning noadekvat chiqarib tashlanishi oqibatida rivojlanadi. Aksariyat holatlarda shok qon ketish oqibatida yuzaga keladi. Shuningdek umumiy qon hajmi pasayishiga yurak zARBining pasayishi, yirik qon tomirlar obstruktsiyasi, pereferik tomirlar qarshiligining pasayishi, og'ir eksikoz va og'ir diabetik holatlар ham sababchi bo'lishi mungkin. Bolalarda shok klinikasi kattalarga nisbatan kam nomoyon bo'ladi. Tashhis qo'yish uchun boshlang'ich belgilari eterli bo'lmaydi, shuning uchun diqqat bilan anamnez yig'ish va fizikal tekshiruvlar o'tkazish lozim. Bolalarda kompensator mehanizmlar yaxshiligi sabab, shok klinikasini hamma vaqt ham aniqlashning iloji yo'q va shuning natijasida shokga qarshi chora tadbirlar ko'pincha o'z vaqtida o'tkazilmaydi. AQB ning pasayishi bolalarda shokning kechki davrlarida kuzatiladi.

Shuning uchun bolalarda erta shokni va shoshilinch holat belgilarini o'z vaqtida aniqlash juda muhimdir.

**Tavsiy:** Shok- bu noadekvat pereferik perfuziya bo'lib, bunda kislorod ta'minlash miqdori organizmning metabolik ehtiyojarini qondira olmaydi.

### **Shokning quyidagi turlari farqlanadi:**

1. **Gipovolemiik shok:** aylanuvchi qon hajmi keskin kamayib, yurakgacha bo'lgan zo'riqishning pasayishi kuzatiladi ( o'tkir qon yo'qotish, suvsizlanish, anasarka, kuyish va dermolizlangan teri orqali plazma yo'qotilishi).
2. **Kardiogen shok:** yurakning zarb hajmi kamayishi natijasida yurak eterlicha qon haydab bera olmaydi va yurakdan keyingi zo'riqish pasayib ketadi (aritmiyalar, miokard ishemiyasi, zaharlanishlar)
3. **Vazogen (taqsimlovchi) shok:** periferik qon tomirlar kengayishi natijasida ularning qarshiligi keskin kamayadi va shok holati kelib chiqadi (sepsis, infektsion taksikoz, anafilaksiya, bosh miya simpatik innervatsiyasi susayishi /neyrogen shok/, orqa miya jarohati /spinal shok/, tomir kengaytiruvchi vositalarni ko'p qabul qilish)
4. **Obstruktiv shok** – yurak va katta qon tomirlarda qon oqishiga to'siq bo'ladigan hollarda kelib chiqadi (o'pka arteriyasi emboliyasi, yurak tomponadasi , pnevmotoraks).

Bolalar va kattalarda shok sabablari bir hil bo'lsada, uchrash ehtimoli har hildir.

**Gipovolemiya** - bolalarda eng ko'p shokga olib keluvchi holat bo'lib, aylanuvchi qon hajmi kamayishi bilan ta'riflanadi.

**Sepsis** – shokga olib keluvchi sabablardan ikkinchi o'rinda turadi va bolalarda immun tizim yaxshi rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

**Kardiogen shok** – bu bolalarda kam uchraydigan holat bo'lib, yurakning haydash faoliyatining birlamchi buzilishidir.

- Gipoksiya
- Atsidoz
- Gipoglikemiya
- Gipotermiya
- Preparatlarning toksik ta'siri natijasida.

**Neyrogen shok** – bolalarda kam uchrab, orqa miya jarohati natijasida kelib chiqadi.

**Gipoglikemiya** – bu shok emas, lekin klinik belgilari shokga o'xshash.

- Hushning buzilishi.

- Rangparlik
- Taxikardiya
- Ko'p terlash

#### **Bolalarda shokning xususiyatlari:**

- Erta shokni aniqlash juda qiyin.
- Yurak-qon tomir sistemasining yaxshi kompensatsiyasi
- Bolalarda shokning kompensator davri juda tez dekompensatsiya davriga o'tadi.

#### **Bolalarda shokning erta belgilari**

- Taxikardiya – buni aniqlash uchun normal ko'rsatkichlar jadvaliga ega bo'lish kerak.
- Kapilyar sinama, kapilyarlarda qon aylanish tiklanishi sekinlashadi (2soniyadan ko'p).
- Teri rangpar, marmarsimon, oyoq – qo'llarning sovuq bo'lishi.
- Taxipnoe

#### **Kechki belgilari:**

- Pereferiyada puls sust yoki aniqlanmaydi.
- Hushini buzilishi.
- Gipotensiya – kechki belgi, yurak to'xtashiga sabab bo'lishi mumkin.
- Birlamchi baholash orqali shok borligini aniqlash mumkin. Ammo shok sababini birlamchi baholashda aniqlab bo'lmaydi. Shokga shubha paydo bo'lganda- gipovolemiyaga qarshi davo o'tkazilishi lozim.

#### **Bolalarda shok sabablari:**

#### **Ko'p uchraydigan sabablari:**

- Diareya va suvsizlanish
- Jarohat (asos -qorin bo'shlig'i jarohatlari)
- Qusish
- Qon yo'qotish
- Infektsiya

**Kam uchraydigan sabablar:**

- Allergik reaktsiyalar
- Zaharlanishlar
- Kardiologik buzilishlar

**1- jadval**

**Shokning gemodinamik buzilish bosqichlari**

Buzilish bosqichi	Aylanuvchi qon hajmi defitsiti	Qon aylanishining klinik xarakteristikasi
Qon aylanishining markazlashuvi	Me'yoriga nisbatan 25%-ga-15ml/kg	AQB me'yorda, taxikardiya, terini rangparligi yoki marmarligi, oyoq-qo'li sovuq, oliguriya
O'tuvchi	Me'yoriga nisbatan 30%-ga- 25ml/kg	Bola tormozlangan, puls ipsimon, teri rangpar akrotsianoz, SAB me'yordan past
Qon aylanishning detsentralizatsiyasi		SAB 60 mm rt st-dan past. teri va shilliq qavatlar tsianozi, «gipostazlar», anuriya
Terminal bosqich	Me'yoriga nisbatan 45%dan ortiq-35ml/kg	Agonal holat klinikasi

**Gipotensiya va shokda shoshilinch yordam**

- Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini baholash
- Nafas adekvatligini baholash. Pulsoksimetriya.
- Qon aylanishini baholash. Kardiomonitor-EKG, AQB
- Hayotiy funksiyalarni baholash

**Anamnez**


**Shokda shoshilinch yordam algoritmi**

**Gemodinamik buzilish**

**Gipovolemiya**

**sababini bartaraf qilish**

**Bradikardiya yoki**



#### Bolalarda shok davrlarining kechish xususiyatlari

*Kompensatsiyalangan shok* – shokning erta bosqichi. Bolalarda shokning bu bosqichida me'yoriy perfuziya yurak urish soni va nafas olish soni oshishi hamda miya va yurakni qon bilan ta'minlanishini ushlab turuvchi vazkonstriktiya hisobiga saqlanib turadi. Bolalarda kattalarga nisbatan kompensator davr uzoqroq davom etadi. Bolaning zahira imkoniyatlari tugaganidan so'ng, unchalik uzoq davom etmaydigan dekompensatsiya davri boshlanadi.

Erta shokning belgi va simptomlari (bezovalik, taxikardiya, taxipnoe, kapillyarlarining qonga to'lishish vaqtida uzayishi) bilinmasligi yoki qiyinchilik bilan aniqlanishi mumkin. Shokning bu davrini o'z vaqtida aniqlash orqali keyingi bosqichning oldini olish mumkin.

*Dekompensatsiyalangan shok*. Shokning bu bosqichi bolalarda uzoq davom etmaydi va to'qima perfuziyasini ta'minlab turgan kompensator imkoniyatlar tamom bo'lishi bilan tushuntiriladi. O'z vaqtida yordam ko'rsatmaslik oqibatida nafas va qon aylanishi faoliyatni to'xtashi kuzatilishi mumkin. Bu bosqichning asosiy belgisi – hush darajasining og'ir buzilishi va arterial qon bosimning pasayishi hisoblanadi. Belgilarni aniqlash qiyinchilik tug'dirmasada (gipotensiya, hush darajasining buzilishi, bilak va elka arteriyasida puls aniqlanmasligi, tsianoz), qisqa vaqt ichida qaytmas shok bosqichi boshlanadi.

**Qaytmas shok** - bu organlar etishmovchiligi holatining hayot faoliyatini butunlay to'xtashiga o'tishi bilan kechadigan holat. Bu davrda shok belgilari aksariyat hollarda yashirin kechadi va shuning uchun doimiy monitoring o'tkazishni talab etadi(hush darajasi, nafas soni, teri sinamalari, distal va proksimal puls, kapillyar sinama, shilliq qavatlar holati, yig'laganda ko'z yoshi bor-yo'qligi). Kompensator imkoniyatlar tugaganidan keyin bolalarda tezda qon aylanishi va nafas to'xtashining rivojlanishi talvasa, quşish va ichak parezi bilan birga kechadi.

#### **Shok asosiy belgilari:**

Nafas tezlashishi

Teri rangpar, yopishqoq, nam va muzdek

Periferiyada puls sust yoki aniqlanmaydi

Mikrotsirkulyatsiyaning tiklanish vaqtida sekinlasligan.

Diurez kamayishi. Ota-onasidan ishlatalgan tagliklar sonini surash va tagliklarni tortib ko'rish orqali o'lchanadi.

Hush buzilish darajasi

Yig'laganda ko'z yoshining bo'lmasligi.

#### **Davrlari buyicha shokning belgilari :**

Kompensatsiyalangan shok (erta):

- Qo'zg'aluvchanlik,yig'lash

Taxipnoe, sust periferik puls, kapillyar sinama uzayishi, arterial bosim mc'yoriy ko'rsatkichlarda

Dekompensatsiyalangan shok (kcchki):

- Hush darajasini buzilishi, mushaklar gipotoniyasi, vizual aloqani yo'qligi
- Og'ir taxipnoe va noadekvat nafas
- Periferiyada puls bo'lmasligi, markaziy arteriyada puls sustligi
- Arterial bosim pasayishi
- Teri rangi dog'li yoki tsianotik bo'lishi

Qaytmas shok (sovug):

- Holsizlik,hushni xiralashishi, yoki butunlay yo'qolishi (hushsiz)
- Nafas etishmovchiligi, taxipnoedan bradipnoegacha bo'lishi mumkin.
- Markaziy arteriyalarda pulsning keskin pasayishi yoki butunlay yo'qolishi, terining kulrang yoki dog'li bo'lishi, yurak faoliyati to'xtashi kuzatiladi.

#### **Bolalarda shok holatlari shoshilinch yordam tamoyillari:**

Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash.

- Kislorod berish va ventilyatsiyani ta'minlash

- Yuqori oqimli kislorod berish bilan sun'iy o'pka ventilyatsiyasi /IVL/ni o'tkazishga tayyor bo'lish
- Aspiratsion sanatsiya uchun asbob uskunalarni tayyorlash
- Jarohatni bog'lash va qon to'xtatish
- Oyoqlarni ko'tarish (Trendelendburg holati)
- Issiqlik yo'qotmaslik uchun bemorni ko'rpa bilan o'rash.
- Shifoxonaga shoshilinch olib borish jarayonida doimiy yordam ko'rsatish va monitoring baholashni amalga oshirish.

**Bolalarda shok holatida shoshilinch yordam bayonnomasi:**

- A- qadam - nafas yo'llari
- Ochish, tozalash, o'tkazuvchanlikni ta'minlash
  - Noinvaziv usullar (engakni ko'tarish, pastki jag'ni oldinga tortish)
  - Invaziv usullar endotracheal intubatsiya
- V- qadam – nafasni quvvatlash
- 100% li kislorod ingalyatsiyasi
  - nafas faoliyati susayganda ventilyatsiya
- S - qadam – qon aylanishi
- Kardiomonitor ulash va yurak ritmini baholash
  - Ko'rinyotgan qon ketishlarni to'xtatish
  - Oyoqni ko'tarish
- D – qadam – suyuqlik reanimatsiyasi
- Voqeja sodir bo'lgan joyda vaqtini yoddha tutish
  - Suyak ichiga yo'l ochish /kirish/
  - 20 ml/kg xisobida suyuqliknini bolyus yuborish (fiziologik eritma yoki Ringer-laktat eritmasi)
  - Ko'p yo'l qo'yildigan xatolik- bu infuziya hajmining etarli bo'lmasligidir

**Qayta baholashda, nazorat:**

- Perfuziyaning yaxshilanishini
- Respirator distress borligi
- Qondagi glyukoza (agar gipoglikemiya bo'lsa ( $<2.5-3.3 \text{ mmol/l}$ )- 25% glyukoza yuborish, bolalarda 40% glyukozani qo'llash mumkin emas.

**Shifoxona bosqichida**

**shokni sababini aniqlash lozim**

Shok turi	1 oydan kichik bolalar	1 oydan katta bolalar
-----------	------------------------	-----------------------

<b>Gipovolemik</b>		
Qon yo'qotish	Miyaga, yo'ldoshga qon quyilishi, fetofetal va fetoplatsentar transfuziya	Gemofiliyada jarohatlar, jigar va taloq yorilishi. Chanq suyaklari sinishi, buyrakdan qon ketish, bachadondan tashqari homiladorlik. Oshqozon – ichakdan qon ketish. Uroq xujayrali anemiyyada sekvestra tsion krizlar.
Suyuqlik yo'qotish	Gastroenterit, qorin devorini tug'ma nuqsoni, kindik churrasi, orqa miya churrasi	Gastroenterit, og'ir kuyishlar, qandli va qandsiz diabet, mukovistsidozda ko'p terlash, nefrotik sindrom.
Periferik tomirlar umumiyligi qarshiligi pasayishi	Sepsis, buyrak usti bezlarini po'stloq qavati gipoplaziysi, MNS shikastlanishi	Sepsis, anafilaktik shok, gipoadrenal kriz, MNS shikastlanishi, dori moddalarini nojo'ya ta'siri.
<b>Gipervolemik, normavolemik</b>		
Yurak etishmovchiligi	Endokardial fibroz, virusli infektsiyalar, yurakning tug'ma nuqsonlari, sepsis, gipoglikemiya	Virusli infektsiyalar, manfiy inotrop ta'siriga ega bo'lgan dorilar, koronal etishmovchilik, sepsis, gipoglikemiya, gipokaltsemiya.
Aritmiyalar	Paroksizmal qorinchcha usti taxikardiyasi va boshqa aritmiyalar, dori moddalaridan zaharlanish, sepsis.	Paroksizmal qorinchcha usti taxikardiyasi va boshqa aritmiyalar, dori moddalarini nojo'ya ta'siri.
Qon oqimiga to'siq	Aorta koarktatsiyasi, og'ir aortal stenozlar, yomon sifatlari arterial gipertoniya	Aorta koarktatsiyasi, aortal stenoz, gipertrofik kardiomiopatiya, TELA, o'pka-yurak (masalan, bronxial astmada), mukovistsidoz, yomon sifatlari arterial gipertoniya.
Metabolik ehtiyojlarni ortishi	Og'ir anemiya, tireotoksikoz	Og'ir anemiya, tireotoksikoz, zaharlanish.

#### Tekshirish va tashhislash

- Anamnez.** Kasallik boshlanishi, suyuqlik qabul qilish va uni axlat, peshob va qusuq massalari bilan yo'qotilishi, surunkali kasalliklar, dori moddalarini qabul qilishni o'z ichiga oladi.
- Fizikal tekshiruv.** Tana vazni va harorat o'lchanadi. Puls, yurak tonlari, nafas soni, AQB, ortostatik AB o'zgarishlari, periferik qon aylanishi baholanadi, auskultativ tekshiruvlar o'tkaziladi. Es-hushi va qorachiqlarini yorug'likka reaksiyasi baholanadi. Tekshirishni davriy ravishda qaytarish lozim.
- Laborator va instrumental tekshiruv**
  - Arterial qonda gazlar miqdori aniqlanadi.
  - Umumiy qon tahlili o'tkaziladi

v) Elektrolitlar miqdori, plazmada gliukoza AMK, kreatinin, yurak izofermentlarning faolligi, qonda jigai fermentlari miqdori, PV, AChTV, PDF, aniqlanadi, toksikologik tekshiruv o'tkaziladi.

g) Ko'krak qafasi rentgenografiyasida yurak o'lchami va o'pkada qon aylanish baholanadi.

#### **G. Monitoring**

1. YuUS. AQB. nafas soni, tana harorati baholanadi va kuzatuv varaqasiga natijalar yoziladi

a) harorat

b) nafas soni

v) YuUS (EKG bo'yicha)

g) AQB. Bolalarda AQB monitoringi uchun eng yaxshi usuli - arteriya kateterizatsiyasi hisoblanadi. Agar buni iloji bo'lmasa AQB noinvaziv usul bilan o'lchanadi (ba'zanDoppler tekshiruvidan foydalaniлади).

d) suyuqliq qabul qilishi va ajratishi, har soatda diurez o'lchanadi, nozagastral zond orqali yo'qotilgan suyuqlik o'lchanadi. Tashhislash va davolash maqsadida amalga oshirilgan yo'qotilgan qon baholanadi.

2. Ba'zida Svan-Gantsa kateteri qo'yiladi va MVB /TsVD/ o'lchanadi

#### **D. Davolash.**

1. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash. Albatta kislorod tayinlanadi, traxeya intubatsiyasi va SO'V ni o'tkazish kerak bo'ladi.

2. Gipovolemiyani bartaraf qilish. Yurak etishmovchiligi bo'limganda tezda izotonik eritma yuboriladi (fiziologik critma yoki Ringer laktat) 10-20 ml/kg v/i yoki suyak ichiga oqim bilan.

a) Agar ahvoli yaxshilanmasa, davoni davom ettrishdan oldin markaziy venaga kateter o'matiladi.

1) Agar MVB 5 mm sm us. dan kam bo'lsa suyuqliknini MVB 5 mm sm. us dan oshguncha yuboriladi.

2. Agar MVB 5 sm sm.us. dan ko'p bo'lsa, quyidagi chora tadbirlar o'tkaziladi

#### **Inotrop va vazopressor dorilar tayinlanadi**

Preparat	Bolalardagi doza	Kattalardagi doza	Ta'sir mexanizmi	Ko'rsatma	Nojo'ya ta'siri
Adrenalin	0.1-1 mkg/kg/min	1-4mkg/min	Alfa- va beta adrenostimulyatorlar YuUS, periferik tomirlar umumiy qarshiligini (PTUQ) va miokardning qisqaruvchanligini oshiradi	Anafilaktik shokda arterial gipotoniya, miokard qisqaruvchanligi kamayishida, bradikardiya	Qorinchalar aritmiyasi koronar va buyrakda qon aylanishi kamayadi.
Noradrenalin	0.1-1 mkg/kg/min	1-4mkg/min	Alfa- adrenostimulyator	Arterial gipotoniya	Qorinchalar aritmiyasi

			YuUS va PTUQni oshiradi.	(PTUQ kam bo'lganda)	Gipovolemiya ,Gipotoniya
Izoprenalin	0,1-1 mkg/kg/min	1 nmkg/min	Beta-adrenostimulyator YuUS va miokard qisqaruvchanligini oshiradi va tonusini pasaytiradi.	Bradikardiya miokard qisqaruvchanligi pasayganda	Qorinchalar aritmiya gipovolemiya arterial gipotoniya
Dofamin	0,1-1 mkg/kg/min	1 nmkg/min	Dofamin retseptorlarning stimulyatori koronar va buyrak va boshqa organlarda qon oqishini ko'paytiradi	Periferik perfuziya buzilishida buyrakda qon aylanishni oshirishga harakat qilmaganda	
	5-15 mkg/kg/min	5-15 mkg/kg/min	Beta-adrenostimulyator miokard qisqaruvchanligini va YuUSni oshiradi	Bradikardiya miokard qisqaruvchining i va YuUSni oshiradi	Qorinchalar aritmiyasi
	15-20 mkg/kg/min	15-20 mkg/kg/min	Alfa - va beta-adrenostimulyator PTUQ va miokard qisqaruvchanligini oshiradi.	Arterial gipotoniya bradikardiya miokard qisqaruvchanligi kamaytiradi	Qorinchalar aritmiyasi, toj tomir va buyraklarda qon aylanishini kamaytiradi
Dobutam in	1-20 mkg/kg/min	1-20 mkg/kg/min	Dofaminga o'xshash, dofaminretseptori stimulyatsiya qilmaydi kam alfa-adrenergik faoliikkaga va YuUS ham ta'sir qildi.	Miokard qisqaruvchanlik ni pasaytiradi.	Qorinchalar aritmiyasi.

b) miokardit, yurak tompanadasi, metabolik buzilishlar, aritmiyalar istisno qilinadi.

v) qorinchalar faoliyati baholanadi (ExoKG yordamida)

g) Svang'-Gans katetri qo'yiladi.

3. Shok aniqlanadi va sababi bartaraf qilinadi

### Qon ketish

#### Qon ketish tasnifi:

- Tashqi
- Ichki qon ketish farqlanadi.

#### Ichki qon ketish belgilariini tekshirish:

- Bilak-panja bo'g'imida

- Chov sohasida
- Tepa sohasida
- Qo'ltiq osti chuqurchasida

#### **Belgilari:**

- Bemor ahvolini yomonlashishi tomoniga yo'nalgan
- Jarohat sohasidan pastda puls susaygan yoki yo'qolgan
- Jarohat sohasidan pastda teri rangi o'zgargan
- Jarohat sohasidan pastda harakat pasaygan
- Jarohat sohasidan pastda sezuvchanlik buzilgan
- Jarohat qismidan pastda mushaklar kontrakturasi (to'qimalar ishemiyasi).

#### **Qon ketish turlari**

- Arterial
- Venoz
- Ko'p jarohatlashga aralash qon ketish xos.

#### **Arterial qon ketish**

Arteriyalar- yuraqdan a'zolarga qon olib boruvchi tomir hisoblanadi. Yirik arteriyalar jarohati hayot uchun o'ta xavfli hisoblanadi.

- Son, elka, uyqu arteriyalarning jarohatlanishi, bu hollarda bir necha daqiqada o'lim sodir bo'lishi mumkin

#### **Arterial qon ketish belgilari**

- Arterial qon och qizil rangda «fontansimon»
- Qon pulsatsiyasi puls chastotasiga mos keladi

#### **Venoz qon ketish belgilari**

- Qon sekin va bir maromda oqadi
- Qon to'q rangda bo'ladi

#### **Qon to'xtatish usullari**

Jarohatni bosib turish.

- Qattiq bog'lam va qattiq tamponlash
- jarohatga salvetka qo'yish yoki bosish orqali qonni to'xtatish. Buning natijasida jarohatlangan tomir orqali qon ketishi to'xtatiladi, jarohatlangan tomir devorini trombotsitlar bilan berkitilishi ta'minlanadi. Imkon bo'lsa bosuvchi bog'lamni steril bog'lovchi materialdan foydalanilgan (yoki toza mato) holda amalga oshirgan ma'qul (boib turish ko'z va bosh miya jarohatlarida qo'llanilmaydi).

Oyoq-qo'llarni bosib turishni bir maromda ushlab turish uchun qo'shimcha ravishda shinalar yoki pnevmatik kostyumlar qo'llaniladi. Bosib turishni qon to'xtaguncha yoki shifoxonaga etib borguncha amalga oshirish kerak.

- **Immobilizatsiya (shinalash)**
- **Har qanday harakat oyoq-qo'llarda qon oqimni kuchaytiradi.** Bundan toshqari tomirlas jarohatida qon ivish jarayoni buziladi.

Harakatlар jarohatlangan томирни qo'shimcha jarohatlashi mumkin.

Oyoq qo'llarni shinalash qon ketishini kamaytiradi. Bunday holarda pnevmatik shinalar yoki boshqa shinalar ham yordam beradi.

- **Oyoqni yuqoriga ko'tarish**

Intensiv venoz qon oqishni oyoq-qo'llami yurak sohasidan yuqoriga ko'tarish orqali kamaytirish mumkin. Bu usul to'g'ridan- to'g'ri bosish bilan samarali hisoblanadi.

- Arteriyalardan qon ketishda barmoq bilan bosish
- Oyoq-qo'llarni valik yordamida maksimal bukish
- Bukilgan sohadagi arteriyalarni bosish.

#### **Diqqat:**

Jarohatga bosuvchi bog'lam qo'yish qon tuxtatishni to'liq bartaraf qilmaydi. Agar bitta arteriyadan oziqlanadigan bir nechta jarohatlar bo'lsa lokal bosish samara beradi. Bunda arteriya tomiri yaqinida qandaydir qattiq struktura /suyak/ joylashgan degan tushuncha asosida yordam ko'rsatiladi.

#### **Namunalar:**

- Boshning teri qoplami sohasidan qon ketsa ensa sohasiga bosiladi, chunki bunda ensa arteriyasi bosiladi.
- Elka arteriyasi , bilak jarohatlarida elka suyagi ustiga bosiladi.
- Son arteriyasidan qon ketishida – oyoqlar jarohatlanganda son va chanoq suyagiga bosish lozim .

Muz (muzli xalta) og'riqsizlantirish uchun qo'llaniladi

#### **Diqqat:**

Sovuq /muzli xalta/ qo'yishda shuni yodda tutish kerakki, 40-45 daqiqadan keyin sovuq ta'siri tomirni dilatatsiyasiga (kengayishga) olib keladi. Muz 30 daqiqadan ko'p qo'llanilmaydi.

**Jgut qo'yish.** Jgut boshqa usullar samara bermaganda qo'yiladi. Jgut qon tomir va nervlarni jarohatlashi mumkin.

Jgut bo'sh qo'yilsa faqat venani siqib qo'yib, yanada qon oqish intensivligini kuchaytirish mumkin. Jgutni hayot uchun xavfli holatlarda oxirgi vosita sifatida qo'llash mumkin.

**Jgut qo'yishga ko'rsatma:** qon ketishini boshqa usullarda to'xtatishning iloji bo'lmasa

- Pozitsion bosish sindromi (bosish 3 soatdan ko'p, panja va tovon uchun 5 soatdan ko'p)
- Oyoq qo'llarning hayotga qodirsizligida va amputatsiyasida.

### **Jgut qo'yish shartlari**

#### **Diqqat:**

- yalong'och tanaga jgut qo'yib bo'lmaydi
- teri burmasiz bo'lishi kerak (tckis)
- maydon sochiq yoki doka bilan o'raladi
- jgutni o'rash pastdan yuqoriga qarab amalga oshiriladi
- jgut chetlari osilib qolmasligi kerak
- Ich'i va 2 -chi o'ram zich bog'lanadi
- keyingisi tortilmasdan bog'lanadi
- jgut to'g'ri qo'yilganligi-bu qon to'xtashi bilan nomoyon bo'ladi
- kichkina qog'ozga- qo'yilgan vaqt, sanasi, bemorni ismi yoziladi
- Bu qoidalar pozitsion bosish sindromida, oyoq-qo'llarni hayotga layoqatsizligida qo'llanilmaydi.
- Har 45 minutda jgut 3-5 minutga, qon aylanishni tiklanishi uchun bo'shatiladi
- Har bo'shashtirilgandan so'ng yana bintilanadi va yangi bog'lam qo'yiladi
- Jgut qo'yishning umumiy vaqt 2 soat

#### **Burun qon ketishi**

- Burun qonashi jarohat natijasida, qon ivishi buzilishi, gipertoniya va boshqa kasalliklar yoki kuchli jismoniy zo'riqish natijasida kelib chiqadi. Qayta qon ketishlarda uni sababini aniqlash va shifokorga murojaat qilish kerak.

#### **Burundan qon ketganda yordam:**

- O'zini xavfsizligini ta'minlash
- Bemorni tizzasiga cho'kkalab o'tqazish va boshini pastta egish.
- Qon ketayotganda burun katagiga sovuq suvga botirilgan paxtali tampon qo'yiladi, bormoq bilan bosiladi, shu holatda 5 daqiqa ushlab turiladi.
- Burun sohasiga ho'l latta bo'lagini qo'yish mumkin.
- Bemorlarni gorizontal holatda va boshini orqaga ekgan holatda qo'ymaslik kerak, chunki qon oshqozonga ketib bemor quisishi mumkin.
- Agar qon tez va ko'p kelayotgan bo'lsa tezda ShTYo chaqirish kerak /tel.03/

#### **Nazorat savollari**

1. Shok tavsifi
2. Shok tasnifi

3. Bolalarda shok rivojanish sababları
4. Bolalarda shokning o'ziga xos kechishi
5. Bolalarda shokning turli davrlari
6. Gospital bosqichda bolarda shokni baholash tamoyillari
7. Qon ketish tasnifi
8. Tashqi qon ketishda shoshilinch yordam va diagnostika
9. Ichki qon ketishda shoshilinch yordam va diagnostika.-

## **BOLA HAYoTIGA XAVF SOLUVChI YuRAK ARITMIYALARI**

Bolalarda turli aritmiyalar uchrashi mumkin, lekin ulardan faqat ba'zilari shoshilinch tibbiy aralashuvni taqazo etadi. Bu turdag'i aritmiyalar impuls hosil bo'lishi yoki o'tkazilishining buzilishi hisobiga kelib chiqadi.

- **Ekstrasistoliya va taxiaritmiyalar** avtomatizm kuchayishi, qo'zg'alishning qayta kirishi yoki trigger aktivlik hisobiga impuls hosil bo'lishining buzilishidan kelib chiqadi.
- **Bradiaritmiyalar** avtomatizm so'nishi yoki impuls blokadasida yuzaga keladi.

Aritmiyalar yurak kasalliklari, metabolik buzilishlar yoki orttirilgan tizimli kasalliklar belgisi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Shoshilinch holat sababi turlicha bo'lib, ularga xos ritm buzilishi gemodinamik buzilishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ritmnini aniqlash va uning buzilishlarini bartaraf etishga asoslangan shoshilinch yordam ustunroq hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarga asoslangan shoshilinch yordam ko'rsatish umumiy algoritmi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

Birlamchi ABCD baholash («S» qadamda – bemorni kardiomonitoriga ularsh)

Ikkilamchi ABCD baholash («S» qadamda – ritmnini qayta baholash va bemorni gemodinamik stabilligini baholash, «D» qadamda defibrillyatsiya, kardioversiya, antiaritmik dori vositalarini qo'llash yoki infuziya o'tkazilinadi).

Anamnez va fizikal ko'rvg'uga asoslangan holda sabablarini aniqlash.

Shoshilinch yordamga muhtoj aritmiyalar 3 guruhga bo'linadi:

- Letal aritmiyalar
- Stabil va nostabil taxiaritmiyalar
- Kardio-respirator belgilari bilan kechuvchi bradiaritmiyalar

### **Letal aritmiyalar**


Bu ritm guruhlari klinik o'lim bilan kechadi. Agar birlamchi ABCD baholashda verbal-taktik ta'sirga javob bo'lmasa, apnoe aniqlansa, markaziy arteriyada puls aniqlanmasa, nafas yo'llari o'tkazuvchanligi tiklangandan so'ng o'pka sun'iy ventilyatsiyasi, yurak bilvosita massaji bosilanadi va kardiomonitoriga ularnadi.

Ritm aniqlangandan so'ng qolgan reanimatsion chor'a-tadbirlar o'tkazilinadi. Klinik o'limda kardiomonitorda quyidagi ritmlarni aniqlash mumkin:

- Qorinchalar fibrillyatsiyasi
- Qorinchalar taxikardiyasi
- Elektromekanik dissotsiatsiya (EMD)
- Asistoliya


### **Qorinchalar fibrillyatsiyasi**

**Qorinchalar fibrillyatsiyasi** bir-biriga o'xshamagan xaotik impulslar bilan xarakterlanuvchi ritm. Yurak qorinchalar miofibrillalari bir-biriga bog'liq bo'lmasdan holda qisqaradi. Bunday holat yurak qisqarishini buzilishiga va qon aylanishining to'xtashiga olib keladi.




Qorinchalar taxikardiyasi faqat keng QRS kompleksi bilan xarakterlanuvchi ritm. Bunda «P» tishcha bo'lmasadi. Ritm chastotasi taxikardiyani ko'rsatadi. Agar nisbiy taxikardiya bo'lsa, QRS kompleks shakli g'aroyib ko'rinishga ega bo'ladi.

#### Sekinlashgan qorinchalar taxikardiyasi




#### Jadallashgan qorinchalar taxikardiyasi



Polimorf qorinchalar taxikardiyasi «R» tishcha yo'naliishi davriy o'zgarishi bilan xarakterlanuvchi ritm. Bu ritm ko'pincha gipomagniemiyada namoyon bo'ladi.

#### Polimorf qorinchalar taxikardiyasi (piruet yoki torsada)




Qorinchalar fibrillyatsiyasi va pulssiz qorinchalar taxikardiyasida bir xil davo olib boriladi. Shuning uchun bu ritm aniqlanganda yagona yordam bayonnomasi qo'llaniladi:

1. ABCD baholash, kardiomonitorga ulash
2. Yurak-o'pka reanimatsiyasi
3. Defibrillyatsiya 2 Dj/kg\*
4. Defibrillyatsiya , 2-4 Dj/kg
5. Defibrillyatsiya , 4 Dj/kg

- Yurak-o'pka reanimatsiyasini davom ettirish
- Maska orqali Ambu qopchasida ventilyatsiya noadekvat bo'lganda yoki uzoq transportirovka mo'ljallansa - traxeya intubatsiyasi.
- Vena ichiga yo'l ochish
- Vena ichiga yoki suyak ichiga (V/I yo'l bo'lmasa) sekin fiziologik critma yuborish
- Adrenalin:
  - V/I - S/I: 0,1 ml/kg (1:10 000), har 3-5 min da takrorlash
  - ETT ga 0,1 ml/kg (1:1 000) 3 ml fiziologik critma bilan
- Defibrillyatsiya, 4 Dj/kg har dori yuborgandan 30-60 sekund\*\* o'tgach
- Antiaritmiklar:
  - Amiodaron, 5 mg/kg bolyus V/I-S/I yoki
  - Lidokain, 1,0 mg/kg V/I-S/I (har 3-5 min da) yoki
  - Magniy sulfat, 25-50 mg/kg – torsada aniqlansa
- Yurak-o'pka reanimatsiyasi 30 – 60 sekund davomida
- 4 Dj/kg miqdorda defibrillyatsiya bilan antiaritmiklarni galma-galdan qo'llash 30 – 60 sekund davomida har dori yuborgandan so'ng o'pka-yurak reanimatsiyasini o'tkazish
- Sabablarini aniqlash (G va T)
  - Defibrillyatsiya miqdorini ketma-ket oshirishdan maqsad razryadning shunday energiyasiga erishish kerakki, u ko'krak qafasidan o'tib, yurakkacha etib borishi darkor. Zamonaviy defibrillatorlarga o'matilgan impedansmetr yordamida u ko'krak qafasi qalinligini o'zi aniqlab, kerakli razryad energiyasini hisoblab ko'rsatadi. Avtomatik tashqi defibrillaryator faqat bitta razryad o'tkazadi. Uni dori yuborgandan so'ng takrorlash mumkin.

\*\*Har dori yuborgandan so'ng yurak-o'pka reanimatsiyasiga ajratilgan vaqtidan (30 – 60 sekund) maqsad dori vositasini yurak muskuligacha etib borishi va ta'sirini ko'rsatishiga imkon yaratishdir. Tirsak venasi orqali dori yuborgandan so'ng yurakkacha etib borishini tezlashtirish maqsadida qo'lni yuqoriga ko'tarish darkor.



Defibrillyatsiyada qanday yangilik bor? O'zgacha fazali shaklda razryad beruvchi yangi defibrillaryolar ishlab chiqarildi.



Defibrillyatorlarning eski avlodı monofazalı razryad bajarar edi (A). Yangı avlod bifazalı razryad beradi. «V» faza shakli (S) faza shakliga nisbatan yaxshiroq natija beradi.

### **Elektromexanik dissotsiatsiya (EMD)**

**Elektromexanik dissotsiatsiya** - bu (EMD) klinik o'lim shakli bo'lib, bunda bemorda markaziy puls aniqlanmay, kardiomonitorda ritm aniqlanadi (qorinchalar taxikardiyasi, qorinchalar fibrillyatsiyasidan tashqari). Ya'ni elektr aktivlik mavjud, mexanik aktivlik yo'q.

#### **EMD eng ko'p uchraydigan sabablari:**


- Gipovolemiya
- Yurak tamponadasi
- Pnevmotoraks
- Giperkaliemiya
- Metabolik atsidoz

EMD aniqlangandan so'ng traxeya intubatsiyasini amalga oshirish zarur (agar uzoq transportirovka mo'ljallansa yoki niqob orqali Ambu qopchasiда ventilatyatsiya noadekvat bo'lsa), venaga yo'l ochish va yuqorida atyib o'tilgan miqdorda adrenalin yuborish (vena ichiga yoki endotracheal). Adrenalin zarur bo'lsa har 3 – 5 minutda ta'siri kuzatilguncha qayta yuboriladi.

Bolalarda klinik o'lim holatida atropin qo'llash yashab qolish imkoniyatini pasaytiradi, shuning uchun ularda kattalarga nisbatan ushbu holatlarda bu dori qo'llanilmaydi.

### **Asistoliya**

Asistoliya kardiomonitorda elektrik aktivlik belgilari siz ritm hisoblanadi («yassi chiziq»). Yurak asistolik to'xtashida ijobji reanimatsiya juda kam hollarda uchraydi. Asistoliyalni bemorlarning ko'p qismi tirik qolmaydi. Bu ritm ko'pincha biologik o'limdan dalolat beradi.



Bolalarda asistoliyada shoshilinch yordam EMDga o'xshash amalga oshiriladi. Ammo hisobga olish zarur bo'lgan ba'zi jixatlari mavjud. Asistoliya kam hollarda klinik o'limning birlamchi ritmi hisoblanadi. Bu ko'pincha muvaffaqiyatsiz reanimatsiya natijasi hisoblanadi. Shuning uchun apnoe va qon aylanishining to'xtashi uzoq vaqt davom etganda atsidoz rivojlanadi. Klinik o'limning birinchi minutlarida atsidoz ko'pincha respirator-anoksiya bilan bog'liq bo'lib, u adekvat ventilatyatsiyadan so'ng yo'qoladi. Jonlantirishning 20-daqiqalarida esa, periferik qon aylanishining buzilishi hisobiga metabolik atsidoz rivojlanadi. Yurak massagi samarali periferik qon aylanishni ta'minlay olmaydi. Shuning uchun asistoliyada jonlantirishning 20-minutlarida natriy bikarbonat infuziyasini 1 mekv/kg miqdorda (7,5 % eritma 1 ml/kg yoki 2 ml/kg 4 % eritma) boshlash tavsisi etiladi. Agar metabolik atsidoz jonlantirishning 20 daqiqasigacha laborator tahlillarda tasdiqlangan bo'lsa, infuziyani ertaroq boshlash kerak.

Asistoliyada shoshilinch yordamda ikkinchi jixati samarasiz reanimatsion chora-tadbirlarni to'xtatish masalasini ko'rib chiqish. Reanimatsiyani to'xtatishda quyidagi mezonlarga rioya qilish tavsiya etiladi:

- Shoshilinch yordamning asosiy bosqichi (AVS reanimatsiya) tez tibbiy yordam kelgunicha o'tkazilishi lozim.
- Shoshilinch yordamning malakali bosqichi hodisa ro'y bergan joyda boshlanib, transportirovka vaqtida davom ettirilishi lozim.
- Qabulxona bo'limida asistoliyani tasdiqlangan vaqtidan boshlab belgilab qo'yiladi.

- Dori vositalarini (adrenalin) 3 marotaba qo'llagandan so'ng ta'siri bo'lmasa, reanimatsiyani to'xtatish mumkin.
- Asistoliya tasdiqlangan vaqtidan 30 daqiqa o'tgach reanimatsiyani to'xtatish mumkin.
- Adrenalin maksimal dozasiga etgandan so'ng (10- in'ektsiya) reanimatsiya to'xtatiladi. **Asistoliyada teri orqali elektrostimulyatsiyani qo'llash (TOES)**
- TOES – qisqa vaqtida amalga oshiriladigan muolaja bo'lib, bermor ko'krak qafasi oldingi va orqa sohasiga katta stimullovchi elektrond o'matiladi. TOES ko'krak qafasi muskullari va teri orqali yurakni stimullaydi. Yurak qisqarib, zarb xajmi ortadi.
- Stimulyatsiya vaqtida YuO'Rni davom ettirish zarur. Stimulyatsiya ta'sirida puls paydo bo'lsa, yurak massaji to'xtatiladi.
- TOES qo'llashdan qat'iy nazar dori vositalarini (adrenalin) qo'llash davom ettiriladi.
- Stimulyatorda artifaktini inkor qilish uchun vaqt-vaqt bilan stimulyator o'chirib turiladi va EKG tekshiriladi.
- EKG da «R» tishcha, QRS kompleksi kabi umid bog'lovchi belgilari paydo bo'lishiga e'tibor beriladi.

Klinik o'limning turli keltirib chiqargan sabablarini aniqlab, uni imkonli boricha bartaraf etish zarur. Eng ko'p uchraydigan sabablarni 10 guruhg'a ajratilgan. Bu 5 «G» va 5 «T» qoidasini tuzish imkonini berdi, ya'ni «G» va «T» harfidan boshlanuvchi sabablar guruhi.

#### **«G» harfi bilan boshlanuvchi sabablar**

- Gipoksiya – AV qadamda yordamda bartaraf etiladi. Kislород saturatsiyasi va qondagi gaz tarkibi gipoksiyanı aniqlashda yordam beradi.
- Gipo- va giperelcktrolitemiya – laborator tasdiqlash zarur (kaliy va kaltsiy miqdorini o'zgarishini ba'zan EKG belgilarga qarab aniqlash mumkin)
- Gipoterminiya/Gipertermiya – rektal temperaturani o'lchash zarur
- Gipoglikemiya/Giperglikemiya – qondagi glyukozani aniqlash zarur (glyukozani empirik yuborish mumkin)
- Gipovolemiya (krystalloidlar bolyus infuziyasini empirik o'tkazish mumkin)

#### **«T» harfi bilan boshlanuvchi sabablar**

- Jarohat – anamnez va fizikal tekshiruv aniqlashda yordam beradi
- Yurak tamponadasi – tashhisiy mezonlari mavjud
- Trombozlar (koronar, o'pka, miya tomirlari)
- Toksinlar va tabletkalar (zaharlanish va dori vositasini ko'p miqdorda qo'llash) – (naloksonni empirik yuborish mumkin)
- Taranglashgan (tension) pnevmotoraks – intubatsiya vaqtida inkor qilinishi zarur (agar muolaja to'g'ri bajarilgan bo'lsa).

#### **Stabil va nostabil taxiaritmiyalar**

Birlamchi ABCD baholashning «S» qadamida markaziy arteriyada puls bo'lsa va kardiomonitorda ritm aniqlansa, ikkilamchi ABCD baholashda gemodinamik stabillik aniqlanadi. Gemodinamik stabillik mezonlari:

- Hush darajasining pasayishi
- Noadekvat nafas
- AB pasayishi (cta yoshdag'i bolalarda kapillyar test 2 sekunddan ortiq)
- Katta yoshdag'i bolalarda – yurak sohasida tipik og'riqlar (vistseral, to'sh ortida)

Agar yuqoridagi mezonlarning loaqal bittasi aniqlansa, bermor holati nostabil deb baholanadi. Bu davo choralarini to'g'ri tanlashda muhim ahamiyatga ega.


Ritm tahlilida quyidagi qo'sratichlarni aniqlash zarur:

- Ritm soni
- «R» tishchaning mavjudligi


- RR intervalning regulyarligi
- QRS kompleks kengligi
- «R» tishchaning QRS kompleks bilan bog'liqligi (har bir «R» tishchadan so'ng QRS kompleks mavjudligi)

Ritm sonini zudlik bilan RR intervalga qarab aniqlash mumkin (R tishchaning katta katak miqdori).

### **Regulyarlik va sonini aniqlash**



### **Alohibda taxiaritmiyalar**




**Sinusli taxikardiya** — yuqori harorat, stress, degidratatsiya yoki anemiyaga fiziologik reaktsiya; ba'zan, YuUS juda yuqori bo'lganda uni aritmiyaning boshqa turiga adashtirish mumkin.

**EKG.** Normal P tishcha har QRS kompleksiga mos keladi; ritm to'g'ri YuUS bir oz o'zgargan.

**Davolash taxikardiya** sababini bartaraf etishga qaratilgan.

### **Supraventrikulyar taxikardiya**



- Bolalarda miokardiodistrofiya, yurak nuqsoni, Kishsha toksikozi fonida yuzaga kelishi mumkin.
- Mehanizmining asosida sinoaurikulyar tugunga signallar bir qismining teskari yo'nalishda qaytishi (rc entry) yotadi.
- QRS kompleksi o'zgarmagan (tor)
- Vegetativ disfunktisiyalar: tanu qaltirashi, tershish, past solishtirma og'irlilikka ega peshob bilan peshob ajralishining tezlashishi, ichak peristaltikasini kuchayishi. Yurak tekshiruvida tezlashgan, kuchli tovushli ritmik tonlar eshitiladi.
- Ko'krak yoshdagagi bolalarda yurak urish soni 220 dan ortiq.
- Katta yoshdagagi bolalarda yurak urish soni 180 dan ortiq.
- Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda ko'p uchraydigan aritmiya.

#### **Gemodinamik stabill supraventrikulyar taxikardiyada shoshilinch yordam**

- Yuqori oqimda kislorod ingalyatsiyasi
- Kardiomonitoring va bolalar kardiologi maslahati
- Vagus sinamasini o'tkazish (pastga qarang) – 30 % hollarda samarali. Har yangi xurujda samarasasi pasayadi.
- Agar vagus sinamasini samarador bo'lmasa, adenozin 0,1 mg/kg miqdorda vena ichiga tez yuborilib, kateterni fiziologik eritma bilan yuviladi. Agar taxikardiya bartaraf qilinmagan bo'lsa, adenozin miqdorini ikki barobar oshirib, 2-marotoba yuborish mumkin.
- Verapamil SVT da kattalarda qo'llanishi mumkin, lekin uni 1 yoshgacha bo'lgan bermorlarda qo'llash mumkin emas.


#### **Gemodinamik nostabil supraventrikulyar taxikardiyada shoshilinch yordam**


- AVS yordam
- Agar bola komada bo'lmasa – sedatatsiya (kardioversiya tayyorgarlik) AQB ko'satkilariga qarab. Agar AQB 70 dan yuqori bo'lsa (kapillyar sinama 2 sekunddan kam) – benzodiazepenlami qo'llash mumkin (diazepam, midozalam, lorazepam, oxirigi dori vositasini fagaq 12 yoshdan katta bolalarda qo'llaniladi). Agar AQB 70 dan past bo'lsa (kapillyar sinama 2 sekunddan ko'p) – gipotenziv ta'sirga ega dori vositasini qo'llash mumkin emas. Bunday hollarda natriy oksibutirat , etamidat qo'llaniladi.
- Zudlik bilan sinxronlashgan kardioversiya o'tkaziladi (pastga qarang). Dastlabki miqdori - 0,5 Dj/kg. Samarasiz bo'lsa, miqdori quyidagi ketma-ketlikda oshirib boriladi 1 Dj/kg, 2 Dj/kg, 3 Dj/kg, 4 Dj/kg.
- Sabablari aniqlanib, imkonli boricha ularni bartaraf etiladi (5 «G» i 5 «T»).
- Bola zudlik bilan gospitalizatsiya qilinadi.

#### **Taxikardiyada shoshilinch yordam algoritmi**

YuUS>220 ko'krak yoshdagagi bolalarda

YuUS>180 bolalarda





### Vagal stimulyatsiya o'tkazish

- 1 yoshdan kichik bolalarda yuzga muz xaltachasi qo'yiladi.
- 1 yoshdan katta bolalarga Valsalva usuli o'tkaziladi, bola chuqur nafas olib, og'iz va burnini berkitgan holda, nafas chiqarishga maksimal harakat qiladi, bunda qorin mushaklarini taranglashtirishi lozim.Yoki uyqu arteriyasini bir tomonlama massaji - bu usulni qo'llaganda bemor gorizontal, boshi yonga biroz bukilgan holatda bo'ladi. Uyqu arteriyasi pastki jag' burchagi ostida qalqonsimon tog'ay yuqori chegarasi darajasida to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon musqo'lning oldida aniqlanadi. Chap qo'lning ikkita barmog'i bilan orqaga va o'rtaqa, umurtqa pog'onasiga yo'nalgan holda 10-20 sek davomida massaj qilinadi. Avval o'ng arteriya bosiladi, samara bermasa, chap tomon bosiladi. Sinusli ritm tiklangandan so'ng uyqu arteriyasini bosish zudlik bilan to'xtatiladi, chunki qorinchalar asistoliysi yuzaga kelishi mumkin.

### Kardioversiya muolajasi

1. Monitor elektrodlari bemorga ulanadi.
2. Agar defibrillatoryarning yopishtiruvchi elektrodi qo'llanmayotgan bo'lsa, elektrodgaga o'tkazuvchi material qo'yiladi.
3. Defibrillyator yoqiladi
4. "sync" tugmasini yoqib sinxronizatsiya rejimiga o'tiladi.
5. Monitor ekranida sinxronizatsiya signalini aniqlanadi ("R" tishchasiga to'g'ri keluvchi yulduzcha paydo bo'ladi).
6. Energiya rejimi tanlanadi.
7. Elektrodlar o'matiladi va bosim davom ettiriladi (zaruriyat bo'lsa). Manual defibrillatoryolar 11 kg kuch surf etishni talab etadi.
8. Defibrillyator zaryadlanadi.
9. Atrofdagilar ogohlantiriladi (bemor va krovatga teginmaslik zarur)
10. Ikkala tugmaga bosiladi.
11. Bemorning pulsi va yurak ritmi aniqlanadi.
12. Samara bermasa – kardioversiyani keyingi energiya darajasi yoki antiaritmik davo davom ettiriladi.

### Qornichalar taxikardiyasi

Miokardit, yurak tug'ma va orttirilgan nuqsonlarida yoki yurakdagi tizimli kasalliklar hisobiga ikkilamchi rivojlanadi.Bu nuqson uzaygan QT sindromi, gipoksemiya, atsidoz, elektrolit balansining buzilishi, dori vositalarini toksik ta'siri yoki yurak glikozidlarining miqdori ortib ketg'anida, yurakdagi operatsiyalar, jumladan, uni kameralarini kateterizatsiyasida va koronarografiyada yuzaga keladi.

#### Klinik belgilari


- Bezovtalik, qo'rquv
- Ba'zan bosh aylanishi yuzaga kelib u sinkopal holat bilan tugashi mumkin.
- Yurak tonlari susaygan, birinchi tonni turlichayariq shaxs turli shaxs qo'shasi.

- Kardiomonitorda – keng kompleksli taxikardiya (yuqoriga qarang)

**Shoshilinch yordam** – gemodinamik stabillikni aniqlash zarur (yuqoriga qarang)

- Nostabil holatda kardioversiya o'tkazish zarur, lekin boshlang'ich miqdori 1 Dj/kg ni tashkil etadi.
- Stabil holatda 1 mg/kg miqdorda lidokain bolyus yuboriladi, keyinchalik davomli infuziyaga 20 - 50 mkg/kg/min o'tkaziladi.
- Sabablarini aniqlash va bartaraf etish (5 «G» va 5 «T»)

#### Bolalarda QT da shoshilinch yordam algoritmi



**Bo'lmachalar fibrillyatslyysi**

Bolalarda juda kam uchraydi.



**Sabablar:**

- revmatik etiologiyali miokardit
- mitral qopqoq torayishi
- yurakning ba'zi tug'ma nuqsonları (bo'l machalararo to'siq etishmovchiligi, qorinchalararo to'siq etishmovchiligi, uch tabaqali qopqoq rivojlanish anomaliyasi)
- gipertrofik kardiomiopatiya
- tircotoksikoz
- WPW sindromi

Bo'l machalar fibrillyatasiyada ular qisqarish soni daqiqasiga 350-360ni tashkil etadi Bunda qorinchalar qisqarishi 2-3 marotaba kam bo'ladi. Yurak qisqarish soniga qarab mertsal aritmianing uch turli tafovut etiladi: taxi-, bradi- i normoaritmik.

#### Taxiaritmik turida:

- Yurak sohasida og'riq
- Yurak urib ketishi
- Umumiy ahvoli, uyqu, ishtahaning yomonlashuvi
- Auskultatsiyada sistolik shovqin eshitiladi
- Yurak tonlari tez-tez qisqargani tufayli susayadi
- Ko'plab qarsaksimon tovushlar eshitiladi. Taxiaritmiga xuruji davomiyligi bir necha sekunddan bir necha kungacha uzayishi mumkin.
- Agar xuruj 2 haftadan ko'proq davom etsa, u mertsal aritmianing doimiy turiga o'tganidan dalolat beradi.
- Kardiemonitorda - noto'g'ri qorinchalar ritmi bilan noto'g'ri, yuqori chastotali, past amplitudali bo'l machalar aktivligi aniqlanadi. QRS kompleksi oddiy shaklda, ammo ba'zida davriy aberrant komplekslar aniqlanishi mumkin.



#### Shoshilinch yordam:

Agar mertsal aritmija uzoq vaqt (2 kundan ortiq) davom etsa, ritmni qayta tiklashdan avval bo'l machadagi lahtalardan emboliya havfini kamaytirish uchun antikoagulyantlar (3 haftaga), qo'llaniladi.

- Gemodinamik stabillikda kaltsiy kanallari blokatori (verapamil, diltiazem), beta-blokatorlar (satolol, esmolol, metapronolol) qo'llaniladi.
- Gemodinamik nostabillikda kardioversiya qilinadi.

**Bo'lmachalar titrashi**, bo'lmachalar fibrillyatsiyasiga o'xshash bolalarda kam uchraydi. Klinik ko'rinishi ham bir xil. Kardiomonitorda "ana tishi"ga o'xshash bo'lmachalar to'lqini chastotasi 250—350 minutiga; qorinchalarga impulslarini o'tishi (1:1, 2:1 va b.). Bo'lmachalar titrashida impuls o'tishi 2:1 nisbatda bo'lganda uni aniqlashda qiyinchilik tug'iladi, chunki har ikkinchi bo'lmacha to'lqini QRS kompleksi ustiga tushadi. Bo'lmachalar titrashi to'lqinlari II, III va aVF yo'naliishida yaxshiroq ko'rindi.



#### Shoshilinch yordam:

Bo'lmachalar fibrillyatsiyasiga o'xshash, lekin xuruj davomiyligi hisobga olinmaydi.

#### Ekstrasistolalar

**Bo'lmachalar ekstrasistolalari** ba'zan sog'lom bolalarda to'satdan aniqlanadi. Agar ekstrasistolalar tez-tez uchrasa yoki klinik belgilar bilan namoyon bo'lsa, kardiomiopatiya, tireotoksikoza yoki impuls o'tishining qo'shimcha yo'llari mavjudligini aniqlash zarur.

**Kardiomonitorda** – muddatdan ilgari o'zgargan P tishcha, undan so'ng normal QRS kompleksi keldi; kompensator pauza noto'liq.

**Shoshilinch yordam** – talab etilmaydi.

**AV-tugunli ekstrasistolalar** kam uchraydi va odatda havfli emas. Bo'lmachalar ekstrasistoliyasi dagi kasalliklar inkor qilinishi zarur.

**Kardiomonitorda** – muddatdan ilgari normal QRS kompleksi, yo'ldosh R tishcha yo'q.


**Shoshilinch yordam** – talab etilmaydi.

**Qorinchalar ekstrasistolalari** sog'lom bolalarda uchrashi mumkin, ammo yurakning organik kasalliklari belgisi sifatida namoyon bo'lib va ba'zi holatlarda havfli taxaritmiyalarga o'tishi mumkin (havfli qorinchalar ekstrasistolalari). Kardiomonitorda R tishchasisiz navbatdan ilgari keng deformatsiyalangan QRS kompleksi ketidan to'liq kompensator pauza kuzatiladi. Qorinchalar ekstrasistoliyasi aniqlangan barcha bolalarga kardiolog maslahati tavsija etiladi.

**Yomon sifatli qorinchalar ekstrasistolasi belgilari:**

- Ekstrasistola tez-tez takrorlanishi (daqiqasiga 5 dan ko'p)
- Politop (multifokal) ekstrasistolalar (ekstrasistolaning R tishchasi turli tomonlarga yo'naltirilgan)
- Kuplet ekstrasistolalar
- «T ga R» fenomeni


#### Monofokal qorinchalar ekstrasistoliyasi



**Kuplet politop ekstrasistola**



**«T ga R» fenomeni**



**Shoshilinch yordam:** Lidokain 1 mg/kg miqdorda v/i ga tez yuboriladi va 10—50 mkg/kg/min tezlikdagi infuziyasiga o'tiladi.

#### **Bradikardiya**


Bradikardiya deb YuUS ni yoshiga mos me'yordan 20% ga kamayishi tushuniladi. Bolalarda bradikardiyaning eng ko'p uchraydigan sababi—gipoksiyadir. Kattalardan farqli ravishda bolalar kislord etishmasligiga puls pasayishi bilan javob beradi. Shuning uchun nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash, adekvat ventilyatsiya va oksigenatsiya bradiaritmiani bartaraf etadi.

- 5 yoshdan katta bolalarda— 60;
- 5 yoshgacha – 80;
- 1 yoshgacha bolalarda ~ 100;
- 1 haftagacha bo'lgan bolalarda – 95.

**Sinusli bradikardiya** kam hollarda yurak jaroxatlanishi belgisi sifatida namoyon bo'ladi, ko'pincha u adashgan nerv tonusi ortishi, gipoksiya, MNT kasallikkleri, gipotireoz, gipotermiya va dori vositalaridan zaharlanish hisobiga kelib chiqishi mumkin. Sog'lim o'smir - sportchilarda bradikardiya norma hisoblanadi.

**Kardiomonitorda** - P tishcha va AV-o'tkazuvchanlik normal, YuUS yangi tug'ilgan chaqaloqlarda daqiqasiga 100 dan kam va katta yoshdag'i bolalarda daqiqasiga 60 dan kam O'rindosh bo'lmascha yoki tugunli ritm bo'lishi mumkin.

**Sinusli bradikardiya**




**Shoshilinch yordam**

Kardiorespirator buzilishlar bo'lmasa - talab etilmaydi. Zarur bo'lsa atropin 0,01 mg/kg v/i ga yuboriladi. U adashgan nerv tonusini pasayishi hisobiga YuUSni oshiradi.

**O'tkazuvchanlik buzilishi hisobiga kelib chiqqan bradikardiya**

**AV-blokada 1-darajasi** adashgan nerv tonusini ortishi hisobiga, yurak glikozidlari va beta-adrenoblokatorlar qo'llaganda, yurak o'tkazuvchi tizimi shikastlanishi bilan kechuvchi yallig'lanish jarayonlarida va yurak tug'ma nuqsonlarida (bo'lmaschararo to'siq defekti, AV-kanal, korreksiyalangan magistral arteriyalar transpozitsiyasi) uchraydi.

**Kardiomonitorda** - PQ intervalli uzaygan: ko'krak yoshdag'i bolalarda — 0,15 s, katta yoshdag'i bolalarda — 0,18 s, kattalarda — 0,20 s dan yuqori.



**Shoshilinch yordam**


Kardiorespirator buzilishlar bo'lmasa – talab etilmaydi. Zarur bo'lsa atropin 0,01 mg/kg v/i ga yuboriladi va adashgan nerv tonusini pasayishi hisobiga YuUSni oshiradi.

**AV-blokada 2-darajasi** — bo'lmascharadan qorinchaga impuls o'tishini davriy uzilishidir.

**EKG**

**Tip Mobitts I** PQ intervali asta-sekin uzayib boradi va QRS kompleksi tushib qolishi bilan yakunlanuvchi sinusli ritm. Bunda RR intervali asta-sekin qisqaradi.

**AV-blokada 2-darajasi (I- tip)**



**Tip Mobits II** to'g'ri sinusli ritm va doimiy PQ interval fonida QRS kompleksini to'satdan tushib qolishi xarakterli.

#### AV-blokada 2-darajasi (2- tip)



#### Shoshilinch yordam

AV-blokadaning 2-darajasida klinik belgilari namoyon bo'lmasa davo o'tkazilmaydi. Blokadaning 3-darajasi rivojlanish ehtimoli mavjudligi tufayli EKG monitoringi zarur.

**AV-blokada 3-darajasi** (to'liq AV-blokada) bolalarda tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin; u yallig'lanish jarayoni yoki yurak nuqsonlari tufayli kelib chiqishi mumkin (korrektsiyalangan magistral arteriya transpozitsiyasi yoki AV-kanal). Kam hollarda to'liq AV-blokada yurakdagi operatsiyadan keyin rivojlanishi mumkin.

Homila yoki yangi tug'ilgan chaqaloqlardagi to'liq AV-blokada- yurak tug'ma nuqsonidan yoki agar onasida kollagenoz kasalligi bo'lsa (ayniqa sistemali qizil yugurik) yallig'lanish jarayonidan dalolat beradi. Bunday hollarda ExoKG va onasining qon zardobida antinuklear antitellallarni aniqlash tavsiya etiladi.


Katta yoshdagi bolalarda ham yurak nuqsoni va yallig'lanish jarayonlarini, shu jumladan, endokardit va vaskulitni inkor etish zarur.

**Kardiomonitorda** – normal P tishcha aniqlanib, ularning ritmi sekinlashgan o'rindosh ritmiga bog'liq emas. O'rindosh ritm tugunli - tor QRS kompleksli (AV tugun yoki Giss—Purkine tizimining proksimal qismi blokadasi haqida guman qilish mumkin) va keng QRS kompleksli qorinchalar (ideoventrikulyar), (Giss—Purkine tizimining distal qismi blokadasi) bilan bo'lishi mumkin. Unga «R» tishcha manfiy yoki bo'lmasiqli xarakterli.

#### AV-blokada 3-darajasi



Ideoventrikulyar ritm



Tugunli ritm

### **Shoshilinch yordam**

Bolalarda adashg'an nervning yurak ritmi boshqaruvchisiga kuchsiz ta'sir ko'rsatgani tufayli ularda Atropin kam samara beradi. Adrenalin vena ichiga bolyus yuborilganda yaxshiroq samara beradi. Agar Adrenalin samarasiz bo'lsa, Dopamin bilan inotrop ta'minlash o'tkaziladi. Inotrop vositadan samara bo'lmasa elektrokardiostimulyator qo'llash masalasi hal qilinadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bolalarda aritmiyaga olib keluvchi sabablarni sanab bering.
2. Qorinchalar fibrillyatsiyasi va qorinchalar pulssiz taxikardiyasida shoshilinch yordam ketma-ketligini aytib bering.
3. EMD va asistoliyada shoshilinch yordam ketma-ketligini aytib bering.
4. Reanimatsion chora-tadbirlarni to'xtatishga ko'rsatmalarni sanab bering.
5. Gemodinamik nostabilistik mezonlarini aytib bering.
6. Kardioversiya o'tkazish ketma-ketligini sanab bering.
7. Supraventrikulyar taxikardiyaning klinik va kardiomonitordagi belgilarini , shoshilinch yordam ketma-ketligini aytib bering.
8. Qorinchalar taxikardiyasi puls bilan kuzatilganda klinik belgilari, kardiomonitordagi belgilari, shoshilinch yordam ketma-ketligini aytib bering.
9. Bo'lmachalar fibrillyatsiyasida klinik belgilari, kardiomonitordagi belgilari, shoshilinch yordam ketma-ketligini aytib bering.
10. Bo'lmachalar titrashida klinik belgilari, kardiomonitordagi belgilari, shoshilinch yordam ketma-ketligini aytib bering.
11. Yomoni sifatlari qorinchalar ekstrasistoliyasida klinik belgilari, kardiomonitordagi belgilari, shoshilinch yordam ketma-ketligini aytib bering.
12. Bradiaritmialarda klinik belgilari, kardiomonitordagi belgilari, shoshilinch yordam ketma-ketligini aytib bering.

Preparat	Aritmiya	Bolalardagi miqduri	Kuttabadagi miqdori
Adenozin 1%	SVT PSVT	0,1 mg/kg (maks. miq-ri - 6 mg) qayta yub. miq-ri X2-0,2 mg/kg (3-6 g)	bosh. miq-ri: n 6 mg gavta yub. miq-ri 12 mg, 12 mg maks. miq-ri 30 mg
Adrenalin 0,1%	Asistoliya Bradikardiya intuiziya ko'linishiida	0,01 mg/kg 0,6 mg x vazni (kg)+cr-ma 100 ml yachta = 1 ml/soat	bosh. miq-ri 1 mg qayta yub. ha 3-5 min maks. miq-ri 1-10 mg 1 mg + 250 ml = 15-30 ml/soat (2- 10 mg/kg/min)
Atropin 0,1%	Bradikardiya Asistoliya EMD (agar I'se < 60 min)	0,02 mg/kg	0,5-1 mg (maks. 0,04 mg/kg)
Dofamelin 4%	Bradikardiya	6 x vazni (kg) + 100 ml = 1ml/soat	200 mg + 250 ml er-ma 30 ml/soat
Lidokain 2%	QE/QT pulsiz QT puls bilan	120 mg (3 ml 4%) + 97 ml er- ma (1,2 mg/ml) 1 ml/kg soatiga (20mg/kg/min)	bosh. miq-ri 1-1,5 mg/kg gavta yub. miq-ri 0,5-0,75 mg/kg maks. miq-ri 3mg/kg go'llab-guv-chi miq-ri 2-4 mg/min 1 g + 250 ml 30 ml/soat (2 mg/min)
Amiodaron 5% Amiodordin	QE/QT pulsiz QT puls bilan Bo'lmachalar fibriyaliatsiyasi Bo'lmachalar titrashi	5 mg/kg 20-60 min	bosh. miq-ri 300 mg ( 20-30 ml fiz. er-mada) gavta miq-ri 150 mg maks. miq-ri 2,2 g go'llab-guv-chi miq-ri 0,5 mg/min/soat (\$40 mg 18 soat ichida)
Novakain-amid	QE/QT pulsiz QT puls bilan	15 mg/kg	bosh. miq-ri 20-50 mg/min maks. miq-ri 17 mg/kg go'llab-guv-chi miq-ri 1-4 mg/min
Magnily sulfat 20%, 25%	QT polimorf	bosh. miq-ri 25-50 mg/kg maks. miq-ri 200 mg	bosh. miq-ri 1-2 g go'llab-guv-chi miq-ri 0,5 g/soat
Verapsamil 0,25% (Izaptin)	Bo'lmachalar titrashi Bo'lmachalar fibriyaliatsiyasi	yatch 0,3-0,4 ml; 1 yoshgacha 0,4-0,8 ml; 1 - 5 yoshgacha 0,8-1,2 ml; 5-10 yosh 1,2-1,6 ml; 10-14 yosh 1,6-2,0 ml.	bosh. miq-ri 2,5-5 mg maks. miq-ri 30 mg
Diltiazem	- // -	bosh. miq-ri 0,25 mg/kg go'llab-guv-chi miq-ri 0,15 mg/kg	bosh. miq-ri 0,25 mg/kg go'llab-guv-chi miq-ri 0,15 mg/kg

## BOLALARDA KARDIOLOGIK ShOSHILINCh HOLATLAR

Kardiologik shoshilinch holatlari – bu yurak patologiyasi bilan bog'liq bo'lgan qon aylanishi buzilishi bilan kechadigan shoshilinch holatlari guruhidir. Bunda yurakning qon haydash faoliyatini pasayishi hisobiga to'qimalarning kislrorid bilan ta'minlanishi buziladi.

### Yurak etishmovchiligi

Pediatriya amaliyotida asosan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda yurak etishmovchiligi ko'p uchraxdi. Rivojlanish mekanizmiga ko'ra energo-dinamik bo'lib, bu narsa makroergik moddalarning etishmovchiligi va kaliyning qayta taqsimlanishi buzilishi bilan bog'liq bo'lib, miokardda metabolizm jarayoni birlamchi buziladi.

**Yurakning zarb hajmi ortishi bilan kechuvchi yurak etishmovchiligining sabablari:**

- og'ir darajadagi anemiya
- tireototsik kriz
- sepsis

**Yurakning zarb hajmi pasayishi bilan kechuvchi yurak etishmovchiligining sabablari:**

- miokard shikastlanishi natijasida:
  - ishemiya

- infektsiya
- yurak tug'ma nuqsoni
- metabolik buzilishlar
- aritmiyalar
- **qon oqimiga to'siq**
  - aorta koarktasiyasi
  - og'ir aortal stenoz
  - xavfli arterial gipertoniya

#### **Yurak etishmovchiligi mavjud bolalarni tekshirish**

##### **Tibbiy yordamga muhtojlik sababi:**

- Vazn yig'ishdan orqa la qolish
- Ishtahaning pastligi
- Doimiy quruq yo'tal (nafas yo'llarini kasalliklarisiz)
- Ko'p terlash
- Tez charchash va jismoniy zo'riqishni ko'tara olmaslik

##### **Fizikal tekshiruv:**

- Ozib ketish
- Yurak qon-tomir tizimi shikastlanishi simptomlari:
  - taxikardiya (YuQS 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda 160 dan yuqori, 1-5 yoshgacha 120 dan yuqori)
  - protodiastolik ot dupuri ritmi
  - past AB hakida ma'lumot beruvchi ipsimon puls
  - periferik qon aylanishini buzilishi
  - o'pkaning bazal qismidagi xirillashlar
  - jigar kattalashishi
  - yurak nuqsoniga shuhxa bo'lganda song arteriyasida puls baholanadi va yurakda shovqin izlanadi.
  - nafasning tezlashuvi, ayniqsa 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda ovqatlanish vaqtida 1 yoshdan katta bo'lgan bolalarda bo'yin venalarining bo'rtishi, yuz, qo'l-oyqlardagi shish
- infektsiya, tircotoksikoz va og'ir kamqonlik belgilari (kaftning o'ta oqarib ketishi)

#### **Champion shkalasi bo'yicha qon aylanishi etishmovchiligi darajasini baholash**

	0	1	2	3	4
Nafas hajmi	Me'yor	Yuzaki	Yuzaki	Yuzaki	Yuzaki
Kapillyar sinama	< 2 sekund	>2 sekund	>2 sekund	>2 sekund	>2 sekund
Ko'z ochishi	Me'yor	Ovozga	Og'riqga	Yo'q	Yo'q
Ovoz reaktsiyasi	Odatiy	Buzilgan	Bog'lanmagan so'zlar	Alovida tovush	Yo'q
Harakat reaktsiyasi	Ovozga	Og'riqga tortib oladi	Bukilish	Yozilish	Yo'q

< 5 ball – kuchli ifodalangan o'tkir qon aylanishi etishmovchiligi

>7 ball – qisman ifodalangan o'tkir qon aylanishi etishmovchiligi

11 ball – kam ifodalangan o'tkir qon aylanishi etishmovchiligi

**Altsgover - Gruber bo'yicha shok indeksini baholash**

Shok indeksi = YuUS/SAB

0,5 – me'yor

1,0 – xavf

1,5 – shok

#### **Kislородга бо'лган талабни баҳолаш**

Kislородга бо'лган талаб = (YuUS x SAB)/ 100

>100 – талабнинг ортиб бориши

>70 – талаб ортиб бориши мумкин

**Yurak indeksini baholash** (tinch holatda, respirator disstress belgilari va nafas etishmovchili yo'qholatda aniqlanadi)

Yurak indeksi = YuUS/NS

l yoshgacha bo'lgan bolalar > 3,5

l yoshdan katta bolalar > 4,5

#### **Laborator va instrumental tekshiruv**

- ko'krak qafasi rentgenografiyasi.
- EKG va ExoKG.
- Arterial qonda gazlar tahlili, qon umumiy tahlili,qondagi elektrolitlar tahlili, plazmadagi glyukoza miqdori, toksikologik tekshiruv, qalkonsimon bez faoliyatini tekshirish, AsAT va yurak izofermentlarining (KFK, LDG) faolligini tekshirish.

#### **Shoshilinya yordam:**

- Yotoqning bosh qismi ko'tariladi.
- Kislород ингалатсиysi. Agar zaruriyat bo'lsa traxeya intubatsiyasi va SUV nafas oxirida musbat bosim rejimida.
- Og'ir kamqonlik holatida qon transfuziyasi.
- PALS protokoli asosida aritmiani davolash.
- Tinchlik yaratish. Umumi energetik sarfni kamaytirish uchun narkotik analgetiklar kichik dozada beriladi (morphin bir martalik dozasi 0,05—0,1 mg/kg) yoki neyroleptiklar tavsiya qilinadi.
- Me'yoriy tana haroratini ushlab turishga harakat qilinadi, aks holda taxikardiya va sovuq qotish yurakning zo'riqishini kuchaytiradi.
- Agar qondagi elektrolitlar miqdori o'zgarmagan bo'lsa, diuretiklar (furosemid bir marotabalik doza 1 mg/kg)da qo'llaniladi. Uzoq muddatli davolashda xlortiazid, 10—20 mg/kg kuniga 2 marotaba ichishga va spirinolakton, 1—4 mg/kg/kuniga hisobida ichishga beriladi
- Inotrop quvvatlash:
  - **dofamin**, 5—20 mkg/kg/min v/i; samaraga qarab dozasi o'zgartirib boriladi.
  - **dobutamin**, 5—20 mkg/kg/min v/i; preparatni dofamin bilan kombinatsiyada qo'llash mumkin.
  - **amrinon** — fosfodiesteraza ingibitori, miokard qisqarishini oshiradi, — og'ir yurak etishmovchiligidagi davoning samaradorligi kam bo'lgan holatda boshqa preparatlar bilan birgaikda qo'llaniladi. Normovolemiya holatida to'yintirish dozasi chtiyyotkorlik bilan yuboriladi, 0,5 mg/kg, keyin 5—10 mkg/kg/min tezlikda infuziya holida yuboriladi.
  - **adrenalin**, 0,1—1 mkg/kg/min, boshqa preparatlar samarasizligida qo'llaniladi. Nojo'ya ta'siri— taxikardiya va yurakdan keyingi zo'riqishni oshiradi.
  - **digoksin**. To'yintiruvchi dozasi — 40 mkg/kg (parenteral yuborilganda bu dozaning 2/3 qismi yuboriladi). Dozaning yarmi tezda yuborilib, ¼ qismi—8 soatdan keyin, qolgan ¼ qismi esa yana 8 soatdan keyin yuboriladi. Ushlab turuvchi doza (to'yinishing dozasining 1/4) 2 qabulga taqsimlanadi. Kattalarda to'yinishing dozasi — 1 mg v/i, ushlab turuvchi doza — 0,125—0,25 mg/kuniga.

#### **Yurak tamponadasi**

**Yurak tamponadasi**— bu perikard bo'shlig'iga suyuqlik yig'ilishi bo'lib, qorinchalarning diastolik to'lishishi kamayishi va yurakni bosib qo'yishiga olib keladi. Natijada yurakning bir martalik hajmi keskin kamayib, hayot uchun xavfli yurak etishmovchiligi yuzaga keladi.

#### Sababli:

- Virusli, bakterial va revmatik perikardit.
- **Tizimli kasalliklar** (yurak etishmovchiligi, uremiya, o'smalar, kollagenozlar).

#### Tekshirish printsiplari:

##### Fizikal tekshiruv

- Taxikardiya, taxipnoe, arterial gipotoniya.
- Yurakning bir martalik hajmi pasayishi bilan kechuvchi yurak etishmovchiligi belgilari:
  - ipsimon puls
  - oyoq-ko'llamning sovub ketishi
  - tsianoz
  - oliguriya.
  - jigar kattalashishi

#### Beka Triadasi:

- yurak tonlarining bo'g'iqlashuvi
- bo'yin vcnalarining bo'rtishi
- Paradoksal puls (pulsning yoki SAB ning chuqur nafas chiqarishdan keyin pasayishi)

#### Qo'shimcha belgi:

- Pulslı AB pasayishi (SAB va DAB farki) 20 dan kam

#### Instrumental tekshiruv

- Ko'krak qafasi rentgenografiysi – yurak soyasi yassilashishi va kengayishi aniqlanadi.
- EKG da - ST segment ko'tarilgan, QRS kompleks amplitudasini pasayishi, T tishcha manfiy.
- ExoKGda perikardial sath aniqlanadi.

#### Shoshilinch yordam:

Tezkor perikardiotsentez yoki operatsiya (subksifoidal perikardiotomiya, perikardektomiya) o'tkaziladi. Perikardiotsentez muolajasini tajribali mutaxasis o'tkazishi lozim.

- Perikardiotsentez EKG yoki ExoKG nazorati ostida o'tkazilishi zarur
- Ko'krak yoshidagi bolalarda shpritskhajmi 10 ml, igna 20 G uzunligi 2,5 sm, kattalarda— shprits hajmi 30 ml, igna 20 G uzunligi 7,5 sm.
- Xanjarsimon o'simta ostida teri sohasi povidon-yod va etanol bilan zararsizlantiriladi.
- Ignar aseptik holatda xanjarsimon o'simta ostida 30° burchak ostida kiritilib, chap ko'rak suyagi tomon yo'naltiriladi. Shpritsda biroz manfiy bosim hosil qilinadi. Ignar perikard bo'shlig'iga tushishi bilan shpritsda suyuqlik paydo bo'lib, qondan farqli ravishda gemitokrit past bo'lib, ivimaydi.

#### Asoratlari:

- pnevmotoraks
- yurak ritmi buzilishi
- koronar arteriya va miokard shikastlanishi
- miokard shikastlanishida – ST segment o'zgaradi

#### Tsianotik krizlar

Bu shoshilinch holatda yurak yuqori tomir qarshiligiga qarshi ishlaydi. Bu holatning rivojlanish sababi tug'ma yurak nuqsonining «ko'k» turi hisoblanadi (ayniqsa Fallo tetradasida). Bunda toraygan o'pka arteriyasi teshigining yanada qisilishi natijasida o'ng qorinchadan qon haydalishi to'satdan qiyinlashishi kuzatilib, qonning o'ngdan chapga haydalishini oshishiga olib

keldi. Kriz davomiyligi bir necha daqiqadan bir necha soatgacha bo'lishi mumkin. Bu holat kuchayib boruvchi gipoksiya, atsidoz va o'limga olib kelishi mumkin..

#### Fizikal tekshiruv:

- To'satdan boshlanuvchi tsianoz, bezovtalik va qo'zg'aluvchanlik
- Yurak ritmi o'zgarmagan, me'yoriy puls.
- Ko'pincha qorinchalar aro to'siq defektiga xos bo'lgan shovqinlar eshitiladi, kriz paytida o'pka arteriyasi stenozi shovqini pasayadi.
- Xirillashlar va hushtaksimon nafas bo'lmaydi

#### Shoshilinch yordam:

- Kislorod ingalyatsiyasi
- Tinchlik yaratish.
- Tomirlarning periferik qarshiligini oshirish uchun bemor tizza – ko'krak holatiga keltiriladi
- Yurak glikozidlari va diuretiklarni qo'llash qat'yan man etiladi.
- Tinchlantrish va o'ng qorinchadan chiquvchi to'siqni kamaytirish uchun morfin, 0,1 mg/kg m/o yoki v/i ga yuboriladi.
- Fiziologik eritma, 10 ml/kg v/i.
- Tomirlaming umumiy periferik qarshiligini oshirish uchun fenilefrin, 5 mkg/kg v/i, yoki adrenalin, 5—10 mkg/kg v/i.
- metabolik atsidoz bartaraf etiladi.

#### Oldini olish:

- Gipovolemiyada iloji boricha tezroq infuzion davo boshlash zarur.
- Fallo tetradasi bilan bolalarga diagnostik va davo chora-tadbirlaridan oldin tinchlantruvchi va og'riq qoldiruvchi moddalar yuborilib, ota-onalarning farzandlari yonida bo'lislari ruhsat etiladi.
- beta-blokatorlar doim qo'llaniladi (masalan anaprilin 0,25 – 0,5 mg/kg kuniga), krizni oldini olish uchun

#### Nazorat savollari

1. Yurak etishmovchiligi sabablarini sanab bering.
2. Bolalarda yurak etishmovchiligining klinik ko'rinishini sanab bering.
3. Bolalarda yurak etishmovchiligidagi shoshilinch yordam ketma-ketligini aytib bering.
4. Yurak tamponadasi sabablarini aytинг.
5. Yurak tamponadasi klinik ko'rinishini aytинг.
6. Yurak tamponadasida shoshilinch yordam ketma-ketligini aytинг.
7. Tsianotik kriz yuzaga kelish sabablarini.
8. Tsianotik krizning klinik ko'rinishini sanab bering.
9. Tsianotik krizda shoshilinch yordam ketma-ketligi va oldini olish chora-tadbirlari.

#### YANGI TUG'ILGAN ChaQALOQLARDA STATSIONAR ShAROITIDAN TASHQARI ShOSHLINCh YORDAM KO'RSATISH.

Tug'ruq har hil sharoitda dunyoga kelishi mumkin: tug'ruqxonada, kasalxonada, uyda va hattoki ko'chada. Asoratsiz tug'ruqlarda maxsus akusherlik tayyorgarligi va asbob uskunalarini kerak bo'lmaydi. Biroq chaqaloqning hayoti va sog'lig'i tug'rujni olib boruvchi va yangi tug'ilgan chaqaloqqa yordam beruvchi tibbiyat xodimiga bevosita bog'liq. Ko'rsatilgan yordamning muvafaqiyatli chiqishi uchun avvalo yordam ko'rsatishni rejalashtirish, eng ma'qul usulni va joyni tanlay bilish juda muhimdir. Bu omillar tug'rujni olib borishni engillashtirib, chaqaloqqa birinchi yordam ko'rsatishni osonlashtiradi.

Tug'ruq jarayoni tez tibbiy yordam xodimidan juda katta ma'suliyatni talab qiladi. Chunki bunday holatda kutilmaganda bermorlar soni oshib borishi mumkin(ona va bola). Yangi tug'ilgan chaqaloq tibbiy xodim uchun texnik va ruhiy qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun yangi tug'ilgan chaqaloq reanimatsiyasini olib borishda maxsus standart tavsiyalardan foydalanan lozim. Bu sohadagi maxsus bilim va malakaning etarli bo'lishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim asoratlarning oldini olish imkonini beradi. Shuningdek tibbiy xodimdan har bir harakatni shoshilmasdan,ishonch bilan amalga oshirish talab etiladi.

Ayolda to'lq'oq boshlanganda siz o'sha erda bo'lsangiz, birinchi navbatda birlamchi ABCD baholash usuli orqali hayot uchun xavf soluvchi holatlarni aniqlab olish kerak. Shundan so'ng tug'uvchi ayoldan tezda fokuslangan anamnez yig'ish kerak.

Quyidagi savollar qo'yilgan:

- Homiladorlik bor yo'qligi?
- Homila muddati?
- Oq'riq va to'lq'oq?
- Qon ketish yoki boshqa bir ajralmalar bor yo'qligi (ichki nam kiyim)?
- Qanday chastotada va to'lq'oq davomiyligi?
- To'lq'oq paytida qin sohasiga bosuvchi defekatsiya belgilari bormi?
- Bemor kuchanish kerakligini sezmoqdamli?
- Qorni tarang turibdimi yoki yo'qmi?
- Nafas olishda qiynalish, toliqish , hushini yo'qotish, ko'ngil aynish hissi kuzatilyaptimi? Qusush, diareya, tildan qolish, holsizlik, bosh aylanish hollari kuzatilganmi?

#### Ehtiyyot choraları :

- Qin sohasiga tug'ruq jarayonidan boshqa paytda tegmaslik.
- Tug'uvchi ayloning hojatga borishiga yo'l qo'ymaslik.
- Onaning oyoqlari jipslashishiga yo'l qo'y mang.
- Bemorni tezlik bilan shifoxonaga etkazish imkoniyatlarini topish.

#### Fizikal ko'rav

1. Bemorni tezroq shifoxonaga etkazish imkoniyatlarini aniqlang.  
Buning uchun homilador ayolni qorniga qo'lni qo'yib to'lq'oq oralig'i vaqtini aniqlash lozim.
  - Agar to'lq'oq oralig'idagi vaqt 5 daqiqa bo'lsa – bemorni transportirovka qilish uchun etarli vaqt mavjud.
  - Agar to'lq'oq oralig'idagi vaqt 2 - 5 daqiqa bo'lsa – 1 soat davomida bemorni tug'ruqxonaga olib borish imkoniyati bor yo'qligini aniqlash. Agar bunday imkoniyat bo'limasa tug'ruqga tayyor turish kerak.
  - Agar to'lq'oq oralig'idagi vaqt 2 daqiqadan kam bo'lsa – mustaqil tug'ruqni olib borish kerak.
2. Xomilador ayol uchun kulay joyini tanlay bilish.
3. Kin urtasida boshchani bor yukligini yaxshilab karangi (agar bemor anamneza svollariga ijobjiy javob bersa)
4. Agar boshcha kurinsa, tugrokka taylorlanish zarur.
5. Agar boshcha kurinmasa, bunda tugish jarayoni kiyinlashishi mumkin.



Boshning tiqilishi

- Onadan kuchanmasligini surang.
- Tugayotgan ayloni tinchlantiring.
- 6. Akusherlik asboblarini tayyorlash

#### **Akusher asboblar tuplamasi**

- Jarroxlik tigi
- Gemostatik kiskich yoki klipslar (imkoniyatga karab)
- Steril lenta yoki shnur chov soxasi uchun
- Rezinali nokcha
- Sochik
- 5X10 sm marlili gupka
- Steril kulkop
- Bolalar yopinchigi
- Gigienik taglik
- Plastik xalta
- Surib olivchi nokcha

#### **Tugruk stadiyasi**

- 1- Stadiya – birinchidan tulgokdan boshlanadi va bachadon buyni ochiladi (xar bir yangi tug’ruqdan oldin bu oralik taxminan 1 soatga kiskaradi)
- 2- Stadiya – bunda avval bachadon buyning ochilishidan boshlanadi va chaqaloq tugilishi bilan tugallanadi.
- 3- Stadiya – bola tugilish bilan boshlanadi va platsentaning kaytishi bilan tugalla

#### **Xomiladorlikni olib borishdagi tadbir**

- Kulkop takish, nikop, xalat, ximoya kuz oynagi yukumli kasalliliklardan saklanish yullari.
- Tugayotgan aylor orkasini bilan yotishi va oyoqlarini ikki tomoniga kerib,tizzalarini bukishi kerak.
- Onaning orkasini yopinchik va yastik bilan kutarib turish kerak .
- Kin atrofini toza choyshab bilan artib turing (kuruk latta yoki kogoz salfetkasi ).
- Bolaning boshi kurinishi bilan, boshini kaftingizda kutarib turing va seklinik bilan urib, asta seklinik bilan bosib kuying, ogzi bilan katiy xarakatning oldini olish uchun (fakat yuzi va ogziga emas). Axvolini kuzating, extiyotlik bilan ogiz atrofini artib chiking.
- agarida amnion kopining butunligi buzilmagan bulsa,uni kiskich bilan yorish kerak ( yoki kul bilan yorish, lekin aslo pichok yoki skalpel yordamida emas) fakat bola kuringanda uni ogzi vo boshidan uzoqda kullash kerak.
- Boshi tugilish bilan uni kindik bilan uralganmi yoki yukmi



Bola boshi chiqib  
kelayotganda  
uni ushlab turish kerak.

**Chaqaloq og’iz va burun bo’shlig’ni  
aspiratsion tozalash texnikasi**



tekshirish kerak. Agarda shunday bulsa, u xolda kindikni elkadan utkazish yoki kisish, kesish va buyindan ajratish kerak.

- Boshi tugilish bilan boshni ushlab turish kerak va ogizza aspiratsiya olib borish maksadida rezina nokcha bilan tozalash kerak.bunda xalkum ortini shikastlanishdan uzoqrok bulish zarur.
- Bolani bosh vo yuz kismidagi choklarini davomiyligini aniklash.bosh vo yuz kismidagi choklar bolani kaysi tomonga xarakatlanayotganini belgilaydi.
- Bolani xar bir elkalarini tugilishi oson kechadi – chaqaloq bu vaktda sirpanuvchan buladi.
- Bola gavdasini va butun azani tugilishida tugilayotganda kullar yordamida ushlab turish kerak.
- Oyoklari tugilishi bilan ularmi kullar yordamida ushslash zarur.
- Bola tugilishi bilan xamkasbga monitoring utkazishni vo axvoliga karab birinchi yordam kursatishni tayinlash kerak.
- Puls tuxtashi bilan kiskichlar bilan kisilgan kindik kesiladi.
- Chakalok ogzi vo burnidagi kon vo shilliklardan toza steril marli yordamida tozalab kayta aspiratsiya utkazish.
- Chakalonki issik choyshab bilan urab va yonboshga boshini biroz tushirgan xolda yokkiziladi.
- Chakalonki kin soxasida ushlab turish kerak to kindigini
- Xamkasbi chaqaloqni monitoring kuruvdan utkazish va axvoliga karab birinchi yordam kursatishni uz buyniga oladi.
- Puls tuxtashi bilan ona kini soxasiga marli kuygan xolda kindigi kesiladi vo ona korni soxasiga joylashtiriladi.
- Kiskichni kindikka 20-25 sm boladan uzoqlikda kuyish kerak.
- Ikkinchchi kiskichni boladan turt barmok uzoqlikka kuyiladi
- Bolani ona korniga joylashtirsa xam bulaveradi.
- Chakalok ogzi vo burnidagi kon vo shilliklardan toza steril marli yordamida tozalab kayta aspiratsiya utkazish.
- Nafas olishi uchun bolani orkasiga yoki oyoqlari ostini ishkalash yoki urish kerak (bu tadbirni extiyotlik bilan olib borish kerak)
- Chakalonki issik choyshab bilan urab va yonboshga boshini biroz tushirgan xolda yokkiziladi
- normal tug'ruqda bola kindigini kesish shart emas.
- Tugruk vaktini fiksatsiyalash.
- Kup bolali tug'ruqda birinchingi tugilish bilan ikkinchisiga tayyor turush kerak.
- Tugrukdagilarni ketma ketligini kuzatish. Bu bir necha 30 dakikani tashkil kiladi.
- Bulimdan sung kindikni sochikka 3/4 uzunlikda bolaga yakin xolda uragan xolda polietilen paketga uraladi.
- Kin oraligiga steril yostiksimon belbog kuyilib onaga oyoqlarini bir biriga kisishga yordam beriladi.
- Bola vo onani transportirovka jarayonida sochikni uzoqlashtirmaslikka xarakat kilinadi.
- Sochikni uzoqlashtirishdan oldin platsentani plastik paketga urab kasalxonaga shu holatda olib boriladi.
- Onaning kin soxasiga steril taglik kuyilib oyoqlarini tushirib kuyish.
- Tugruk vaktini yozib olinadi vo onani, chaqaloqni vo platsentani transportirovkalab kasalxonaga olib boriladi.

### Chaqaloqning kindikni kesishdan oldingo holati



- Onaga tug'ruqdan keyingi birinchi yordam kursatiladi.
- Butun protsess davomida ona bilan aktiv kontakt olib boriladi.
- Nafas vo pulsatsiya monitorini olib boriladi.
- Tugrukda axamyat berish kerak tug'ruq – davolash tadbiri ta'lub kiladi.
- Transportirovka vaktida xar bir choyshab va prostina kondan xoli bulishi nazarga olib ularni almashtiriladi.

#### Xujjalarni to'ldirish

- Tug'ruq vaqtini belgilash
- Shkala bo'yicha chaqaloq ahvolini belgilash APGAR 1- va 5-daqiqalar, tuqqandan so'ng:
  - Rangi**
  - Puls**
  - Refleksi**
  - Mushaklar tonusi**
  - Nafas olishi**

	ball 0	ball 1	ball 2
Teri rangi			
Puls	puls yo'q	<100/min	>100/min
Reaksiyasi			
Mushak tonusi			
Nafas	nafas yo'q	kuchsiz, sekin	kuchli, chinchirish

#### Tugrukdan keyingi kindan kon ketish

Tugrukdan keyin 500 ml mikdorda kon ketishi bu tabiy xol xisoblanadi. Tuxtovsiz kon ketishda tez – tez bachadonni ukalab turish kerak:

- Barmoklar uzunligi xolida korin ostki kismida, kov suyagi soxasiga bosib turiladi. Shu soxmani ukalash .
- Kon ketishi davom etganda tugri manipulyatsiya olib borish kerak, kislorod berish, vena ichi infuziyasini olib borish vo shoshilinch xolda transportirovkalash.
- Kon ketishida agar ona shok holatiga tushib kolgan bulsa, tezda shoka karshi preparatlarni kullash va bemorni shoshilinch tarzda transportirovka kilish va yul davomida bachadoni massaj kilib borish shart.

#### Yangi tug'ilgan chaqaloqqa birinchi yordam kursatish

- Kulay holatga joylashtirish, kuritish, artish, issik choyshabga urash va boshini yopish.
- Aspiratsion tozalashni davom ettirish.
- Chakalokni holatini baxolash – normal kursatkichda.
  - Tashki kurinishi – rangi: markaziyt tsianozga boglamagan xolda(tanada).
  - Puls (balki kindikda aniklangan) – 100 <sup>1</sup> da
  - Burishtirish – energetik va kuzga tashlanuvchan.
  - Aktivligi – oyoq kullarni yaxshi xarakatchanligi.
  - Nafas olishi – normal (40 min/nafas olishi) bakirgan
- Chakalokka yordam berishdagisi asosiy punktlari – kulay joyga yotkizish, kuritish, isitish va nafas olishini stimullaish.
- Chakalokni choyshab bilan urash vo boshini ushlab turish.
- Agar zarur bulsa, aspiratsiyani davom ettirish.
- Chakalokni stimullahtirish agar u nafas olayotgan bulsa.

- Oyok kaftini yoki tovonini ishkalash.
- Chakalok orkasini ishkalash.

Agar yangi tugilgan chaqaloq nafas olmayotgan bulsa yoki 1 minut ichida nafas alishga kiynalayotgan bulsa, tezda kushimcha chora tadbirlarni kullash kerak.

1. Nafas olish yullari utkazuvchanligini yaxshilash
2. IVL kullash chastotasi 1 minutda 40 nafas.
3. 1 minutdan sung kayta holatini baxolash.
4. Agarda yurak urish soni 80 tadan kam bulsa, ikkinchi yordamchi yupik yurak massajini utkazishi kerak.

### **Yangi tugilgan chaqaloqni birlamchi reanimatsiyasi**

#### **Nafas xarakati**

Yukori nafas yullarida, sekinlik bilan yoki yuk bulsa sun'iy nafas berishni boshlash:

- Nafas yullarini ochish, bosni neytral tutgan xolda
- Avval ogiz xalkum kismini tozalash sung rezina nokcha yordamida burunni tozalash.
- Chakalokni stimullash, holatini uzgartirish.
- Kislorod yordamida ingalyatsiyalash
- Ambu kopri orkali tugridan tugri 5 marta nikop orkali xavo yuborish (kopning bir martalik kiskarishida, kop 2-3martaga kiskaradi – «ritim vals» deylildi) kerak.
- Kayta baxolash (upkada xozir bulishi va kukarishi)
- Effekt bulmagani xolda bosh holatiga etibor berish, maska tutish vo IVL ni boshlash.
- Kukrak kafasi neadekvatna xarakat kilsa ogiz burun bushligini tozalashda davom etish.


#### **Yurak kiskarish soni**

1. Yurak tonlarini borligini aniklang auskultativli yoki kindik pulsatsiyasi orkali
2. Agarda minutigi 60 marta sun'iy ventilatsiyani davom ettirilsa (40 minutda )
3. Agar YuKS kuzatilsa kamida 60- dakika kuzatilsa yurak ustidan masaj kilishni davom ettirish..
4. Agar YuKS 100 ta bulsa yopik yurak masajini tuxtatish va aktivlashguncha kislorod yordamida ingalyatsiyalash.
5. Agar nafas olish chastotasi 30 minut bulsa vintelatsiyani tuxtatish.
6. Holatini kayta baxolash 30 sekunddan sung.
7. Effekt bulmagani xolda IVL ni davom ettirish

#### **Effekt bulmagani reanimatsiyani tuxtatish**

- Agarda reanimatsiya boshlaganiga 20 minutdan ortik vakt ketgan bulsa, bola nafas olmayotgan bulsa va pulsi xam bulmasa tuxtatish mumkin
- Onasini tinchlantririb turib bolani xalok bulganini tushuntirish.

### **Tug'ruq vaqtida homilaning holati**



## Anomal tug'ruqlar



**Kindik tushishi** – holati, bosh tugilishidan oldin kindik tushishi; chaqaloq tugilmasidan turib unga xavf solishi mumkin.

1. Tugivchi ayolni bosh tomonini tushirib va oyoqlarini kutargan xolda, tug'ruq yollaridagi bosimni tushirish.
2. Steril perchatka yordamida qo'lni kiritish, tug'ilib turgan kismini pulsatsiyali kindikdan uzoqlashtirish.
3. Shoshilinch holatda transportirovkalash, bosimni tushirishda davom ettirib kindik pulsatsiya monitoringini utkazish.

4. Holatiga karab kindikni boshni yonidan chikarish; bu holat xali tugilmagan chaqaloq uchun kata xavf tugdirish mumkin.

**Tugruk orkasi bilan kelsa** – tug'ruqda chaqaloqni dumbasi yoki oyoqlari bachadon buyni soxasiga tugri kelsa, tug'ruq dumba yoki oyoqlari bilan kelsa.

1. Chakalok uchun xayot uchun xavfli bulgan kindik chikishidagi tug'ruq travmalari kuzatilish mumkin, bu holatda agar chaqaloq dumbasi bilan kelgani tashxislansa shoshilinch transportirovka utkazish.
2. 10 minut davomida tug'ruq ka'bul kilinmaydi.
3. Agar bosh chikishi 30 sekund davomida kechsa steril perchatka yordamida qo'lni kirgazib tugilish joyni pulsatsiyalanuvchi kindikdan uzoqlashtirish.
4. Shoshilinch tibbiy yordam.
  - Xozirgi axvoli tashxislansa shoshilinch tarzda transportirovkalash.
  - Tuguvchi ayolga kislorod berish.
    - Tuguvchi ayolni boshini tushirib chanok soxasini kutarish kerak.

Bosh old ktlishi



Dumba old kelishi



Old kelishi - bu homilaning tug'ruq yo'llaridan birinchi bo'lib chiquvchi tana qismi (bosh dumba, oyoq va h.k) dir.

### Kindikka uralib kolish

Chakalok buyni kindik bilan uralib kolsa extiyotlik bilan kul bilan boshidan utkazib ajratish.

**Oyok kullarni tushishi** – bu holatda, tug'ruq paytida chaqaloq oyoq kullarini tug'ruq yollaridani



cholikti kupilicha bu holat durniba bilan kelganda kuzatiladi.

1. Ustidin holat tarkovislargan holatda shoshilinch transportirovkalash.

2. Tuguvchi ayolni kislorod yordamida ingalyutkiyalash.

3. Tuguvchi ayolni boshini tushurib chanok soxasini kutarish kerak.

Bolaniug bo'yidan o'talgan kindikni chiqarish

#### Kup xomilali tug'ruq

1. Bunday xollarda 1 necha bemorlar uchun reanimatsion holatiga tayyor turish zarur.

2. Yordamchi kuchlarni chakirish.



#### Mekkoniali buyalish

Mekoniylari - yashil yoki jigarrang

tipdagiga loykalangan amnional suyuligiga buyalishi bulib, bu holat kupincha chaqaloqni tug'ruq yullaridagi distressa paytida yuzaga keladi.

1. Oqiz xalkum bushligin aspiratsion tozalamasdan turib stimulyatsiyani utkazmaslik.

2. Tozalash

3. Nafas yullari utkazuvchanligini tiklash

4. Shoshilinch xolda transportirovkalash

#### Chala tugilish

• Gipotermiya rivojlanish xavfi yukori (xar doim)

• Odatta bunday xollarda reanimatsiya bulimiga yotkiziladi. Albatta bunday paytda muolaja oxirigacha olib boriladi.

#### Kontrol savolar:

1. Sfokusirlangan tuguvchi ayolni anamnezidagi savollarni sanab uting

2. Tuguvchi ayolga kanday extiyot yordam choralarini kullaniladi?

3. Tugruk vaktiga kanday anik vakt belgilanadi?

4. Akusher asboblar tuplamini sanab uting?

5. Kiyin bulmagani xoldagi muolajalarni keltiring

6. Yangi tugilgan chaqaloq operativ dokumentatsiyasida kanday informatsiyalar tuldiriladi?

7. Apgar shkalasi buyicha chaqaloq kanday baxolanadi?

8. Tukan yogla tug'ruqdan keyingi kon ketishda kanday chora tadbirlar kullaniladi?

9. Soglom chaqaloqka kanday birinchi yordam keltiriladi?

10. Chakalokka birlamchi reanimatsiya kanday utkazish?

11. Tugruk paytida kindik tushishida kanday chora tadbirlar kullaniladi?

12. Dumba bilan kelganda kanday chora tadbirlar kullaniladi?

13. Tugrukda bola kindikka uralgan bulsa kanday chora tadbirlar kullaniladi?

14. Tugruk paytida bola oyoqlari bilan kelganda kanday chora tadbirlar kullaniladi?

15. Kup xomilalik holatida kanday chora tadbirlar kullaniladi?

16. Tugruk mekoniy bilan buyalgan xolda kelsa kanday chora tadbirlar kullaniladi?

17. Chala tugilganda kanday chora tadbirlar kullaniladi?

#### BOLALAR SHIKASTLANISHLARIDA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM KURSATISH

## *Travmatologik bemorlarga shoshilinch yordam ko'rsatishning asosiy tamoyillari*

Shoshilinch yordamning asosiy maqsadi bemorning hayotini xavfdan qutqarish, azobini engillashtirish va iloji boricha tezda maxsuslashtirilgan yordam uchun transportirovka qilishdan iboratdir.

Bunda yordam ko'rsatuvchi shifokor jabrlanuvchi ahvolini tezda va xatosiz aniqlashi, nogironlikka olib keluvchi hayotiy xavfli holatlarni tezda baholashi va kerakli yordam ko'rsatishi zarur.

Kritik holatlarning tezda rivojlanishi ehtimoli yuqoriligini inobatga olib tekshiruvni to'liq va tez o'tkazish lozim. Tez tibbiy yordam tizimida ishlovchi xodim ma'lum tartibda ishlashi kerak. Shoshilinch yordam birinchi navbatda hayotga xavf soluvchi holatlarni, ayniqsa shok bilan kurashga qaratilgan bo'ladi va quyidagi choralarlardan iborat:

- -tashqi nafas va yurak faoliyati buzilishiga qarshi kurash
- -ochiq pnevmotorksda germetik bog'lam qo'yish
- -tashqi qon ketishni vaqtincha to'xtatish
- -jarohatga ikkilamchi infektsiya tushishini oldini olish va tashqi muhitning noqulay omillaridan himoya qilish uchun aseptik bog'lam qo'yish va isitish
- -og'riq qoldiruvchi preparatlar yuborish
- -transport immobilizatsiyasi va bemor transportirovkasini to'g'ri o'tkazish

Bu sanalgan choralar quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- 1.Voqqa joyi baholanadi va xavfsizlik ta'minlanadi
- 2.Bemor ahvoli birlamchi baholanadi.
- 3.Fizikal ko'ruv
- 4.Anamnez yig'ish
- 5.Kerakli to'liq yordam ko'rsatish
- 6.Bemor ahvoli takror baholanadi.
- 7.Transportirovka qilish va hujjatlarni to'ldirish.

Bemorning mast holati, jarohatning vahimali ko'rinishi, stress holatlari kabi chalg'ituvchi omillarning bo'lishidan qat'iy nazar, tez tibbiy yordam xodimi barcha bosqichlarni o'tashi lozim.

### **1.Voqeja joyini baholash va xavfsizlikni ta'minlash**

Voqeja joyini baholashda bemor sizning hayotingizga va sog'lig'ingizga xavf solmayotganligiga, shoshilinch yordam ko'rsatish xavfli emasligiga to'liq ishonch hosil qilgan xolda, jarohat mexanizmni o'rganish kerak. Jarohat mexanizmini o'rganish orqali shifoxonagacha bosqichda aniqlash imkoniyati bo'lgagan yashirin jarohatlar xaqida ham qo'shimcha ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Bu bosqichda shifokor o'zining va o'z guruhining xavfsizligini shaxsiy himoya vositalaridan foydalangan xolda maksimal ta'minlashi, atrofdagilarning xavfsizligini ta'minlashi, guvohlarning yaqinlashishiga chek qo'yishi hamda bemorning o'zi «xavfli» emasligiga ishonch hosil qilishi lozim.

### **2.Bemor ahvolini birlamechi baholash**

- AVSDE bo'yicha baholash yoki hayotiy xavfli holatlarni aniqlash:
- A.Nafas yullari o'tkazuvchanligini baholash. Agar nafas yo'llari o'tkazuvchanligi buzilgan bolsa, sababini aniqlash va yordam ko'rsatish.



V. Nafasni baholash. Nafas ctishmovchiligi bo'lganda sababini aniqlash, zarurat bo'lsa kislorod bilan ta'minlagan xolda YoSUV ga o'tkazish, yoki SUV ni amalga oshirish.

S. Qon aylanishini baholash. Yurak faoliyatni buzilganda sababini aniqlash va yordam ko'rsatish. Yurak to'xtaganda yurakning yopiq massajini boshlash. Ochik qon ketishini aniqlash va to'xtatish.

D. AVPU shkalasi bo'yicha hush darajasini aniqlash. Ushbu shkala bo'yicha baholash ko'rsatkichlariga asoslangan xolda havo o'tkazuvchi naylarni qo'llash.

E. Butun tananing tezkor fizikal tekshiruvini o'tkazish (bosh, bo'yin, ko'krak qafasi, qorin, chanoq, oyoqlar, qo'llar, zambilga, bel taxtasiga yoki boshqa moslamaga bemorni olishda tananing – orqa tomoni).

Hayotiy xavfli holatlar yo'qtigandan so'ng Glazgo shkalasi bo'yicha hush darajasini aniqlash va hayotiy ko'rsatkichlar: YuQS, NS, AQB, qorachiqlarning yorug'likka reaksiyasi ,teri qopamlarining rangini baholash , butun tananing yo'naltirilgan fizikal tekshiruvi bilan bemor ahvolini ABCDE bo'yicha ikkilamchi qayta baholash o'tkazish.

#### Jarohat og'irligi shkalasi bo'yicha bemorni baholash

Ko'rsatkich	Gradatsiya	Ball
<i>Nafas soni</i>	10 - 24	4
	25 - 35	3
	36 dan ko'p	2
	1 - 9	1
	Nafas olmayapti	0
<i>Nafas harakatlari</i>	Odatdagidek	1
	Retraktsiyali yoki nafas olmayapti	0
	90 dan ortiq	4
<i>AQB</i>	70 - 89	3
	50 - 69	2
	0 - 49	1
	Periferik puls yo'q	0
	2 soniyadan kam	2
<i>Kapillyar sinama</i>	2 soniyadan ko'p	1
	Qayta qizarmayapti	0
<i>Glazgo shkalasi bo'yicha baholash (ballar)</i>	14 - 15	5
	11 - 13	4
	8 - 10	3
	5 - 7	2
	3 - 4	1
	0 - 3	0

<b>Ja'mi ballar</b>	16	15	14	13	12	11	10	9	<b>8</b>	7	6	5	4	3	2	1
<b>Yashash % i</b>	99	98	96	93	87	76	60	42	<b>26</b>	15	8	4	2	1	0	0

#### Jarohat shkalasi tahlili

Agar bemor 8 balidan kam yig'sa, uning ahvoli mukammal kuzatuvni va aggressiv davoni talab qiladi

#### Bolalarda jarohat shkalasi

	+ 2	+ 1	- 1
<b>Vazn (kg)</b>	20 dan ko'p	10 - 20	10 yo'q

<b>Nafas</b>	Me'yoriy	Saqlangan	Yo'q
AQB	90 dan ortiq	50 -- 90	50 dan kam
Hush	Qorong'lashgan	Sopor	Koma
Ochiq jarohatlar	Yo'q	Kam sonli	Katta /teshib o'tuvchi
Suyak jarohati	Yo'q	Yopiq	Ochiq/ko'plamchi jarohat

### Bolalar jarohatini baholashning qayta ko'rib chiqilgan shkalasi

Glazgo shkalasi bo'yicha ballar yig'indisi	AQB*	Nafas soni	Ballar
13 – 15	90 dan ko'p	10 - 29	4
9 – 12	76 – 89	29 dan ko'p	3
6 – 8	50 – 75	6 – 9	2
4 – 5	1 – 49	1 – 5	1
3	0	0	0

\*Agar monometrda bolalar tasmasi bo'lmasa:

+2 – puls bilak arteriyasida aniqlanadi

+ 1 – puls son arteriyasida aniqlanadi

- 1 – puls aniqlanmaydi

### Bolalar jarohati shkalasi tahlili

Agar bola 8 balldan kam to'plasa, uning ahvoli mukammal kuzatuvni va agressiv davoni talab qiladi

### Fizikal ko'ruv

Bemor boshining sochli qismidan, to barmoq uchigacha jarohat belgilarini aniqlash uchun tekshiriladi:

- qon ketish
- og'riq
- yorilish
- shilinish
- yoriq
- lat eyish
- gematoma
- deformatsiya
- parez
- paralich
- chiqish
- sinish

Zarur bo'lsa, sinish va chiqishlarda immobilizatsiya amalga oshiriladi.

### Anamnez yig'ish

Anamnez yig'ish - jarohat sababini bilish, yashirin jarohatni aniqlash, jarohat og'irligini baholash va shoshilinch yordam taktikasini belgilash imkonini beradi. Agar bemor hushida bo'lsa, anamnez yuqoridaqgi bosqichlarni bajarish paytida yig'iladi. Agar bemorda hushning chuqur buzilishi kuzatilsa, bu bosqich ahvoli yaxshilangandan keyin o'tkaziladi. Anamnez yigishda «KADOOYO M» sxemasidan foydalanim mumkin(kasallik, allergiya, dor, preparatlari, operatsiya, oxirgi egan ovqati, suyukligi, shifoxonagacha bo'lган bosqichda ko'rsatilgan yordam va uning samarasи, jarohatlanish mexanizmi). Anamnez yig'ish bizga nafas va yurak qon tomir

tizimi kasalliklari, osteoporoz, o'sma, avvalgi sinishlar kabi kerakli ma'lumotlarni berib, jarohat og'irligini baholash uchun o'ta muhimdir.

### **Yordam ko'rsatish**

#### **Yordam ko'rsatish tamoyillari:**

- Tashqi qon ketishi to'xtatish. Eng samarali usul-bosib turuvchi bog'lam qo'yish. Jarohat doka bilan yopilib, ustidan elastik bint siqib bog'lanadi. Agar qon ketish davom etsa, biringchi elastik bint ustiga ikkinchisi siqib bog'lanadi. Yana qon ketishi to'xtamasasi, ikkinchi qavat olib tashlanib, uchinchini qavat qo'yiladi. Qon to'xtatuvechi jgutlar va qisqichlardan foydalanimish tavsiya etilmaydi. Bu usullarning ko'pincha noto'g'ri qo'llanilishi oqibatida og'ir asoratlar kelib chiqishi mumkin. Agar jgut qo'yilgan bo'lsa, jarohatga ishlov bergandan keyin uni olib tashlash mumkin bo'ladi. Agar qisqich qo'yilgan bo'lsa, uni maxsus yordam ko'rsatilguncha qoldirish lozim.
- Pnevmatik moslamalar. Ba'zi hollarda oyoq-qo'llar shikastlanganda bog'lam ustiga pnevmatik shina qo'yish mumkin. Havo haydash deyarli hamisha vnoz qon ketishining to'xtashiga olib keladi va ko'p hollarda arterial qon ketishini to'xtatadi. Ko'p mikdorda qon yo'qotish va arterial gipotoniyasi bilan kechuvchi oyoq va chanoq jarohatlarida shokka qarshi pnevmatik shinalar samarali hisoblanadi. Maksimal hosil qilingan bosin – 100mm. sm. ust. ga teng. Kostyum nafaqt qonni to'xtatadi, balki chanok va uzun naysimon suyaklar singanda immobilizatsiyani ta'minlaydi xamda oyoqlarga qon kelishini kamaytiradi. Jarohatdan keyingi erta bosqichlarda pnevmatik kostyum qo'llanilganda AQX(otsk) 1000-1500 ml ga oshadi. Agar kostyum nafasni qiyinlashtirsa, qorindagi tasmani bo'shatish mumkin.
- AQX ni to'ldirish.
- Og'ir atsidozni davolash.
- Yurak etishmovchiligini davolash

#### **Suyak va bug'imir shikastlanishi**

1. Bemor ahvoli stabillashgach, sinish, chiqish va yumshoq to'kimilar shikastlanishini davolashga kirishiladi. Sinish va chiqishlar, shu jumladan shubha qilinganlari ham shinalanadi. Agar bemor shokga qarshi pnevmatik kostyuma eki shina qo'yilgan holda topilsa, sinishni rentgenologik tasdiqlash kerak bo'ladi. Shinalar faqatgina sinish istisno qilingandan keyingina olib tashlanadi. Aks holatlarda ular maxsus yordam ko'rsatilguncha qoldiriladi.
2. Teri yoki shilliq qavatlari jarohatlangan barcha bemorlarga qoqsholga qarshi profilaktika o'tkaziladi.
3. Agar oxirgi revaktsinatsiyadan keyin 10 yilgacha vaqt o'tgan bo'lsa, 0,5 ml qoqsholga qarshi adsorbirlangan anatoksin yuboriladi. Toza va yuza jarohatlarda profilaktika o'tkazmaslik mumkin
4. Agar oxirgi revaktsinatsiyadan keyin 10 yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, barcha jarohatlanganlarga 0,5 ml qoqsholga qarshi adsorbirlangan anatoksin yuboriladi.
5. Immunizatsiya kursini to'liq olmagan yoki emlash to'g'risida ma'lumotlari bo'lmasa, 0,5 ml qoqsholga qarshi adsorbirlangan anatoksin va 250 ED qoqsholga qarshi immunoglobulin yuboriladi. Keyinchalik har oyda anatoksin in'ektsiyasi qilingan holda faol immunizatsiyasini yakunlash kerak.
6. Bemor ahvolini takror baholash gospitalizatsiya kerak yoki kerak emasligini aniqlash uchun o'tkaziladi. Birlamchi baholash, fizikal ko'r'uv va haettiyl ko'rsatkichlar takroran tekshiriladi. O'tkazilgan shoshilinch yordam samaradorligi aniqlanadi va keyingi taktika aniqlanadi.
7. Gospitalizatsiya. Bemor ahvoli stabillashgach va hayotiy muhim funktsiyalar me'yorlashgach, bemorga qaysi davo muassasasida maxsus yordam ko'rsatilishi mumkinligini aniqlash kerak. Bemor mos davolash muassasasiga gospitalizatsiya qilinadi.

8. Transportirovka va hujjatlarni to'ldirish. Transportirovka turi jarohat turiga va bermor ahvoliga bog'liq.. Transportirovka vaqtida sodir bo'lgan barcha holatlar hakidagi ma'lumotlarni qayd qiluvchi va klinik belgilari dinamikasini ifoda etuvchi kuzatuv varaqasi har bir bemorga to'ldiriladi. Transportirovka vaqtida ortiqcha tadbirlarga vaqt sarflamaslik choralar ko'riliishi lozim va bermorni zudlik bilan yaqin bo'lgan mos keluvchi tibbiy muassasaga etkazish zarur. Yo'l davomida joriy holat va o'tkazilgan tadbirlarning to'liq matni yoziladigan kuzatuv varaqasi to'ldiriladi.

#### **Jarohatlarda yordam ko'rsatish usullari**

Zamonaviy tibbiyot travmatologik yordam vaqtida bermorning azoblanishini engillashtirish yo'lida o'zining ma'lum rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

Analiyi tibbiyotda hozirda oddiy va ishonchli usullardan foydalanimokda.

Travmotologik bemorga shoshiliinch yordam ko'rsatish uchun odatdag'i usullardan tashqari maxsus usullar ham qo'llanilmokda:

1. Og'nqsizlantirish.
2. Transport immobilizatsiya
3. Bog'lam qo'yish
4. Shokka qarshi kostyumdan foydalananish
5. Jgut qo'yish(«qon ketish va shok»bo'limiga qarang)

#### **Nazorat savolari:**

1. Transportirovka bosqichlarida shoshiliinch yordam ko'rsatish asosiy tamoyillari
2. Immobilizatsiya usullari va turlarini sanab bering
3. Immobilizatsiya asosiy tamoyillarini sanab bering
4. Jarohat og'irligi shkalasini tushuntirib bering
5. Bolalar jarohati shkalasini tushuntirib bering
6. Qayta ko'rib chiqilgan bolalar jarohati shkalasini tushuntirib bering

#### **KUYISHLAR.**

Kuyish deganda insonlar tasavvurida har doim ham holati og'ir bo'lgan bermolar gavdalanavermaydi. Aslida kuyish biz tasavvur qilganimizdan ham og'irroq bo'lgan jiddiy muammolardan biridir. Dunyo statistikasi ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki kuyish, shu jumladan bolaclar o'tasidagi kuyish hali ham yuqori ko'rsatkichlarda saqlanmoqda. Yana shuni takidlash kerakgi kuyganlarning faqatgina 25% i tibbiy yordamga murojaat qilishadi va ularning 20 % i kasalxonalarga yotqizilib 0,3 % i kuyish oqibatida nobud bo'ladi. Kuygan bermornlarning 20 % ini bolalar tashkil qilib, taxminan 0,25 % kuyish oqibatida nobud bo'ladi( o'lim ko'rsatkichi ko'rsatilgan yordam va parvarish sifatiga bog'liq).

#### **Mexanizmi: Quydagi jadvalda bolalarda kuyish sabablari keltirilgan:**


Sabablari	0-5 yosh (%)	6-15 yosh (%)
Qaynagan suv	80	25
Olov	6	63
Kontakt	8	5
Elektrotravma	4	6
Boshqa sabablар	2	-

Kuyishda quyidagi xavfli omillar farqlanadi:

- Kuyish darajasi
- Kuyish chuqurligi
- Yosh
- Nafas yo'llari kuyishi
- Olovdan kuyish
- Kasalxonagacha bo'lgan davr uzoqligi
- Premorbid fon


#### Tashhislash: *Kugan jarohat tasnifi*

Chuqurligi bo'yicha kuyishlar quydagicha tasniflanadi:



**Yuzaki kuyishlar (I-II daraja)** - termik kuyish, ya'ni bunda epidermis va dermaning yuqori qavatlari zararlanadi. Masalan, kuchli quyosh urishi yoki issiqroq suvdan kuyish. Agar bunday kuyishlar infektsiyalanmasa mustaqil bitadi.

**Qisman chuqr kuyish (III-a daraja)** - termik jarohatlanish bo'lib, epidermis va dermaning barcha qavatlari zararlanadi, faqtgina epidermal ortiqlar (soch follikulalari, tcr va yog' bezlari)




va chuqr dermada yashash qobiliyati saqlanadi. Masalan, qaynagan suv yoki olovdan kuchli kuyishni shular sarasiga kirish mumkin. Bunday kuyishlar sekin, giperetrofik nostabil epidermisli chandiq hosil qilib bitadi.

**Chuqr kuyish (III-b – IV daraja)** - termik zararlanish bo'lib, bunda epidermis va derma zararlanadi va regenerativ elementlari qoldirmaydi. Masalan, qaynagan suv yoki olov bilan kuchli kuyish va kontakt kuyish. Bunday kuyishlarning bitishi uchun teri plastikasi talab etiladi. Ba'zi og'ir hollarda esa teri osti yog'

qavati, mushak va hatto suyaklar ham zararlanishi mumkin.

Qisman chuqr va yuzaki kuyishlarda saqlanib qolgan tomirlar oziganishining buzilishi infektsiya rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanib, keyinchalik kuyish o'mida qo'pol chuqr chandiqlar qolishi mumkin. Koli-infektsiyalar va stafilokoklar yarani chuqurlashtiruvchi, mayda tomirlar trombozini, staz va ishemiyani keltirib chiqaruvchi



omillarni oshiradi. Shunday qilib, qisman chuqur kuyishlarda bakterial infektsiyalanish kuyishni chuqur kuyishga aylanishiha olib keluvchi q'shimcha ishemik holatni yuzaga keltirishi mumkin. Kuyish maydoni yuzasi «to'qqizlik qoidasi» bilan anylanadi. Bu usulning asosiy mohiyati shundaki tananing alohida qismilari sathi to'qqiz foiz deb qabul qilinadi. Masalan, katta odamning qo'lli va boshi umumiy tana sathining 9% ni tashkil etadi, orqa qismi elkadan to dumba sohasigacha 18 % tashkil etadi.

Bu qoidani yosh bolalar va yangi tug'ilgan chaqaloqlarga qo'llash uchun aniq modifikasiyalar talab etiladi. Ko'krak yoshidagi bolalar boshi umumiy tana yuzasining katta qismimi, oyoq-qo'llar esa kam qismni tashkil etadi. Shunday farqlanishlarni turli yoshdagি bolalarda kuyish yuzasini hisoblashda e'tiborga olish kerak.

Kuyish darajasini aniqlash uchun biroz qo'polroq bo'lgan usul – «Kaft» usulini qo'llash mumkin. Deyarli barcha yoshda kaft umumiy tana maydonini 1% ni tashkil etadi. Kaft yordamida tezda umumiy kuyish maydonini aniqlash mumkin.

Бир етудан кatta бўлган ҳар бир ёшга бом кисмидан 1% олиб, оёқга кўшилади.

**Kuyish chuqurligi** – kuyish qancha chuqur bo'lsa, shunchalik jabrlanuvchining tirik qolishiga imkoniyati kamayadi. Kuyish sathi katta, ammo yuzaki kuygan bemorning yashash imkoniyati kichik, lekin chuqur kuygan bemor imkoniyatidan yuqori bo'ladi.

**Yosh.** I yoshgacha bolalarda, katta yoshdagи bolalarga nisbatan o'lim ko'rsatkichi yuqori. Nafas yo'llari kuygan bolalarda o'lim ko'rsatkichi, boshqa kuyishlarga nisbatan ancha yuqoridir.

**Olovdan kuyish.** Qaynagan suv bilan kuyishga nisbatan o'lim foizi olovdan kuyishda yuqori bo'ladi. Kuyish paytida aynan kuyish jarayoniga kimyoviy komponentlarning qo'shilishi(benzin), keyinchalik kuyish chuqurligini oshishiga olib keladi.

**Shifoxonagacha bo'lgan vaqtning uzoqligi.** O'lim holati o'z vaqtida shifoxonaga keltirilganlarga nisbatan, kech keltirilganlarda ko'proq kuzatiladi. Ma'lumotlarga ko'ra kuyishdan keyin 7-14 kunlar ichida shifoxonaga yotqizilgan bolalar orasida o'lish holati ikki marta ko'p ekan.

**Premorbid fond.** Bolalarda letallikni belgilovchi omillardan yana biri bu qo'shimcha kasalliklarning mavjudligidir(ya'ni yurak tug'ma nuqsoni, diabet, gemoglobinopatiya, buyrak kasalliklari va b). Yuqori nafas yo'llari infektsiyasi bo'lgan bolalarda infuzion terapiya oqibatida o'pka shishi kelib chiqishi mumkin.

**Shoshilinch yordam.** O'z vaqtida o'tkazilgan tez va samarali yordam bola hayotini belgilab beradi. Kuyish va kasalxonaga olib borish orasidagi vaqt qanchalik qisqa bo'lsa, bemorning yashab ketish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Bemorlarni kuyish markazlariga etkazishni tez va ehtiyojkorlik bilan amalga oshirish lozim. Davolash va parvarishning har bir bosqichi bemorning tirik qolishga imkoniyati saqlanib qolganligiga qaratilgan bo'lishi kerak.

**Hodisa joyida yordam ko'rsatish.** Hodisa joyida kuyish sohasini keyingi jarohatini oldini olishqa qaratilgan ko'pgina murakkab davolash jarayonlarini amalga oshirsa bo'ladi.

**Yonish jarayonini to'xtatish.** Olovni o'chirishdan ko'ra to'qima yonishini to'xtatish yanada muhimdir. Soch yonishi olovga nisbatan haroratni bir necha yuz darajaga oshirishi mumkin. Shuning uchun yonayotgan to'qimani tanada qoldirish kuyishni yanada chuqurlashtirishi mumkin.

**Kuygan sohani sovitish.** Kuygan sohaga iliq yoki sovuq suvni sepiш, yoki namlangan mato yopish kerak. Chegaralangan termik kuyishda tezda shu sohani oqar suv tagida 15-20 daqiqa sovitish yaxshi samara beradi. Muz yordamida sovitish mumkin emas, chunki bu kuyish jarohatini asoratlantirishi mumkin. Holatni baholashni va davaloshning turli ko'rinishlarini bir vaqtida boshlash kerak. Nafas yo'llarini obstruktsiyadan tozalash va kerak bo'lganda intubatsiya kilish, adekvat nafasni tiklash, agar pnevmotoraks bo'lsa, uni bartaraf etish lozim.

Adckvat qon aylanishini tiklash, tomirlar hajmini to'ldirish, keyinchalik bermor tserkulyator statusini stabillash bilan birga, bemorning MAT faoliyatini, orqa miya va bo'yin qisimi jarohatlarni ko'zdan kechirish kerak. Bunday jarohatlarga gumon bo'lganda birlamchi muolaju vaqtida bermor abvolini yomonlashturmaslik choralarini ko'rish kerak. Kuyish paytida bolalarning hushini yo'qolishi MAT zararlanishida, ulgerod oksidi bilan zaharlanganda kelib chiqadi.

Davo choralarining samaradorligi kuyish darajasini aniqlanganligiga bevosita bog'liqidir. Tezkor anamnez yig'ish paytida quyidagi asosiy omillarga c'tibor qaratish zarur: kuyish vaqt, sababi, yopiq binoda yonganmi yoki ko'chada, yonish davomiyligi. Kuyishdan keyingi dastlabki davrda bemorning tana vaznnini o'lchash boshlang'ich infuzion davo miqdorini aniqlash uchun o'ta muhimdir. Agar bermorda keng qanrovli kuyish kuzatilsa dastlabki vazn bermor uchun zarur bo'lgan kunlik kalloriyani hisoblashda juda qo'l keladi.

#### ***Yordam ko'sratish choralarini***

- mumkin qadar tezda kuygan shxalarini toza mato bilan o'rash
- yog', cho'chqa yog'i, xo'jalik va xalq tabobati vositalarini qo'llash mumkin emas. Chunki ular kuyishni asoratlantirib keyinchalik uni chuqurlashishiga olib keladi.
- kuygan jarohatga infektsiya tushishini oldini olish uchun steril bog'lam qo'yish kerak. Og'riqni kamaytirish uchun bermorga og'riq qoldiruvchi va tinchlantiruvchi vositalar bermish mumkin: Analgin, seduksen.
- keng kuyish deb, agarda kuygan soha umumiyyeti maydonini o'n foizidan ko'prog'ini tashkil qilsa aytildi. Keng kuyish jarohati bo'lgan bermorlarga ishqor-tuzli aralashma ko'p miqdorda ichiriladi. Buning uchun 1 litr suvg'a 2 gr ichimlik sodasi va 4 gr osh tuzi qo'shiladi.
- agar og'ir shok belgilari bo'lsa tezda infuzion davo boshlash kerak.

**Gospitalizatsiya.** Barcha kuyishlar kuyish hajmidan qat'iy nazar kuyishga moslashtirilgan bo'lim shifokori yoki hamshirasi tomonidan ko'rvidan o'tkazilishi shart.

Quyidagi toifadagi kuygan bermorlar gospitalizatsiyaga muhetoj:

- 3 yoshgacha bolalar, kuyish. 10-12 % dan oshsa
- elektr kuyish va kimyoviy kuyish bo'lgan barcha bolalar
- olovdan yuzi kuygan yoki nafas yo'llari zaraqlanganligiga gumon bo'lgan bolalar
- yuz, qo'l, jinsiy va oraliq sohalari kuygan bolalar

#### ***Transportirovka vaqtida davolash va ehtiyoj choralarini***

- Bemirlarni kuyish markaziga har hil texnika vositalari yordamida olib borish mumkin.
- Transportirovka vaqtida issiqlik saqlanishini ta'minlash kerak, buning uchun bermorni ko'rpaga yoki issiqlik saqlavchisi alyumin folgaga o'rash kerak.
- Kuchli kuyishlarda vena ichiga suyuqliklarni tezda yuborish kerak.
- Barcha kuygan bolalarga, ayniqsa, olov yoki tutunda kuygan bolalarga kislorod albatda qo'shimcha kislorod berish zarur, chunki ularda uglerod oksidi bilan zaharlanish bo'lishi mumkin.
- Kuchli elektrotravma olgan barcha bolalarda yurak faoliyati nazorat qilinishi shart. Chunki ularda yurak ritmi buzilishi mumkin.
- Dastlabki ko'ruv xulosasi, kasallik tarixi va davolash maxsus bayonnoma yozma ravishda yozilgan bo'lishi shart, chunki bu ma'lumotlar bermor bilan birga davolash muassasasiga davoning uzlusizligini ta'minlash uchun beriladi.
- Nafas yo'llari kuyishiga gumon bo'lgan barcha bermorlarga traxeya intubatsiyasini o'tkazish shart. Bu nafaqat nafas yo'llari faoliyati buzilishini oldini oladi, balki noqulay transportirovka sharoitida zarur bo'lib qolishi mumkin bo'lgan shoshilinch intubatsiyaga hojatni qoldirmaydi.

- Yopiq joyda kuygan yoki u erda uzoq qolib ketgan bemorda tutun ta'sirida nafas yo'llarining jiddiy shikastlanishi yoki uglerod oksidi bilan zaharlanish xavfi yuqori bo'ladi.
- Bemorning tashqi ko'rinishi jiddiy o'pka asoratlari borligini aniqlashga yordam beradi. Bezohta, ko'kintir, talvasali, havo yutayotgan bemon nafas yo'llarining kuyishi oqibatida kelib chiqqan respirator distress sindromidan aziyat chekadi. Uglerod oksidi bilan zaharlangan bemon terisini olcha rangini sog'lom teri rangi bilan adashtirish mumkin emas.
- Fizikal ko'ruv og'iz bo'shligi, xalqum va xiqaldojni diqqat bilan ko'ruvini, ularda dog'lar, qizarish, o'sma va pufakchalar borligini tekshirishni o'z ichiga olishi kerak. Bularning bo'lishi jiddiy ravidishda profilaktik intubatsiya qilishni talab qiladi.
- Hayotiy muhim a'zolar faoliyati bemon kasalxonaga tushganida va holatiga qarab qayta baholanishi kerak. Bosim, puls, nafas tezligi va harorat va yana hushiga kelish vaqtini kabi muhim ko'satkichlar baholanib turilishi kerak bo'lgan ko'satkichlar hisoblanadi.
- Kasallik tarixi to'liq o'rganilishi lozim. Asosiy e'tibor bemon ahvoliga, allergiya borligi, tibbiy preparatlar, profilaktik emlashlar, ayniqsa, qoqsholga qarshi emlashlar olganligiga qaratilishi kerak.
- Hayot uchun muhim a'zolar faoliyati tekshirilgandan keyin, tezda fizikal tekshiruvni o'tkazish kerak.

#### *Kimyoviy kuyishlar*

Bu shunday jarohatki, termik agentlar zararlashiga o'xshamagan, kimyoviy agentlar zararlashidir. Kimyoviy agentlar to'qimani toki to'qimalar ularning ta'sirini pasaytirmagunicha, neytrallamagunicha yoki etarlicha suyultirmagunicha parchalayveradi. Shu bilan kimyoviy kuyishlar termik kuyishlardan farq qiladi.

Kimyoviy ta'sirlovchilar bilan kuyish og'irligini belgilovchi 5 ta omil mavjud:

- Ta'sirlovchi kuchi – kimyoviy reaksiyaga kirishish intensivligi
- Ta'sirlovchi miqdori – to'qimaga tekgan agent hajmi va kontsentratsiyasi
- Kontakt davomiyligi – kontakt qanchalik uzoq bo'lsa, emirilish shuncha chuqur bo'ladi.
- Kirib borish darajasi – kontaktdan keyin o'tgan vaqtga bog'liq
- Ta'sir mexanizmi – odatda jarohatlanishga olib keladigan turli kimyoviy ta'sirlovchilarini tasniflashda ahamiyat kasb etadi.



Jarohatlanishga olib keladigan turli kimyoviy ta'sirlovchilar oqsillarni denaturatsiyalash ta'sir mexanizmiga ko'ra quydagicha tasniflandi:

**Oksidlovchilar** – enzimlar normal faoliyatini buzgan holda hujayralar o'limiga olib keladi.

Masalan: natriy gipoklorid (xloraks), xrom kislotasi, kaly permanganat bularga kiradi.

**Korroziyalovchilar** – hujayralarni differentsiyalanmagan o'limiga olib keladi. Masalan: fenol, oq fosfor, dixromat, natriy

gidrooksidi bularga kiradi.

*Suwizlantiruvechilar* – hujayralarning jiddiy degidratatsiyasi va lizisi yo'li bilan jarohatlanishi olib keladi.

Masalan: sulfat kislota, gidroxlor kislota.

*Pufakhxosil qiluvchilar* to'qimalarda pufaklar va faol aminlar hosil qiladi, ular mahalliy to'qimalarni parchalaydi.

Masalan: kantarilar, dimetilsulfoksid, benzin, metilbromid .

*Protoplazmatik zaharlovchilar* – oqsillar bilan tuzlar hosil qilish yoki hujayrada hayotiy muhim faoliyatni bajaradigan kationlar (masalan, kaltsiy) ni bog'lab olish yo'li bilan oqsillarni denaturatsiyaga uchratadi.

Masalan: ammiak, chumoli, uksus, krezip, uchxloruksus, pikrin, volfram, fitrot kislotalar .

*Kislota va ishqorlar*. Kislotalar va ishqorlarning barcha turlari umumlashgan holda kuchli kuyishlarning sababchilari hisoblanadi. Ular ko'pincha uyimizda va ishxonamizda, hatto bolalar qo'li etadigan joylarda ham uchraydi.

*Kuchli kislotalar* – pH i 2 dan past bo'lgan kislotalardir. Neytrallah uchun ketadigan asoslarning miqdori – ta'sirlovchi kuchi ko'rsatkichiga ko'ra - jarohatlanish mavjudligini oldindan aytishga imkoniyat yaratadi.

Kuchli ishqorlar – pH i 11,5 yoki undan yuqori bo'lgan ishqorlardir.

Misol: 3,8 % li NaOH qizilo'ngachning shilliq va shilliq osti qavatlarini nekrozlaydi, 10,7 % NaOH tsirkulyar mushak qavatigacha, 22,5 % lisi esa barcha qavatlarini nekrozlaydi.

Bir hil miqdorda olingan kislota va ishqor ichida ishqorlar to'qimanri tezroq va chuqurroq zararlaydi. Buning mehanizmi quydagicha, kislota koagulyatsion nekroz chaqiradi va protein bilan qattiq quruq strup hosil qiladi. Buning natijasida jarohat yuzasi yopilib, uning chuqlashishiga yo'l qo'yamadi. Ishqor esa kollikvatsion nekroz chaqiradi, to'qimalar faqatgina namlanadi. Bu esa chuqurroq kirishga sabab bo'ladi.

**Shoshilinch yordam:** Uzoq muddat va ko'p miqdorda suv bilan yuvish.

Qo'shimcha choralar: o'lgan to'qimalarni sekin-asta olib tashlash. Infuzion terapiya.

Mahalliy antisceptiklar.

Fitorit kislota bilan kuyganda – kaltsiy glyukonat (10% li eritmasi) jarohatga yuboriladi. Kaltsiy fitor bilan bog'lanib kislotani faolligini yo'qotadi.

Fenol bilan kuyganda uning kontsentratsiyasini kamaytirish uchun ko'p miqdordagi suv bilan yuviladi. Zararlangan yuza polietilenglikol yoki etil spirti bilan artilsa, fenolning eruvchanligi oshadi va suv bilan tez yuviladi.

Oq fosfor bilan kuyganda – oq fosfor havo bilan kontakti vaqtida o'z-o'zidan yonish xususiyatiga ega. Shuning uchun yonish tugaguncha suv bilan yuvib turiladi.

Issiq smola – qotguncha sovuq suv quyib turiladi. Keyin sekin asta vazelin malhami yordamida ko'chiriladi yoki sorbitant bilan emulsiya holiga keltiriladi.

**Ko'z olmasining kuyishi**

Mehanizmi: parvarish kamnligi, ota-onalar e'tiborsizligi.

Tashhislash mezonnari: anamnez ma'lumotlari, klinik belgilari: konyuktiva qichishi, achishishi va gipcremyasiga asoslanadi.

Shoshilinch yordam: ko'zga kislota yoki ishqoriy eritmalar tushganda konyuktival qopcha suv yordamida oqim bilan tezda uzoq vaqt yuviladi. Bunda har safar bemor ko'zini ochib- yopib turadi. Agar ilojo bo'lsa voqeja sodir bo'lgan joyda yuvish kerak. Muolaja uchun rezina nokcha, choynak, Esmarx idishi qo'kullaniladi. Konyuktival qopcha gumbazi yaxshilab yuviladi.

Bemorlar ko'z yoki kuyish bo'limiga zudlik bilan gospitalizatsiya qilinadi. Transportirovka yotgan holatda. Shilliq qavat kuchli shishganda qabul bo'limida 2% li novokain eritmasi tomchilab anesteziya qilinadi. Pufak yorilganda 1% li atropin sulfat eritmasi tomiziladi.

Antibiotiklar buyuriladi, qovoqqa 5% levomitseton malhami qo'yiladi. Ko'z sohasiga bog'lam qo'yish mumkin emas.

## Qizilo'ngach kuyishlari

**Mekanizmi:** qizilo'ngachning kimyoiy kuyishlari ichida eng keng tarqalgani ishqor bilan kuyish bo'lib, aksariyat hollarda tarkibida ishqor tutuvchi suyuqlikni bilsmasdan yutib yuborish oqibatida sodi bo'ladi. Kislotalar bilan kuyish nisbatan kam uchrasada suisid maqsadida sirkalardan kuyish ko'p uchraydigan holatlardandir. Ishqorlar va kislotalar bilan kuyishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Junnidan kislotalar bilan kuyish tezda koagulyatsion nekroza olib kelib, kuyishning yanada chuquroq tarqalishiga yo'l qo'yamaydi. Buning natijasida intoksikatsiya rivojlanishi kamayadi. Ammo yuqori kontsentrlangan organik kislotalar bilan kuyish, gemoliz va buyrakning og'ir etishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Ishqoriy eritmadan kuyganda esa, qizilo'ngach devoridagi mahalliy belgilari chugur va og'ir bo'ladi, intoksikatsiya belgilari sust bilinadi.

**Tashhishlash:** uncha murakkab bo'lmay, anamnez ma'lumotlari va klinik belgilarga (to'q rangdagi qusuq massalari, shilliq qavat qismalari bilan qusish) asoslanib qo'yiladi. Ishqoriy eritmalar qabil qilganda qusuq massalari yog'li, shilliq xarakterga ega bo'ladi. Bemor nafasiga e'tibor beriladi, chunki bir vaqtida xiqilda qoq Kirish sohasi kuyishi, stridor va burun – xalqum shishi rivojlanishi mumkin.

**Shoshilinch yordam:** og'riqsizlantirish (promedol, analgin) va zond yordamida oshqozonni yuvish buyuriladi. Agar bolada nafasning o'tkir buzilishi bo'lsa, crta intubatsiya yoki traxeostomiya qilinadi. Qizilo'ngach kuyishining dastlabki soatlaridan boshlab rivojlanib boruvchi intoksikatsiya bilan kurashish lozim. Shoshilinch infuzion davvo choralar boshlanib otoloringolog yoki jarroh yordamidan kuyish jaryoni xiqilda qoq tarqalganda va reaktiv shish kelib chiqqanida foydalanish mumkin.

## Elektr tokidan kuyishlar

Elektro jarohatlar eng xavfli jarohatlar gurihiga kirib, ayniqsa ayniqsa yuqori kuchlanish ta'siri oqibatida kelib chiqadigan kuyishlar hayot uchun o'ta xavfildir. Jarohatlanishning bu turida to'qimalarning tarqoq shikastlanishi kuzatilmaydi. Ammo agar elektro jarohat qayd qilingan bo'lsa iloji boricha kamroq to'qima shikastlanishiga harakat qilish lozim. Kuchlanish chegarasini 1000 volt deb oladigan bo'lsak, shu asosida yuqori voltli va past voltli jarohatlarни farqlab olish mumkin. Past voltli jarohatlar ko'proq uyda, bola ochiq elektr o'tkazgich simini tishlab olganda kelib chiqadi. Bu kuyishlar chegaralangan, yuzaki bo'lib, voltli ayrilik yoki chaqnash ta'sirida kelib chiqadi.

Yuqori voltli jarohatlar ham voltli ayrilik yoki chaqnash natijasida kelib chiqadi. Shuningdek jarohatning ushbu turida kontakt joyidan uzoqda joylashgan to'qimalar nobud bo'lishiga olib keluvchi o'tkazuvchi tipdagisi katta xavfli jarohatlar ham uchraydi. Yuqori kuchlanishli tok manbadan (kirish jarohati) kirib organizm to'qimalaridan o'tib, erga (chiqish jarohati) etib boradi. Organizm to'qimasini tok oqimi bilan o'tkazuvchi sistema bo'lib xizmat qiladi. Shundan bilsak bo'ladiki elektro jarohatda, tana va kuchlanishli tok kirish-chiqish joyidan ko'ra oyoq-qo'llar ko'proq zararlanadi. Kirish joyidagi jarohat teri yuzasiga ega bo'lib, to'qimalarni koagulyatsiyasi va nekrozi oqibatida to'kima taranglashadi. Chiqish joyidagi jarohat odatda keng bo'ladi. Chunki tok organizmdan katta teshik qoldirib chiqib ketadi. Shunday taxmin borki, tana ichida bir necha elektr kanallari bo'lib, ular har bir organ va strukturada elektrik shikastlanish xavfini tug'diruvchi ko'plab chiqish jarohatlariga olib kelishi mumkin. Ayrisimon voltli shikastlanishlar ko'pincha yuqori chastotali shikastlanishlar bilan birga keladi. Ayrisimon voltli shikastlanishni shunday tushunish kerak-ki, bunda har hil elektr zaryadli qutblar orasida ajralgan ionlangan qismchalar to'qimani zararlaydi. Ayrisimon tok tanadan erga yoki tananang ikkinchi qismiga o'tganda hosil bo'ladi. Masalan, qo'lдан ko'krak devoriga o'tganda. Ayrisimon volt o'ta odaligan masofa har 10 000 volta 2-3 santimetrl oshadi. Ayrisimon volt harorati 20 000 °S ga ko'tarilishi mumkin va odatda katta bo'lagan yashirin shikastlanishga olib keladi. Tok o'tayotganda to'qimalar qarshiligining o'zgarishi har hil jarohatlarga olib keladi. Tokning kuchiga qarab termik kuyishlar turli darajada bo'ladi. Eng katta shikastlanish odatda oyoq-qo'llarda bo'ladi, chunki ular qarshiligi yuqori bo'lgan suyakga yaqin joylashgan bo'ladi.

O'zgaruvchan tok bilan kontaktda bo'lган mushakning tetanik qiskarishi oqibatida elektr shikastlanishlar «ozod bo'la olmasligi» fenomeni bilan asoratlanadi. Yuqori voltli simni ushlaganda bilakni bukuvchi mushaklar kuchli kontrakturaga uchraydi. Natijada manbadan ajrala olmaydi, shundan «ozod bo'la olmaslik» nomi kelib chiqqan. Bu qiyin holatdan bermor hushidan ketib yoki manbadan uzoqroq joyga yiqilsagina chiqib keta oladi. **Tashhislash:** uzoq vaqt yuqori volt ta'sirida qolgan bermorlarda ko'plab jarohatlarni aniqlash mumkin. Chuqur o'tuvchi elektr jarohatlari chuqur mushaklarning massiv parchalanishi va sog'lom teri ostida chuqur shish bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari chuqur o'tuvchi jarohatlarni MNS sohalariga, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'iga ta'sir qilishi mumkin. Kirish va chiqish jarohatlari chuqur o'tuvchi jarohatlarning farqlanuvchi belgisi hisoblanadi. Ravoqsimon jarohatlardan bitakuzuk o'mida, tirsak, oraliq va qo'llitkosti sohalarida mahalliy, juda chuqur koagulyatsion nekroz sohalarini hosil qiladi. Yuzaki termik kuyishlar chaqnash yoki kiyim yonishi natijasida kelib chiqadi va keng joyni egallab bermor ahvolini og'irlashdiradi. Bu kuyishlar oyoq-qo'lllar proksimal qismiga ta'sir qilib, amputatsiya talab qiladi va kelajakdagagi protezlar joyida nostabil chandiqlar hosil qiladi. Ba'zi jarohatlari o'tkir kechib, bermor hayotiga bevosita xavf solsa, ba'zilari esa o'z ta'sirini bir necha oy yoki yillardan keyin ko'rsatishi mumkin.

#### **Asoratlari:**

1. **yurak tomonidan:**
  - yurak to'xtashi
  - qorinchalar fibrilyatsiyasi
  - ritm buzilishi
  - koronar arteriyalar zararlanishi
  - miokardning bevosita zararlanishi
2. **buyrak asoratlari**
  - parenxima zararlanishi va tubulyar disfunktsiya
  - ikkilamchi o'tkir buyrak etishmovchiligi
3. **MNS tomonidan**
  - MNS ning keng hajmli zararlanishi
  - MNS ning qiska muddatli zararlanishi
  - Ekstrapiramidal yo'lning zararlanishi
  - Po'stloqning zararlanishi
  - Hushdan ketish, koma va konvulsiya
  - Kechki gemiplegiya yoki bosh miya ustuni sindromi
4. **umurtqa pog'onasi tomonidan**
  - kvadriparez
  - paraparez
  - distal oqrik va parasteziya
  - kechki ataksiya, kuchsizlik yoki paralich (Pans sindromi)
5. **alovida asoratlari**
  - vazomotor nostabilistik
  - simpatik reflekslar distrofiyasi
6. **oshqozon-ichak trakti tomonidan:**
  - qorin devori yorilishi va eventeratsiya
  - nodinamik ileus va oshqozon atoniyasi
  - oshqozon yoki oshqozon osti bezi yaralari
  - kechki vistseral perforatsiya
  - fistula
  - pankreatit va «elektrik diabet»
  - bevosita jigar jarohati va koagulopatiya
  - kaliymi tez yo'qotilishi
7. **o'pka tomonidan:**
  - nafas to'xtashi

- ko'krak qafasi bevosita jarohati  
plevra jarohati va gidrotoraks
  - bo'laklı pulmonit  
bronx perforatsiyasi  
qovurg'alar sinishi bilan yoki sinishisiz pnevotoraks
  - 8. oftalmologik asoratlar**
    - ko'z olmasining bevosita jarohati
    - shoxparda yoki optik nervning ajralishi
    - katarakta
    - yorug'lik makulopatiyasi
  - 9. tomir asoratlari**
    - bevosita jarohatlari
    - tomirlarning kechki yorilishi
    - ichki jarohati
    - arteriya va mushaklarni oziqlantiruvchi strukturalarini shikastlanishi
  - 10. boshqa asoratlar**
    - homila ichi o'limi
    - spontan abort
    - suyak ko'migi faoliyatini pasayishi
- Tok urgan bemor hushini yo'qotadi va elektrik manba bilan kontaktda bo'la olmaydi Shunday bo'lsada «tirk sim» bilan kontaktda bo'lgan bemorda ozod qilishda hushyor bo'lib, qutqaruvchi elektrik zanjirni bir qismiga aylanmasligi kerak. Yana qutqaruvchi shumi esda tutishi kerakki, uni ham elektrik ayri volt zararlashi mumkin, chunki yuqori kuchlanishli tok jabrlanuvchi atrofida 30 metr masofada ayri hosil qiladi. Jabrlanuvchiga manba xavfsizlantirilmaguncha yoki tok o'tkazmaydigan predmet (quruq daraxt bo'lagi) yordamida olib tashlamaguncha yaqinlashish kerak emas.

#### **Shoshilinch yordam:**

Jabrlanuvchi xavfli joydan ozod qilingach ko'zdan kechiriladi, nafas, yurak faoliyati tekshirilib, hayotiy muhim ko'rsatkichlar o'chanadi. Transportirovkadan oldin infuzion terapiya olgan, lekin hushsiz bo'lgan bemorning skelet o'qi, ayniqsa umumrtqa pog'onasi harakatsizligiga e'tibor berish lozim. Barcha bemorlardagi kabi elektrotravma olgan bemorlarda ham hushsiz yotganda nafas yo'llari va nafas tekshiriladi. Agar endotrakeal intubatsiya kerak bo'lsa, umurtqa zararlangan bo'lishi mumkinligini esda tutish va ahvolini yomonlashtirishi mumkin bo'lgan choralarни qo'llamaslik kerak. Ko'plab yuqori voltli tokdan shikastlangan bemorlarda yurak to'xtashi kuzatiladi. Bunda hodisa joyida reanimatsiya o'tkaziladi. Aks holda o'lim holati kuzatilishi mumkin. Dastlabki davo chora tadbirlari nafas va yurak ishini stabillashdan boshlanadi. Venaga tushish. Elektrotravmali bemorda siyidik hajmi va xarakterini aniqlash va undagi gemoglobinni ham tekshirish muhimdir. Endotrakeal intubatsiya: bu muolaja tok bilan zararlangan bemorlar uchun kam qo'llaniladi.

#### Ko'rsatmalar:

- yuzning keng termik kuyishlarida; o'pka va nafas yo'llari shishishiga guman bo'lganda
- hushsiz bo'lgan respirator – distressli bemorlar
- nafas yo'llarini tiklashni talab qiluvchi ko'krak qafasi jarohati
- kattalarda erta aniqlangan respirator – distress sindrom. Yaraning holatini baholashda uning chuqurligiga alohida e'tibor berish kerak. Yaraning sati to'qqizlik qoidasi yordamida o'chanadi. Kirish va chiqish jarohati aniqlanib, unga ishlov berilib bog'lam qo'yiladi.

Oyoq-qo'llar normal ko'rinsada, pcreferik nerv funktsiyasini pastligi jarohat chuqurligidan dalolat beradi. Elektr toki bilan kuygan bemorlarda jarohat yuzasiga birlamchi ishlov berish sepsisning asosiy profilaktikasıdır.

Gospitalizatsiya. Zudlik bilan kuyish bo'limiga yuboriladi.

## **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Yumshoq to'qimalar yopiq shikastlanishi va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari.
2. Yumshoq to'qimalar ochiq shikastlanishi va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari.
3. Kuyish tasnifini aytil bering.
4. Kuyish jarohatlarni tashhiislash va shoshilinch yordam tamoyillari
5. Kuyish asoratlari
6. Ingalyatsion kuyishda tez tashxislash va shoshilinch yordam ko'rsatish.
7. Kuyishning og'irlik darajalari va kriteriyalari
8. Teri kuyishida shoshilinch yordam ko'rsatish.
9. Kimyoviy kuyishda shoshilinch yordam.
10. Elektr toki bilan kuyishda shoshilinch diagnostika va yordam tamoyillari.

## **GORINDA O'TKIR OG'RIQLAR BILAN KECHADIGAN SHOSHILINCH HOLATLAR**

Qoridagi o'tkir og'riqlar qorin bo'shligi a'zolari kasalliklarining eng birinchi shikoyatidir (jadvalga qarang). Ko'pchilik xollarda bu xayotga xavf soluvchi bo'lib xisoblanmaydi. Lekin ba'zi bir og'riqlar ma'lum bir kasallikni belgisi xolida kelib, o'z vaqtida ko'rsatilmagan xirurgik yordam bemorni o'limga olib kelishi mumkin. Bu situatsion ko'rinishdagi kechinma "o'tkir qorin" – sindromokopleksi bo'lib xisoblanib, o'z ichiga bir qator kasalliklar va abdominal og'riqlarni birgalikda kechishi, peritonit sindrom, organizmni zaxarlanish intoksikatsiyasi va dispespsiya ko'rinishi tarzida kechadi. Shoshilin tibbiy yordam ko'rsatish kerak bo'ladigan o'tkir qorin sindromokompleksini ikkinchi sababi bu buyrak va jigar sanchig'i xisoblanib, bemorni qisqa vaqt ichida azob berib, xavfli holatni o't va peshob yo'llarini tiqilib qolishi natijasida sodir bo'ladi. Differentsial tashxislash va davolash taktikasini belgilashda, bemorni fizikal tekshiruvlari, to'lik to'plangan anamnezi kerak bo'ladi.

### I. Anamnez

So'rovni og'riqni yuzaga kelish sabablaridan boshlanadi. Anamnez to'plashda quyidagi savollarga javob olish kerak:

- Og'riq joylashuvi (1- rasm). Ba'zi bir kasalliklardagi og'riq qorinda ma'lum bir joylashgan tarzda kechadi. Og'riqni shikastlangan a'zoni proektsiyasida kuzatilishi qorin pardasini parietal qismini ta'sirlanishi natijasidir (masalan: o'tkir koltsistit va appenditsit). Shuning uchun birinchi navbatda og'riq soxasiga yaqin joylashgan a'zolarni shikastlanganligi to'g'risida gumon qilish kerak.

Jadval 1. Qorinda o'tkir og'riq: differentsial tashxislash, og'riqni joylashgan soxasiga qarab

### O'ng qovurg'a ravog'i

#### O'pka va ko'krak qafasi

O'ngtomonlama pastki segmentli pnevmoniya  
O'ng patski qovurg'alarmi sinishi.  
O'pka arteriya emboliyasi va o'pka infarkti

### Jigar

O'tkir hepatit (xar kanday etiologiyali)  
Gepatomegaliya (xar kanday etiologiyali)  
Sekvestrations kriz sonni jigarda to'planishi bilan (o'roqsimon xujayrali anemiya(serpovidnokletochli anemiya))  
Jigar o'smasi (yaxshi sifatlari va yomon sifatlari o'smalar)

Jigar abstsessi Jigar jarohati
<i>O't yo'llari</i> O'tkir xoletsistit va o't qopi toshi sanchig'i Surunkali xoletsistit O't yo'llari diskineziyasi Kalkulez pankreatit
<i>Oshqozon</i> Yara kasalligining huruji Gastrit Oshqozonning o'tkir kengayib ketishi Oshqozon yarasining yorilishi
<i>O'nikkibarmoqli ichak</i> O'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi O'n ikki barmoqli ichak yarasi yorilishi
<i>Oshqozon osti bezi</i> O'tkir pankreatit (o'ng va chap qovurg'a ostida og'riq sezish) Oshqozon osti bezi boshchasi rak kasalligi
<i>Buyraklar</i> Pielonefrit (umurtqa-qovurg'a burchagida og'riq) Buyrak sanchig'i
<i>Yurak</i> Stenokardiya va miokard infarkti Perikardit
<i>Ichak</i> Retrotsekal appenditsit
<i>Boshqa sabablar</i> Kamarsimon temratki Diafragma osti abstsessi
<i>Epigastral soha</i>
<i>Yurak</i> Stenokardiya va miokard infarkti Perikardit
<i>Qizilo'ngach, oshqozon va ichak</i> Ezofagit Gastrit Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi Diafragma qizilo'ngach teshigining churrasи va uning asoratlari Qizilo'ngach yorilishi Kardial qism axalaziyasi
<i>Oshqozon osti bezi</i> O'tkir pankreatit Oshqozon osti bezi o'smalari
<i>Boshqa sabablar</i> To'sh suyagi sinishi

Tittse sindromi (qovurg'a xondriti)

**Chap qovurg'a osti**

**O'pka va ko'krak qafasi**

Chap tomonlama pastki bo'lak pnevmoniysi

Chap pastki qovurg'alar sinishi

**Taloq**

Splenomegaliya (xar kanday etiologiyali)

Taloq jarohati

Taloq abstsessi

Taloq arteriyasi anevrizmasi

**Oshqozon**

Oshqozon o'smalari (yaxshi sifatlari va yomon sifatlari o'smalari)

Gastritlar

Oshqozon o'tkir yarasi

Oshqozon teshiluvchi yarasi

**Oshqozon osti hezi**

O'rik pankreatit (og'riq o'ng va chap qovurg'a ravog'o tomonda kuzatiladi.)

Oshqozon osti bezini dum soxasini xavfli o'smasi

Oshqozon osti bezini soxta va chin kistasi

**Buyraklar**

Pielonefrit

Buyrak sanchig'i

**Yurak**

Stenokardiya va miokard infarkti

**Ichaklar**

Ko'ndalang yo'g'on ichakni chap pastga tomon tushuvchi ichak egilmasida o'smalari

**Kindik atrofi**

**Oshqozon osti hezi**

Pankreatit

Oshqozon osti bezini o'smalari (yaxshi sifatlari va yomon sifatlari o'smalari)

**Ichaklar**

Ichak mehanik tutilishi

Appenditsit (erta bosqichi)

Ichak charvisi qon-tomirlarini tromboz va emboliyasiga, ichak infarkti (erta bosqichi)

Chov churrasini siqilib qolishi

Kindik churrasni

Qorin aortasini kengaygan anevrizmi, anevrizmni yorilishi

Divertikula (ingichka va yo'g'on ichakda)

Gastroenterit

Katta charvini buralib qolishi

**Boshqa sabablari**

Uremiya va boshqa metabolik buzulishlar

Leykoz

Og'riq krizi (o'roq xujayrali anemiya)

**O'ng chov soxasi**

***Ichaklar***

O'tkir appenditsit  
 O'tkir mezadenit  
 Chov churrasi siqilib qolishi  
 Yarim oy liniyasi churrasi (spigeliev)  
 Ilcit (Krona kasalligi)  
 Ko' ichakni teshilishi (o'smalar, yot jisimlar, divertikulit)  
 Mekkel divertikulasini yalig'lanishi  
 Tiflit ( neyropeniada)  
 Sigmasimon ichakni divertikuliti ( dolixosigmada)  
 Oshhqozon va o'n ikki barmoqli yaralami teshilishi  
 Pelviorektal paraproktit

***Buyraklar***

Pielonefrit  
 Buyrak sanchig'i

***Ayol jinsiy a'zolari***

O'tkir salpingit, piosalpinks, piovar  
 Bachadon nayi xomiladorligi  
 Tuxumdon oyoqlarini buralib qolgan kistasi  
 Endometrioz  
 Ovulyator og'riqlar

***Tomirlar***

Yonbosh arteriyasi anevrizmi

***Boshqa sabablar***

Psoas-abstsess  
 Qin to'g'ri i mushak gematomasi

***Chap chov soxasi******Ichaklar***

Sigmasimon ichakni divertikulit  
 Pastga tushuvchi yo'g'on ichakni teshilishi (o'smalar, yot jisimlar)  
 Chov churrasini siqilibqolishi  
 Yarim oy liniyasi churrasi (spigeliev)  
 Pelviorektal paraproktit

***Ayol jinsiy a'zolari***

O'tkir salpingit, piosalpinks, piovar  
 Bachadon nayi xomiladorligi  
 Tuxumdon oyoqlarini buralib qolgan kistasi  
 Endometrioz

***Buyraklar***

Pielonefrit  
 Buyrak sanchig'i

***Boshqa sabablar***

Psoas-abstsess  
 Qorin aortasi anevrizmi  
 Qin to'g'ri mushaklari gematomasi  
 Yo'g'on ichak yog'li charvisini buralib qolishi  
 Chov arteriyasi anevrizmi

- Qorin orqa soxasi kasalliklari (buyrak, oshqozon osti bezi), odatda orqa ko'krak qafasi yoki yonbosh soxada og'riq bilan kechadi. Ba'zida qorinda o'tkir og'riqni chaqirishi mumkin. Bu holatlar aksariyat shifokorlarni to'g'ri davo yo'llini tanlashiga xalaqiq beradi. Qorin pardas bilan kontakda bo'limgan a'zolar, shu bilan birga yallig'lanish kuzatilmaydigan qorin ichi kasalliklarda tarqoq aniqlash qiyin bo'lgan og'riqlar kuzatiladi (masalan: ingichka ichakututlib qolishini boshlang'ich stadiysi). Bir-biriga yaqin joylashgan a'zolar aksariyat xollarda o'xshash klinik manzarani berib, differentsiyal tashxisini malakali shifokorda xam qiyinchilik tug'diradi.. (2-jadivalga qara).

Jadival 2 Epigastral soxadagi qattiq og'riqda differentsiyal tashxislash

	Oshqozon va o'n ikki barmoqli yarani teshilishi	O'tkir pankreatit	O'tkir xoletsistit	Qorin aortasi anevrizmini yorilishi	Ichak ishemiyasi
Og'riqni bnshlanishi	Birdaniga; kuchli juda kuchli og'riq	Sekin asta	Sekin asta	Birdaniga obmork bilan kuzatiladi	Birdaniga
Og'riq joylashuvi	Epigastral soxadagi og'riq tezda tarqoq xolga o'tadi	Epigastral , o'ng va chap qovurg'a ravoqlari soxasida	O'ng qovurg'a ravog'i va epigastral soxada	Kindik soxasida	Tarqoq aniq joyini aniqlash qiyin bo'lgan og'riq
Og'rigni uzatilishi	Odatda kuzatilmaydi	Ko'krak qafasi orqa qismi: og'riq a'zo joylashgan soxada yoki belbos'li xolda kuzatiladi	Ko'krak qafasi orqa qismi, o'ng elka va o'ng lopatka osti soxasi	Ko'krak qafasi orqa qismi, chov soxasi	Yo'q
Qusish	Yo'q yoki bir-ikki marotaba	Ko'p marotaba, turg'un	Bir-ikki marotaba	Ba'zida	Ba'zida bir-ikki marotaba
Alkogol ichimliklarini istemol qilish	Xar xil ta'sir qiladi	Og'riq xruji aksariyat alkogol ichimliklariga ro'j kilinganda kuzatiladi.	Ta'sir qilmaydi	Ta'sir qilmaydi	Ta'sir qilmaydi
Oldin bo'llib o'tgan og'riqlar	Anamnezda oshqozon ichak yara kasalligi (u 50%)	Tez-tez;hozirgi huruj oldingilariga o'xshash	Tez-tez;hozirgi huruj oldingsidan ko'ra kuchliroq	Yo'q	Yo'q
Ovqat mahsulotlariň iko'tara	O'tkir ovqatlar, alkogol	Yog'li ovqat (steatoreya)	Yog'li va qovurilgan ovqat	Yo'q	Yo'q

olmaslik					
Shok	Kasallikning g'erta davri uchun xos	Kasallikning kechki davri uchun xos	Xos emas	Kasallikning erta davri uchun xos	Kasallining kechki davri uchun xos
Paypaslaganda og'riq	Tarqoq	Epigastral sohada yoki tarqoq	O'ng qovurg'a yoyi ostida yoki epigastral sohada	Kindik sohasida	Tarqoq
Shchetkin— Blyumberg simptomi	Dastlabki daqiqalarda n erta boshlanadi	Kech, bir necha soat yoki kundan keyin paydo bo'ladi	Ba'zida	Ba'zida	Og'riq kuchi belgilari yaqqolligiga mos kelmaydi
Qorin oldi devori mushaklari tarangligi	«Taxtasimon qorin»	Kuchsiz	Qorin to'g'ri mushaklarining bir tomonlama taranglashishi	Ba'zida	Ba'zida, kasallikning oxirgi davrida
Ichak shovqinlari	Yo'q	Susaygan yoki yo'q	Me'yorida yoki susaygan	Susaygan yoki yo'q	Susaygan yoki yo'q
Qovurg'a- umurqa burchagida og'riq	Yo'q	Ikki tomonlama kuchsiz	Yo'q yoki engil darajada	Yo'q yoki ikki tomonlama engil	Yo'q
Bemor holati	Chalqancha , bemor harakatsiz	«Embrion holati», Qusishga chaqiruv	Chalqancha, bemor ko'rinishidan xotirjam	Chalqancha, bemor xotirjam	Chalqancha, bemor hujg'anak bo'ladi
Qorin bo'shlig'i tasviriy rentgenografi yasi	Qorin bo'shlig'id a erkin gaz ( 70%), ichak tutilishi belgilari	Ichak tutilishi belgilari, och ichak va ko'ndalang ichak ayrim qovuzloqlarining shishi	Ichak tutilishi xos emas; o'ng qovurg'a osti sohasida o't qopining ohaksimon toshi ( 10%)	Qorin aortasining kengayib ketishi va mo'rtlashib qolishi	Ichak tutilishi belgilari
UTT	O'tkazmaydi	Oshqozon osti bezi kattalashishi	O't tosh kasalligi, o't qopni devori qalinlashishi	Qorin bo'shlig'ida erkin suyuqlik, qorin aortasi devori qalinlashishi	O'tkazmaydi
KT	Ko'rsatma yo'q	Oshqozon osti bezi kattalashishi, atrof to'qimalar shishi	Ko'rsatma yo'q	Qorin bo'shlig'ida erkin qon, aortaning kengayib pulsatsiya qilib turishi	Ko'rsatma yo'q
Lobarotor	Amilaza	Amilaza faolligi	Amilaza faoldligi	Gemotakrit	Ba'zida

<b>tekshiruvlar</b>	faolligi biroz oshgan, qonda biroz leykotsitoz	oshgan; azotemiya; zardobda kaltsiy va magniy oshgan, leykotsitoz	odatda me'yorda, biroz leykotsitoz	ko'rsatgichi past	amilaza faolligi biroz oshgan, azotemiya, leykotsitoz (yuqori ko'rsatkichla rda bo'lishi mumkin)
---------------------	--	--	---------------------------------------	-------------------	--

- **Og'riqni boshqa joyga uzatilishi**— eng asosiy belgi xisob, tashxis qo'yishda klinik manzarani to'ldiradi. Diafragma osti a'zolarni shikastlanishida og'riq ekaga, shikastlangan tomondagi bo'yin yon bosh soxasiga, diafragmani innervatsiya qiluvchi orqa miyani IV - nervi o'tkanligi sababli uzatiladi. O't pufagi sanchig'ida og'riq odatda o'ng qovurg'a ravog'ida kuzatilib, o'ng elkaga va o'ng kurak soxasiga beradi. Pankreatitta og'riq orqaga berib, ko'pincha uni belbog' og'rig'i deb atashadi. Buyrak sanchig'ida odatda yonbosh chov soxasiga og'riq berib, peshob yig'uvchi nay yo'nalishi bo'ylab, va peshob tezlashgan ajralishida og'riq namayon bo'ladi.
- **Og'riq xarakteri.** Qorinda og'riq doimo yoki xurujli (sanchiqli) bo'lishi mumkin.
- Doimiy og'riq kuchayishi va susayishi mumkin, lekin butunlay yo'qolmaydi, xurujli tarza kechmaydi. Doimiy og'riq qorin a'zolarni yallig'anlishida va o'sma kasalliklarda sodir bo'ladi. Og'riq o'tkir xo'lcitsitida yuzaga kelib, aksariyat o't qopि va yo'li sanchig'i tarzida kechadi deb fikirlanadi. Bu noto'g'ri fikir o'tkir xo'letsitsitida og'riq doimo va kuchsizlanmagan tarzda kechadi.
- Xurujli og'riq odatda to'liq bo'limgan a'zolarni tiqilib qolishida (ichak tutulishi, peshob-tosh kasalligi) yoki shu bo'shlilqar ichidagi bosimni biron bir sabablarga ko'ra ortishi (ichaklarni paralichligi tugagandan keyin ichak peristaltikasini kuchayishi, gastroentirit) kuzatiladi. Lekin esda tutish kerak, ba'zi bir kasalliklarda og'riq xurujli boshlanib, keyin doimiy og'riq kuzatiladi (ichak tutulishini ichak infarkti bilan kechishi).
- **Og'riq davomiyligi.** 4 soat davomida kuzatiladigan og'riq, bemorda "o'tkir qorin" sindromi borligiga taxmin qilinadi. Qisqa-qisqa boshqa klinik belgilari va labarator ko'rsatkichlarni o'zgarishisiz davom etadigan og'riq, ba'zida og'riq kechuvchi kasalliklarda kuzatilidi. Aksariyat davomiy yoki xurujli og'riqlar bemorda patologik jarayonlar kechayotganidan jdarak beradi. Ko'pchilik xirurgik qasalliklarda og'riq bir necha soatdan bir necha kungacha bo'lishi kuzatiladi. Oylab kuzatiladigan og'riqlar aytarli xavfli emas. Bu kasalliklarda jadal gospitalizatsiya faqat bemorni axvoli birdaniga yomon tomonga og'sa (o'n ikki barmoqli ichak yarasini teshilishi) amalga oshiriladi. Agar bemor qorinda yillab kuzatiladigan og'riqqa shikoyat qilsa, bu xolda bu bemorda simulatsiya yoki asab buzulishi xolida kuzatiladi. Bunday bemorlarda sotsial-ijtimoiy yashash sharoitini baxolash kerak.
- **Og'riq davomiyligi.** Odatda qanchalik xirurgik kasallik og'ri kechsa, shunchalik og'ri kuchli kechadi. Oshqozon-ichak traktidagi moddalarini qorin bo'shlig'iga tushushi og'riqqa chidamli bo'lgan bemorlarni xam shifokorga murojat qilishiga majburlaydi. Barcha bemorlar odatda o'zlarida kechayotgan og'riqni intensivligini va holatlarni to'g'ri baxolaydilar. Shuning uchun, sog'lom ko'rinishida bo'lgan odamlarda kuzatilgan og'riqlarni inkor etmaslik kerak.
- **Og'riqni yuzaga kelishi.** Ba'zi bir xirurgik kasalliklarda qorinda og'ri birdaniga kupinchalik axvoli yaxshi bo'lganda paydo bo'ladi (yarim to'liq a'zoni teshilishi, arteriyalar tromboemboliyasi, yaxshi qon bilan ta'minlangan a'zoni buralib qolishi). Bu bemorlarni axvoli tez og'irlashadi. Bemor o'zidagi og'riqni aniq va qachon yuzaga kelganini aytib beradi. Boshqa kasalliklar masalan; apeditsit, divertikulit, ichakni mexanik tutulishida og'riq

yuzaga kelishi bordaniga sodir bo'lmay, bir necha soatdan keyin kuchli tarzda kechishi mumkin.

- **Qusish.** Ba'zi bir kasalliklar turg'un qusish bilan kechadi, boshqalar juda kai yoki umuman kuzatilmaydi. O'tkir pankreatit va xoletsistitni boshlang'ich fazasiga tez-tez kusiq bo'lishi xosdir. Mexanik ichak tutulishida qusuqning tez-tez paydo bo'lishi va intensivligi to'siqning joylashgan joyiga bog'liq, ya'ni to'siq qanchalik yuqori bo'lsa qusuq shunchalik ko'p va kuchli bo'ladi. Axlat hidli qusuq kefishi ingichka ichak yoki oshqozon-chambar ichak tutulishidan darak beradi. Qusuq massasida o't safroning bo'lmasligi Faterov so'rg'ichidan yuqori qismida to'siq borligidan dalolat beradi.
- **Aniqlik kirituvchi boshqa omillar.**
- Tashhis qo'yish uchun ba'zida bemorning yoshi va jinsining ahamiyati bo'ladi. Chunki ayrim kasalliklar ma'lum bir yoshta uchraydi. Masalan: ichak invaginatsiyasi 2 yoshgacha ko'p uchrasa, appenditsit 50 yoshdan kichiklarda ko'proq uchraydi. Xoletsistit aksariyat hollarda o'rta yoshli ayollarda uchraydi. Yana shuni bilish lozimki ayrim hollarda bu qoidalarni buzilgan holda uchratish mumkin.
- **Dorilarga doir anamnezi**
  - Ayrim dorilar va narkotiklar qorin bo'shlig'i a'zolari jarrohlik kasalliklarini hurujini chaqirishi mumkin. Kortikosteroidlar yoki yallig'lanishga qarshi nosteroid dori vositalarini qabul qilish fonida paydo bo'lgan qorindagi o'tkir og'riqlarda yara yorilishiga gumen yuqori bo'lishi lozim. Alkogol, tiazidli diuretiklar, pentamidin va azatioprinlar qabuli ba'zida pankreatik hurujiga olib keladi. Sulfanilamidlar va barbituratlar ba'zida o'tkir o'tuvchi porfsiriya kamqonligini chaqirishi mumkin.
  - Og'riqi engillashtiruvchi dori vositalari. Oshqozon yara kasalligida va reflyuks-ezofagitda antatsidlarni qabul qilish og'riq kuchini kamayishiga olib keladi. Peritonitda qayd orixonasida saqlanuvchi og'riq goldiruvchi dorillardan foydalanan taqilangan.
- **O'tkazgan kasalliklari.** Qiyoysi tashhis uchun og'riqning birinchi marta bo'lishi yoki qaytalanishi muhimdir. Masalan o't toshi kasalligi va pankreatit uchun qaytalanuvchi og'riq xosdir. Agar aniq bir sababsiz bir xil tipdag'i og'riq bilan bir necha marotaba murojat qilgan bo'lsa bu simuyatsiyadan darak hisoblanadi. Bemorning oldin o'tkazgan operatsiyalari albatta so'raladi. Shuningdek ayollardan ginekologik anamnez so'rash muhim ahamiyatga egadir. Chunki bachadon va tuxumdonlarning surunkali yallig'lanuvchi kasalliklari qorinda hurujsimon og'riqlar bilan kechishi mumkin. Bachadondan tashqari homila bo'lgan ayollarda shu holatni qaytalanish chtimoliyu yuqoridir. Bachadon ekstripatsiyasi paytida apendektoniya o'tkazilgan bo'lishi mumkin.

**Fizikal tekshirishlarni** – to'la o'tkaziladi. Anamnez va fizikal tekshirishlar, to'g'ri tashxis qo'yishga kerak bo'ladi. 60%-gacha ma'lumotni bersa, labarator tekshirishlar faqat 10-15%-ni beradi.

#### Bemor umumiylari va asosiy fiziologik ko'rsatkichlar

- Bemorni tashqi ko'rinishi uni qanday og'ir axvolda ekanligini aniqlashda yordam beradi. Bemorga etibor bering – xaqiqatdan xam qynalmoqdami, o'rinda yaxshi yotgan xolda telefon orqali gaplashmoqdami yoki telivizor ko'rmoqdami. Agar yotgan xolda qorin soxasi paypaslashda og'riqqa shikoyat qilsa, kulta, xazillashsa – bu bemorda xirurgik kasallikni bo'lishi extimoldan yiroq bo'ladi.
- Og'riqi kamayitish uchun bemor o'ziga xos qulday turg'unlikni olishi xam tashxislash uchun asosiy belgi xisoblanadi. Pankreatitda bemor "embriyon shakli"-ni oladi, bunda oyoq-qo'llari qoringa yig'ilgan tana oldinga egilgan ko'rino'shda bo'ladi. Bu shakl ko'rinishida og'riq kamayadi, chunki oldi bel mushaklari yallig'lanish protsessida ishtrok etgani sababli bo'shashadi. Retrosekal appenditsitda bemorlar aksariyat xollarda o'ng oyoqlarini tizza va son bo'g'imini bukib yallig'langan o'simtani bosimini kamayitishga xarakat kiladilar. Xar

qanday etiologiyali tarqoq peritonitda bermor xarakat qilmasdan yotadi, chunki ozgina xarakat og'riqni kuchaytirib yuboradi.

- O'tkir qonidagi kuzatilgan taxikardiya bermorda kuzatilgan suvsizlik va xarorat ko'tarilishi bilan bog'liqidir. Qari yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rigan, beta-adrenoblikatorlar qabul qilayotgan insonlarda taxikardiya kuzatilmasligi mumkin. Taxikardiyani kuzatilmasligi bermorda og'ir qorin a'zolarini kasalligi borligini inkor etmaydi. Yurak qisqarishlar sonni tekshiruv vaqtida ortib borishi (agar suvsizlik kuzatilmasa) – bermor axvol og'irlashayotganligidan darak beradi.
- Qorin og'rig'idagi taxipnoeni sababi – nafas sig'imini kamayishidir. Yuzaki tezlashgan nafas kerakli minutli sig'imni ushlab turadi. Taxipnoe va respirator alkaloz metabolik atsidozni yuzaga kelayotganligidan darak berib, sepsisda kuzatiladi.
- Xarorat ko'tarilishi ko'p qorin a'zolarini yallig'lanishiga xos belgi. Xaroratni to'g'ri ichakda yoki quoq yo'lida o'lchanadi. Xaroratni og'izda o'lchashga ruxsat berilgan, lekin ishonchli bo'la olmaydi. Qo'ltiq ostida xaroratni o'lchashi mumkin emas, chunki bu usul aniq xaroratni ko'rsatmaydi. Qorin a'zolarini yallig'lanishini erta bosqichlarida (masalan: xoletsistit, appenditsit) xarorat kuzatilmaydi. Agar xoletsistitga yoki appenditsitga shubxa bo'layotgan bermorda birinchi soatlarda xarorat kuzatilsa va u 39-40°C ni tashkil qilsa tashxislashni qayta o'tkazish kerak bo'ladi. Qorinda og'riq yugori xarorat bilan birga kechishi faqat bakterial peritonit va qorin ichi abstsesslarda kuzatiladi. Yugori xaroratni qaltrish bilan birga kechishi baktetriemiyaga xos bo'llib, bu xolda bermordan qon posevi olinib, tashxislashni kutmasdan turib katta spektrli antibiotiklar qilinadi. Bemor xaroratni tushiradigan dori vositalarini qabu qilgan yoki qilmaganligi axamiyatga ega, chunki bu xaroratni kechishini yashiradi. Suvsizlangan va qari insonlarda yallig'lanishga reaksiya kuzatilmaydi. Sepsisdagi girotomni - yomon oqibatlari belgi xisoblanadi.

**Qorinni tekshirish.** Qorin soxasini tekshirishni iloji bo'lsa malakali shifokordan o'rganish kerak. Bemor qorindagi og'riqni shifokor tomonidan inkor etilishi, uni jaxlini chiqarishi, birlamchi va keyinchalik bo'ladigan tekshirishlarni qiyinlashtirishi mumkin. Bolaralni tekshirishda extiyotkor bo'lish talab etiladi. Barcha qorinda og'riq kuzatilayotgan bermorni ikki gruxga bo'lish mumkin. Birinchi guruxga o'tkir qorin va qorin pardasini yallig'langanligini aniq belgililar kuzatilganlar.

Tekshirish ma'lum bir ketma-ketlikda olib boriladi.

1. ko'rvidan boshlanadi. Bemorni umumiy holati va turish shakli baxolanadi. Qorin soxasini ko'rishda quyidagi belgilarga etibor berishi kerak:
  - Qorindagi chandig' va u joylashgan soxa. Operatsiyadan keyin bo'ladigan chandig'lardagi xurujli og'riqda ichak tutulishiga shubxa qilish kerak. Chandiqli joylashuviga qarab o'tkazilgan operatsiyalarni xarakterini aniqlash va bu bilan differentsiyal tashxislashni tezlashtirish mumkin.
  - Qorin xavoli shishi. Qorin xavoli shishini baxolashda odatda qanchalik ichaklarni distal soxasi tiqilishi kuzatilsa shunchalik qorin xavoli shishi kuchayadi. Yugori ichak tutulishida qorin tortilgan, ladevidli shaklida bo'lishi mumkin. Lokal qorin shishi aksariyat qorinda o'smalar yuzaga kelishida kuzatiladi. Qolaverasa qorinda shish nima sababdan yuzaga kelganligini aniqlash kerak- suyuqlik to'planishi (astsis) yoki gazlar.
2. Keyingi bosqich — auskultatsiya. Fonendoskop issiq bo'lishi kerak. Qorinda shovqun turlari va xarakteri aniqlanadi.
  - Ichak shovqunlarini bir necha minut ichida pasayishi yoki mutloqo yo'qolishi, bermorda peritonit yoki falajli ichak tutulishi borligidan darak beradi. Maxaliy peritonitda, asorlati appenditsitda, ichak divertikulitida va boshq ba'zi bir kasallikkarda ichak shovqunlari me'yoriy bo'lishi kuzatiladi.

- Qorinda xurujli og'riqni kuchaygan ichak shovqunlari bilan kechishi mexanik ichak tutilishiga xos xisoblanadi.
  - Tomirdagi turbalentlik shovqunlari qorin aortasini ancvrismida, buyrak va ichak charvisini arteriyalarini stenozida bo'ladi.
3. Perkussiya xar doim auskultatsiya o'tkazilgandan keyin bajariladi, chunki u peristaltikani stimullaydi (xudi shunday paypaslash xam). Quyidagi perkutor tovushlar kuzatiladi:
- To'mtoq tovush – korin bo'shlig'ida xosila bo'lsa, astsitsda, ichak xalqasida suyuqlik to'plansa kuzatiladi.
  - Timpanik tovush – qorin bo'shlig'ida erkin gaz va ichaklarda gaz to'plansa sodir bo'ladi.
  - Aralash tovush – tanani holatini o'zgartirganda qorindagi erkin suyuqlik, yani astsitsga xosdir.
  - Jigar to'mtoqligini yo'qolishi. Odatda jigar ustida perkusiya qilinganda to'mtoqlik kuzatiladi. Uni jarangdor bo'lishi korin devori va jigar oralig'ida gaz to'planishidan xosil bo'ladi. Bu yarim to'liq a'zolarni teshilishidan darak beradi.
- Chuqur paypaslashni amalga oshirmay perkusiya bilan bermorda peritonit rivojlanganligini aniqlash mumkin. Agar perkusiya qorinda og'riqni chaqirsa bu belgi peritonitga xos bo'ladi. Peritonit kuzatilgan bolalarga salgina tegish bczovtalantiradi. Sezirrali kilmay turib yoki bilmasdalan bola krovatiga teshhib ketilsa darov korinda og'riqqa shikoyat qiladilar. Bemorni retgenologik tekshirishga olib borilayotganda zambil g'altka cshikka yoki devorga tegib ketsa og'riq kuzatiladi. Bu yashirin kuzatish usuliga o'xshash usullar peritonitda qorinni chuqur paypaslash va Shetkina-Blyumberga simptomiga qaraganda ko'proq ma'lumot beradi, kuyidagi usullar aksariyat soxta musbat ko'rsatkichilarin ko'rsatadi.
4. Paypaslash — qorin soxasini tugalanayotgan tekshirishlariga kiradi. Birlamchi bo'g'in shifokorini qo'li issiq bo'lishi kerak. Bu ayniqsa bolalarni ko'rishda katta axamiyatga ega bo'lib, aks xolda ularni qarshiligi kuzatiladi.
- Bemorda og'riqni kuchayishiga olib kelmaslik uchun tekshirishlarni boshida, paypaslashni oldin og'riq kuzatilmagan soxalarda yuzaki paypaslashdan boshlash kerak. Bu korin mushaklarini sovuqqa taranglashishini oldini oladi va bemor bilan muloqatni yaxshilaydi. Og'riq kuchli kuzatilgan soxalar eng oxiri tekshiriladi.
  - Boshida yuzaki orintirlashgan paypaslashni amalga oshiriladi. Bunda kuchli og'riq kuzatilgan soxalar aniqlanadi.
  - Qorin soxasini bir tomondag'i qorin to'g'ri mushaklarini taranglashishi – peritonit simptomini beradi. Uni korin soxasini simmetrik og linyasini ikki qo'l bilan paypaslab onson topish mumkin.
  - Qorin soxasini chuqur paypaslash usuli tekshirishlar yakunlashishi vaqtida bajariladi. Agar shu davrga kelib tarqoq peritonit tashxisi qo'yilgan bo'lsa, chuqur paypaslanai o'tkazish kerak emas. Chuqur paypaslash usuli bilan qorin soxasidagi barcha a'zolar tekshiriladi. Bunda qorin soxasida og'riq, qorin oldi devori mushaklarini tarangligi va qorin a'zolarni razmerli aniqlanadi.
  - «Taxtasimon» qorin — oshqozon yarasi teshilganligini asosiy klinik belgisidir. Xlorid kislotosini qorin pardasiga ta'siri kuchli og'riqni va mushaklar sifilishini yuzaga keltiradi. Ba'zida qorin devorini xaqiqiy rigidligini, qorin devorini ximoya rigidligidan ajratib olish qiyin. Bu xollarda bemorga oyoqlarini tizza bo'g'imiga bukib korinka bosishni so'raladi, bu holat aksariyat bemorlardagi qorin devorini bo'shashiga olib keladi.
5. Boshqa simptomlar
- Merfi simptom: nafas olishni yuqori cho'qqisidagi chuqur paypaslashda o'ng qovurg'a ravog'i soxasida kuchli og'riqni xosil bo'lishi. Bu simptom aksariyat musbat o'tkir xoletsistitda kuzatiladi, bu kasallikni tashxisi ko'yilishida asosiy belgi bo'lib xisoblanmaydi.

- Rovzing simptomi: o'ng yonbosh yoki chap yonbosh soxalardagi chuqur paypaslashda (yoki perkusiyada) og'riqi paydo bo'lishi. Bu simptomi musbat bo'lishi appenditsitga xos bo'lib, ba'zi bir kasalliklarda xam kuzatilishi mumkin.
- Bel soxsi mushaklari simptomi: bermor chap yonboshga yotgan xolda o'ng oyog'i bukkanda bel soxasida og'riq namoyon bo'ladi. Bu ko'rinishlar retrotskal appenditsitda va boshqa qorin a'zolarini yallig'lanish kasalliklarida kuzatiladi. Bu yallig'lanishlardi (paraneftit, psoas – abtsesi, korin pardasi orti gemotomasi, orqa ko'r ichakni xosilasi tasirida teshilishi) bel soxasi mushaklari tortiladi. Xuddi shunday simptom chap oyoqni bukishi natijasida (paraneftit, divertikulani teshilishi va sigmasimon ichakni xosilasi) kuzatiladi.
- Mushaklarni yopilib qolish simptomi (zapisatelnoy mishtsi): bemorda oyoqlarini to'g'ri burchak xosil qilib, boldir qismini ichiga yoki tashqarisiga burib chalqancha yotgan xolda og'riq kuzatiladi. Og'riqni xosil bo'lishi yallig'linish bilan bog'liq bo'lib, ichki yopuvchi mushaklarni yoki uni yonidagi mushaklarni ta'siriga javobi (chanoq abtessi, appenditsit, salpingit) xoldida og'riqli kechadi.
- Kera simptomi: korin pastki soxalarini paypaslashda ayniqsa bemorni Trendelenburg yotish holatida elkada og'riq kuzatiladi. Bu simptom birinchi marotaba taloqni shikastlanishiga yoritilgan. Diafragma osti soxasida suyuqliklarni to'planishi xisobiga og'riq elkaga va bo'yinga uzatiladi.
- Ba'zida yallig'langan soxadagi terida sezuvchanlik ortadi. Bu ajoyib biologik fenomen bo'lib, tashxislashda asosiy belgi bo'la olmaydi.

**Oraliqni ko'rish,** erkak va ayollarda korinda og'riq bo'lganda albatta jinsiy a'zolar va to'g'ri ichak tekshiriladi.

#### 1. O'g'il bolalarda o'tkaziladi:

- Tashqi jinsiy a'zolarni ko'rish- tuxum buralib qolishi, o'smalar, epididimit va peshob chiqaruv nayidan chiqayotgan ajramalarga etibor berilishi bilan bog'liqidir.
- Soni ichki va chov soxasini ko'rishda – aksariyat churra aniqlanadi.

#### 2. Qizlarga o'tkaziladit:

- Bachadon, bachadon naylari va tuxumdonlarning birmanual tekshiruvi. Bir tomonlama og'riq bo'lishi yoki hosilaning paypaslanishi bu piosalpinks, piovar yoki tuxumdon kistalari oyoqchalarining buralib qolishidan darak beradi. Tekshiruv paytida bachadon bo'yinchasini surilishi natijasida yuzaga keladigan og'riqlar bachadong va uning ortiqlarining yallig'lanuvchi kasalligidan darak beradi.
- Rektovaginal tekshiruv chanoq abtessini aniqlash imkonini beradi. Palpatsiya paytida bachadonning tugunli bo'lishi endometrioz boshlanganini ko'rsatadi.
- Churran ni aniqlash uchun chov sohasi va son ichki yuzasi ko'zdan kechiriladi( ayollarda son churrasi erkaklarga nisbatan ko'p uchraydi).

#### 3. To'ri ichakni barmoq bilan tekshirishda og'riqqa, hajmi hosila bor yo'qliligiga, to'g'ri ichak sifkleri holatiga e'tibor beriladi. Agar axlat bo'lsa yashirin qonga teshiriladi.

### O'tkiz appenditsit

#### Tekshirish va tashxislash

- **Anamnez.** Simptomlar yuzaga kelgan vaqt aniqlanadi. Aksariyat birinchi siptom kindik atrofidagi og'riqdan boshlanadi. Keyin bunga qusuq qo'shiladi. Bir necha soatdan keyin og'riq o'ng yonbosh soxasiga o'tadi. Ko'krak yoshidagi bolalarda ishtaxasizlik, xarorat ko'tarilishi va qusuq kuzatiladi. Ba'zida retrotskal appendiksda ich ketish namayon bo'ladi. Appendiksni teshilishi odatda boshlangan vaqtidan 36 soatgacha ketgan vaqt ichida sodir bo'ladi.

- Fizikal tekshiruvlarda o'ng yonbosh soxasidagi og'riqqa, shu qorin soxani mushaklarini tarangligini aniqlash mumkin. To'g'ri ichakni barmoqli tekshiruvi amalga oshiriladi.

#### **Shoshilinch yordam**

- Bemorni xirurgik markazga jadal transportirovka qilish

#### **Ichaklar tutulishi**

##### *1. Ichak invaginatsiyasi*

**Etiologiyasi.** Invaginatsiya aksariyat 1 oydan to 2 yoshgacha bo'lagan bolalik davrida kuzatiladi. Bunda ichakni bir soxasi boshqa ichakni teshigiga suqilib kiradi, natijada shu soxada ishemiya va necroz sodir bo'ladi. Invaginatsiya Mekkel divertikulasida, charvi limfa tugunlarini kattayishida, gemorragitik vaskulitda sodir bo'lishi mumkin, lekin aksariyat xollarda sababini aniqlashni iloji bo'lmaydi.

#### **Tekshirish va tashxislash**

##### **Anamnez**

- Xarakterli xurujli qorinda og'riq, qusish, najasda ko'p miqdorda qon va shilliq kuzatiladi (smorodina jelesi).
- Kuchli xurujsimon og'riqlarda bola baqirib yig'laydi, oyoqlarini bukib tpirlaydi. Bu bezovtalikni tinchanish davri bilan almashini turishidan iborat bo'ladi.

##### **Fizikal tekshiruvlar**

- Xuruj oralig'ida bola tinchlangan, shalpaygan yoki aksincha bezovtalangan bo'lishi mumkin.
- Keyinchalik birdaniga xarakat susayishligi, oqarishi, xush darajasini buzulishini kuzatiladi. Bu bosqichda YuQS, Q/bosimini, nafas sonini va xaroratini o'lchab turish talab etiladi.
- Qorinni papasplash va to'g'ri ichakni barmoq bilan tekshirishda kolbasasimon xosila boriligini aniqlash mumkin.
- Aksariyat xarorat ko'tarilishi, ayniqsa ko'krak yoshtdagি bolalarda kuzatiladi.

#### **Shoshilinch yordam**

- Barcha xollarda infuzion davo amalga oshiriladi.
- Xirurgik markazga jadal transportirovka qilinadi.

#### **Ichakni tugallanmagan buralishi va zavoroti**

**Etiologiyasi.** Tugallanmagan ichak buralishi – bu tug'ma anomalija xisoblanib, ingichka ichakni joylashuvini buzulishi, charvini qorin orqa devoriga brikmasligi xisobiga yuzaga keladi. Bu ichakni buralib qolishiga olib keladi va aksariyat yangi tug'ilgan chaqaloqlarda sodir bo'ladi.

#### **Tekshirish va tashxislash**

- **Anamnez.** Kusuqda o't pufagi suyuqliklarini kuzatilishi 1 oylikdan katta chaqaloqlarda kayta qusuq xuruj bo'lгganda sodir bo'ladi.
- **Fizikal tekshirishlarda** qorinda shish, teri rangini sarg'ayishi, qusuqda va najasda qon qoldiqlari kuzatiladi. Shok tez yuzaga keladi.
  - Najasda qon — yomon oqibatl belgi bo'lib, ichaklarda kuchli ishemiya kechayotganligidan darak beradi.

#### **Shoshilinch yordam**

1. Nazogastral zond qo'yiladi.
2. Tomir ichiga infuzion davo buyuriladi
3. Operatsiya muolajasini o'tkazish uchun jadal xirurgik markazga transportirovka qilinadi.

**Privratnik stenozi** birinchi 8 xaftalik kunida yuzaga keladi (ko'pincha ikkinchi va to'rtinchı xastada). O'g'il bolalar 4 marotaba ko'proq kasallananilar. Aksariyat privratnik stenozi otlaviy anamnezda kuzatiladi.

- **Anamnezda** — emgandan keyin qusuq (ba'zida qusuq fontanli), qusuqda o't suyuqligi kuzatilmaydi.
- **Fizikal tekshiruvlar.** Simptomlar stenozni keltirib chiqargan og'rligiga bog'liq.
  - Degidratatsiyaga ta'luqli ko'rinish va vazn yo'qotilishi.
  - Olxo'ri kattaligidagi xosilani ko'pincha paypaslanishi — bu privratnik kattayganda kuzatiladi.
  - Ichak peristaltikasini to'lqinlari ko'rindi.

#### **Shoshilinch yordam**

1. Nazogastral zond qo'yildi.
2. degidratatsiyani, alkalozni va elektritolitlar buzulishini oldini olish uchun tomir ichiga infuzion davo buyuriladi
3. Operatsiya muolajasini o'tkazish uchun jadal xirurgik markazga transportirovka qilinadi.

**Qorinni yopiq shikastlanishi** og'ir bo'lismiga qaramay simptom va belgilari sust rivojlangan Klinik manzarasi aksariyat xollarda qorinda boshqa a'zolarni shikastlanganlik belgilari beradi. Qorin ichi a'zolari shikastlangan bola birdaniga shifokor ko'ruviga kelmay, shikastlangan vaqtidan bir necha soat ba'zan kun o'tib og'ir xolda shifokorga murojat qiladilar.

#### **Tekshirish.**

- Qorin a'zolarini shikastlanishiga guman qilish aytarli axamiyatga ega bo'limgan anamnezdagi qorin shikastlanishida xam kata etiborga egadir.
- Tashhis qo'yish uchun qorinda og'riqning kuchayib borishi, jigar va taloq sohasidagi og'riq, qon talashlar, gematuriya, YuQS, AQB, nafas soni va tana harorati katta rol o'yaydi.

#### **Shoshilinch yordam**

1. Birinchi navbatda AQH ni to'latish zarur. Agar qorin bo'shlig'iga qon ketishiga shubha bo'layotgan bo'lsa ikkita katta diametrali kateter venaga ko'yiladi.
2. Operatsiya muolajasini o'tkazish uchun jadal xirurgik markazga transportirovka qilinadi.

**Bachadondan tashqari xomiladorlik** — balog'at yoshidagi qizlardagi o'tkir qorinni asosiy sababi xisoblanadi.

**Tekshirish va tashxislash.** Bachadondan tashqaridagi xomiladorlikda o'tkir qorin simptomi belgilari yoki xurujli qorin og'rig'i qindan qonli suyuqlikni kelishi kuzatiladi.

#### **Kerakli tez aniq tekshirishlar.**

- Qorin devorini shok va ta'sirlanish simptomlariga xos. Xarorat bilan kechishi kam uchraydi.
- To'g'ri bachadon - ichak chuqurligida korin bo'shlig'ida suyuqlikni to'planishi xisobiga yumshoq xosila paypaslanadi.
- Qon ketayotganligini tasdiqlash uchun to'g'ri bachadon ichak chuqurligi punktsiya qilinadi.
  - Yashirin klinik manzara
- Anamnezda — menstruatsiyasi kechikkan vaqtida qindan qonli oqmalarni kelishi, qorin pastki soxasida og'riq.
- **Fizikal tekshirishlar.** Bachadon shodalari soxasida xosila paypaslashda aniqlanadi. Asosiy simptom — bachadon bo'yinini siljisi natijasida kuchli og'riq kuzatiladi.

#### **Shoshilinch yordam.**

- O'tkir qorin va shok yuzaga kelganda bermor holatini stabil holatda tutib turish va xirurgik muolajani o'tkazishni tezda amalga oshirish talab etiladi.

**Kichik chanoq a'zolarini yallig'lanishi kasallikkleri** — o'sir qiz bolalarda eng ko'p talqalgan korindagi og'riqlardir. Kilinik manzarasi xuddi o'tkir appenditsit, bachadon tashqi xomiladaorligi va xaiz bilan kechuvchi og'riqlarga xos bo'ladi.

#### Tekshiruv

- Tashxislash ananezva shikoyat ma'lumotlariga tayangan xolda qo'yiladi; korin pastki soxasida o'tkir og'riq, qindan ajrarna, xarorat ko'tarilishi, qaltirash kuzatiladi. Kasallik aksariyat xolda xaiiz ko'rish vaqtida boshlanadi.
- Tekshirishda; bachadon bo'ynini og'ishida , bachadon shodalarida, ba'zan xosilada og'riq sodir bo'ladi.

#### Shoshlinch yordam

Shifoxonaga yotishga ko'rsatma: kuchli intoksikatsiya, aniqlanmagan tashxis, , kichik chanoqda abstsessga shubxada, peritonit simptomlaridla, xomiladorlikda, shifoxonadan tashqarida vrach nazoratini amalga oshirilmaganda, dori vositalarini og'iz orqali qabul qila olmaslikda, anamnezda efektiv bo'limgan davolashlarda.

#### Oshqozon – ichak traktini yuqori soxasidan qon ketish

**Umumi ma'lumotlar.** Qon ketishi to'g'risidagi aniq ma'lumotlar bermomi kuzatish va davolash jarayonini onsonlashtiradi, davolashni to'g'ri yo'lga soladi va tibbiyot xodimlarini asabiy zo'riqishlarini oldini oladi.

#### Terminologiya

- Oshqozon-ichak traktidan profuz qon ketish – bu minimum 1 litrdan ko'p yoki o'tkir qon ketishni gipovolemiyaga olib kelishi bilan baxolanadi.
- Gipovolemiya — bu umum qon xarakati miqdorini o'tkir va surunkali kamayishidir. Gipovolemiya - taxikardiya, sistolik xajimni (100mm rt.st dan past bo'lishi) va markaziy venoz bosimni kamayishi yoki kuchli kuzatilmagan simptomlar kuzatilishi bilan kechadi (YuQM va Q/b-ni postrural o'zgarishi).
- Oshqozon-ichak traktini yuqori qismidan qon ketish asosan qizil o'ngachdan, oshqozondan yoki o'n ikki barmoqli ichakdan qon ketishda kuzatiladi. Oshqozon – ichyaak traktini pastki soxasidan qon ketish, bu ichakdan, Treyts bog'lamini pastki soxasidan qon ketishda kuzatiladi. Profuz qon ketish aksariyat oshqozon – ichak traktini yuqori soxalaridan ketganda kuzatiladi.
- Haematemesis — Yangi (och qizil )rangdagi kusuq. Melaenemesis — qo'ng'ir yoki qora (kofe qusug'i) rangdagi kusuq. Bu ikki simptom qon ketish oshqozon-ichak traktini ingichka ichakdan yuqori soxasida, odatda qizil o'ngach yoki o'n ikki barmoqli ichakdan qon ketishda kuzatiladi.
- Melena (melaena) — qora-qo'ng'ir rangdagi najas (qora rangni bo'lishi najasda qon bo'lishi bilan xarkaterlanadi). Haematochezia—najasda yangi ( qizil och rangda) qon borligidandir. Oshqozon ichakda qon ketish rangiga qarab, qon kektayotgan soxani aniqlab bo'lmaydi. Oshqozon-ichak traktidan ketayotgan qon ichak bakteriyalari va oshqozon so'klari ta'siriga uchrab qora ranga aylanadi(degt - rangiga kiradi). Bu bir necha soatdan keyin yuzaga keladi. Oshqozondan ketayotgan qon bo'shashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, oshqozondan maxsulotlarni tez chiqib ketishiga olib keldi. Agar ich ketish tez sodir bo'lsa oshqozondan ketayotgan qon o'zgarmagan xlolda qizil rangda bo'ladi. Melena – yuqori oshqozon traktidan qon ketishida kuzatiladi. Ba'zida ichaklarni distal soxasidan ketishida kuzatilishi mumkin. Och qizil rangni bo'lishi oshqozon tarktini pastki qismidan ketayotganligini bildiradi.

**Yangi qon bilan kuzatiladigan qusuq** — oshqozon-ichak traktiniyuqori qismidan ketadigan qon ketishlarni asosiy simptom. Bu quyidagi kasallikkarda kuzatiladi (uchrash chastotasi kamayish ketma-ketligida):

- O'n ikki barmoqli ichak yarasi.
- Gastrit (o'tkir, surunkali, korrozivva infektsion omilli qon ketishlar), stressli yaralar.
- Oshqozon yarasi.
- Qizil o'ngach va oshqozonni varikoz kengaygannida (portal gipertenziya) yoki faqat oshqozonda (taloq venasini trombozi).
- Mellori—Veyssa sindromi (qizil o'ngachni oshqozonga o'tish soxasidagi shilliq qavatlarini uzilishi ko'p marotaba quşish natijasida).
- Oshqozon o'smasi.
- Qonni yutib yuborish natijasida (burundan qon ketish, qon tupurishda).
- Ezofagit va qizilo'ngach yarasi.
- Qizilo'ngach o'smasi.
- Aortoduodenal svishchlar.
- Fatter so'ksasini o'smasi.
- Qizilo'ngach travmatik shikastlanishi (yot jisim).
- Qon ivish tizimini buzulishi (tug'ma va ortirma).
- Geinobiliya (jigarni birlamchi shikastlanishi yoki pankreatitini asorati).
- Yaxshi sifatl oshqozon o'smalari (gemangioma va leyomioma).
- Nasliy gemorragik teleangiektaziya.
- Elastik psevdoksantoma.

Bu ko'rsatilgan kasallikkarga juda kam uchraydigan ba'zi bir kasalliklar kiritilmagan. 85% xollarda qon ketish oshqozon traktiniyuqori qismidan, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasidan yoki gastritdan ketishi kuzatiladi.

**Shoshilinch yordam.** Birlamchi etapda davolashda quyidagilar qilinishi kerak:

1. Qon aylanish xajmini tiklash;
2. Qon ketayotgan joyini, qancha miqdorda qon yo'qotilganini xisoblash, qon ketish davom etmoqdamni yoki yo'qligin aniqlash kerak.
3. Barcha oshqozon-ichak traktidan profuz qon ketayotgan bemorlar gospitalizatsiyaga muxtoj xisoblanadi. 85% oshqozon-ichakdniniyuqori qismidan qon ketish kuzatilayotgan bemorlarda, qon ketish bemor shifoxonaga kelgandan keyin yoki kelgan zaxotni to'xtashi kuzatiladi. Davom etayotgan yoki qon ketishi qayta boshlanishi gospitalizatsiya qilingan bemorlarda kam uchraydi. Bunday holatlarda bemorni arteriya tomiriga davo infuziyasi yoki xirurgik muolaja qilinadi. Oshqozon-ichakdan qon ketish aksariyat xollarda kuygan . nafas etishmovchiligi kuzatilgan, sepsis , qorinni o'tkir kengayishida shifoxonaga tushgan bemorlarda kuzatilishi mumkin. Diagnostik tadbir barcha aytilan xollarda bir xil, lekin davolash xar xil.
4. Intensiv davo va tashxislash tadbirlarini baravariga o'tkaziladi. Illoji boricha tezlikda gipovolemiq shokni bartaraf etish lozim.
5. Yo'qotilgan qon miqdorini filikal tekshiruvlardagi ma'lumotlarga asoslanib aniqlash mumkin. So'rash orgali yo'qotilgan qon miqdorini aniqlash qiyin, chunki bemorlar yo'qtog'an qon miqdorini ko'pitirib aytadilar. Bemorni yotqizgan va o'tirgan xolda qon bosimi, yurak qisqarishlar soni o'lchab yo'qotilgan qon miqdorni topish mumkin.

**Jadval 3. Gipovolemiyada Q/b va YuQS (yurak qisqarishlar soni)**

QTsA(qon tsirkulyator aylanishi)		Bemor holati			
ml	%	Chalqancha yotish		O'tirgan holat	
		AD	ChSS	AD	ChSS
Me'yyor	100	Me'yyor	Me'yyor	Me'yyor	Me'yyor
-500	-5	Me'yyor	Me'yyor	Me'yyor	Me'yyor ↑
-1000	Ot -10 do -15	Me'yyor	↑ Me'yyor	Me'yyor ↓	↑
-1500	-20	Me'yyor ↓	↑	↓	↑ yoki ↓
-2000	-30	↓	↑ yoki ↓	↓↓	↑ yoki ↓

- Bemorni tez ko'rish amalga oshiriladi. Etiborni oshqozon – ichak traktidan qon ketishda solir bo'ladiyan belgilarga (pigmentli toshmalar, telcangiectaziya, gemangioma, kichik jigar etishmovchiligi belgilari) qaratiladi. Jigarni va taloqni kattalashuvi, terida yulduzchali qon toshmalari, qorinda va ko'krak qafasidagi kollateral vena qon tomirlari, tanada tuklarni bo'lmasligi – portal gipertenziyadan darak beradi. Epigastral soxadagi og'riq oshqozon yoki o'n ikki barmoqli yara borligidan xabar beradi.
- Katta venaga infuziya quyish uchun kateter qo'yildi. Kateterni, qusuq kuzatilganda yoki bemorlarni transportirovka qilganda chiqib ketmasligi uchun maxkamlanadi.
- Birlamchi vazifalarga — gipovolemkim shokni davolash kiradi. Suyuqliklar maksimal darajadagi tezlikda, kerak bo'sha bosimli tezlikda quyiladi. Bemorni shok xolidan chiqarilgandan keyin suyuqliklar etarli tezlikda quyilishi davom ettiriladi:
  - Qon bosimi va yurak qisqarishlar soni tiklanguncha va me'yorlashguncha suyuqliklar kuylishi davom ettiriladi;
  - Gipovolemiya belgilari yo'qotiladi;
- Infuzion davoni yo'lga qo'ygandan keyin anamnez to'plashga o'tiladi. Anamnezda odatda qon ketishni boshlang'ich ma'lumotlari aniqlanadi. Anamnez to'plashda shifokordan irodali, sabr-toqatl bo'lish talab etiladi, chunki bemorlar ko'pincha qo'rqaq xolda bo'lgani uchun ma'lumotni to'liq beraolmaydilar. Anamnezni to'liq bo'lishi uchun bemorni qarindosh urug'laridan aniqlash zarur. Aloxida axamiyatga ega ma'lumotlarga oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasi to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi. Anamnezda alkogol va boshdan o'tkazgan gepatitlar axamiyatli. Bemor qanday dori vositalarini qabul qilganligi (ayniqsa; antikogulyantlar va antiagregantlilar), dori vositalariga allergiya movjudligini aniqlash kerak.
- Oshqozon ichak traktini yuqori soxalaridan kuchli qon ketish kuzatilganda aktiv tashxislash taktikasiga amal qilib quyidagilar bajariladi:
  - Oshqozonni 0,9%-li NaCl-ni sovutilgan xolda Evalda zondi orqali yuviladi. Bunda oshqozondan eski qon va kuyqalar chiqarib tashlanadi. Bu muolajani to oshqozondan toza suv chiqqunga qadar bajariladi.
  - Bemor jadal xirurgik markazga transpartirovka qilinadi.
- Kuzatib boruvchi varaqda qilingan ishlar miqdori va bemorga vena ichiga quyilgan suyuqliklar, xayotiy ko'satkichlar yozib boriladi.

#### Bolalar shoshilinch xirurgiyasini xususiyatlari

Jadval 4 <b>Bolalarda oshqozon-ichak qon ketish sabablari</b>
<b>7- kungacha</b>
Tashqi to'g'ri ichak teshuvi va to'g'ri ichakni travmatik shikastlanishi.

Nekrotik enterokolit.

O'ita ichakni buralib qolishi.

Gastrit, oshqozon yoki o'n ikki barmoqli ichak yarasi.

Bola tomonidan ona qonini oshqozonga yutib olinishi.

Gemorragik diatezlar

#### **I-xaftadan to 2- yoshgacha**

Tashqi to'g'riichak chiqaruv teshigini yorilishi(tirmalib yorilishi).

Ich ketish bilan kuzatiladigan ichak infektsiyalari.

Ichak tutilishi (invaginatsiyasi).

Mekkel divertikulasi.

Sut tarkibidagi oqsilga allergiya.

Ladda sindromi.

Ezofagit

#### **2- yoshdan to 10 -yoshgacha**

Yovenil poliplar.

Ich ketish bilan kuzatiladigan ichak infektsiyalari.

Mekkel divertikulasi.

Qizil o'ngachni varikoz kengayishi.

Krona kasalligi , nospetsifik yarali kolit.

Gemorragik vaskulit (Shenleyna—Genoxa kasalligi)

#### **10 yoshdan katta**

Oshqozon yoki o'n ikki barmoqli ichak yarasi.

Krona kasalligi , nospetsifik yarali kolit.

Qizil o'ngachni varikoz kengayishi.

Ichak polipozi.

Dori vositalari bilan davolish (NPVS, antikoagulyantlar, kortikosteroidlar va boshqalar

#### **Xar qanday yoshda kuzatiladi**

Qon ivishini buzulishi.

Arteriovenoz malformatsiya.

Gemorroy.

O'n ikki barmoqli ichak gematomasi.

Ichakni ikkilangan holati.

Mellori—Veyssa sindromi.

Bolaga qattiq muomlada (taziq o'tkazish) bo'lish.

Burun shikastlanishi

#### **"O'tkir qorin" sindromida og'rilsizlantirish**

Odatda qorinda og'riq kuzatilgan bemorlarni fizikal ko'rib tekshirib bo'limguncha og'rinqi qoldiruvchi dori vositalarini berib bo'lmaydi. Shoshilinch tibbiy yordam ko'sratuvchi xodim bemordagi klinik jarayonlarni to'g'ri baxolay olishi kerak chunki narkotik analgetiklar og'rinqi moxiyatini buzib ko'rsatishi mumkin. Lekin ba'zi bir xollarda (masalan; kuchli og'riq tufayli bolani ko'rishni iloji yo'q) katta bo'limgan narkotik analgetiklarni azoblanishini kamaytirish va shifokorga ishonchini ortirish va qolaversa to'la ayab tekshirishni o'tkazish uchun qo'llash tavsisi etiladi. Narkotik analgetiklarni effektini nalakson 10mkg/kg dozada preparatini ko'llab kamaytirish yoki yo'qotish mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Vitseral og'riqni belgilarini sanab bering
2. Parietal og'riqni belgilarini sanab bering
3. Og'riq bilan bog'liq belgilarni sanab bering
4. O'tkir qorin og'rig'i kuzatilgan bolani tekshirish ta'moillarini aytib bering
5. Apenditsitdagi jadal tashxislash va davolash taktikasini yoritib bering
6. Ingichka ichakni tijilib qolish holatini jadal tashxislash va davolash taktikasini yoritib bering
7. Ichak invaginatsiyasini jadal tashxislash va davolash taktikasini yoritib bering
8. Tugalanmagan burlish va ichak buralib qolishi holatida jadal tashxislash va davolash taktikasini yoritib bering
9. Kichik chanoq soxasidagi yallig'lanish bilan kechadigan kasallikkarni jadal tashxislash va davolash taktikasini yoritib bering

## **BOLALARDA ISITMA XOLATLARI. BOLALARDAP UTKIR TOKSIKOZLAR. REYE SONDROMI.**

Isitma 90% holatlarda bolalar tabobatida tez tibbiy yordamni chaqirishga sababchi holat hisoblanadi. Bu chaqiruvlarning 95-97% virusli infektsiya sababli bo'ladi. 3-5% holatlarda infektsiyaning aniq o'chog'i aniqlanmagan bo'lib, tana haroratining 39 °C dan yuqori bo'llishi baktericmiya bilan bog'lanadi. Baktericmiya sababi aksariyat holatlarda kapsula ichi mikroorganizmlari - *Streptococcus pneumoniae*, *Haemophilus influenzae*, *Neisseria meningitidis* va *Salmonella* spp dir.

Virusli infektsiyalarning 90% dan ko'pini o'tkir respirator virusli infektsiya tashkil qiladi. Shuning uchun aksariyat bolalarda tana harorati yuqori bo'lgan holatlarda isitmani tushirishga qarshi chora tadbirlarga hojat bo'lmaydi. Pediatriya sohasida adolatli bitta ibora bor: «termometrni davolash kerak emas, bermor bolani davolash kerak». Ko'pehilik tibbiyot xodimlari febril talvasadan qo'rqiб har qanday isitma holatini tushirishga harakat qiladi. Ammo talvasa holati isitma paytida kam holatlarda uchraydi. Bundan tashqari bunday holat engil o'tib, o'zidan keyin nevrologik asorat qoldirmaydi. Isitma holati odatta organizmnинг yuqumli agentiga nisbatan fiziologik reaksiysi bo'lib, nospetsifik immmunitetning zo'riqishi oshishi bilan tushuntiriladi. Ammo ba'zi holatlarda isitma patologik regulyatsiya jarayonini qitiqlab infektsion toksik shok holatini keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek isitma xavfli yuqumli kasalliklar, yiringli kasalliklar, bosh miya jarohatlari belgisi bo'llishi ham mumkin. Demak har qanday pediatr va tez tibbiy yordam xodimining vazifasi, bermorni birlamchi va ikkilamchi qayta baholashda, isitma holatida bermor hayoti uchun xavf tug'diruvchi belgilarni aniqlashdan iboratdir.

### **8 haftadan kichik bo'lgan bolalarda isitma**

Tana haroratining 38°C dan yuqoriga ko'tarilishi virusli yoki bakterial infektsiya borligidan dalolat beradi. Bola hayotining dastlabki ikki oyligida immun tiziming to'liq etilмаганлиги bois, bakterial infektsiya paytida septik jarayonning rivojlanish xavfi yuqori bo'ladi. Ushbu oylikda og'ir virusli infektsiya ham xavflidir. 95% holatlarda isitma sababi virusli infektsiya hisoblanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda sepsis chaqiruvchi qo'zg'atuvchilar — V guruh streptokokklar, *Escherichia coli* va *Listeria monocytogenes* (ba'zan — *Staphylococcus aureus*).

Tana haroratining 38°C gacha ko'tarilishi bolaning qizib ketishidan dalolatdir. Bolani echintirish, ba'zida iliq suv bilan 4 marta artish va qushimcha kuchsiz tuzlangan suv ichirish isitma holatini me'yorga olib keladi.

### **Sepsis rivojlanishi xavfini ko'rsatuvchi anamnez ma'lumotlari:**

- Homiladorlik va tug'ruq haqidagi ma'lumot (yuqumli kasalliklar)
- Onadagi isitma holati, siyidik va jinsiy a'zolari infektsiyasi

- Kichik vazn bilan tug'ilish va keyinchalik vazndan orqada qolish
- Infektsiya mavjudligi belgilari ( uyqchanlik, qo'zg'aluvchanlik)

### **Belgilari**

- qo'zg'aluvchanlik
- Uyqchanlik
- Sust so'rish
- Rangparlik

### **Asosiy fiziologik ko'rsatkichlar:**

- Rektal harorat
- Yurak qisqarish soni: taxikardiya- isitma, gipovolemiya va shok hisobiga bo'lishi mumkin
- Nafas soni - taxipnoe isitmada, pnevmoniya va atsidozda kuzatiladi
- Arterial qon bosim - shuni esda tutish kerakki bolalarda arterial gipotoniyu bu shokning kechki belgisi hisoblanadi

### **Laborator va instrumental tekshiruv**

Qon, peshob va orqa miya suyuqligi ekmasi. Peshobni kateter orqali olish zarur.

**Orqa miya suyuqligini tekshirishda** uning hujayraviy tarkibi, oqsil miqdori va glyukozaga ahamiyat beriladi. Qon va peshob umumiy tahlili, qonda glyukoza miqdori tekshiriladi. Chaqaloqlarda leykotsitoz doim bo'lmasdan, neytropeniya 500 mkl'dan kam bo'lishi mumkin.

### **Ko'krak qafasi rentgenografiysi o'tkaziladi**

**Orqa miya suyuqligida, qon va peshobda** – lateks agglyutinatsiya usulida bakterial agent aniqlanadi.

### **Shifokor yo'l tutishi**

**29 sutkadan kichik bolalar** – gospitalizatsiyaga ko'rsatma

**29 sutkadan 90 sutkagacha bo'lgan bolalar** – agar holati og'ir bo'lsa gospitalizatsiya qilinadi.

### **Dastlabki 3 yillikdag'i isitma**

Erta yoshdag'i bolalarda isitma holati o'tkir toksikoz chaqirishi mumkin. Bu narsa bola yoshining fiziologik gjipersimpatisiotoniyasi bilan izohlanadi. Vegetativ asab tizimining ushbu disbalansi simpatik hujum davomiyligini 6 saatgacha cho'zilishiga olib keladi. Bu hujum odatda yuqumli kasatlilikning 3 – 4 kunida yoki oldin o'tkazilgan yuqumli kasallik, vaktinsizatsyaning 4 – haftasida yuzaga keladi. Bunda Sanorelli – Shvartsmann fenomeni yoki paraallergik reaksiya kuzatiladi. Ushbu reaksiya naflas, oshqozon – ichak va siyidik yo'llari adrenoretseptorlarning sensibilizatsiyasi bilan tushuntiriladi. Sensibilizatsiyalashgan adrenoretseptorlar infektsion agentning ta'siri qo'shilishi natijasida qon aylanishning terminal bo'g'inlari trigger mekanizmini vujudga kelishini amalga oshiradi va natijada prekapilyar sfinkterlar spazmi yuzaga kelib, qon aylanishi markazlashuvini kuzatiladi. Keyinchalik prekapilyar bo'shligidagi qon va endoteliy hujayralari parchalanib, DVS sindromini chaqiruvchi tromboplastin hujayradan tashqariga chiqadi va qon aylanishining markazlashuvini tarqatadi. Yakunda tarqatuvchi vazogen shok yuzaga keladi. Shunday qilib pediatriya amaliyotida toksikoz va intoksikatsiya degan atama ishlataladi.


**Toksikoz** – bu organizmning infektions agentga umumiy nospetsifik reaksiyasi bo'lib, odatda shokga o'xshash holat bilan kechadi. Dastlab mikrotsirkulyatsiya buzilishi kuzatilib, keyinchalik markaziy gemodinamika buzilishi, suv-elektrolit, kislota-asos muvozanati, energetik balans buzilishi qayd qilinib, koagulopatiya va nevrologik buzilishlar kuzatiladi.

**Intoksikatsiya** – bu organizmning infektions agentga nospetsifik reaksiyasi bo'lib, moddalar almashinuvu va immunitetning zo'riqishi oshishi ko'rinishida kechib, lokal yallig'lanish o'choqlari mavjud bo'ladi.


Septiki shok xavf tug'diruvchi holat bo'lib yiringli destruktiv o'choqlar mavjud bo'lgan holatda yuzaga keladi. Bunda yiringning metastazlangan komponentlari ularning retukulocendotelial sistema orqali chiqishini oshiradi va natijada septik shok rivojlanadi. Shunday qilib tsitokinli kaskad yuzaga keladi. Tsitokinlar proteinlarning molekulasi bo'lib, organizmdagi hujayralar aro aloqaga javobgardir. Tsitokinli kaskad og'ir yallig'lanuvchi reaksiyalar asosida

yotadi. Tsitokinlar va yallig'lanishning boshqa mediatorlarining oshishi prekapilyar bo'shlinqing endoteliysini zararlaydi va yuqoridagi holat yuzaga keladi. Bundan tashqari bu agentlar miokard dapressiyasiga va yurakning bir martalik hajmining kamayishiga olib keladi.

## SHOKNING KLINIK BELGILARI VA YALLIG'LANISHGA JAVOB INTENSIVLIGINING O'ZARO ALOQASI



## Sepsisda shok rivojlansish mehanizmi



Erta yoshli bolalarda shok rivojlanishini oldindan bilish uchun isitma holatini balli sistema bo'yicha qayt qilish yaxshi samara berib, bolani gospitalizatsiya qilish va intensiv davo o'tkazishda quayadir.

**Erta yoshli bolalarda isitmaning baholashning Yelskiy shkalasi  
(8 haftadan katta 3 yoshgacha bo'lgan bolalar )**

<b>Ballar Belgilari</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>5</b>
<i>Ovoz, chinqiriq</i>	Kuchli, jarangdor	Kuchsiz ovoz, ingillash	So'olib boruvchi sust ovoz
<i>Ota – ona stimulyatsiyasiga javob</i>	Qisqa yig'i	Tanaffusli davomiy yig'i	Doimiy yoki agressiv javob
<i>Uyqu – tetiklik</i>	Tez uyg'onadi yoki uyg'onganda tinch	Qiyinchilik bilan uyg'onadi yoki ko'zini ochmaydi	Uxlamaydi yoki uxlasa uyg'onmiyaydi
<i>Teri rangi</i>	Pushti	Rangpar, akrotsianoz	Rangpar, umumiy tsianoz, marmarsimon, kulrang
<i>Gidratatsiya</i>	Teri, ko'z olmaları turgori o'zgarishsiz, shilliq qavatlari nam	Og'iz shilliq qavatlari quruq	Teri burmasimon, ko'zlarli botgan, og'iz shilliq qavatlari quruq
<i>Bolaning umumiy reaksiyasi</i>	Kuladi yoki e'tiborini namoyish etadi	Kam kuladi e'tibori susaygan	Kulmaydi, befaroq, holsiz, reaksiyasi yo'q

16 baldan yuqori bo'lsa bolaning holati intensiv terapiya va tezkor gospitalizatsiyani talab qiladi.

Infektzion toksikozning yuzaga kelishi har doim ham gospitalizatsiya uchun ko'rsatma bo'lib hisoblanmaydi. Toksikozning klinik ko'rinishida 3 ta davr farqlanadi. Birinchi davrida toksikozni ko'pincha bartaraf etish mumkin. Ikkinci davrida esa biroz kengaytirilgan shoshilinch yordam chora tadbirlari xisobiga ko'pincha toksikoz bartaraf etiladi. Ammo uchinchida davri «sovuj» shok klinik ko'rinishi bilan kechib, nafaqat shokga qarshi keng qamrovli tadbirlar, balki davomiy intensiv davo va monitor kuzatuv zarur bo'ladi.


Hayot uchun zarur ko'rsatgichlar bo'yicha baholash maqsadga muvofiqdir: es -hushi (saqlangan, orientatsiya bor, orientatsiya yo'qolgan, korma mavjud yoki yo'q), nafas (bor yoki yo'q, xarakteri, ventilyatsiya hajmi), yurak qisqarishlar soni, arterial qon bosim, teri rangi, harorat reaksiyasi. Toksikoz holatidagi bemor bolani birlamchi baholashda mikrotsirkulyatsiya holatini ko'rsatuvchi kapillyar sinamani aniqlash muhim ahamiyatga ega.

**Toksikozning og'irlik darajasiga qarab klinik belgilari**

	1 daraja	2 daraja	3 daraja
<b>Toksikoz boshlangan vaqt</b>	Dastlabki 2 – 3 soat	Toksikoz boshlanishining 3 – 6 soati	Toksikoz boshlanishining 6 – 8 soati
<b>Es - hushi</b>	Qo'zg'aluvchan yoki uyquchan	Sopor, koma ba'zan talvasa	Stvol komasi yoki chuqur koma
<b>Teri</b>	Ma'yorida, qizargan yoki oqish akrotsianoz	Oqish - marmarsimon	Kulrang - tsionatik
<b>YuQS</b>	Daqiqada 180 tagacha	180-220 ta	>220 dan ko'p yoki bradikardiya
<b>AQB</b>	Norma yoki oshgan	SAB vaDAB oshgan	Gipotensiya
<b>Harorat</b>	39-39,5°S	40° S gacha	>40°S Yoki gipotermiya
<b>Diurez</b>	Oliguriya	Oliguriya, gematuriya	Anuriya

Shuningdek isitma tushiruvchi dorilardan samara bo'lmaydi, YuQS va harorat nomunatosibligi kuzatiladi (37 dan yuqori har bir haroratga 10 dan ortiq yurak qisqarishi), teri va rcktal harorat farqi 1,5 gradusga etadi. Toksikozning ikkinchi darajasidan boshlab musbat kapillyar sinama va shok indeksi 1,5 ga etishi kuzatiladi ( Kardiologik shoshilinch holatlarga qarang). Ko'pincha toksikozning barcha davrlarida oyoq-qo'llarningsovishi aniqlanadi. Ba'zan o'pkadagi shunt – diffuz buzilishlar hisobiga kislorod ingalyatsiyasidan samara bulmaydi va hemorda taxipnoe kuzatiladi.

#### Kapillyar sinama



#### Infektsion toksikoz turlari

**Neyrotoksikoz** – bu toksikozning eng ko'p uchrovchi turi bo'lib, MAT va vegetativ nerv sistemasi shikastlanishi bilan kechib, turli darajadagi hush buzilishlari kuzatiladi. 1 – darajada febrill talvasa kuzatilsa, 2 – 3 darajasida talvasa tez-tez qayd qilinib miya shishi kuzatiladi (likvor hajmi oshadi, periventikulyar bo'shilq shishadi, keyinchalik shish o'rta miya va miya o'zagiga o'tadi).

**Infektsion -toksik shok** – bu toksikozning tez kechuvchi turi bo'lib, I- 2 davrlarning klinik ko'rinishini payqab bo'lmaydi. Ushbu tur daqqa ichida kechib ko'pincha o'lim bilan tugaydi.

**Kishsha toksikozi** – supraventrikulyar yoki qorinchalar taxikardiysi bilan kechuvchi toksikoz turi bo'lib, dastlabki soat ichida yordam ko'rsatilmasa ( shoshilinch kardioversiya) o'lum bilan tugaydi. Toksikozning ushbu turi hamroh yurak kasalliklari bo'lgan paytda uchraydi  
Kishsha toksikozining klinik belgilari:

- Kuchaygan psixomotor qo'zg'aluvchanlik
- Kuchli rangparlik
- Kuchli taxikardiya (YuQS 220 dan ko'p)
- EKG da – supraventrikulyar taxikardiya yoki tezlashgan qorinchalar taxikardiysi

Ba'zan kuzatiladi:

- Ichak parezi belgilari (qorin dam bo'lishi, qusish, peristaltika susayishi) – gipokaliemiya hisobiga. To'qimalarning interstitial shishi ( son sohasida teri yog' qatlamini burma qilib ushslash paytda qo'lga mumsimon ilinadi)- gipokaliemiya sabab

### Shoshilinch yordam:

**Toksikozning 1 – darajasida** neyrovegetativ blokada o'tkazish uchun dimedrol yoki pipolfen m/o yuboriladi. Spazmnii bartaraf qilish uchun no-shpa, papaverin, dibazol ishlatalidi. Isitmani tushirish uchun parasetamol, ibuprofen ishlatalidi. Og'iz orqali suyuqlik beriladi. Agar 20 daqiqa davomida YuQS pasaymasa, teri rangi o'zgarmasa va harorat bir gradusga tuslimusa bemor shifoxonaga yotqiziladi.

**Toksikozning 2 - darajasida** – kuchli neyroleptik ta'sir ko'rsatuvchi dorilar (droperidol, aminazin, diazepam, GOMK) qo'llaniladi. Tomirlarni kengaytirish ganglioblakatorlar (pentamin, bcnzogeksoniy) hisobiga amalga oshiriladi. Agar 20 daqiqa davomida YuQS pasaymasa, teri rangi o'zgarmasa va harorat bir gradusga tushmasa bemor shifoxonaga yotqiziladi.

**Toksikozning 3 - darajasida** shogga qarshi tadbirler o'tkaziladi va bemornlar shifoxonaga yotqizilishi shart. Bemorni o'ta ehtiyyotkorlik bilan transportirovka qilish zarur(buyrak ustti beziga qon quyilishi xavfi yuqori va bemor shu zahoti o'lishi mumkin).

Jahon pediatriya amaliyotida Yelskiy shkalasi bo'yicha 16 balldan yuqori bo'lgan holatda shogga qarshi tadbirlarni boshlash tavsiya qilinadi:

1. Birlamchi AVS yordam
2. Kardiomonitor ritmini tahlil qilish
3. Supraventrikulyar taxikardiyayocki qorinchalar taxikardiyasida - kardioversiya
4. Tomirga yoki suyak ichiga yo'l ochish
5. Kristalloidlarni 20 ml/kg hisobida 3 marta samara b erguncha bolyus yuborish
6. Shoshilinch transportirovka

### 3 yoshdan katta bolalarda isitma

Katta yoshli bolalarda isitma o'tkir toksikozsiz kechadi va hayot uchun xavf solmaydi. Biroq isitma bolaning azobolanishiha sabab bo'lishi mumkin. Bolaning holatini baholashda qizil va oq isitmani farqlash maqsadga muvoqiqdir.

«oq isitma» yoki gipertermik sindrom bo'lib, bunda teri tomirlarining spazmi kuzatiladi.

Klinik ko'rinishi:

- Qo'zg'aluvchanlik yoki kuchli uyquchanlik ( bolani uyg'otish qiyin), ammo bolani ataylab uyg'otish tavsiya qilinmaydi
- Teri qoplamalari rangparligi ( lunj va og'iz – burun uchburchagida)
- Sovqotish ( titrash yoki sovuqni his qilish)
- Oyoq qo'llarining sovushi
- Bosh og'rig'i

Bunday holatda bola uchun isitmani tushiruvchi dori berish etarli: og'iz orqali paratsctamol yoki ibuprofen beriladi.

«Qizil isitma» - infektzion intoksikatsiya belgisi bo'lib, fiziologik regulyatsiya hisobiga yaxshi oqibatlar bilan tugaydi. Bunda bolaning nazorati, emotsional kontakt va qo'shimcha kam tuzlangan suv berish etarli bo'ladi.

Agar isitmaning bakterial va virusli sabablari aniqlansa qo'shimcha davolash usullari qo'llaniladi.

#### **Isitma holatida qo'llaniladigan dori moddalar**

Analgin 50% 0,01 mg/kg 0,1 ml/yosh

Dimedrol 1% 0,2 ml (1yoshgacha) 0,5 ml (1 dan katta)

Droperidol 0,25% 0,1 ml/kg

GOMK 20% 0,5 ml/kg 10 marta suyultirilgan holatda

No-shpa 0,5 ml

Papaverin 1% 0,3 ml/yosh

Pentamin 5% 0,5ml/kg (1yoshgacha) 0,25 ml/kg (1 yoshdan katta)

Benzogeksoniy 2 %1-2 mg/kg (1yoshgacha), 0,025ml (1 yoshdan katta)

Seduksen 0,5% 0,25 – 0,5 ml/kg

Aminazin 0,1% 0,01 ml/kg (1yoeshgacha), 0,15ml (1yoshdan katta)

Paracetamol 15 mg/kg har 6 soatda, 2 oydan kattalarda yoki 10 – 15 mg/kg)

Ibuprofen 50 mg 1 yoshgacha, 1 yoshdan kattalarga 100 mg (yoki5 – 10 mg/kg)

#### **Reye sindromi**

Reye sindromi – noma'lum sababli, kam uchrovchi sindrom bo'lib 1963 y. da Reye tomonidan kuzatilgan. Kasallik uchun yuqori harorat, ichki a'zolar (1- navbatda jigar) o'tkiz yog'li distrofisi va entsefalopatiya xosdir. Ushbu sindromda jigar etishmovchiligi kuzatilib ammiak va jigar fermentlarining qondagi miqdori oshib ketadi, koagulyatsiya buzilib uglevod, aminokislota va lipidlar almashinuvni ishdan chiqadi. Jigar va miya hujayralari mitokondriyasining shikastlanishi kasallik rivojlanishiga asos deb taxmin qilinadi. Reye sindromi bilan aspirin qabul qilish holatining o'zaro bog'liqligi isbotlangan. Quyidagi holatlarda tez tibbiy yordam xodimi Reye sindromiga shubha qilmog'i zarur:

- Prodromal davrdan keyin to'satdan yuzaga keluvchi ko'p quish
- Keyin es-hushining buzilishi.
- Kasallik odatda virusli infektsiya bilan hamiroh klib, yuqorida belgilari kuzatiladi.  
Kasallik kam uchrasada unga bo'lgan shubha doimo yuqori bo'lishi kerak. Shu sababli intensiv davolashni o'z vaqtida boshlash zarur, aks holda bosh miyada qaytmas o'zgarishlar yuzaga kelib oligofreniya shakllanishi mumkin. Davoni kech boshlash o'lim holatiga olib keladi.

#### **Tekshiruv paytidagi aniqlanadi**

- Taxipnocc
- Isitma
- Uyquchanlik
- Sopor, koma
- Epileptik tutqanoq — ba'zida
- Bosh miya ichi bosimi oshishi simptomlari kuzatilishi mumkin

#### **Asosiy diagnostik belgilari:**

- Qon zardobida jigar fermentlarining oshishi (AsAT, AIAT, LDG)
- Arterial qonda ammiak miqdorining oshishi, agar 300mkg% dan yuqori bo'lsa oqibat yomon

#### **Shuningdek kuzatiladi**

- Metabolik atsidoz
- Respirator alkalozi
- Gipoglikemiya
- Protrombin vaqtining uzayishi

Biroq aksariyat belgilari kasallikning birinchi kunida kuzatiladi.

#### **Miya ichi o'smasini inkor qilish uchun o'tkaziladi:**

- kompyuter tomografiya
- magnitnorezonans tomografiya  
agar Reye sindromi tashhisiga shubha bo'lsa (16 yoshdan katta va hurujsimon kechishi) jigar biopsiyasi o'tkaziladi.

#### **Shoshilinch yordam:**

- AVS yordam
- MVB ni o'lchash uchun markaziy vena katetirizatsiyasi o'tkaziladi. Miya perfuzion bosimini 50 mm. sm. ust. ushlashi zarur. Miya perfuzion bosimi o'rtacha AQB va miya ichi bosimi o'rtasidagi farqga teng.
- Har 12 soatda EEG nazorati
- Qon va peshobda elektrolitlar miqdori aniqlanadi. Jigar etishmovchilida natriyning miqdori peshobda kamaygan, kaly oshgan. Peshobning osmolyarligi qonga nisbatan oshgan.
- Har 16 – 12 soatda qonda mochevina va elektrolitlar aniqlanadi, plazmaning osmolyarligi va glyukoza aniqlanadi, har 12 – 24 soatda arterial qonda ammiak miqdori aniqlanadi.
- Bemorni bosh venoz oqimini yaxshilash uchun o'rtaligida chiziq bo'yicha joylashtirib, bosh qismi 30 gradusga ko'tariladi.
- Lyumbal punktsiya o'tkazish xavfli
- Plazmada glyukoza miqdori nazoratida 10 – 15% glyukoza yuboriladi.
- Vitamin K, 5—10 mg/sutka v/i 3 kun davomida yoki protrombin vaqtini normallashguncha yuboriladi. Agar preparat uch kundan ortiq ishlatilsa dozasi 1 – 2 mg sutkaga kamaytiriladi. Qon ketish holatlari yangi muzlatilgan plazma quylidi.
- Ammiak ishlab chiqarilishi kamaytiriladi
  - Ratsionda oqsil miqdori 10 gr. gacha kamaytiriladi.
  - Endogen mikroflorani pasaytirish uchun laktuloza, 1 ml/kg har 6 soatda yoki neomitsin 50 mg/kg sutkaga hisobida 4 qabulga beriladi.
- Dorilarni berish va oshqozon- ichak traktidan qon ketishini qayd qilish uchun nazogastral zond qo'yiladi.
- Sedativ dorilar ayniqsa jigarda parchalanuvchi barbituratlarni qo'llash mumkin emas.
- Qon, peshob va astsits suyuqligi ekiladi.
- Gipovolemiya holatida va zardob albumininining pasayishida albumin infuziyasi 1,75 g/kg hisobida o'tkaziladi. Bunda zardob albumini miqdori 1 gr% oshadi.
- Agar gipovolemiya holati bo'lmasa suvgaga bo'lgan minimal ehtiyojning yarmi beriladi. Plazma osmolyarligi 290—310 mosmol/l bo'lishi kerak. Infuzion suyuqliklar shunday tanlanadiki ular gipoglikemiya va plazma osmolyarligini pasayishiga olib kelmasligi kerak. Aks holda miya shishi rivojlanishi mumkin. Shuning uchun 5 yoki 10% glyukoza fiziologik eritma bilan qo'llaniladi.
- Epileptik tutqanoqda fenitoin qo'llanilib, u hushni o'zgartirmaydi va bemorni kuzatish imkonini beradi. Dori to'yintirilgan dozada fiziologik eritmada tomir ichiga 1 mg/kg/min tezlikda 15 – 20 mg/kg hisobida buyuriladi.
- Har kuni gemosorbsiya o'tkazish samarali.

#### **Nazorat savollari.**

1. 8 haftagacha bo'lgan bolalarda sepsis rivojlanishining anamnestik va klinik belgilariни айтиш
2. 8 haftagacha bo'lgan bolalarda isitma holatida tekshiruv rejasini айтиш
3. Infektsion toksikoz va intoksikatsiyaga tarif bering
4. Infektsion toksik shok rivojlanish mehanizmini айтиш bering
5. Septik shok mehanizmini sharhlab bering

6. Yelskiy shkalasi va uning tahlilini aytib bering.
7. Infektsion toksikoz darajalarini sharhlab bering
8. Neyrotoksikoz, infektsion toksik shok, Kishsha toksikoziga ta'rif bering
9. Kishsha toksikozining diagnostik belgilari
10. Infektsion toksikozda shoshilinch yordam ko'rsatish ketma-ketligini va uning darajalari bo'yicha davolashni aytib bering
11. «Oq» va «Qizil» isitmaning klinik ko'rinishini sharhlab bering
12. 3 yoshdan katta bo'lgan bolalarning isitma holatida davolash taktikasini aytib bering
13. Reye sindromiga ta'rif bering
14. Reye sindromiga shubha qiluvchi belgilarni ko'rsatib bering
15. Reye sindromida tekshirish rejasini aytib bering
16. Reye sindromida shoshilinch yordam va intensiv davolash ketma-ketligini ko'rsatib bering.

## ERTA YoShLI BOLALARDA EKSIKOZ

Eksikoz – bu suvsizlanish holati bo'lib, doimiy ravishda suv va elektrolitlarni organizmdan maz'oridan ortiq chiqib ketishi gipovolemiyani chaqiradi. Qon plazma hajmining pasayishi periferik qon aylanishini buzilishiha olib keladi. Shok rivojlanishi uchun suvsizlanish tana vaznining 10 % ni hosil kilishi, ya'ni 100ml/kg suyuqlik yo'qotish etarli bo'ladi. Ayniqsa erta yoshti bolalarda shok rivojlanishi xavfi yuqorida. Bunday bolalarda oddiyo ich ketishi va quisish og'ir suv-tuz almashinuviga buzilishiha olib keladi. Buning sababi bu yoshdagagi bolalarda kattalarga nisbatan moddalar almashinuvida hujayradan tashqaridagi suyuqlik 3 marta ko'p ishtirok etadi. Interstitsial to'qimada esa suv miqdori kam bo'lib, interstitsial shish rivojlanishiga yaxshi zamin yaratadi.

Eksikozni, uning darajasini, yo'ldosh patologik holatlarni ( ichaklar parezi va distrofiya) o'z vaqtida aniqlash va yo'qotilgan suyuqlik o'mini samarali qoplash orqali bolaning hayotini xavfli holatdan saqlab qolish mumkin.

### Organizmnning suv bilan ta'minlovchi komponentlari

Suvning chiqish yo'llari:

- Buyrak orqali
- Teri orqali
- Nafas yo'llari orqali
- Oshqozon-ichak trakti orqali

Suvga bo'lgan minimal chtiyoj - bu suv balansini ushlab turish uchun zarur hajmdir.

Suvga bo'lgan minimal chtiyoj:

**Yashirin suv yo'qotishi sutkalik suv yo'qotishning 50% tashkil qiladi**

- Nafas yo'llari orqali — 15%.
- Teri orqali — 30%.
- Oshqozon-ichak trakti orqali - 5%.

Qolgan 50% suv yo'qotish buyrak orqali amalga oshiriladi.

**Suvning endogen manbalari.** Oksidlanish natijasida hosil bo'lgan suv yo'qotilgan suvning 15% to'latadi. Shu sabab suvga bo'lgan minimal chtiyoj, yashirin suv yo'qotish va buyrak orqali yo'qotish summasidan endogen sunvi ayirib tashlash yig'indisiga tengdir.

### Suvga bo'lgan minimal chtiyojni o'zgartiruvchi holatlar

Holatlar	Suvga bulgan extivoj
Isitma	Tana haroratining har bir gradusga oshishi 12%ga oshiradi
Metabolizm oshishi bilan bog'liq boshqa holatlar	25—75 %ga oshiradi

Gipotermiya	Tana haroratining har 1 gradusga pasayishi 12%ga kamaytiradi
Metabolizm pasayishi bilan bog'liq boshqa holatlar	10—25 %ga pasaytiradi
Havo namligini oshishi	Yashirin suv yo'qotish 0—15ml/100kkal kamaytiradi
Giperventilyatsiya	Yashirin suv yo'qotish 50—60 ml/100 kkal oshadi
Ko'p terlash	10—25 ml/100 kkal oshiradi

### Degidratatsiya tasnifi.

- Gipotonik degidratatsiya - ( $\text{Na}^+$  125 mekv/l past) – hujayra tashqarisidagi suyuqlik hajmi pasaygan va aksincha hujayra ichi suyuqligi oshgan. Natijada tezda gemodinamik buzilishlar yuzaga keladi.
- Izotonik degidratatsiya - ( $\text{Na}^+$  — 130—150 mekv/l) – suv va elektrolitlar yo'qolishi bir-biriga proporsional
- Gipertonik degidratatsiya - ( $\text{Na}^+$  150 mekv/l yuqori) - hujayra ichi suyuqligi kamaygan, tomir ichi suyuqligi nisbatan turg'un. Shuning uchun gemodinamik buzilishlar doim ham uchrayvermaydi.

### Osmotik zo'riqishning roli.

- Suvsizlanish bu nafaqt suv yo'qotish orqali, balki organizmga osmotik faol moddalarning ortiqcha tushishi natijasida ham yuzaga keladi.
- **Osmotik zo'riqish** peshob orqali suv yo'qolishini kuchaytirib, degidratatsiyaga olib keladi. Ko'krak yoshidagi bolalarda buyrakning kontsentratsion faoliyati past bo'lib ozuqa aralashmalarining osmotik zo'riqishi mavjud hisobdan farq qiladi. Sigir suti orqali ovqatlantrilganda suv yo'qotish uch marta ko'paysa, qaynatib sovutilgan sut bilan ovqatlantrishda suv yo'qotish to'rt martaga oshadi. Shuning uchun suv yo'qotish ko'payganda buyrakga osmotik zo'riqishni minimal darajaga keltirish zarur. Aks xolda gipertonik degidratatsiya rivojlanadi.

### Eksikozda birlamchi tekshiruv

#### AVSD baholash

- Es-hush darajasi
- Nafas buzilishlari
- Periferik arteriyada puls va tovonda kapillyar sinama

#### Birlamchi va ikkilamchi AVSD baholash bosqichida

#### Anamnez:

- Ovqatlantrish turi
- Ich ketish xarakteri
- Najasda patologik aralashmalar borligi
- Yaqin kunlar ichida antibakterial davo olganligi
- Peshob hajmi va siyish soni
- Bola suyuqlikni hohlab yoki hohlamay ichadi
- Vazn o'zgarishi
- Yuqumli kasalliklar bilan muloqot

#### Fizikal tekshiruvda aniqlanadi:

- Terining turgori( teri burmalarning to'g'irlanishi)
- Labining namligi
- Shilliq qavat va yuz terisining namligi
- Ko'z turgori
- Liqqildok holati
- Qorin dam bo'lishi
- Qorin bo'shilg'iда qattiq narsaning paypaslanishi
- Tana harorati
- Nafas va puls soni
- Vazn (suv yo'qotishning tez belgisi - vazn pasayishi)
- diurez.

**Laborator tekshiruv:**

- qon umumiy tahlili
- peshob tahlili
- Na<sup>+</sup>, K<sup>+</sup>, Cl<sup>-</sup> miqdori
- pH peshobda va plazmada
- qonda azot va mochevina miqdori
- qonda kreatinin, glyukoza va Sa miqdori
- CO<sub>2</sub> miqdori
- Plazma osmolyarligi

Agar buyrakning yo'lidosh kasalligi bo'lmasa, peshobning nisbiy zichligi 1015 dan oshmasligi kerak. Degidratatsiya paytda ko'pincha qandsiz diabet yo'q holatda ketonuriya kuzatiladi. Peshobda oz miqdorda oqsil va shaklli elementlari, 1-2ta gialin tsilindr bo'lishi mumkin. Agar peshob cho'kmasida o'zgarish ko'p bo'lsa bu buyrak kasalligi hakka ma'lumot beradi. Peshobning ishqoriy reaksiyasi buyrak kanalchalarining atsidozidan shubha beradi.

**Hujayra tashqari suyuqligi va aylanuvchi qon hajmi normallashganini ko'rsatuvchi belgilari:**

- AQB, MVB, NSni qattiy normallashuvni
- Gemotokritning pasayishi ( qon yo'qotishsiz)
- Atsidozning kamayishi va periferik perfuziyaning yaxshilanishi.
- Azot mochevinasi va kreatinin miqdorining pasayishi.
- Osmolyarlik va plazmada K<sup>+</sup> pasayishi
- Diurezning ko'payishi va peshob zichligining, peshob osmolyarligining pasayishi.

Kam suv yo'qotish holati



Og'ir eksikoz holati



**Butun Dunyo Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan taqdim  
etilgan erta yoshli bolalarda eksikoz holatida davo-tashhisot tartibi**

Og'ir eksikoz	Ikki yoki undan ortiq belgilari:	V reja
	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Es –hushini darajasini pasayishi</li> <li>• Yomon yoki kam ichadi</li> <li>• Teri burmasi ikki sekunddan keyin to'g'irlanadi</li> </ul>	v/i Ringer-laktat <ul style="list-style-type: none"> <li>• 1 yoshgacha – 30 ml/kg 1 soat davomida, keyin 70 ml/kg 5soat davomida</li> <li>• 1 yoshdan katta bolalar 30 ml/kg 30 daq. davomida, 70 ml/kg keyingi 2,5 soat ichida</li> </ul>
O'rtacha eksikoz	<b>Ikki yoki undan ortiq belgilari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• bezovtalik, injiqlik</li> <li>• ko'z ichiga kirishi</li> <li>• talpinib ichadi</li> <li>• teri burmasi sekin to'g'irlanadi</li> </ul>	B reja  4 soat davomida 75 ml/kg hisobida suyuqlik ichirish
		A reja

Eksikoz yo'q	Belgilari etarli emas	<ul style="list-style-type: none"> <li>2 yoshgacha bolalar 50 – 100 ml har ich ketishidan keyin</li> <li>2 yoshdan kattalar 100 – 200 ml har ich ketishidan keyin</li> </ul>
--------------	-----------------------	--

Og'ir eksikozda qorinda teri burmasining sekin to'g'irlanishi



#### Regidratatsiya rejasining xususiyati

##### A reja

- Onaga tez va uzoq vaqt ko'krak suti bilan ovqatlanirishni tavsiya etish
- Agar bola to'liq ko'krak sutida bo'lsa qo'shimcha toza suv yoki ORS o'tkazish
- Agar bola aralash yoki sun'iy ovqatlanirishchda bo'lsa ORS o'tkazish yoki suyuq ovqat (guruch qaynatmasi) berish
- Suyuqlikni og'iz orqali tez-tez va kam yutumda berish
- Agar bolada quşish kuzatilsa 10 daqiqqa kutish, keyin davom ettirish
- Qo'shimcha bolaga Rux preparatlarini berish (6 oylikgacha 10 – 14 kun 10 mg/kuniga, 6 oylikdan kattalarda 10 – 14 kun 20 mg/kuniga)

##### B reja

- Agar bola xoxlab ichayotgan bo'lsa mo'ljaldagidan ko'proq suv berish mumkin
- Ko'krak orqali ovqatlanirishni davom ettirish
- 4 soatdan keyin bolaning holatini va gidratatsiya darajasini baholash
- Bolaga qo'shimcha Rux preparatlarini berish

##### V reja

- Tomir ichiga suyuqlik yuborishni boshlash
- Infuziya boshlanguncha ORS o'tkazish
- Har 15 – 30 daqiqada holatni baholash
- Agar gidratatsiya holati yaxshilanmasa – infuziya tezligini oshirish
- Qo'shimcha 5 ml/kg hisobida og'iz orqali suyuqlik berish (bola ichishni boshlashi bilan odatda 3-6 soatdan keyin)
- Agar tomir ichiga suyuqlik yuborishning imkonи bo'lmasa nazogastral zonddan foydalanish (6 soat davomida 20 ml/kg suyuqlik yuborish). Har bir soatda gidratatsiyani baholash. Agar

qusish eki korin dam bulishi kuchaysa ORS sekinlashtiriladi. Agar 3 soatdan keyin xam bemor holati yaxshilanmasa tomir ichiga suyuqlik yuboriladi.

- Bemor holati yaxshilanishi bilan boshqa rejaga o'tiladi

#### Gipergidratatsiya belgilari:

- Nafas sonining 1 daqiqada doimiy ravishda 5taga oshib borishi
- Puls sonining 1 daqiqada doimiy ravishda 15 taga oshib borishi

Agar gipergidratatsiya belgilari paydo bo'lsa, regidratatsiyani to'xtatish va bemorning holatini bir soatdan keyin qayta baholash.

#### ORS tarkibi (Re So Mal):

Kaliy xlorid	224 g
Trikaliy tsitrat	81 g
Magniy xlorid	76 g
Rux atsetati	8,2 g
Mis sulfat	1,4 g
Suv	2500 ml gacha

Iloji boricha – 0,028 g natriy selenad, 0,012 g kaliy yodid qo'shish zarur.

#### Butun Dunyo Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan og'ir distrofiyasi angidremik shok holatidagi bemorni davolash va tashhisoti tartibi

1. qonni tahlilga olish
2. tomirga yo'l
3. Ringer-laktat yoki fiziologik suyuqlikni oqim bilan 20 ml/kg hisobida yuborish
4. holatni baholash (YuUS, kapilyar sinama)
5. agar samara bo'lmasa (№ 2) infuziyani qaytarish
6. holatni baholash (YuUS, kapilyar sinama)
7. agar samara bo'lmasa (№ 3) infuziyani qaytarish
8. holatni baholash (YuUS, kapilyar sinama)
9. agar samara bo'lmasa (№ 4) infuziyani qaytarish
10. holatni baholash (YuUS, kapilyar sinama)
11. Agar naf bo'lsa davoning har qanday bosqichida suyuqlikn 5 soat ichida 70 ml/kg hisobida tomchilatib yuborish ( agar bola 1 yoshdan kichik bo'lsa), 2,5 soat ichida 1 yoshdan katta bolalarda
12. har 1 – 2 soat ichida holatni baholash
13. Agar ahvoli yaxshilanmasa infuziya tezligini oshirish
14. Bola ichishini boshlashi bilan peroral regidratatsiyaga o'tish 5 ml/kg/soat
15. 6 soatdan keyin holatini baholash 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda, 3 soatdan keyin holatni baholash, 1 yoshdan kattalarda

#### Butun Dunyo Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan og'ir distrofiyali angidremik shok holatidagi bemorni davolash va tashhisoti tartibi

1. Qonni tahlilga olish
2. Tomirga yo'l
3. Bemorni tortish
4. Quyidagi suyuqliklardan birini 15 ml/kg hisobida 1 soat davomida yuborish
  - Ringer-laktat + 5 % glyukoza
  - Yarim me'yoriy tuzli critma + 5 % glyukoza
  - Yarim me'yoriy Dartou eritmasi + 5 % glyukoza

- Ringer-laktat, agar yuqoridagi eritmalar bo'lmasa
- Nafas va yurak urish sonini har 5 – 10 daqiqadagi o'chash
  - Agar samara bo'lsa (NS va YuUS kamayishi) og'iz orqali suyuqlik yuborishni boshlash 10 ml/kg/soat 10 soat davomida tuzli eritma bilan va ko'krak orqali ovqatlantirishni boshlash
  - Agar samara bo'lmasa septik shok rivojlanishini nazarida tutish 4 ml/kg/soat hisobida suyuqlik yuborish, qon transfuziyasi, antibakterial davo + ko'krak orqali ovqatlantirish
  - Agar regidratatsiya paytida bemor holati yomonlashsa infuziya to'xtatiladi.

**Nazorat savollari:**

- Bolalarda svuga bo'lgan minimal ehtiyojni, yashirin suv yo'qtishni va endogen suv manbalarini aniqlang
- Suvga bo'lgan minimal ehtiyojni o'zgartiruvchi holatlarni aytинг
- Bolalarda eksikoz tasnifi
- Bolalarda eksikoz holatida tekshirish tartibini aytинг
- Eksikoz davosida A rejani aytинг
- Eksikoz davosida B rejani aytинг
- Eksikoz davosida V rejani aytинг
- Og'ir distrofiyasisz angidremik shokda davo-tashhisot tartibini aytинг
- Og'ir distrofiyali angidremik shokda davo-tashhisot tartibini aytинг

**ALLERGIK ShOShILINCh XOLATLAR.**

Allergiya – organizmning biror-bir modda ta'siriga o'ta sezgir immun reaksiyasidir. Allergen bilan aloqadan keyin organizmda kuzatiladi:

- Shilliq qavat hujayralarida sekretsianing ko'p miqdorda ajralishi
- Bronxlar silliq mushaklari tonusining pasayishi
- Tomirlar silliq mushaklari tonusining pasayishi
- Kapillyar o'tkazuvchanlikning ortishi

Bu holatlar to'qimadagi semiz hujayralar va tsirkulyatsiyalanuvchi bazofillar tomonidan ishlab chiqiladigan turli kimyoviy mediatorlar, shu jumladan gistamin ta'siri natijasi xisoblanadi. Ushbu kimyoviy moddalar organizmga tushgan yot moddaga javoban ishlab chiqiladi.

Bunda :

- Organizm antigenni aniqlaydi.
- Antigenni zararsizlantirish uchun keragidan ko'p miqdorda kimyoviy moddalar va immun mediatorlar ajraladi.
- Immun mediatorlarni inaktivatsiyalovchi komponentlar tezda ishlab chiqilmaydi.

Deyarli barcha moddalarga allergik reaksiyalar kuzatilishi mumkin. Allergiya turli tuman belgilarda namoyon bo'ladi. Cheklangan qizarish (giperemiya), qichishish bemorning allergen bilan aloqa bo'lishi (kontakt dermatit) oqibatida kuzatiladi. Agar bunday reaksiya bemorlarning nafas yo'llari to'qimalarda rivojlansha nafas qiyinlashushi kuzatiladi (nafas yo'llarining yuqori sezgirligi xisobiga). Ushbu jarayon avj olishida tegishli yordam ko'rsatilmasa bemor nobud bo'lishi mumkin. Ayrim reaksiyalar yurak – qon to'mir tizimi faoliyatining keskin buzilishi va shok rivojlanishiga olib keladi. Hasharotlar zaxri proteinga boy oziq – ovqat mahsulotlari (tuxum,yong'oq,dengiz mahsulotlari), dori vositalari (antibiotiklar yoki hayvon organlari mahsulotlaridan olingan dori preparatlari), o'simliklar, chang,kimyoviy moddalar, erituvchilar va hattoki ayrim tibbiy mahsulotlar tarkibidagi lateks (qo'lqoplar, stetoskoplar) oddiy allergen hisoblanadi.

Odatda allergik reaksiyaning engil ko'rinishi terida namoyon bo'ladi. Allergen teri bilan kontaktga kirishadi. Bunga javoban organizm allergen bilan kontaktda bo'lgan soxaga immun allergenlarni chiqaradi, bu esa shish, qizarish va qichishishga olib keladi. Bu bermoga noqulaylik tug'diradi, biroq odatda hayoti uchun xavf solmaydi. Shikastlangan soxani sovunli suv bilan yuvish orqali allergenni bartaraf etish yagona zaruriy chor'a bo'lishi mumkin. Agar toshma saqlanib tursa, shifokor tegishli dori vositalarini tayinlashi mumkin. Ko'rik paytida aniqlanadigan boshqa belgilarga shish, qavariqlar (teridagi qizargan, dog'li, qichishadigan qavariq sohalari), perioral shish, shuningdek sanchib og'rishlar (yoq, qo'l va tana) kiradi.

Nafas yo'llari obstruktsiyasi yoki shok kabi tizimli ko'rinishlar rivojlanishi bilan birgalikda keluvchi og'ir allergik reaksiyalar namoyon bo'lsa, bermor holati hayotga potentsial xavf tug'diruvchi anafilaksiya va o'tkir reaksiya sifatida ta'riflanadi. Ayrim tadqiqotlarga muvofiq, anafilaktik reaksiya rivojlanish sababi doimo ham aniqlanavermaydi (73 % holdarda). Ko'p kuzatiladigan sabablar guruhini dori vositalari (28%), hasharotlar chaqishi (17,5%) va oziq - ovqat mahsulotlari (17%) tashkil etadi. 50% og'ir anafilaktik reaksiyalar dastlabki soatlarda o'llim holatiga olib keladi.

#### Anafilaksianing klinik ko'rinishlari

Shikastlangan tizim	Klinik ko'rinishlar
<b>Teri</b>	Qizarish, issiqni sezish, eshakemi, qichishish, critema, Kvinko shishi
<b>Ko'z</b>	Ko'z kon'yuktivasi in'ektsiyasi, ko'z yoshlanishi, qichishishi
<b>Yurak - qon tomir tizimi</b>	Gipotensiya, bosh aylanishi, xolsizlik, shok, hushdan ketish holatlari, ko'krakda og'riq bo'lishi, taxikardiya, aritmiya, MI, yurak to'xtashi
<b>Nafas tizimi</b>	Xirillashlar, xansirash, tsianoz, taxipnoe, yo'tal, ovozning xirillashi, stridor, nafas aktiga qo'shimcha mushaklarning jalb qilinishi, ko'krakning sifilishi, aksirish, rioreya, og'iz - xalqum va xiqildaqning shishi, tilning shishingirishi, o'pkaning shishi, alveolalardagi qon quyulishlar, nafasning to'xtashi
<b>Oshqozon - ichak tizimi</b>	Ko'ngil aynishi, quisish, diareya (ko'pincha qon aralash), qorinda spazmli og'riqlar
<b>MAT</b>	Tirishishlar, hushdan ketishlar, bosh aylanishi, tranzitor ko'rlik, ko'zga ikkita bo'lib ko'rinishlar, bosh og'rig'i, umumiyyat holsizlik

#### Differentsial tashhislash.

- Vazovagal hushdan ketishlar** in'ektsiyalarda yuzaga keladi. Bu holatlarga siyrak puls, rangparlik, sovuq terga botish, A/B ning o'ttacha pasayishi xosdir.
- Miokard infarkti.** Asosiy bclgi - to'sh ortidagi og'riq. Bu og'riq ko'pincha pastki jag', chap qo'l, orqa va h.k.z ga beradi. Xansirash og'ir anafilaktik reaksiyalarga qaraganda sekin rivojlanadi. Xansirash bronxlar spazmi bilan emas, balki chap qorincha etishmovchiligi sababli yuzaga keladi.
- Gipoglikemiya** uchun holsizlik, rangparlik, sovuq terga botish va hushdan ketish hollari xosdir. Nafas buzilmaydi, A/B o'ttacha pasayadi. Yodda tutish lozimki, insulin anafilaktik reaksiya sababchisi bo'lishi mumkin.
- Isterlya (talvasa)** da tsianoz, arterial gipotoniya, nafas etishmovchiligi kuzatilmaydi. Bemorlar ko'pincha sanchib og'rish va achishishdan shikoyat qiladilar. Qichishish bunga xos emas. Qisqa muddatli hushdan ketishlar bo'lishi mumkin. Anafilaktik reaksiyalaridan ushbu holatni farqlash uchun asosiy fiziologik ko'rsatkichlar va

nevrologik holat baholanadi. Ayrim bеморлар (ayniqsa avval og'ir anafilaktik reaksiyani o'tkazgan bеморлар) c'tiborni jaib etish uchun yolg'ondan o'zlarini shu holga soladilar yoki ushbu holatni ongli ravishda o'zlarida chaqiradilar. Bunday bеморларга psixiatri maslahati tavsya etiladi.

### ShOShILINCh YoRDAM.

Bемор xavfsizligini ta'minlash maqsadida voqeа sodir bo'lган joyni baholash zarur. Agar bеморning allergenlar bilan nafas olish xavfi mavjud bo'lsa, bеморни toza havoli boshqa joyga ko'chirish lozim. Agar allergik reaksiya dori vositasi (antibiotik, rentgenokontrast modda) yuborish paytida yuzaga kelsa, muolajani zudlik bilan to'xtatish zarur.

Birlamchi va ikkilamchi AVSD baholash va yordam berish amalga oshiriladi. Bunda nafas yo'llari obstruktsiyasi mavjudligi va uning darajasi (yuqori nafas yo'llari yoki bronxial obstruktsiyasi) aniqlanadi:

- Respirator disstress (ekskursiya hajmining ortishi, bемор noto'liq jumlalarni gapiradi, taxipnec)
- Yoki nafas etishmovchiligi (ekskursiya hajmining kamayishi, es – hushning pasayishi, taxipnec yoki bradipnoe)
- Yo'tal
- Ko'krakdagи siqilish hissiyoti
- Xansirash (laringostenozdagi inspirator, bronxial obstruktsiyada ekspirator yoki aralash)
- Tomoqdagi siqilish
- Auskultatsiyada nafas chiqarish paytida tarqalgan xirillashlar (bronxial obstruktsiya belgisi) yoki nafas olishdagi xushtaksimon tarqoq xirillashlar (laringostenoz belgisi) aniqlanadi.
- Odinofagiya
- Larinostenozda xirillash va stridor
- Retraktsiyalar
- Perioral tsianoz.

Shokning mavjudligi va uning belgilari aniqlanadi:

- Es – hush darajasining pasayishi.
- Respirator distres
- Teri rangpar, sovuq, nam
- Taxikardiya, tomir urishi zaif, periferik puls bo'lmasligi mumkin.
- Kapillyar sinama 2 sekunddan ortiq (5 yoshgacha bo'lган bolalarda)
- Og'iz va til shilliq kavatlari tsianozi
- Gipotensiya
- Yurak to'xtashi
- Kuchli bosh og'rig'i
- Holsizlik

Shuningdek quyidagi shikoyatlar bo'lishi mumkin:

- Burunning bitib qolishi va aksirish
- Ko'zlardagi yoshlanish va achishish
- Qorindagi spazmatik og'rik, ko'ngil aynishi, quisish, diareya va tenezmlar
- Siyidik yoki najasni tutib turolmaslik
- Chanoq sohasidagi og'riq.

Anafilaksiya tashhisini mahalliy va tizimli allergik ko'rinishlar uyg'uligiga bilan tasdiqlanadi.

Anafilaksiya oqirlik darajalari aniqlanadi:

Daraja	Glazgo shkalasi bo'yicha baholash	Nafas chastotasi	Sistolik arterial bosim
O'rtacha	15 ball	<ul style="list-style-type: none"> <li>2 oylikgacha bo'lgan bolalar - daqiqafiga 60tadan kam</li> <li>2 – 12 oylikgacha bo'lgan bolalar - 50 tadan kam</li> <li>1 – 5 yoshgacha 40tadan kam</li> <li>5 yoshdan katta bolalar 30tadan kam</li> <li>O'smirlar va kattalar 20tadan kam</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bolalar 70 dan ko'p</li> <li>O'smirlar va katta yoshlilar 90 dan ko'p</li> </ul>
Og'ir	15 balldan kam	<ul style="list-style-type: none"> <li>2 oylikgacha bo'lgan bolalar daqiqafiga 60tadan ko'p</li> <li>2 – 12 oylikgacha 50 tadan ko'p</li> <li>1 – 5 yoshgacha 40tadan ko'p</li> <li>5 yoshdan katta bolalar 30tadan ko'p</li> <li>O'smirlar va katta yoshlilar 20tadan ko'p</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>70 dan kam-balalarda</li> <li>O'smirlar va katta yoshlilar 90 dan kam</li> </ul>

Bitta mezon aniqlansa ham anafilaksianing og'ir darajasi tashhislansadi.

#### O'RTACHA ANAFILAKSIYADA:

- AVS yordam (kislorod ingalyatsiyasi shart)
- Shokga qarshi choralar:
- Chalqancha yotgan bemorning oyoqlari boshiga nisbatan balandroq ko'tariladi
- Bemorning oyoqlarini ko'tarib chalqancha yotkizish
- Bemorni ko'rpgaga o'rash
- Bemorga suyuqlik ichirilmaydi
- Mushak orasiga 1:1000 aralashmada 0,01 mg/kg adrenalin yuborish, zarurat bo'lsa har 15 daqiqa takrorlash mumkin
- Mushak orasiga, vena ichiga yoki peroral difengidramin yuboriladi
- Kortikosteroid vena ichiga, mushak orasiga yoki peroral yuboriladi
- Shoshilinch tarzda statsionarga olib boriladi

## OG'IR ANAFILAKSIYADA:

- AVS yordam (kislorod ingalyatsiyasi shart)
- Shokga qarshi choralar:
- Bemorning oyoqlari boshiga nisbatan balandroq ko'tariladi
- Bemorni oyog'ini ko'tarib chalqancha yotqiziladi
- Venaga tushiladi va bolyus ravishda suyuqliklar yuboriladi
- Bemor ustiga ko'rpa yopiladi
- Bemorga suyuqlik ichirilmaydi
- Adrenalin 0,01 mg/kg 1:1000 eritmada mushak orasiga yuboriladi. Zarurat bo'lganda har 5 daqiqada takrorlash mumkin.
- Disengidramin vena ichiga yuboriladi.
- Kortikosteroid vena ichiga yuboriladi.
- Shoshilinch tarzda stasionarga olib boriladi.

## QO'SHIMChA YORDAM.

- Niqob yoki burun kateteri yordamida o'rtacha yoki yuqori tezlikda (5 – 10 l/min) kislorod ingalyatsiyasi beriladi. Kislorod tayimlashdan oldin bemorda o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari bor – yo'qligi aniqlanadi. Bu holatda kislorod ingalyatsiyasi nafas markazini qiyinlashtirishi mumkin.
- In'ektsiya yoki hasharot chaqqan joydan proksimal sohaga jgut qo'yiladi. Har 10 daqiqada 1 – 2 daqiqaga jgut bo'shashtiriladi. Arterial gipotoniya qarshi izotonik eritmalar yuboriladi.
- Adrenalinning 1:1000 eritmasi dastlab bolalarga 0,01 ml/kg, kattalarga 0,3 – 0,5 ml dozada teri orasiga yuboriladi, so'ngra takroran hasharot chaqqan yoki taxmin qilingan allergen in'ektsiyasi joyiga bevosita yuboriladi. Zarurat bo'lganda in'ektsiya har 15 – 20 daqiqada takroranadi.
- Arterial gipotoniyada 1:1000 adrenalinning 1 ml eritmasi 10 ml fiziologik eritmada aralashtiriladi. Olingen eritma (1:10000) 5 – 10 daqqa davomida vena ichiga yuboriladi. Zaruriy holatlarda bu choradan so'ng adrenalin eritmasi infuziyasiga o'tiladi. Buning uchun 1:1000 adrenalinning 1 ml eritmasi 5 % li glyukozaning 250 ml ga aralashtiriladi (olingen adrenalin eritmasining kontsentrasiysi 4 mkg/ml). Eritmani yuborishdagi boshlang'ich tezlik 1 mkg / daq, ta'sir sezilmaganda bu tezlikni 4 mkg/daq gacha ko'paytirish mumkin. Bolalarda adrenalinning yuborish tezligini 0,1 mkg/kg/daqdan maksimal 1,5 mkg/kg/daq gacha oshirish mumkin. Adrenalin qo'llashning maqsadga muvofiqligi individual tarzda baholanadi. Chunki YuIK, bosh miya tomirlari aterosklerozida, shuningdek keksa yoshdagilarda ko'pincha adrenalinning qushimcha ta'siri kuzatilishi mumkin.
- Disengidramin 1 – 2 mg/kg dozada v/i ga, m/o ga yoki peroral har 6 soatda 48 soat mobaynida yuboriladi. Anafilaktik va anafilaktoid reaksiyalarda arterial gipotoniyanı oldimi olish uchun nazorat sinovlari mavjud emasligiga qaramasdan, N1 blokatorlardan tashqari N2 blokatorlar: tsimitidin yoki ranitidin tayinlanadi. Tsimitidin 300 mg dozada (bolalarga 5 – 10 mg/kg) v/i ga sekin m/o yoki peroral har 6 – 8 soatda , ranitidin 50 mg dozada v/i sekin yoki m/o ga har 6 – 8 soatda yuboriladi, yoki 150 gr dan har 12 soatda ichiriladi ( bolalar 2 – 4 mg/kg/sut). Agar arterial gipotoniya va nafas buzilishini bartaraf etishning iloji bo'lmasa bemor reanimatsiya bo'limiga o'tkaziladi).

## KASALXONA BOSQICHIDA SHOSHILINCh YORDAM:

- Maksimal diametrlı kateter orqali v/i ga suyuqlik yuboriladi. Infuziya tezligi kattalarda sistolik A/B ni 100 mm.sim.ust.dan va bolalarda 50 mm.sim.ust. past

bo'limgan holda ushlab turish uchun etarli bo'lishi kerak 5 % li glyukoza eritmasi 0.45 % li natriy xlorid eritmasida 2000-3000 ml/m2/sut hajmda yuboriladi. Infuziyaning dastlabki soati mobaynida kattalarga 500 – 2000 ml suyuqlik , bolalarga 30 ml/kg gacha mikdorda suyuqlik yuboriladi. Turg'un arterial gipotoniya fiziologik eritma, albumin boshqa kolloid eritmalar qo'llaniladi.

- Bponxospazmda ingalyatsion betta 2 adrenostimulyatorlar, misol uchun 0.5 – 1 ml 0.5% li salbutamol eritmasi tayinlanadi.
- Bronxospaznni bartaraf etishning iloji bo'lmasa , 4 – 6 mg/kg dozada eufillin v/i ga 15 – 20 daqiqa davomida tayinlanadi. Eufillin eritmasini v/i ga yuborish uchun 2 baravar suyultiriladi.
- Keyin bronxospazm og'irligiga qarab, eritmani 0.2 – 1.2 mg/kg/soat tezlikda v/i yoki 4 – 5 mg/kg v/i 20 – 30 daqiqa davomida har 6 soatda yuborish mumkin. Eufillin bilan davolash paytida uning zardobdag'i kontsentratsiyasini nazorat qilib turish lozim. Bir vaquning o'zida tsimitidin ham tayinlansa eufillin dozasi kamaytiriladi.
- Yuqorida sanab o'tilgan choralarga qaramasdan arterial gipotoniya saqlansa v/i ga noradrenalin tayinlanadi. Buning uchun 4 – 8 mg noradrenalin 1000 ml infuzion eritmada (suv yoki fiz.eritmadagi 5% li glyukoza eritmasi) eritiladi. Preparat normal A/B ni ushlab turish uchun zaruriy tezlikda yuboriladi. Suyuqlik yuborishning maksimal tezligi 2 ml /daq dan oshmasligi zarur. Bolalarga 250 ml infuzion eritmada 1 mg noradrenalin yuboriladi . Infuziya tezligi 0.25 ml /daq dan oshmasligi lozim. Yodda tutish lozimki, noradrenalin teri orasiga tushsa teri osti kletchatkasi nckrozini keltirib chiqaradi. Bir vaqtning o'zida beta blokatorlarning tayinlanishi , misol uchun propranololning tayinlanishi, adrenostimulyatorlar samaradorligini pasaytiradi. Agar bemor beta blokatorlar qabul qilsa kaltsiy glyukonat tayinlanadi. v/i ga 5 – 15 mkg/daq.
- Noradrenalin o'miga dofamin tayinlash mumkin. Preparat beta adrenostimullovchi ta'sirga ega. U 0.3 – 1.2 mg/kg/soat tezlikda v/i ga yuboriladi. Buning uchun 200 mg dofamin 500 ml 5% li glyukoza eritmasida eritiladi (oligan dofamin eritmasi kontsentratsiyasi 0.4 mg/ml). Infuziya tezligi A/B ni ushlab turish uchun etarli bo'lishi kerak. Dofamin yurak etishmovchiligi mavjud bemorlardagi anafilaktik reaksiyalarda qo'llaniladi. Bunday holatlarda noradrenalin tayinlanmaydi.
- Yuqori nafas yo'llarining keskin ifodalangan shishlarida, mustaqil nafas olish bo'limganda, shoshilinch traxeya intubatsiyasi yoki troxeyastomiya tavsiya etiladi.
- Kortikosteroidlar anafilaktik reaksiyalarni davolashdagi birinchi guruhi preparatlariga kirmaydi. Biroq sog'ayishni tezlashtirgani va simptomlar qaytalishining oldini olishda samaradorligini hisobga olib ularni iloji boricha oldinroq qo'llash mumkin. Gidrokortizon avvaliga 7 – 10 mg/kg dozada v/i ga keyinchalik 5 mg/kg dozada v/i ga har 6 soatda yuboriladi. Boshqa kortikosteroidlarni ham v/i ga, m/o ga yoki peroral tegishli dozalarda tayinlash mumkin. Kortikosteroidlar bilan davolashning davomiyligi odatda 2 – 3 sutkadan oshmaydi.
- Suyuqlik yuborish va dori darmonlar bilan davolash holat barqarorlashgandan keyin ham davom ettiriladi.

Bir maromda ushlab turuvchi davoning davomiyligi (holatning og'irligiga qarab) bir necha soatdan bir necha sutkagacha bo'lishi mumkin. Bemordagi engil anafilaktik reaksiya bartaraf etilganidan so'ng, bemorga uy sharoitida ushlab turuvchi davo kursining zarurligi va davolanmasa uning holati yomonlashishi

mumkinligi tushuntililadi. Qolgan holatlarda bemor 12 – 24 soat mobaynida kuzatiladi. Odatda sog'ayish to'liq bo'ladi. Asoratlar ichida miokard infarkti va insultni qayd etish zarur. Og'ir reaktsiyalarda o'llim holati ko'pincha dastlabki 30 daqiqada sodir bo'ladi. Antigen bilan takroriy aloqa odatda juda tez va og'ri reaktsiya bilan kechadi

### NAFAS YO'LLARI OBSTRUKTIVYLAR SIDAGI ShOSHLINCh YoRDAM.

Obstruktsiya xiqildoqning angionevrotik shishi (laringostenoz belgisida namoyon bo'ladi) va bronxospazm (bronxial obstruktsiya bilan ifodalanadi) ga bog'liq bo'lishi mumkin.


Xiqildoqning angionevrotik shishini davolash:

- Boshni orqaga tashlash, iyakni cho'zish, pastki jag'ni tortish.
- Nazo – yoki orofarengial havo o'tkazgichlar qo'yish
- Gazli aralashma - 80% geliy / 20% kislород ingalyatsiyasi
- Adrenalinning ratsemik eritmasi – 0.5 ml ingalyatsiya tarzida (monitorda yurak ritmini nazorat qilish shart, chunki ko'pincha adrenalin dozasi oshib ketish oqibatida taxariitmiga yuzaga keladi).
- Zaruriy holatlarda – traxeya intubatsiyasi.
- Zaruriy holatlarda – nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash.

### BRONXOSPAZMNI DAVOLASH:

- Davomli ingalyatsiya bilan albuterol .
- Eufillin 5 – 6 mg/kg v/i 20 – 30 daqiqa davomida
- Atrovent (ipratropiya bromid) 0.5 mg NaCl 0.9 % eritmasining 2.5 ml da ingalyatsyon tarzda
- Kortikosteroidlar
- Zaruriy hollarda traxeya intubatsiyasi va O'SV .

### ANAFILAKSTIVADA ShOSHLINCh YoRDAM ALGORITMI:



Difengidramin 1 mg/ kg M/O  
(maks. 50 mg)

HOLATNI BAHOLASH.  
ZARURIY HOLATDA ADRENALIN  
1:1000 0.01MG/KG T/O HAR 20  
DAQIQADA (MAKS 0.3 MG),  
OKSIGENOTERAPIYA DAVOM  
ETTIRILADI.

HOLATNI BAHOLASH  
ZARURIY HOLATDA ADRENALIN  
1:10000 0.01 MG/KG V/O I/T, HAR 5-10  
DAQIQADA TAKRORLASH,  
OKSIGENOTERAPIYA NI DAVOM  
ETTIRISH

GIPOtENZIYa BELGILARI (SOVUQ,NAM „DOG“LI TERI,  
KAPILLYaR SINAMA>2SEK,TAXIKARDIYa,A/B<70  
MM.SIM.UST, ES-HUSHNING O‘ZGARISHI

HA

JAROHAT  
BAYoNNOM  
ASIGA  
QARANG

**HAYoT UChUN XAVF SOLMAYDIGAN, SHOSHILINCh YoRDAMNI TALAB  
ETMAYDIGAN BOSHQA ALLERGIK HOLATLAR:**

**O‘TKIR EShAKEMI VA KVINKe SHISHI** ko‘pincha shoshilinch turdag'i allergik reaksiyalar sababli yuzaga keladi. O‘tkir eshakemi uchun to'satdan toshma va qichishshining paydo bo‘lishi xarakterlidir. Alovida po‘rsildoqlarning mavjudligi 24 soatdan oshmaydi.O‘tkir eshakemida nafas yo‘llari va oshqozon – ichak traktininig jarohatlanishi Kvink'e shishidan farqli ravishda kam kuzatiladi. O‘tkir eshakemi va Kvink'e shishi uygunlashish holda kechishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, o‘tkir eshakemi shoshilinch turdag'i allergik reaksiyalar sababli yuzaga keladi. Taxminan 70 % holatlarda eshakem virusli yoki bakterial infektsiya, gelmentozlar, antimikrob vositalarni qo‘llash negizida yuzaga keladi yoki ovkat allergiyasining bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bolalarda o‘tkir eshakemining ko‘p kuzatiladigan sabablaridan biri infektsiya sanaladi . Shoshilinch turdag'i allergik reaksiyalar sababli yuzaga keladigan eshakemi patogenezi etarlicha yaxshi o‘rganilgan. Rentgenkontrast vositalar sababli yuzaga kelgan o‘tkir eshakemi noimmmum mexanizmlar bilan bog‘liqidir.

**EShAKEMI.** Eshakemi – o‘tib ketuvchi toshma bo‘lib, uning morfologik elementi po‘rsildiq (qavariq) - ya’ni teridagi aniq chegaralangan shish hisoblanadi. Qavariqlar rangi odatda qizil, diametri esa bir necha mm dan bir necha sm gacha bo‘ladi. Eshakemi klinik shakllarining turli hilligi ular asosida turli patogenetik mexanizmlar yotishi bilan izohlanadi. Kvink'e shishida patologik jarayonga teri osti kletchatkasi ham qo’shiladi.

Taxminan 15 % aholi hayotida bir marta bo‘lsa ham eshakemi yoki angionevrotik shishni o‘tkazgan. Agar kasallik 6 hafta ichida qaytalansa bu surunkali eshakemidan dalolatdir. Oilaviy anamnezida allergik reaksiyaga moyilligi bor insonlarda, aholining boshqa qismiga nisbatan eshakemining o‘tkir shakli ko‘proq kuzatilishi aniqlangan. Surunkali eshakemining tarqalishiga irlsiy omillar ta’sir etmaydi.

**MEXANIZMI:** Eshakemi va angionevrotik shish rivojlanishi mexanizmlarining yakuniy natijasi – bu tez kechuvchi turdag'i allergik reaksiyaga kimyoiy mediatorlarning ajralib chiqishidir.

**SUN’TY ChAQIRUVChI OMILLAR:**  
kasallikning surunkali shaklida 20%



holatda sababi aniqlanishi mumkin. Eshakemi rivojlanishining sabab va mexanizmlari quyidagilardir:

- Allergiya
- Komplementning faollashuvi
- Semiz hujayralar degranulyatsiyasini chaqiruvchi moddalar ta'siri
- Araxidon kislotasi metabolizmining buzilishi
- Jismoni zo'riqish
- Tashqi muhit omillari (sovuz, issiq, terining mexanik ta'sirlanishi (urtikar dermografizm), vibratsiya, insolyatsiya, suv )

### TAShHISLASH

Anamnez yig'ish paytida kasallik qachon va qanday boshlanganligiga hamda qanchalik zo'rayishiga e'tibor qaratiladi. Bemorning o'tkazgan kasalliklari so'rilib, qaysi dorilarni qabul qilganligini ( shu jumladan retseptsziz, mahalliy qo'llaniladigan va hk.z), jumladan bemor NI blokatorlarni qabul qilgan - qilmaganligini, qabul qilgan bo'lsa ularning ta'sir samarasini qanday bo'lganligini aniqlash zatur. Bemordan ishlash chiqarish va turmush sharoitlarda qanday moddalar bilan aloqa bo'lishi so'rilib, hayz oldi holatida toshmalar toshish - toshmasligi aniqlanadi. Shuningdek oshqozon - ichak trakti kasalliklari, autoimmunn kasalliklar yoki yomon sifatlari o'smalarni inkor qilish lozim. Chunki ularning barchasi surunkali eshakemi sababchisi bo'lishi mumkin.

Agar qichishish bilan kechadigan qavariqlarning paydo bo'lishi jismoniy omillar tusayli chaqirilmagan bo'lsa va toshma 6 haftadan ortiq saqlanmasa bunday bermorlarga o'tkir eshakemi tashhisisi qo'yish mumkin. Toshmaning alohida elementlari qanchalik uzoq saqlanishini aniqlash uchun yaqinda paydo bo'lgan qavariqlar atrofi chiziladi va bemordan ular qachon yo'qolganini qayd etish so'raladi. O'tkir eshakemida qavariqlar 24 soatdan ortiq saqlanmaydi.

FIZIKAL TEKShIRUV paytida teri sinchkovlik bilan ko'zdan kechiriladi, bu boshqa teri kasalliklarini farqlash imkonini beradi. Limfa tugunlari o'chami aniqlanib, surunkali infektsiya o'choqlari bor - yo'qligi qayd etiladi. Urtikar dermografizm farqlanadi. Buning uchun o'tmas predmet bilan teriga engilgina bosiladi. Laboratoriya tekshiruvlari umumiy qon tahlili, EChTni aniqlash va umumiy peshob tahlilidan iborat. Bunda leykotsitoz, cozinofiliya shuningdek siyidik yo'llari infektsiyasi belgilari aniqlash mumkin. Ovgat allergiyasini inkor qilish uchun nazorat sifatida platseboden foydalangan holda ikki martalik tasodifiy usulda provakatsion oziq - ovqat sinamalari o'tkaziladi. Eshakemi va angeonevrotik shishni boshqa allergik reaksiyalardan farqlash qiyin emas.

- Eshakemida toshma qichishish bilan kechib, bosganda yo'qoladi, eritematoz shishgan papulalar diametri 1 - 2 mm dan bir necha sm gacha etadi. Eshakemi va angionevrotik shish ko'pincha birga kechadi .
- Belgilarning davomiyligi - bir necha soatdan bir necha sutkagacha davom etadi.
- Surunkali eshakemi yoki angionevrotik shishning qaytalanishi qator yillar mobaynida yuzaga kelishi mumkin.
- Kvinke shishi- odatta periorbital sohalardan boshlanadi. Ba'zida shu bilan chegaralanishi mumkin. Keyinchalik shishning yuz, bo'yin, ko'krak qafasining yuqori qismiga targalishi kuzatiladi. Shish paypaslanganda qattiq chegaralangan bo'ladi. Shish sohasi atrofida achishish kuzatiladi. Ba'zida Kvinke shishi xiqildaqning angionevrotik shishi bilan asoratlanadi.

Qiyoziy tashhislash jadvalda keltirilagan kasalliklar bilan o'tkaziladi.

Papulyoz eshakemi

Urtikar vaskulit
Zardob kasalligi
Progesteronli autoimmun dermatit
Homiladorlik polimorf dermatozsi
Makl - Uels sindromi
Diffuz neyrodermit
Feminoz
Laym kasalligi
Mastotsitoz
Eritropoetik protoporfiriya

Papulyoz eshakemi hasharot chaqqan joyda kichchik po'rsildaqlar paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Po'rsildaqlar 24 soatdan ortiq saqlanadi. Papulyoz eshakemi – bu allergik reaksiya emas. Biroq hasharotlar allergenlari chaqilgan joyda uzoq muddat saqlanishi sababli, takroriy chaqishda mahalliy va tizimli allergik reaksiyalar bo'lishi mumkin.

Urtikar vaskulit mayda qon tomirlarning shikastlanishi va leykoklaziya bilan birga kechadi. Toshma odatda 24 soatdan ziyod saqlanadi. Bemorlar ko'pincha qichishishdan ko'ra og'riqga shikoyat qilishadi. Bunda EChT ortib, komplementning gemolitik faolligi pasayishi mumkin. Differentials tashhis yuqumi kasalliklardagi vaskulitlar, kreoproteinemiya, autoimmun kasalliklar, dori allergiyasi bilan o'tkaziladi. Tashhisni tasdiqlash uchun teri biopsiya bajariladi. Vaskulitlarda buyrak va oshqozon ichak yo'llari shikastlanishlarini inkor qilish uchun umumiy siyidik tahlili va axlatda yashirin qonni aniqlash tahlili o'tkaziladi.

ZARDOB kasalligida eshakemi odatda isitma, limfa tugunlarining kattalashuvi va artralgija bilan birga kechadi. Eshakemidan tashqari terida boshqa shikastlanish variantlari ham bo'lishi mumkin.

**PROGESTERONLI AUTOIMMUN DERMATIT.** Toshma hayz ko'rishdan 5 – 10 kun oldin paydo bo'ladi. Bir necha kundan keyin kasallikning barcha alomatlari yo'qoladi. Bu kasallikdan farqli ravishda eshakemining boshqa shakkilari bevosita hayz ko'rish paytida zo'rayadi. Progesteronli autoimmun dermatitning rivojlanish patogenezi aniq emas. Chunki eshakemi bu kasallikning yagona ko'rinishi hisoblanmaydi. Bu kasallik o'tkir yoki surunkali eshakemi toifasiga kirmaydi.

**MAKL – UELS sindromi** avj oluvchi karlik va amiloidozda namoyon bo'ladi. Eshakemi bilan kechuvchi zo'rayish, holsizlik, isitma va leykotsitoz ushbu kasallik uchun xosdir.

**BOSHQA KASALLIKLAR:** diffuz neyrodermit, feminoz, laym kasalligi, mastotsitoz homiladorlik polimorf dermatozsi ham eshakemiga xos klinik belgilari bilan kechishi mumkin. Ayrim mualliflar eritropoetik protoporfiriya quyosh eshakemining bir shakli sifatida qarashadi. Eritropoetik protoporfiriya tashhisini o'ziga xos klinik manzara asosida qo'yish qiyin emas.

#### ShOShILINCh YoRDAM:

Asosiy davo chorasi eshakemini keltirib chiqaruvchi moddalar bilan bo'ladiqan aloqani bartaraf etishdan boshlanadi. Bemorlarga qaysi dori vositalari va oziq-ovkat mahsulotlarini qabul qilish mumkinligi, adrenalinni mustaqil in'ektsiya qilishda jamlanmadan qanday foydalanish tartibi to'liq tushuntiriladi. Bemorlarning barchasi o'zlarini tanituvchi bilakuzuk taqib yurishlari zarur. Surunkali eshakemida aspirin va boshqa yallig'lanishga qarshi nosteroid dori vositalari tayinlanmaydi. Chunki ular eshakemi bilan birga kechuvchi bronzial astma, burun poliplari, surunkali sinusitlar va aspirinning ko'tarolmaslik kabi kasalliklarning zo'rayishi olib kelishi mumkin.

N1 – blokatorlar deyarli barcha bemorlarga davolanshining boshlang'ich bosqichida tayinlanadi. Biroq ular kasallikning barcha simptomlarini bartaraf etmasligi sababli

qo'shimcha tarzda boshqa dori vositalaridan foydalaniлади. Aksariyat hollarda cshakemida monoterapiya samarali ta'sirga eга emas.

Eshakemining o'tkir hamda surunkali shakllarini N1 – blokatorlar bilan uzluksiz davolash samaralidir. Simptomlar bartaraf etilmasa yoki preparatga ko'nikish hosil bo'lmasligi uchun dozani asta - sekin oshirish zarur. N1 – blokatorlardan ayan bittasining, boshqalaridan afzalligi isbotlanmagan. Eshakemining aksariyat shakllarida odatda gidroksizin qo'llaniladi. Sovuk bilan bog'liq shaklida tsiprogeptadin tayinlanadi. Ikkala preparatning uyg'unlashuvli terapevitik ta'sir hamda qo'shimcha ta'siri kuchaytiradi. N2 – blokatorlar bilan birgalikdagi kombinatsiya ham samarali hisoblanadi. Eshakemida kortikosteroidlarni mahalliy qo'llash maqsadga muvosif emas.

Parenteral yuboriladigan adrenostimulyatorlar – anafilaktik reaksiyalar hamda og'ir kechuvchi o'tkir eshakemida shoshilinch yordam ko'sratishdagi eng zarur preparatlar hisoblanadi. Surunkali idiopatik eshakemida bu preparatlar odatda qo'llanilmaydi. Chunki idiopatik eshakemi, shu jumladan Kvinke shishi odatda hayot uchun xavf tug'dirmaydi. Adrenalin eritmasi 1:1000 i/o ga 0.2 – 0.3 ml (bolalarga 0.01 ml/kg) yuboriladi. Zaruriy hollarda 20 -30 daqiqadan so'ng in'ektsiya takrorlanadi. Aritmiya holatida hamda beta adrenoblokatorlar bilan davolashda adrenalinni o'ta ehtiyojkorlik bilan qo'llash zarur.

N1 – blokatorlar eshakemini dori darmonlar bilan davolashning asosi hisoblanadi. Ular ayniqsa o'tkir va xolinergik eshakemida, shuningdek urtikar dermografisizmida yaxshi samara beradi. Quyosh hamda sovuq bilan bog'liq eshakemida esa kamroq samara beradi. Sustlashgan eshakemida bosim tufayli N1 – blokatorlar samarasiz hisoblanadi (faqtgina tsiterizin biroz ijobji samara berishi mumkin). N1 – blokatorlar qichishish hamda shishni kamaytiradi. Biroq eritemaga ta'sir etmaydi.

BIRINChI AVLOD N1 – blokatorlari. Bu preparatlar 6 guruhgа bo'linadi. Ko'proq uxlatuvchi ta'siri ustun bo'lib, bularga etanolaminlar (masalan: defingidramin), etilendiaminlar (masalan: tripenilamin) va fenotiazinlar (masalan: prometazin) kiradi. Eshakemida ko'pincha piperazinlar, xususan gidroksizin tayinlanadi. Biroq bu preparatlar homiladorlik paytida tавсиya etilmaydi. Sovuq bilan bog'liq eshakemida piperidinlar (misol uchun tsiprogeptadin) dan foydalananish ko'proq samara beradi. Davolashni alkilaminlar (xlorfenamin, deksaxlorfeniramin, bromfeniramin) yoki gidroksizinni tayinlashdan boshlash o'rinnlidir. Bu preparatlar samarali va organizm tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Birinchi avlod N1 – blokatorlarni uxlashdan oldin tayinlash maqsadga muvofiqdir. Chunki ular uxlatuvchi ta'sirga ega. Ikkinchи avlod preparatlarini esa kunduzi tayinlash mumkin. Gidroksizin sutkasiga bir marta uykudan oldin tayinlanadi. Buning sababi uning kuchli uxlatuvchi ta'siri bilan tushuntiriladi. Ehtimol bu gidroksizinning katta T ½ faol metaboliti – tsitirizin bilan bog'liqidir. Preparatlar dozasi individual tarzda tayinlanib, har 5 – 7 sutkada doza oshirib boriladi. Aksariyat N1 – blokatorlar tana vaznni ortishiga olib kelishini hisobga olish lozim. Bu guruhdagи barcha preparatlar jigarda metabolizlanadi.

IKKINChI AVLOD N1 – BLOKATORLARni terfinadin, astimizol, loratadin va tsetirizin tashkil qildi. Bu guruhdagи preparatlar gematoentsefalitik barerdan o'tolmasligi sababli uxlatuvchi ta'sirga ega emas. (Faqt katta dozada tayinlanganda qo'shicha ta'sir kuzatilishi mumkin). Ikkinchи avlod N1 – blokatorlari ko'proq N1 retseptorlariga ta'sir etib, antiserotoninergik va M – xolinobloklovchi ta'sirga ega bo'lmaydi.

Terfinadin. Kattalar uchun 60 mg dan sutkasiga 2 marta tавсиya qilinib, bu dozani oshirish tавсиya etilmaydi. Surunkali eshakemida bu preparat gidroksizin, tsitirizin va astimizol kabi samarali ta'sirga egadir. Terfinadinni katta dozalarda qo'llashning o'ziga xos nojo'ya ta'sirlari bor. Bular sarasiga QT intervalining uzayishi va taxiaritmiyalar, jigar etishmovchiligi kabilar kiradi. Terfinadinni makrolidlar hamda imedazol hosilalari bilan birgalikda qo'llanilishi QT – intervalini uzayishiga olib keladi. Chunki bu preparatlar terfinadinning jigardagi metabolizmini qiyinlashtiradi. Shu sababli terfinadin va makrolidlar yoki imedazol hosilalarini bir vaqtning o'zida qo'llash tавсиya etilmaydi.

**ASTIMIZOL.** Kattalar uchun 10 mg/sut ichishga tavsya qilinib, davo boshlaganidan bir necha kundan keyin ahvoli yaxshilanishi bois preparatni uzoq qo'llab bo'lmaydi. Astimizol N1 – uzoq ta'sir etuvchi blokatorlar guru'o'iga kiradi. Zardobda preparat kontsentrasiysi sekin pasayadi. T ½ 18 – 20 sutkani tashkil etadi. Preparat uzoq qo'llanilganda T ½ oshadi. Shu sababli teri sinamalarining natijalari astimizol qabuli to'xtatilganidan keyingi 4 – 8 hafta davomida soxta salbiy bo'lishi mumkin. Tug'ish yoshidagi ayollarga ushbu preparat tavsya etilmaydi. Astimizolning tavsya etilgan dozasi oshirilganda taxiaritmiga va to'satdan o'lish holatlari kuzatilishi mumkin. Astimizolni ham terfinadin kabi makrolidlar va imedazol hosilalari bilan birlgilikda qo'llash tavsya etilmaydi.

**LORATADIN.** Loratadinning suifikalik dozasi kattalar va tana vazni 30 kg dan og'ir bolalar uchun 10 mg bo'lib, 30 kg dan engil bolalar uchun 5 mg ni tashkil qildi. Eshakemida qo'llanilganda preparatning ta'siri tez sezildi. Bu preparat ham boshqa N1 – blokatorlar kabi samarali sanaladi.

**DOKSEPIN** – kuchli N1 – N2 – blokator sanaladi. U 10 – 20 mg dozada sutkasiga 3 marta, yoki sutkasiga 1 marta uylashdan oldin 25 mg dozada tavsya etiladi. Yaqqol ifodalangan uylatuvchi ta'sirga ega. Katta dozalarda preparat aritmiyani yuzaga keltiradi. Doksepin M – xolinobloklovchi ta'sirga ega. Preparatni 75 – 100 mg/sut dozada tayinlashda zardobdag'i doksepin va nordoksepin kontsentratsiyasini aniqlab turish lozim. Ushbu metabolitlarning umumiy miqdori 300 mg% dan oshmasligi kerak. Boshqa tritsiklik antidepressantlar kabi doksepinning ham dozasini oshirib yuborish o'limga olib kelishi mumkin.

**N2 – BLOKATORLAR.** N1 – N2 – blokatorlari, misol uchun xlorfenalin va tsinitidinni bir vaqtida tayinlash urtikar dermagrofizm va eshakemining boshqa ba'zi bir shakllarida samarali sanaladi. Tsinitidinni doksepin bilan bir vaqtida qo'llash tavsya etilmaydi. Chunki u jigmoidi metabolizmni qiyinlashtib va uning zardobdag'i kontsentrasiysi keskin oshib ketishi mumkin. Bunday holatda tsimitidin o'mniga ranitidin yoki famotidin qo'llash maqsadiga muvofiqidir.

**KETOTIFEN.** Urtikar dermagrofizm, sovuq bilan bog'liq va xolinergik eshakemida gistogramming chiqishini qiyinlashtiradi.

**KALTsIV ANTOGONISTLARI.** Nifedipin in vitro o'pka semiz hujayralari degranulyatsiyasini qiyinlashtiradi. Urtikar dermagrofizm va surunkali idiopatik eshakemida nifidipin samaradorligini tckshirish natijalari bir xil emas. Ba'zi hollarda preparatdan eshakemining og'ir shaklini kompleks davolash tarkibida foydalanish mumkin.

**ADRENOSTIMULYATORLAR VA ICHILADIGAN SIMPTOMAMIMETIKLAR.** Kattalarga surunkali eshakemida terbutalin 1.25 – 2.5 mg dan sutkasiga 3 mahal tavsya qilinadi. Ba'zida efedrinni 25 – 50 mg har 4 soatda (bolalarga 3 mg/kg/sut 4 marta qabul qilishga) ichish tayinlanadi.

**KORTIKOSTEROIDLAR.** Kam qo'llaniladi yoki zaruriy hollarda qisqa muddatga tavsya qilinishi mumkin. Kortikosteroidlarni uzoq vaqt qo'llash yaxshi emas. Chunki nojo'ya ta'sirlar xavfi sezilarli ortadi. Eshakemida kortikosteroidlarnig ta'sir mexanizmi etarlicha o'r ganilmagan. Biroq ularning semiz hujayralar degranulyatsiyasiga ta'sir etmasligi ma'lum.

**SULFASALAZIN.** Surunkali eshakemida kortikosteroidlarni sulfasalazinga almashirish remissiyaga olib kelganligi hakida ayrim ma'lumotlar mayjud. Preparatning nazorat tekshirulari bu kasallikda o'tkazilagan.

**TsIKLOSPORIN.** Semiz hujayralar degranulyatsiyasini qiyinlashtiradi, surunkali eshakemida samarali sanaladi. Biroq nojo'ya ta'sirlari ko'pligi sababli asoratlanmagan surunkali eshakemida tsiklosporin qo'llash maqsadga muvofiq emas.

**NYAQVlari** ham bosim bilan bog'liq sust eshakemida samarali bo'lishi mumkin. Surunkali idiopatik eshakemida bu preparatlar ko'pincha holatni qiyinlashuviga olib keladi.

DAPSON. Ba'zida terming neytrofil infiltratsiyasi bilan birga kechuvchi eshakemida qo'llaniladi. Preparatni tayinlashdan oldin G6 – FD faolligi aniqlanadi. Chunki bu ferment etishmovchiligidagi dapson tavsya etilmaydi. Surunkali eshakemida dapson hamma bermorlarga ham samarali bo'lavermaydi.

KOLXITsIN. Terining ifodalangan neytrofil infiltratsiyasi bilan og'rigan bermorlarda, jismoniy omillar sababli kelib chiquvchi ko'p kuzatiladigan eshakemida ushibi preparatning samaradorligi hakida ma'lumotlar mavjud. Bosim bilan bog'liq sust eshakemida kolxitsin naf bermaydi.

STANAZOLOL, DANAZOL. Danazol 200 mg dan sutkasiga 3 mahal ichiladi. Yoki stanazolol 1 – 2 mg sutkasiga 2 mahal ichiladi. Preparatlar og'ir surunkali eshakem sababli tayinlangan kortikosteroidlarning dozasini kamaytirish imkonini beradi. Ayollarga danazol tavsya qilingani ma'qul, chunki u kamroq ifodalangan virilizatsiyalovchi ta'sirga ega. Bu preparatlarning nojo'ya ta'sirini ham hisobga olish zarur: vazn ortishi, husnbuzalar, seboreya, girsutizm, jigar faoliyatining buzilishi. Danazol va Stanazolol boshqa dori vositalari naf bermaganda xolinergik eshakemida qo'llaniladi.

OKSATOMID -O'tkir va surunkali eshakemida NI – blokatorlarga o'xshash samaraga ega.

BOSHQA DORI VOSITALARI. Eshakemini davolashda metronidozol, flyukonazol va ketokanazol samaradorligi hakida ham ayrim ma'lumotlar mavjud.

#### NAZORAT SAVOLLARI:

1. Organlar bo'yicha anafilaksiyaning klinik ko'rinishlarini ta'riflang.
2. Anafilaksiyani nima bilan va qanday farqlash lozim.
3. Og'ir va o'rtacha anafilaksiya qanday farqlanadi.
4. Anafilaksiyadagi shok belgilarini sanab bering.
5. Anafilaksiyada natas yullari obstruktivasi belgilarini sanab bering.
6. O'rtacha anafilaksiyada shoshilinch yordam berishning ketma-ketligini ta'riflang.
7. Og'ir anafilaksiyada shoshilinch yordam ko'rsatish ketma – ketligini ta'riflab bering.
8. Anafilaksiyada yuzaga keluvchi xiqildoqning angionevrotik shishida shoshilinch yordam ko'rsatish ketma-ketligini ta'riflang.
9. Anafilaksiyada yuzaga keluvchi bronxospazmda shoshilinch yordam ko'rsatish ketma-ketligini ta'riflang.
10. Eshakemi qanday aniqlanadi va unda qanday shoshilinch yordam ko'rsatiladi.
11. Kvinke shishi qanday aniqlanadi va qanday shoshilinch yordam ko'rsatiladi.
12. Eshakemi va Kvinke shishida qo'llaniladigan dori vosilarini sanab bering va ta'riflang.

#### BOLALAR BILAN QO'POL MUOMALADA BO'LISH

Bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lismi ( BBQMB) muammolari 1962 yildan buyon tibbiyotga oid nashrlarda keng yoritilib kelinmoqda. Ammo jahon tibbiyot statistikasi ko'rsatkichlari bo'yicha BBQMBning qayd qilinishi hozirgi kungacha tez-tez uchrab turibdi. BBQMB- bu bola ustidan tazyiq o'tkazish yoki bolaga bo'lgan parvarishning etarli bo'lmasisligi bo'lib, o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Bu bolani parvarish qilish vazifasi ishonib topshirilgan shaxs tomonidan tazyiq o'tkazilishi
- Yomon parvarish – bolani ovqatsiz, suvsiz, parvarishsiz, tibbiy yordamsiz qoldirish va e'tiborning umuman yo'qligi
- Kamsitish – bolaning ruhiyatiga uzoq muddatli yomon ta'sir o'tkazish. Bunda bolaning ijtimoiy moslashuvi yomon kechadi.

- Jinsiy jinoyat - bolalarni turli hildagi jinsiy munosabatlarga jalb qilish. Bunda bolalar bunday jinsiy munosabatlarning ahamiyatini tushummagan holda rozilik berishi mumkin

#### **BBQMBga moyillik keltiruvchi omillar:**

- Ota – onaning ijtimoiy va madaniy darajasi pastligi
- Oiladagi yomon muhit

BBQMB odatda kutilmagan vaziyatda, ota onalarning o'z farzandlariga shikast etkazmaslik hoxishi bilan affektiv holatda sodir bo'ladi. Bolaning atrof muhit bilan o'zarlo aloqada bo'lish xususiyatlariga qarab turli hildagi ziddiyatlar kelib chiqadi. Bola bilan o'zarlo munosabatning qiyinlashuvi natijasida mehrdan mahrum qilish, imkoniyatlarini cheklash, ma'n qilish, etarliche e'tibor bermaslik, bola xaqida qayg'urishning kamligi, bolani kansitish kabi jazolarga tortilishga olib keladi. BBQMBning qaytalanish chtimoli juda yuqori bo'lib, shifokor aralashuvidan maqsad bolani himoya qilish va unga davogar sifatida BBQMBni bartaraf qilishdir.

Har qanday tibbiyot xodimining BBQMB ga shubxa bo'lganda asosiy vazifasi – bolani himoya qilish va ota ona bilan muomalani to'g'ri yo'lga qo'yish, ularga oiladagi tanglik paytida yordam ko'rsatishdan iboratdir.

#### **Muhit yomon bo'lgan oilalar bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar.**

- Aksariyat ota-onalar bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lib buni tan olmaydi
- Ko'pincha shifokorlar va militsiya xodimlarining o'zarlo hamkorligisiz aralashuvi vahimani kuchaytiradi, bolaning qarindoshlari aralashuviga sabab bo'ladi
- Bunday oilalarda ishsizlar va giyohvandlar ko'pchilikni tashkil qiladi
- Boshqa qiyinchiliklar: oila a'zolarining qabulga kelmasligi, ularning o'zarlo adovati, tibbiy xizmatga aloqasi bo'lмаган xodimlar bilan ish yuritishga vaqtini besamar ketkazishi, oilaga yordam ko'rsatishga harakat qilayotganlar o'rtasidagi janjallar

BBQMB yoki yomon parvarishga shubhani fizikal tekshiruv asosidagi quyidagi belgilar natijasida aniqlab olish mumkin:

- Yiqilish bilan tushuntrish mumkin bo'lмаган sinishlar
- 1. turli muddatdagи ko'plamchi sinishlar
- 2. metafiz sohasidagi sinishlar
- 3. epifizni uzilib tushishi
- 4. suyak ustti pardasi ostidagi kaltsifikatlar
- tayoq yoki qamchi zarbidan keyingi chiziqli qontalashlar
- qovuzloq ko'rinishidagi qon talashlar-sim, kamar, arqon zarbidan keyingi izlar
- barmoq izlaridan qolgan qontalashlar
- arqon yoki kamar bilan qisish natijasidagi izlar
- tamaki cho'g'ini izlari
- qo'lqopsimon, paypoqsimon, tilsimon ko'rinishidagi qaynoq suv bilan kuyish
- kesilgan yoki tishlangan yaralar
- chaygalish ko'rinishidagi shikastlanishlar ( til kertmagining uzilib tushishi,to'r pardanining ko'chishi)
- subdural gematoma
- gemoragik toshmani eslatuvchi ko'plamchi qontalashlar
- har hil muddatli ko'plamchi qontalashlar.Ularning muddati rangiga qarab aniqlanadi
  1. 0-2 kun – shish, bosganda og'riq.
  2. 0-5 kun - qizil yoki ko'k rangda.
  3. 5-7 kun – yashil rangda.
  4. 7-10 kun sariq rang.

5. 10-14 kun jigar rang

6. 2 hafta butunlay yo'qoladi.

- ichaklar jarohati, ichki a'zolar yorilishi
- kuyishlar, asosan ko'krak yoshidagi bolalarda
- g'afalati baxtsiz holatlar, qayta zaharlanishlar

Bolani doimiy ravishda kamshitilishini ko'rsatuvchi belgilari:

- o'ziga past baho berish
- yig'lovechanlik, befarqlik, xayol parishonlik
- o'zini doimo hoshqalardan olib qochish
- vahimaga tushish
- nutqini buzilishi
- amaliy ko'nikmalarini yo'qolishi
- boshqa bolalar va kattalar bilan muloqotga kirishishga qiyonalish

Bolani yomon parvarishini belgilari:

- bolaning egnidagi kiyim boshlarini toza emasligi
- kichik vazn va past bo'ylik (ko'krak yoshidagi bolalarda vazn yig'maslik)
- ozib ketish, tez charchash
- mavsumga mos bo'limgan kiyimlarni kiydirish
- ota-onha yoki bolaning chekishi, spirlti ichimliklarni va narkotiklarni qabul qilishi
- ovqatni o'g'irlash
- darsdan keyin doimiy ravishda mакtabda ushlanib qolish
- xulqining yomonligi
- o'z tengdoshlaridan begonasirash

Tibbiyot xodimi agar BBQMBga shubha qilsa anamnez yig'ish jarayonida quyidagi savollarini berishi lozim:

- fizikal tekshiruv natijalariga jarohat mexanizmi mosmi?
- jarohat mexanizmi bolaning yoshiga yoki bo'lishi mumkin bo'lgan jarohatga mosmi?
- bola oldin ham jarohat olganmi?
- ota-onalar tibbiy yordam uchun o'z vaqtida murojaat qilganmi?

BBQMBni aniqlashda ota-onalarning o'zini tutishi katta rol o'ynaydi. Ular:

- bolani tez jazolashga harakat qiladi
- bolaning kichik davrida u bilan qo'pol munosabatda bo'lganligini gapirib beradi
- atrofdagilarga shubha bilan qaraydi va ularga sovuq munosabatda bo'ladi
- alohida yashashni hush ko'radi
- Biror aniq sababsiz bolani shifokor qabuliga olib keladi va shifoxonaga yotqizilishini talab qiladi, agar yotqizishga ko'rsatma bo'lmasa o'zini xavotirga solishga harakat qiladi
- ko'plab tibbiy muassasalarga murojaat qilib, yakunda hech kaysi birida bolasini davolatmaydi
- bolaga nisbatan o'zini qaxr-g'azabli tutadi
- tarbiya sisifatida qo'rqitish va jazolashdan foydalananadi
- bolaning o'sishi haqidagi savollarini yaxshi tahlil qila olmaydi

Shifokorlar va boshqa mutaxassislar quyidagilarni yodda tutmog'i lozim:

- BBQMBning qayta amalga oshirilishi xavfi yuqori

- aralashuvdan maqsad birinchi navbatda bolani himoya qilish va oilaning boshqa a'zolariga yordam ko'rsatish
- huquq tartibot xodimlarining nazoratiga qo'shimcha, har kuni bolaning salomatligi hakida shifokor nazorati
- qayta jarohatlanishiда odatda ota-onalar avval murojaat qilgan shifoxonaga deyarli olib kelmaydi
- shifoxona xodimlari bolaning nazoratsiz kim tomonidan qoldirilganini va ayman kim jarohat etkazganini tzda bilishi shart enas. Bo'lgan voqcani aniq bilishga qaratilgan qatty urinishlar bu oila bilan keyingi aloqani o'rnatishga xalaqit berishi mumkin. Bundan tashqari ota-onaning aybi bor yo'qligi bolani shifoxonaga joylashtirishga halaqit bermaydi
- agar BBQMBning qaytarilishiga xavf yuqori bo'lsa bola shifoxonada olib qolinadi. Bunda asosan go'dak va kichik yoshdag'i bolalarga alohida ahamiyat beriladi.

BBQMBga shubha bo'lganda tekshirish printsiplari:

- fizikal tekshiruv o'tkaziladi va to'liq anamnez yig'iladi
- ba'zan bolani rentgen tasviriga tushirishiga yoki sur'atga tushirishga to'g'ri keladi
- iloji boricha tekshiruv va suhbat jarayonida militsiya xodimi qatnashishi lozim

BBQMBga shubha bo'lganda ota-onalar bilan suhbat o'tkazishning o'ziga xos tomonlari.

- Ota-onalarning aybiga iqror bo'lishiga harakat qilish kerak emas. Bolaning jarohat olganligi haqidagi bo'lmag'ur tarixni yolg'onchi ma'lumot deb qabul qilish kerak emas. Bular ota onaning bolaga zarar etkaziganidan qattiq siqilishiga olib keladi va bolani himoyasiga ololmaganidan afsuslanib qo'rqinchli xaqiqatni yashirishga harakat qilishiga olib keladi
- bolaning shifoxonada qolishi zarurligini tushuntirish, oilaga yordam berishga tayorligini ishontirish, mavjud qiyin holatdan chiqish yo'llarini topish
- ota onalar bilan alohida yaxshi munosabatda so'roq o'tkazish zarur

BBQMBga shubha bo'lganda foydalanadigan usullar:

- BBQMB qayd qilinganda shifokor militsiyaga xabar berishi lozim
- bolani shifoxonaga joylashtirish
- ota onani ayblamasdan o'zini ushlab turish
- tekshiruv natijalarini to'liq yozish
- xulosa qilishda gumonlarga emas aniq faktlarga tayanish

Zo'rlash va ahloqsiz harakatlar

Odatda bunday harakatlarning jabrlanuvchisi qiz yoki o'smir bola bo'ladi.

Zo'rlash – bu jinsiyo aloqaning shunday turiki, bunda jinsiyo aloqa jabrlanuvchingin hohish irodasiga qarshi kuch ishlatalish, qo'rqtish yoki aldash orqali amalga oshiriladi.

Ahloqsiz harakat – bu bola bilan jinsiyo munosabatning har qanday ko'rinishidir (bolaning echintirish, jinsiyo a'zolarini qo'l, og'iz yoki tili bilan ta'sirlash, getero yoki gomoseksual jinsiyo aloqa). Bunda kattalar bolalarni o'zining obro'si va hokimiyatidan foydalangan holda bo'yisdinrishga majbur qildi. Ahloqsiz harakat odatda bolaning yaqin qarindoshi yoki tanishi tomonidan amalga oshirilib uzoq muddat davom etishi mumkin.

### Tekshirish

Anamnez. Shifokor o'ta c'tiborli bo'lishi, butun oila a'zolari bilan iloji borichha birgaklikda va har biri bilan alohlida suhbatlashmog'i lozim. Suhbatga tajribal mutaxassislar (militsiya xodimi, psixiatr) taklif qilinishi kerak. Suhbat paytida aniqlanadi.

- Vaqt va bo'lib o'tgan vaziyat
- Zo'rlovchining shaxsi (qayta zo'rash xavfini baholash uchun)
- Jinsiy aloqa shakli
- qin ajralmasiga va dizuriyaga shikoyat
- nomutanosib shikoyatlar( qorinda og'riq, axlat va peshob tutaoimaslik, maktabdagi qiyinchiliklar).

Fizikal tekshiruvda zo'rash va ahloqsiz harakatlar belgilari aniqlanadi, bolaning ruhiy holati baholanadi. Aksariyat holatlarda ahloqsiz harakatning aybdori shu oilaning a'zosi bo'lса, bolaning ruhiy holati deyarli o'zgarmagan bo'ladi. Shuning uchun shifokor fizikal tekshiruv bilan birga anamnez va psixologik omillarni hisobga olmog'i lozim. Bolani va oila a'zolarini fizikal tekshiruvdan oldin, tekshirish tartibi va zarurligini tushuntirish hamda yozma ravishda rozilik olish lozim.

Zo'rash va ahloqsiz harakatga shubha bo'lganda lobarator tekshiruv		
Tekshirish	Usul	Izoh
Kiyim	Jabrlanuvchining zo'rash paytida mavjud bo'lgan kiyimlari qog'oz paketga solinadi	Plastik paketda saqlash tavsiya qilinmaydi
Ultrafiolet nurda tekshirish	Teri (shu jumladan boshning va oraliqning sochli qismi ) ultrafiolet nurda ko'rildi	Agar sperma bo'lса flyorestsentsiya kuzatiladi
Nordon fosfatazani aniqlash	Oraliq va boshqa bo'lishi mumkin bo'lgan joylardan sperma qoldiqlari nam dokalni tampon bilan artib olinadi va tampon reagent bilan maxsus indikator qog'ozga qo'yiladi	60 s davomida qog'ozning purpurali bo'yalishi sperma mavjudligidan darak beradi
Qov sochlari tekshirish	Qov sochlari tarab olinadi va qog'oz konvertga joylashtiriladi	Tekshiruv boshqa insonga tegishli soch tolalarini aniqlash imkonini beradi
Neisseria gonorrhoeaega ekish ( material jinsiy a'zolar yutqun va tug'ri ichakdan olinadi)	Paxtali tampon va Tayera—Martina muhiti ishlataladi. Qizlarda material qindan yoki bachadon bo'yidan olinadi. O'g'il bolalarda siyidik chiqaruv kanalidan olinadi.	
Chlamydia trachomatisga tekshirish	Surtma lavsanli tampon yordamida olinadi. Ekilgan ekmadan hujayrani ajratib olish uchun maxsus muhit ishlataladi, tanlab olingan sinama uchun immunoflyurosent analiz to'plami ishlataladi.	Kichik yoshdagagi bolalarda ham ishlataladi
Qinning orqa gumbazidan surtma olish (mikroskopik	Qinning orqa gumbozidan olingan surtma quruq predmet oynasiga surtiladi	

tekshiruv, AVO sistemasi bo'yicha antigenni aniqlash va nordon fosfatazani aniqlash)		
Peshob tahlili	Umumiy peshob tahlili, homiladorlikka test o'tkazish	Siydik yo'llari yallig'lanish belgilari va jarohatlarini, homiladorlikni aniqlab beradi
Qon tahlili	VDRL reaksiyasi, qon guruxi va rezus faktorni aniqlash, balog'at yoshidagi qizlarni homiladorlikka test o'tkazish	Infektsiyaga yoki qon ketishga shubha bo'lganda qon umumiy tahlili.

80% ortiq zo'rslash oqibatidagi jabrlanuvchilar tan jarohatlarini olishadi. Shuning uchun albatta qin va ichki a'zolar jarohatlarini inkor qilish zarur. Borchal holatlarda yuqorigi jadvalda ko'rsatilgan standart tekshiruv to'plami o'tkaziladi Keyinchalik ularning natijalari sud jarayonida foydalilaniladi.

- bolaning emotsiyonal holati baholanadi (befarqlik, vahimaga tushish).
- qon talashlar, tirmalishlar, yaralar va tcrining boshqa jarohatlari aniqlanadi, og'ir jarohatlar (sinishlar va qorin bo'shilg'i a'zolari jarohati) inkor qilinadi.
- tashqi jinsiy a'zolar ko'zdan kechiriladi (qon talash, yara, shish, eritemaga).
- prepubertat yoshidagi qizlar "qurbaqa holati" yoki tizza ko'krak holatida tekshirilib qin oynasidan foydalanalilmaydi.
- Quyidagi holatlarda ginekologik tekshiruv o'tkaziladi:
  1. agar zo'rslash paytida qinga yoki to'g'ri ichakka jinsiy olat, barmoqlar, yet jism kiritilgan bo'lsa
  2. qindan ajralma kelishiga va dizuriyaga shikoyat bo'lganda
  3. tashqi jinsiy a'zolar shikastlanishida
  4. agar zo'rslash harakatlarini xarakteri haqidagi ma'lumotlar to'liqligi va xaqiqatligi shubha ostida bo'lsa

Zo'rslashga quyidagi holatlarda shubha qilish mumkin:

- jinsiy a'zolar va to'g'ri ichak jarohati
- jinsiy yo'llar, to'g'ri ichak yallig'lanish kasalliklari yoki siydik yo'llarining qaytalanuvchi infektsiyasi

Ahloqsiz harakatlar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- jinsiy a'zolarni qo'l, og'iz, til yordamida ta'sirlash
- qinga yoki to'g'ri ichakka barmoq yoki har-hil jihozlarni kiritish
- turli hildagi shahvoniy jurnallar, tasvirlar yoki filmlarni bolalar bilan birgalikda ko'rish
- fohibabozlik mashg'ulotiga bolani jalb qilish

Yo'l tutish:

- militsiya xodimini chaqirish
- bolani faqat xuquq tartibod xodimi ko'rikdan o'tkazish zarur (sud tibbiy ekspert)
- tibbiyat xodimi faqat anamnez yig'ishi, ota onadan bolaning ahloqi haqida so'rashi zarur:
  1. bolaga berilgan savollarga javobni aytib bermasdan diqqat bilan va chidam bilan anamnez yig'ish lozim
  2. kichik yoshdag'i bolalarga bo'lgan voqeani chizib ko'rsatish mumkinligini aytish (tayor model va tasvirlarda foydalanish mumkin)
  3. boladan olingen ma'lumotlarni shubha ostiga olingen odamdan sir tutish
  4. tekshiruv natijalarini to'liq yozish
- mustaqil tekshiruv o'tkazish mumkin emas
- chidamli bo'lish va hissyotlarga berilib ketmaslik
- shoshilinch holat va shikastlanishlarda shoshilinch yordam ko'rsitish

#### **Bola bilan muloqat**

- Bo'lgan hodisani bola qanday baholashni aniqlash
- Bolani aybsizligini tushintirish va unga yordam ko'rsatish mumkinligini aytish
- Bolaga bunday voqealar bilan to'qnash kelganimizni tushintirish va boshqa bolalarga ham yordam ko'rsata olganimizni uqtirish

**Lobarator tekshiruv:** Har qanday holatda standart tekshiruv usullari amalga oshiriladi (jadvalga qarang)  
bundan tashqari qin ajralmasini condida spp va TRICHOMONAS VAGINALISga tekshirish.

**Davolash:** shoshilinch yordam ko'rsatish zarur, tanosil kasalliklari va homiladorlikni oldini olish, psixiatr va militsiya xodimi yordami kerak buladi. Uzok muddatli shifokor kuzatuvi zarur va ba'zida homiladorlikni uzishga to'g'ri keladi. Shoshilinch yordam anamnez ma'lumotlari va fizikal tekshiruv asosida ko'rsatiladi.

Odatda zo'rashda qin jarohati va qorin bo'shlig'i a'zolari shikastlanishi uchraydi. Agar zo'rlovchining jinsiy a'zolari bilan jabrlanuvchi o'rtaida tasodifiy kontakt bo'lgan bo'lsa tanosil kasalliklarini oldini olish zarur. Eng yaxshisi dorilarni og'iz orqali tavsya qilgan maqul, chunki agar dori inektsiya holida tavsya qilinsa bola buni o'tgan voqeanning jazosi sifatida qabul qilishi mumkin.

#### **Gonoreya va sifilisini oldini olish**

- Amoksotsillin 50mg/kg.(3 g cha). Probenetsid bilan 25mg/kg(1g cha) ichishga 1 martaga beriladi. Agar jinsiy alopqa og'iz yoki to'g'ri ichak orqali amalga oshirilgan bo'lsa yoki zahmni inkor qilish imkonii bo'lmasa dorilar og'iz orqali berilmaydi. Sababi so'zakning anorektal shaklida, so'zakli faringitta va zahmnning yashirin davrida bu usul samara bermaydi.
- Bunday paytda tseftriakson 250 mg m/o 1 martaga yuboriladi

**Xlamidiyali infektsiyani oldini olish:** Dokstsiklin 100mg/2mah-7kun. Kichik yoshdag'i bolalarda tetratsiklin tishlarning sarg'ish bo'yاليшига олиб келади. Shuning uchun faqat qo'zg'atuvchi topilganidan keyingina ularda davolash boshlash mumkin

#### **Homiladorlikni oldini olish.**

##### **Ko'rsatma**

- Jinsiy aloqa bo'lgan bo'lsa
  - Hayz tsikli bo'lib turib keyin ushlaniq qolishi qayd qilinsa
  - Jinsiy aloqaga 72 soatdan ko'p bo'lmagan bo'lsa
- Bunday holatda konyugirlangan esterogenlar 2ta tabletka tezda ichiriladi. 12 soatdan keyin yana 2ta tabletka ichiriladi. Esterogenlar har doim qusish va ko'ngil aynish chaqiradi. Shuning uchun 2 soat oldin metaklapromid ichirish mumkin.

Bolaga va oilaning boshqa a'zolariga psixiatr tekshiruvni va davosi zarur.

- Agar bola uya qaytgandan keyin yana tergashga moillik bo'lsa, bola uydan olib ketiladi va statcionarga yotkiziladi. Zo'rplash holati va ahloqsiz harakat hakida shifokor miliitsiya xodimiga xabar berishi shart.
- **TIBBIY KUZATUV.** Tekshiruv paytida bir necha mutahassis ishtirok etadi. Ulardan biri oila bilan yaqin munosabatda bo'lib, tekshiruv va davoga oid, turli tibbiy harakatlarni bajarishga rozilik olish bo'yicha savol javob o'tkazadi. Kuzatuv o'z ichiga oladi:
  1. Qayta tekshiruvga olish
  2. Jarohatni bitishini baholash
  3. Qayta lobarator tekshiruv
  4. Profilaktik davoning nojo'ya ta'sirini oldini olish
  5. Ruhiy dalda berish

#### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Yomon parvarish, haqoratlash, kamsitish va bolaga nisbatan jinsiy jinoyat tushunchalariga tarif bering.
2. BBQMBga shubha bo'lgan belgilarni sanab bering
3. Doimiy kamsitish belgilarni sanab bering
4. Bolani yomon parvarish qilish belgilarni sanab bering
5. BBQMBga shubha bo'lganda fokuslangan anamnezni maqsadini aytib bering
6. BBQMBni sodir etgan ota-onalarni xarakterini ko'rsatib bering
7. BBQMBda ota-onalar bilan suhbating o'ziga hosligi
8. BBQMBga shubha bo'lganda tanlangan usul
9. Zo'rplash va ahloqsiz harakatga ta'rif bering
10. Zo'rplash va ahloqsiz harakatga shubha bo'lganda tanlangan usul
11. Jinsiy jinoyat o'tkazgan bola bilan muloqat o'matish tartibi

#### **NEVROLOGIK SHOSHILINCh HOLATLAR.**

Es-hushni buzilishi bu - sezuv a'zolarini tashqi ta'sirga qisman yoki to'la adekvat joyob bera olmasligidir. Bu holat miya yarim sharlarini va yuqoriga intiluvchi retikulyar formatsiyani o'zaro munosabatini buzilishi bilan kechadigan jarayon natijasidir. Bunda miya yarim sharlarini disfunktsiyasi yuzaga kelib es-hushni pasayishi, javob buyruqlarini bajarishni sekinlashishi, dezorintirlangan holat, sezuv a'zolarni funktsiyasi pasayishi kuzatiladi. Retikulyar formatsiyani disfunktsiyasi tetiklikni yo'qolishiga olib keladi.

Es-hushni buzulishida, birinchi navbatda qayta tikkilana oladigan holatlarni aniqlash va tiklashga yordam berish zarur. Es-hushni buzulishi har qanday ta'sirlar natijasida bo'lishi mumkin: bu har xil nevrologik va somatik kasalliklarda uchrashi sababli, tashhislashda to'la qonli anamnez to'plash, nevrologik va umum fizikal tekshiruvlarni o'tkazish, kompleks lobarator tekshirishlar amaga oshirish kerak.

### **Hush darajasini buzilish sababaları:**

*Bosh miyani birlamchi shikastlanishi(odatda ko'pincha organik buzilishlar).*

- Bosh-miya shikastlanishi
  - Bosh miya chayqalishi.
  - Bosh miya czilishi.
  - Teshib o'tilgan bosh miya yarasi yoki travmatik miya ichi gemotomasi.
  - Subdural gematoma.
  - Epidural gematoma.
- Qon-tomir kasallikkleri
  - Miya ichi qon quyilishi, sababi:
    - Anevrizmni yorilishi.
    - Ateriovenoz malformatsiyasi.
    - Boshqa turlari (masalan, gemorragik diatez, amiloidli angiopatiya, qon tomirlarni o'smali eroziyasi).
- Ishemik insult, sababi:
  - Bosh miya suyagi tashqi va ichki tomirlarini trombozi.
  - Emboliya.
  - Vaskulitlar.
  - Bezgak.
- Infektsiyalar
  - Meningitlar.
  - Entsefalistlar.
  - Abstessllar.
- O'smalar
  - Birlamchi bosh miya suyagi ichi o'smalari.
  - Metastatik o'smalar.
- Epileptik holat

### **Bosh miyani ikkilamchi shikastlanishi**

- Metabolik entsefalopatiya, sababi:
  - Gipoglikemiya
  - Diabetik ketoatsidoz
  - Giperglykemik giperosmolyar ketoatsidozsiz holati
  - Uremiya
  - Jigar etishmovchiligi
  - Giponatriemiya
  - Gipotireoz
  - Giper- yoki gipokalsicmiya.
- Gipoksik entsefalopatiya, sababi:
  - Og'ir yurak etishmovchiligi
  - (O'SOK) o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi
  - Gipertonik entsefalopatiya.
- Zaharlanish
  - Og'ir metallar bilan
  - Is gazi
  - Dori moddalari (masalan, opioidlar, barbituratlar, kokain bilan)
  - Alkogoldan zaharlanish.
- Fizik ta'sirlar natijasida miyani shikastlanishi
  - Issiq urish
  - Gipotermiya.

### **Hush darajasini buzilishini tekshirish**

Birlamchi **ABCD baholash bosqichida** AVPU shkalasini qo'llab bermor hush darajasi aniqlash.

A – (alert) – faol tetiklik

V – (voice) – ovozga javob berish

P – (pain) – og'riqga javob berish

U – (unconscious) – bermor hushsiz

Baholash vaqtida bermor faol bo'lmasa, uni e'tuborini jalg etish uchun qo'lini silash va suhbat qurish kerak. Agar bola faol bo'lmasa lekin ta'sirlashga javob bersa uni es-hushi xuddi sommolent holati deb baholanadi. Agar bu ta'sirga ham javob bermasa unda onadan bolaning uyquchanligini va uyg'otish qiyinligini so'rash kerak bo'ladi.

Ikkilamchi **ABCD baholash bosqichida** bermor hush darajasi Glazgo shkalasi bo'yicha baholanadi

#### Chaqaloq va bolalarda koma holatida qo'llaniladigan Glazgo shkalasi

Sinama	3 yoshgacha bolalar	3 yoshdan katta bolalar	Ballar
Ko'zni ochishi	Spontan	Spontan	4
	Ovoz ta'siriga	Ovoz ta'siriga	3
	Og'riq ta'siriga	Og'riq ta'siriga	2
	Javob yo'q	Javob yo'q	1
Ovozga javob	g'uldurash	To'la orientatsiya qilish	5
	Bezovtalangan qichqiriq	Uzuk-yulug so'zlar	4
	Og'riqqa qichqiriq	Alohiba so'zlar	3
	Og'riqqa inqillash	Aniqlab bo'lmaydigan so'z va ovozlar	2
	Javob yuk	Javob yuk	1
Harakat faolligi	Erkin harakatlarnadi	Buyrukni bajaradi	6
	Ta'sirga qo'lini tortib oladi	Og'riq joyini ko'rsatadi	5
	Og'riqqa qo'lini tortib oladi	Og'riq ta'siriga qo'lini tortib oladi	4
	Og'riqqa tortiladi	Dekortikatsion ko'rinish (og'riqqa tortilish)	3
	Og'riqqa bukiladi	Detserebratsion ko'rinish (og'riqqa bukilish)	2
	Javob yo'q	Javob yo'q	1

#### Koma holatida qo'llaniladigan Glazgo shkalasi ma'lumotlarini tahlil qilish

Hushi o'zida	15 ball
Hushi karaxtlangan:	
o'rtacha	13 – 14 ball
chuqur	11 – 12 ball
Sopor(garanglashgan)	8 – 10 ball
Koma:	
O'rtacha	6 – 7 ball
Chuqur	4 – 5 ball
Terminal	3 ball

#### Anamnez

Barcha ma'lumotlarni to'plashning ko'pincha iloji bo'lmaydi. Keyingi ma'lumotni bolani kuzatigan ota-onadan, tez yordam shifokorlaridan olish mumkin:

- Harorat ko'tarilganmi?

- Bosh shikastlanishi bo'lganmi?
- Dori moddalar, narkotiklar, alkogol ichimliklari ichilganmi?
- Talvasa bo'lganmi? Talvasa qancha davom etgan? Oldin talvasa harorat ko'tarilganda kuzatilganmi? Epilepsiya tashhlisi qo'yilganmi?

Agar bola hayoti bir haftadan kam bo'lsa quyidagilarga shubha qilish kerak:

- Tug'riq davrida asfiksiyani boshidan o'tkazganmi
- Tug'ruq paytida shikastlanishi kuzatilganmi

Fizikal tekshiruvlar o'tkazish vaqtida e'tiborni quyidagilarga qaratish kerak:

- sarg'ayishlik
- kaftini kuchli og rangparligi
- Chekka shishlar
- Gemoragik toshma
- Ensa mushaklarini tortilishi(rigidlik)
- Boshda shikastlanish belgilari

**Fizikal tekshiruv** to'la amalga oshirilishi zarur.


Terida aniq shikastlanish belgilari, jigar xastaligi belgisi, yuqumli kasalliklar yoki emboliya belgilari.

**Petexiyalar**




adam.com

**Eksimozlar**



B

Boshda Bettla simptomi belgilari (so'rg'jchsimon o'simta orqasidagi gemotoma), lokal og'riq, krepitasiya, qulokdan va burundan qon ketish, ko'z atrofidagi qon talashlar (Enot ko'zlari yoki Ko'z oynak simptomi) bosh asosi sinishidan dalolat beradi.



1

**Ensa mushaklarini tortilishi** meningit, shikastlanish yoki subaraxnoidal qon ketishida kuzatilishi mumkin. (bo'yin umurtqasi shikastlanishiga shubha bo'lganda, uni harakatlantirish mumkin emas.)

**Ko'krak qafasini, qorin sohasini, yurak va oyoq-qo'lni** umumiyo qoidalar bo'yicha tckshirish. To'g'ri ichakni va kichik chanokni tekshirish bilan birga najaasdagi yashrin kon ketishni analiz kilish kerak.

**Ogidzan jigar xidimi kelishi** jigar etishmovchiligi, ketoatsidoz, alkogol zaxarlanishi va uremiyada kuzatiladi.

**Nevrologik tekshirishlar** barcha holatlarda amalga oshiriladi, uni ma'lumotlari kasallik tarixiga yozib boriladi. Xush darajasini buzilishida patologik jarayonni joylashishini aniklashda kuyidagilarga ctibor beriladi:

- **Bemor holatiga**
    - Agar bemor uziga kulay xolda yotgan bulsa (odatda uxlaganda), koma anikrogi chukur bulmagani xolda kuzatiladi. Bunga bemorni esnashi va aks urishi misol bula oladi. Boshka reflektor aktlarga (yutal, yutish yoki xikichok) kirib chukkur komada kuzatiladi.
    - Pastki jagni joylanishi va kuz kavogini kurinishi xush darajasini baxolashga kulaylik turgadiradi. Chukur koma belgilariiga ochik kuz va ogib kolgan pastki jag misol bula oladi.
  - **Xushni buzilish darajasi** engil es ogishidan to tula xushsizlikkachan oralikda buladi.
  - Patalogik uyki. Bemor doimo uyuqda yoki mudrashda bo'lib onson uyg'otish mumkin, shundan keyin u bergen savollar va buyrqlarni bajaradi
  - Garanglik (Sopor). Bemorni og'riqli ta'sir qilib xam to'la uyg'otib bo'lmaydi. Berilgan buyruqlarga reaksiyasi sust yoki umuman javob yo'q, bemordan berilgan buyruqlarga kayta jobovni yoki tovushlarni olishni iloji yo'q. Lekin shunga qaramay u ta'sirlarga yo'naltirilgan ximoya xarakatlarini qila oladi.
  - Yuzaki koma. Og'riq faqat oddiy va xoatik xarakatlarni chaqira oladi. Bemorni uyg'otib bo'lmaydi.
  - Chuqur koma. Qattiq og'riqli ta'sirlarga xam bemorda javob reaksiyasi kuzatilmaydi. Kuzni, moyakni, sut bezlarini va boshqa yuqori sezuvchan soxalarni og'riqli ta'sir qilib bemorni uyg'otishga xarakat qilish mumkin emas.
- Nafas patologik turlariga qarab, ba'zida patologik jarayon xarakteri xaqida fikir yuritish mumkin.
- Cheyn-Stoks nafas turida giperventilatsiya jarayoni nafas chuqurligini boshida oshib, keyin pasayishi va xar xil vaqtgacha cho'ziladigan apnoe kuzatiladi. Cheyn-Stoks nafas turi miya yarim sharlarini ikki tomonini chuqur strukturali shikastlanishida, bazal yadroлarni yoki miya o'zakni yuqori soxasini buzilishida kuzatiladi. Ko'pincha Cheyn-Stoks nafas turi nevrologik kasalliklarda kuzatilmasdan, ko'pincha somatik kasalliklarda kuzatiladi. (masalan: og'ir yurak etishmovchiliklarda)
  - Markazi neyrogen giperventilatsiya chuqur va ritmik bo'lgan minutiga 25tagacha bo'lgan nafas olish bilan xarakterlanadi. Bu nafas buzilishlari turini, ma'lum bir joylashgan patologik soxasi bilan bog'lash mumkin emas. To'g'ri ritmik nafas bu ko'rinishlarda og'ir oqibati belgi bo'lib, komani chuqurlashidan dalolat beradi.
  - Neyrogen xarakterdagi giperventilatsiya xaqida xulosa chiqarishdan oldin uni keltirib chiqrurvchi boshqa sabablarni inkor etish zarur – mebabolik atsidoz va respirator alkaloz yoki gipoksemiya (oxirgisi kislorodni partsial bosimi paO<sub>2</sub> kun davomida ikki marotaba o'lchab agar u 70 mm rt.st bo'lsa ta'suf etiladi).

- Apnotik nafasga davomiy nafas olishdan keyin nafas chigarishda tutilib qolishi bilan kechadigan holatga aytildi (inspirator spazm). U Biota turidagi nafas bilan almashtinishi mumkin. Biota nafasi – tez-tez bir xildagi nafas xarakatlarni aloxida apnoe davomiyligi kechishi bilan xarakterlanadi. Bu ikki turdagagi nafas ko'pincha varoliv ko'prigi shikastlanishida kuzatiladi.
- Xoatik va agonal nafas xarakatlari uzunchoq miyadagi nafas markazlarini shikastlanganligidan darak beradi. Xoatik nafasga xar-xil chuqurligdagi tartibsiz nafas olish xarakatlari kiradi. Agonal nafasga bir-bir kuzatiladigan talvasali nafasni apnoe fonida kelishi bilan xarakterlanadi. Bu ikki turdagagi nafas xarakatlari agoniya davrida kuzatilib, nafas olishni to'la to'xtatishga sabab bo'ladi.
- Nafas olishni susayishi - nafasni yuzaki bo'lishi, seklinashishi va effektiv bo'lmasisligi bilan kechadi. Bu holat ko'pincha uzunchoq miya foliyatini susayishida va dori vositalarini toksik ta'siri natijasida kuzatiladi.
- Komani nafasni giperventilatsiya holati bilan kechishi metabolik buzilishlarda kuzatiladi. Bunday buzilishlarga kuyidigilar kiradi:
  - Metabolik atsidoz (masalan, diabetik ketoatsidoz, laktatsidoz, uremiya, organik kislotolar bilan zaxarlanish)
  - Respirator alkaloz (masalan, jigar entscfalopatiyasi, salitsilatlar bilan zaxarlanish)

**Bosh va kuz holati.** Miya yarim sharalarini xar birida birlgilikda boshni va kuzni buradigan markazlar joylashgan bulib, ular bu miya yarimsharlariga karama karshi tomonga buradi. Shuning uchun bir tomonni shikastlanishi tufayli ikkinchi tomonni ta'siri oshib, boshni va kuzni shikastlangan tomonga buradi (kolateral tomonagi gemiparez). Varoliev kuprigi shikastlanishida , teskari shikastlangan tomonidan karshiga bulgan gemiparez tomonga buriladi.

#### Kuz kurish zonasini tekshirish va oftalmoskopiya

- Agar kurishni bir kismigina saklangan bulsa, kurish maydonini «xavfli» kuz xarakati orkali tekshirish mumkin. Normada kuz kisisi kuzatiladi. Kuz kurmaslik bulmaganda yoki kuruv nervini shikastlanishida kuz kisisini asemetriya refleksii belgilardan gemanopsiyani kuzatish mumkin. Lekin kuz xarakati tufayli kuzni yalliglanishida xavo sinamasini ba'zan soxta ma'lumotlarni beradi.
- Oftalmoskopiyani tekshirishda, kuz nervi diskini shishini aniklash mumkin, bu shish bosh miya ichi bosimini oshishidan darak beradi.

**Korachiklar.** Ko'z qorachiqlarini razmeri va shakli, foliyati saqlangan yorug'likka bir xil xarakatini aniqlash katta axamiyatga ega.

- Ko'z korachig'ini o'rta razmeri (3-5 mm), yorug'likka javob qaytarmaydigan holati o'rta miyani shikastlanish belgisi bo'lib xisoblanadi.
- Ko'z qorachiqlarini javob reaksiyasini saqlanganligi – o'rta miya butunligidan dalolat beradi. Ko'z korachiqlarini chuqur ko'mada saqlanganligi shox reflekslarini va ko'z xarakatini bo'lmasisligi bemorda metabolik buzilishlar (gipoplakemiya) yoki dori moddalarida zaxarlanganlik (masalan barbituratlar) bildiradi.
- Ko'z korachig'ini koma holatidagi bemorda bir tomonlama kengayishi va yorug'likka javob reaksiyasini bo'lmasisligi (Getchinson qorachig'i) ko'z xarakat nervini ensa-tentorial teshikka tiqilib qolishidan darak beradi. Bunda boshqa bu nervni shikastlanganlik belgilari xam bo'lishi mumkin(masalan: birtomonlama ptoz va qochuvchi g'laylik, lateral to'g'ri musqo'lni tonusini shikastlangan tomonda oshishi). Keyinchalik kengaygan va yorug'likka javob reaksiyasi kuzatilmasligi shikastlanishda yoki o'rta miyani siqilishida bo'ladi.

**Anizokorolya**



- Ko'z korachig'ini bo'yni soxasidagi og'riqqa javob reaksiyasi(spinotsiliar refleks) - miya o'zak pastki qismini saqlanganlik belgisi bo'lib xisoblanadi.

### Xarakat aktivligi

- Partial tutqanoqlar patologik jarayonni chegaralanganligidan darak berishi mumkin. Katta epileptik tutqanoqlar sabab-tashxislash jarayonini belgilab bermaydi, lekin u xarakat yo'llarini mushakdan to miya po'stog'igacha butunligidan darak beradi. Multifokal tutqonoqlar - metabolik shikastlanish belgisidir.
- Miokloniya va asteriks - metabolik entsefalopatiya belgisi xisoblanadi (masalan: gipoksiya, uremiya va jigar etishmovchiliga).
- Detserebratsion rigidlik (tortilish) oyoq-qo'llarni yozilishi, qo'lni ichki rotatsiyasi va olib kelishi, oyoqni yozilishi bilan kechadi. Bu belgilari miya o'zagini yuqori soxasini shikastlanishidan darak beradi (qizil va vestibulyar yadro soxasida).
- Dekortikatsion rigidlik qo'lni bukib va olib kelish, oyoqni yozish bilan kechadi. Shikastlanish o'chog'i miya yarim sharlarini yoki to'g'ridan to'g'ri o'rta miyada joylashgan.
- Oyoq qo'lni uzoqlashtirish - xarakat aktivligini nisbatan saqlanganligidan darak beradi. Agar bemorni koma holatidan chiqarilsa, oyoq-qo'lni barcha funktsiyasi tiklanadi.
- Bir tomonlama xarakatni bulmasligi yoki asimmetriya xarakati - gemiparez belgisi xisoblanadi.

**Sezuvchanlik.** Patalogik uyquvchanlik yoki bir tomonlama garanglik, sezuvchanlikni kamayishini og'riqqa asimetriya reaksiyasi ko'rinishida kechadi (agar shollik kuzatilmasa). Asimetriyanı ko'zni shox refleksni tekshirishda va yuz soxasini sezuvchanligini aniqlashda kuzatish mumkin.

### Xush darajasini buzulishida laborator va instrumental tekshirishlar

**Standart tekshirishlar.** Qon umum taxlili; peshob taxlili; elektrolitlarni miqdorini tekshirish, mochevina, kreatinin, glyukoza, kaltsiy, fosfotlarni qonda tekshirish, bioximik ko'rsatkichlardan jigar funktsiyasini ko'rsatkichlari, fermentlar ko'rsatkichi, zardobni osmolyar ko'rsatkichlari, EKG va ko'krak qafasini rentgenografiyasini o'tkazish zarur.

**Toksikologik tekshirishlar** ko'rsatma bo'yicha opioidlar, barbituratlar, trankvilizatorlar va uxlatuchchi dorilar, antideprisantlar, etanolni kondagi miqdori, peshobdag'i va oshqozon maxsulotlarda o'tkaziladi.

### Maxsus tekshirishlar

- Boshni rentgenografiysi
- EEG
- Lyumbal punktsiya - agar meningit yoki entsifalitga shubxa bo'lsa. Lyumbal punktsiya bosh miya suyagi ichi bosimi belgilari kuzatilsa mumkin emas. Bosh miya ichi bosimini oshishi lyumbal punktsiya qilinganda ensa-tentorial jarayonni yuzaga keltirish yoki miyachani sifilib qolishiga olib keladi. Kompyuter va Magnit Rezonans Tomografiya (KT va MRT) ko'p xollarda miya ichi qon kuyilishini aniqlab berib, lyumbal punktsiya qilinishini oldini oladi. KT va MRT miyaga qon quyilishi kam bo'lgan xollarda aniqlash qiyin, bunda lyumbal punktsiyaga qarshi qo'rsatma yo'q. Ko'rsatma bo'yicha bemorlarga angiografiya qilinadi.

- Lyumbal punktsiyani samarasini ijobiy bo'lishi (meningit tashxisini beradi), agar miya suyuqligi ko'rgan vaqtida loyqa bo'lsa (opalestsinuyushum), tsitologik tekshirishlarda leykotsitlarni miqdorini yuqori bo'lishi (100 polimorf-yadroli 1 mkl), glyukozani miqdorni kam bo'lishi ( $1,5 \text{ mmol/l}$ ), oqsilni miqdorini ko'p bo'lishi ( $0,4 \text{ g/l}$  dan ko'p), mikroorganizmlarni aniqlanishi Gramm bo'yyog'ida bo'yalganda qo'rilganda yoki ekilgan kulturalarni o'sishi bilan baxolanadi.

## 2 oydan katta bolalar xushsizligini differentsiyal tashxislash

tashxis	Simptomlar
Meningit	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bezovtalanishni oshishi</li> <li>Ensa mushaklarini rigidligi</li> <li>Bosh liqidojni bo'rtishi</li> <li>Terida petexial toshmalar (meningokokli meningit)</li> </ul>
Febril talvasalar (kam uchrab xushsizlik bilan kechishi mumkin)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Xarorat ko'tarilgan vaqtida davomiy bo'lмаган talvasalar</li> <li>6 oydan to 5 yoshgacha bo'lgan oraliqda let</li> </ul>
Gipoglikemiya (sababini qidirish lozim)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Vena ichiga kontsentrlangan glyukoza critmasi kuyilganda bemor xushini tiklanishi</li> <li>Qonda glyukozani miqdori kamaygan</li> </ul>
Bosh shikastlanishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>Boshda shikastlanish belgilari borligi</li> <li>Anamnezda tashqi ta'sir qilgan shikastlanish faktori</li> </ul>
Zaxarlanish	<ul style="list-style-type: none"> <li>Anamnezda zaxar yoki dori moddalarini ichganligi to'g'risida ma'lumot</li> </ul>
Shok	<ul style="list-style-type: none"> <li>Kapillyar sinamanı 2 sekundan ortishi</li> <li>Tezlashgan va sustlashgan puls</li> </ul>
O'tkir glomerulonefrit entsefalopatiya bilan	<ul style="list-style-type: none"> <li>Qon bosimni ortishi</li> <li>Tashqi soxalarda shish</li> <li>Peshobda qon</li> <li>Diurezni kamayishi</li> </ul>
Diabetik ketoatsidoz	<ul style="list-style-type: none"> <li>Anamnezda polidipsiya va poliuriya</li> <li>Chuqur qiyinlashgan nafas (atsidotik)</li> <li>Qonda glyukoza miqdorini yuqori bo'lishi</li> </ul>
Tserebral malyariya (faqat endimik o'choqdagi rayonlarda)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Sarg'ayishlik</li> <li>Anemiya - kamqonlik</li> <li>Talvasa</li> <li>Gipoglikemiya</li> <li>Qonni P. Falciparumga ijobiy tisdiqi</li> </ul>

## 2 oydan katta bolalardagi xush darajasi yo'qligida differentsiyal tashxis

Tashxis	Simptomlar
Gipoksik ishemik entsefalopatiya	<ul style="list-style-type: none"> <li>Boshlanishi birinchi 3 kunlikda</li> <li>Anamnezda og'ir tug'ruqlar</li> </ul>


	<ul style="list-style-type: none"> <li>Anamnezda bola vaqtida qattid qichqirmagan</li> </ul>
Bosh miya ichi kon kuyilishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>Boshlanishi birinchi 3 kunlikda</li> <li>Kam vazin yoki chala tug'ilganlik</li> <li>Boshlanishi birinchi 3 kunlikda</li> <li>Sarg'ayishlik</li> <li>Rangparlik</li> <li>Og'ir bakterial infektsiya</li> </ul>
Bilirubinli entsefalopatiya	
Meningit	<ul style="list-style-type: none"> <li>Xushini tormozlanishi</li> <li>Apnoc xuruji</li> <li>Talvasa</li> <li>Yuqori va culoqni bezovta qiladigan qichqriq</li> <li>Bosh liqidoqni taranglashishi yoki bo'rtib chiqishi</li> </ul>
Sepsis	<ul style="list-style-type: none"> <li>Xarorat ko'tarilishi yoki gipotermiya gipotermiya</li> <li>Shok</li> <li>Ko'zga ko'rinarli belgilarsiz og'ir holat</li> </ul>

#### Xush darajasini buzilishida ko'rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordam

Koma holatidagi bemorda bosh miyani shikastlanishi qayta tiklanmas holatiga tushishi mumkinligi tufayli tekshirishni tugatmasdan turib shoshilinch davolashni tez amalga oshirish zarur. Xush darajasi buzilgan bemor bolalarda umuiy va maxaliy davolash tadbirleri amalga oshiriladi (xamma koma holatidagi turlarida).

Davolash tadbiri aniq va tez quyida ko'rsatilgan tarzda ketma-ketlikda bajariladi. Asosiy vazifa – komani sababini aniqlash va neyroxiurgik aralashuvni kerak yoki kerak emasligini aniqlash.

**Xayotiy zarur a'zolarni tiklab turish.** Nafas yo'llarini ochish, kislорod berish, kerak bo'lqanda SNO (Sunniy Nafas Oldirish). Monitoring kuzatuvida YuQS, Q/b, xarorati, EKG va pulsoksimetriyani qo'llash.

<b>Somatik bemorda nafas yo'llarini ochish</b> 	<b>Travmatik bemorda nafas yo'llarini ochish</b> 
<b>Og'iz nayini qo'llash (bemorda og'riq reaksiysi)</b>	<b>Burun nayini qo'llash (bemorda og'riq reaksiyasi kuzatilsa)</b>

kuzatilmaganda)




Agar somatik bemor bo'lsa tili orqaga ketib qolmasligi uchun unga tiklangan holat beriladi.




TIKLANISH HOLATI

**Umurtqani immobilizatsiya qilish.** Agar shikastlanish inkor etilmagan bo'lsa , uni to retgenografiya qilishga olib borguncha bel taxtaga bo'yynini fiksatsiya qilgan xolda immobilizatsiya qilish kerak.

KALTA  
BEL  
TAXTASI



UZUN BEL TAXTASI



Venaga yo'l ochish. Venaga kateter qo'yish

Agar bermorda miya tiqiliishi yoki Bosh miya ichi bosimi oshganligiga kuyidagi ko'rinishbu misol bo'ladi. (VChD):

- Anizokoriya
- Rigidlik pozasi
- Oyoq-ko'lni yoki tana sholligi
- Noadekvat nafas

Bu ko'rinishlarda tezlikda bosh miya ichi bosimini tushirishga xarakat qilish, neyroxirurg chaqirish va operativ muolajani qo'llash talabi qo'yildi. Bosh miya ichi bosimini tushirish tadbirlariga kuyidagilar kiradi:

1. Miyaga qon oqib kelishini ta'milash uchun tanani bosh qismini 30° ko'tarish kerak.
2. O'SN (IVL) giperventilyatsiya rejimida.  $p_aCO_2$  pasayishi 25—30 mm rt. st. ko'p bo'lganda miya qon tomirlari siqiladi va bir necha minut ichida tez kechadi. Bu Miya ichi bosimini pasaytiradi. Keyinchalik  $p_aCO_2$  pasaytirish talabga muvosiq emas, chunki bu miyani qon bilan ta'minlashishini kamayishiga olib kelishi mumkin.
3. Mannitol (0,5 — 1 g/kg v/i jadal xar 2—4 soatda) — osmotik dori vositasi bo'lib, miya shishini kamaytiradi.
4. Furosemid, 1 mg/kg v/i xar 6—8 soatda.
5. Deksametazon (10 mg v/i, keyin 4 mg v/i xar 6 soatda) o'sma yoki abtsessda perifokal shishni kamaytiradi.
6. Talvasalarda talvasaga qarshi davo talab qilinadi.
7. Meyoriy xaroratni tanada saqlab turish kerak. (xarorat ko'tarilganda miya qon tomir ta'minlashishi va miya ichi bosimi oshadi).
8. Miorelaksantlar (bankuroniv, 0,1 mg/kg v/i xar 1—2 soatda) bosh miya ichi bosimi mushaklar qisqarishi sababli yuzaga kelgan bo'lsa.
9. Sedativ vositalar (narkotik analgetiklar benzodiazepinlarni birqalikda qo'llaganda) bosh miya ichi bosimi bezovtalik va og'riq xisobiga oshgan bo'lsa.

Davolash muddati bir necha xافتани ташкіл қилади. Turg'un bosh miya ichi bosimi tiklangandan keyin bu preparatlар berishi taqiqlanadi, boshida sedativ vositalar, keyin esa miorelaksantlar va O'SN (IVL) oxirida osmodiurektiklar beriladi. Berilish davomiyligi bemor holatiga bog'liq.

### Talvasaga qarshi davo

**Benzodiazepinlar.** Benzodiazepinlarni salbiy ta'siri — nafas foliyatini sustlashtiradi (ba'zi xolalarda bu dorini tez yuborilishi sabab bo'ladi). Shuning uchun qo'l ostida doimo O'SN (IVL) oldiruvchi tibbiy asboblar bo'lishi zarur.

Diazepam (Relanium, Sibazon, Valium) — tez ta'sir qiluvchi dori vositalari. Boshlang'ich dozasi — 0,1—0,2 mg/kg (maksimum — 10 mg) 1-4 minut oralig'ida. Effekt kuzatilmaganda dozani 0,25 — 0,4 mg/kg oshirish (maksimum -15).

Agar tashxis aniq bo'lmasa bemorni nazorat ostiga olinib tekshirish davom ettiriladi. Bu holatlarda koma belgisi ko'pincha metabolik buzilishlar va zaxarlanish bo'lishi mumkin.

### Ayrim kasalliklarda koma holatini rivojlanishi:

#### Qandli diabet.

Bolalarda quyidagi patogenetik qandli diabet komasi bo'lishi mumkin:

- Ketoatsidotik koma
- Giperosmolyar koma
- Gipoglikemik koma

#### Ketoatsidotik va giperosmolyar koma.

Ketotsidotik komani patogenezida, markaziy o'rinni zo'riqib boruvchi insulin etishmovchiligi egalaydi. Ketaatsidozdag'i giperglukemiya va giperketonemiya qonni osmalyu bosimini va xujayra oshishiga sabab bo'lib, xujayralarda degidratatsiya vujudga kelib, osmatik bosim qonda oshadi. Natijada ko'plab suyuqliklar peshob orgali yo'qotilishi va elektrolitlari disbalansi vujudga keladi. Organizmda kislotalar va keton tanalarini yig'ilib qolishi buyrakni bufer funksiyasini izdan chiqarib, metabolik atsidozga olib keladi.

Giperosmolyar komani patogenezi aniqlanmagan. Qonni yuqori osmolyarligi ( $350 \text{ mosm/l}$ ) kuchli darajada rivojlangan giperglukemiya (qandni qondagi miqdori  $55 \text{ mmol/l}$ dan yuqori) va gipernatremiya, keton tanachalari me'yordan oshmagan, shuning uchun ketonuriya kuzatilmaydi. Kislotali-asosli muovzanat o'zgarmagan. Osmotik diurez, quish, ich ketisi kuchayganligi uchun QUXM(qon umumi xarakat miqdori) kamaygan va og'ir atsidoz klinikasi yuzaga keladi.

Ketoatsidotik va giperosmolyar komani davolash o'z ichiga uchta komponentni oladi:

- Insulinterapiya
- Regidratatsiya metabolik siljishni korreksiya qilib
- Simptomatiq davo.

Bunda komani patogenetik variantlarini, organizmni individualligi va labarator ko'rsatkichlarini etiborga olish kerak. Ikki holatda xam insulin vena ichiga jadal  $0,1 \text{ ED/kg}$  yuborilib, keyin tczligi  $0,1 \text{ ED/kg/soatda}$  tomechilab to glikemiya miqdori  $11,1-13,9 \text{ mmol/l}$  tushguncha davom etiriladi. Eksikoza va tsirkulyator buzilishlarni organizmga vena ichiga suyuqliklar quyib bartaraf etiladi. Bir vaqtida insulin dozasini izotonik eritma bilan kuyiladi (gipotonik eritma giperosmolyar komada). Suyuqliklar  $100-150 \text{ ml/kg}$  kunlik vaznida bemorga quyiladi.

Siptomatik davo o'z ichiga kaliy preparatlari, yurak va qon tomir vositalari, namlangan kislordoni oladi.

### **Gipoglikemik koma**

- Gipoglikemiya xuruji insulin bilan davolashda yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun davolashda iloji boricha gipoglikemiya xurujini yuzaga keltirmaydigan xolda olib borish kerak bo'ladi.
- Gipoglikemiyani ko'p uchraydigan sabablarga — jismoniy zo'riqish, etarli bo'limgan ovqatlanish, uzoq davom etuvchi jismoniy xarakatni insulin miqdorini kamaytirmsandan, ovqatlinish oralig'i uzoq bo'lishi yoki to'yib ovqatlanmaslik, insulin dozasini bilmagan xolda oshirib yuborish va noto'g'ri insulin davosini o'tkazish.
- Qonda glyukoza miqdori kam xisoblanadi, agar uni miqdori ozg'in bolalarda  $2,5 \text{ mmol/l}$  yoki  $3,0 \text{ mmol/l}$ -ni tashkil qilsa.
- Kasal va uni oila a'zolari bu kasallik belgilarini erta aniqlashni bilishlari va bemorga kontsentrlangan qand miqdori ko'p bo'lgan oziq-ovqatlarni berishlari kerak. Ko'p xollarda bemorni gipoglikemiyaga xurujini  $10-20 \text{ gr}$  glyukoza berib bartaraf etish mumkin. 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda  $5 \text{ gr}$  qand berishni o'zi etarli. Uni tabletka shaklida ( $5 \text{ gr}$ ), qand, apelsin yoki olma sharbatni berib oldi olinadi.
- Agar qandli moddalarni og'iz orgali berishni iloji bo'lmasa, unda qandni glyukoza xolida  $5-10 \text{ mg/kg/minutiga}$  qondagi miqdorini kuzatgan xolda yuboriladi.

### **Buyrak kasalliklaridagi koma.**

#### **Uremik koma.**

Uremiya (giperazotemiya) — surunkali yoki o'tkir buyrak etishmovchiligidagi yuzaga kelishi mumkin. Uremik komani yuzaga kelishi birinchini navbatda qonda azotli moddalarni to'planib qolishidan va bu bilan bog'liq oshib boruvchi organizm zaxaridanishi xisobiga sodir bo'ladi. O'BE azotemiya na faqat buyrakni peshob ajralish foliyati bilan bog'liq, balki

organizmida oqsillarni katabolizimini oshishi bilan xam kechadi. Shu bilan bir qatorda qonda kaliy va magniyini miqdorini oshishi kuzatiladi.

*Uremik koma* sekin asta rivojlanib, koma oldi davri bilan boshlanadi. Bunda bosh og'rig'i, teri qichishi, og'izdi quruqlik, chanqash, ko'ngil aynash va kusish bilan kechadi. Aksariyat bolalarda burun qonashi va qon aralash ichining suyuq kelishi kuzatiladi. Chiqarayotgan havoda siyidik hidi seziladi. Es hushi sekin asta so'nib borib, talvasalar va nafasni buzilishi kuzatiladi.

*Uremik komani davolash* zaharsizlantirish, gipergidratatsiya bilan kurashishdan, elektrorlitlarni buzilishlaridan va kislotali-asosli muvozanatni me'yorlashdan iborat. Tanada shishlar va gipergidratatsiya kuzatilmaganda bemorga yuboriladigan suyuqliklar, elektrorlitlarni diurezni va yashirin suyuqlik yo'qotilishni xisobga olib belgilanadi.

Beriladigan ovqat kaloriysi maksimal bo'lishi kerak. Parenteral oziqlantirish faqat oddiy ovqatlantirishi iloji bo'limganda qo'llanadi. Parenteral oziqlantirish vena ichiga 10-15% glyukozani, markaziy venaga -30%gacha critmalarini yuborish mumkin.

Agar bola organizmidagi qon zardobida mochevina miqdori 30mmol/l, kaliy - 6,5 mmol/l dan ko'p bo'lsa u xolda gemodializ qilinadi.

### Jigar komasi.

O'tkir jigar etishmovchiligi , jigar og'ir kasalliklari va jigar nekrozida kuzatiladi. Bemordan anamnez to'plashda etiborni boshdan o'tkazgan virusli ignfektion kasalliklarga, qon kuyilganligiga, dori vositalarini dozasini oshib ketganligiga, zaxarlanishga, shok holatiga, bemor va qarindosh - urug'larda og'ir jigar kasalligi qaratiladi. Fizikal tekshiruvlarda terida sarg'ayishni ortib borishi, og'izdan jigar xidini kelishi, merovlik va koma holati movjudligin aniqlashga etibor beriladi. Reyya sindromida sarg'ayishlik kuzatilmaydi.

- Leykotsitoz va anemiya bo'lishi mumkin. Agar jishgar shikastlanish sindromi gemolitik kamqonlik bilan byuirliga kechsa, unda albatta Vilson kasalligini inkor etish kerak bo'ladi.
- Protrombin vaqtı uzaygan, zardobdagı albumin kamaygan.
- ALAT va AsAT aktivligi organ.
- Ishqorli fosfataza aktivligi oshgan yoki meyorda.
- Bog'langan va bog'lanmagan bilirubin miqdori aksariyat xolda oshgan (faqat Reya sindromidan tashqari).
- Zardobda glyukoza miqdori kam.
- Aksariyat metabolik atsidoz, kam xollarda – atsidoz kuzatiladi.
- A, V, S, D yoki E hepatit serologik testlari musbat bo'lishi mumkin. Toksikologik tekshirishlar zaxarlanganlikni aniqlashda yordam beradi.

**Davo. Maqsad** — jigar etishmovchiligini oldini olish va jigar xujayralarini tiklanishini ta'sirlash kerak.

1. Vena ichiga 10—15% glyukoza critmasi infuzi qilish tezligi buyrak funktsiyasini holatiga bog'liq bo'ladi. Zardobda glyukozani miqdorini kuzati borish kerak.
2. Vikasolni 5-10 mg/kuniga vena ichiga 3 kun moboyndida to qon ivishi me'yorga kelmaguncha yuboriladi. Qon ketganda bemorga Yangi muzlatilgan qon quyiladi.
3. Ichki endogen mikrflorani o'sishini bostirish uchun dyufalakni 1ml/kg xar 6 soatda ichishga yoki neomitsinni 50mg/kg/kun kuniga 4 ta marotaba m/o qilinadi.
4. Dorivositalarini yuborish va oshqozon-ichakdagini qon ketishni tashxislash uchun burun-oshqozon nayi qo'yiladi.
5. Gastrit yoki oshqozon yarasidagi qon ketishlarda tsemitidinni 300mg vena ichiga xar 6 soatda (12 yoshgacha bolalarda 5-10 mg/kg xar 6 soatda), oshqozon pH 5 –dan yuqori bo'lqanda yuboriladi.
6. Gipovolemiya va zardobdagı albumin miqdori 1,75 g/kg bo'lganda infuziya qilinadi. Bunda zardobdagı albumin miqdori 1 g% ortadi.

**Epileptik tutqanoq** — bu aloxida nazoligik va siptomokompleks xisoblanadi. Epilepsiya deb qayta xurujlanuvchi va o'tkir metabolik o'zgarishlarsiz va markaziy nerv a'zolarini infektsion ta'sirsiz kechadigan holatiga aytildi. Aksariyat tutqanoq sabablari — bosh chanoq va miya shikastlanishlari, tug'ruq shikastlanishi, meningit, entsefalit, boshda o'smalar, metabolik buzilishlar, miya qon-tomirlari buzilishi, dori vositalarini toksik ta'siri xisolblanadi. Epileptik tutqanoq talvasaga qarshi dori vositalarini metabolistik o'zgarishlari, yo'ldosh kasalliklar va vrach ko'rsatmalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelishi mumkin.

### Tekshirish

- Bemordagi nevrologik kasalliklar, rivojlanishni buzilishi, boshdan o'tkazgan infektsiyalar, qaytalab turuvchi bosh og'rig'lari, ertalabki qusuqlar, ko'z ko'rish foliyatini susayishini anamnezini to'plaganda aniqlash zarur.
- Tutqanoqni yuzaga kelish jarayonini to'laroq bilish, ayniqsa aura jarayonini, tutqanoq davrida ko'z va bosh xarakati, davomiyligi, talvasadan keyin kuzatiladigan holatlar (ko'z olmasini joylashuv, mushak tonlарини bo'shashganligi).
- Agar 1 soat ichida bemor o'ziga kelmasa, bu bemorda xali talvasa davom etayotganini yoki asosiy kasallik natijasida talvasadan keyin yuzaga kelgan asorat yuo'lishi mumkin.
- Epeleptik talvasani oilaviy anamnezda aniqlanadi (febril talvasadayam).


**Nevrologik tekshirishlar.** Xushi, ko'z tubini baxolanadi, o'choqli asoratlar aniqlanadi. Ko'rvtida bemorda meningial simptomlarni, travmatik shikastlanish va boshqa kasalliklarga etibor beriladi.

**Laborator va instrumental tekshiruvlar.** Laborator tekshiruvlardagi qon va miya suyuqligi taxlili, ma'lumotlari anamnez va fizikal tekshiruvlarga bog'liq bo'ladi.

- Barcha epileptik tutqanoq kuzatilgan bemorlarga EEG uyg'oq va uxlagan xolda aniqlanadi. EEG — paroksizmal zaryadlarni aniqlaydi, epiliptik tutqanoq o'chog'ini yoki o'smani topishga yordam beradi, talvasaga qarshi dori vositalarini aniqlashma va uni qachon ko'llash va to'xtatishni belgilab beradi. Ba'zida talvasa tugashi bilan qilingan EEG ma'lumotlari miyada faqat sekinlashgan fon aktivligini berishi mumkin. Agar 7-10 kundan keyin tekshirishlar o'tkazilsa EEGda yana epileptik aktivlikni kuzatishimiz mumkin.
- MRTga ko'rsatma — partsial tutqanoqlar, aniqlash qiyin bo'lgan kuchaygan talvasalar, o'choqli nevrologik belgilari. EEGdagi o'zgarishlar, miyani oq yoki kulrang muddalarini shikastlanish kasalliklari. KT — tuberoz sklerozda, tug'ma infektsion kasalliklarda, atreovenoz malformatsiyada, tsitsitserkozda bosh chanoq ichi kaltsifikatlari kuzatiladi. Agar katta epileptik tutqanoq va o'choqli absanslar davolashga moilligi yaxshi bo'lsa, nevrologik belgilari kuzatilmasa KT-ga ko'rsatma bo'lmaydi.

**Differentsial tashxislashda** - vaqtinchalik xushdan ketish, bolalardagi respirator-affektiv talvasalar, koma, narkotik muddalar talvasalari, migren, yaxshi sislatli pozitsion bosh aylanishlar, isteriyani tashxislash zarur..

### Tashxislash



**Markazlashgan talvasu xurujlari** (kata epileptik xurujlar) (rasim 1) odatda o'choqli buzilishlar va aurasiz boshlanadi. Tonik fazasi 1 minutdan kam kechadi, bu davrda aksariyat ko'zni orqaga ketishi kuzatiladi. Nafas mushaklarining tonik qisqarishi o'pka ventilyatsiyasining buzilishi va tsianozga olib keladi. Tonik fazadan keyin oyoq qo'llarning klonik titrishi kuzatiladi va bu davr 1-5 daqiqa davom etib o'pka ventilyatsiyasi yaxshilanadi. Ba'zida so'lak oqishi, taxkardiya, metabolik

va respirator atsidoz kuzatilishi mumkin. Talvasadan keyingi davr 1 soatgacha cho'zilishi mumkin.

**Partsial motor talvasalar.** Bunday paytda jarayon qo'l yoki boshdan boshlanib, bosh va ko'z talvasa o'chog'iga nisbatan qarama-qarshi tomonga ketib qoladi. Talvasaning bu turi katta epileptik tutqanoqni eslatuvchi holat bilan ham kechishi mumkin. Shuningdek partsial talvasada Todd'a postiktal falaji, ya'ni bosh va ko'zning epileptik o'choq tomonga burilishi yoki og'ishi kuzatilishi mumkin.

**Murakkab partsial talvasalar**(psixomotor yoki tepa sohasi tutqanog'i) teng yarim holatlarda suradan (emotional reaksiya, qorinda og'riq, bosh og'rig'i, og'izda yomon ta'm sezish) boshlanadi. Bunday talvasalar kata epileptik tutqanoq yoki absans klinikasini qaytarishi mumkin . Ba'zida kasallik belgilari o'ta murakkab bo'lib avtomatizm: ya'ni labini so'rib yurishi, kulish, boshini yoki yuzini g'alati mimikasi, yugurish kuzatiladi.

**Tipik absanslar** odatda 3 yoshdan boshlanadi. Huruj paytda bemorlar nigohi qotib qoladi, qovoqlari titrab boshini imlash harakatlari paydo bo'ladi. Aura va posttaktik ko'rinishlar kuzatilmaydi; tutqanovq davomiyligi 30 sekundan ko'p emas. Absanslar bir kunda ko'p marotaba kuzatilishi mumkin, bu holatni giperventilatsiya va yorug'lil xam chaqirishi kuzatiladi. EEG-da pik-to'lqinlari 3 s <sup>-1</sup> qayd qilinadi. Absansni murakab partsial tutqanoqlardan farqlash lozim, chunki oqibati va talvasaga qarshi davosi bu ikki tutqanoqda boshqa-boshqadir. 10—20% yaqqol absans kuzatilgan bolalarda katta epileptik tutqanoq yuzaga kelishi mumkin. O'smirlilik davrida aksariyat tutqanoqlar uchrashi to'xtaydi (75%), EEG me'yorlashadi.

#### Absans tutqanog'i



**Fibrill talvasalar-** odatda 6 oylikdan to 5 yoshgacha xarorat (tana xarorati 38,5 ° S) ko'tarilgan bolalarda kuzatiladi. Aksariyat bu talvasalar xarorat ko'tarilishida yoki yuqori nuqtasiga chiqqan vaqtida kuzatiladi. Bu talvasalar ko'pincha umumlashgan kloniko-tonik, tonik, atonik yoki klonik tarzida kechadi.

- 15 minutdan ortiq bo'limgan tutqanoq, agar u bir marotaba kuzatilsa, partsial komponentlari bo'lmasa va metabolik buzulishlar kuzatilmasa, MNS infektisyon shikastlanishi bo'lmasa asoratsiz deb xisoblanadi. Asoratlisiغا ko'p marotaba uchraydigan, davomiy yoki partsial febril talvasalar bilan kechadigan, EEG-da faqat qaytalanuvchi tutqanoq belgilari bo'lgan kiradi (asoratlari unchali kata bo'limgan xaroratda yoki o'choqli nevrologik belgilari kuzatilgan xollarda).
- Birinchi marotaba 18 oylik davri ichida kuzatilgan febril talvasalar yoki 3 yoshdan keyin asoratlari talvasalar, xush darajasini buzulishi, o'choqli nevrologik va meningial simptomlar kuzatilganda, bu talvasani uzoq vaqt nazorat qilishni iloji bo'limganda lyumbal punktsiya qilish va nasliy moddalar almashinuvini tekshirishlar amalga oshiriladi.
- Yuqori epilepsiya keltiruvchi belgilari:
  - Nevrologik va psixomator buzulishlar
  - Oilaviy anamnezda me'yoriy xaroratda kuzatiladigan tutqanoqlar
  - Uzoq davom etuvchi tutqanoqlar
  - Ko'plab qaytariladigan tutqanoqlar
  - partsial xarakterga ega bo'lgan tutqanoqlar
- Bu belgilarni kuzatilmasligi yoki faqat bir belgini kuzatilishi epelepsiya bo'lismagini 2%-dan oshmaydi. Agar ikki yoki ucta belgisi kuzatilsa epelepsiya kuzatilish miqdori 6-10%ni tashkil qilib, ucta xamma belgisi kuzatilgan bemorlarda tutqanoqni asorati yuzaga kelganligidan dalolat beradi (tutqanoq davomiyligi 15 minutdan ortiq, ko'plab partsial talvasalar) va epelepsiya 50% kuzatiladi.

## Shoshilinch yordam

### Talvasa davrida

- AVS yordam (agar miya va umurtqa pog'onasi shikastlanishiga shubxa bo'lmasa bemorni kuly holatda yotqizib, tiklash holati beriladi)
- Bemorni keyingi shikastlanishdan ximoya qilinadi (bemor atrofidan unga shikast etkazishi mumkin bo'lgan o'tkir jisimlar olib tashilanadi)
- Siqib turgan kiyim boshlar bo'shatiladi
- Bemorni majburan ushlab turishga xarakat qilish kerak emas
- Agar talvasa 5 minutdan ortiq kuzatilsa yoki bemorda **epeleptik status** (talvasalar ketma-ket kelsa xushi tiklanmasa) – talvasaga qarshi dori vositalari qo'llanadi (yuqorida keltirilgan). Odatda ko'pincha diazepam yoki paraldegid qo'llanadi, ularni to'g'ri ichakka yuborish mumkin:
  1. dozani tuberkulinli yoki insulinli shpritsga olib ignasi olib qo'yiladi.
  2. Shpritsni to'g'ri ichakka 4-5 sm chuqurlikda kirgazib eritma yuboriladi.
  3. Soni bir-biriga yaqin bir necha minut ushlab turish kerak
  4. Agar 10 minutdan keyin xam talvasa tugamasa diazepamni yana bir marotaba to'g'ri ichakka yoki vena ichiga yuboriladi (0,25mg/kg yoki 0,05ml/kg).
  5. Agar Yana 10 minut ichgacha talvasa tugamasa uchinchiligi marotaba diazepam yoki paraldegidni ikkinchi marotaba yuborish yoki vena ichiga fenobarbitalni birinchi marotaba 15 mg/kg yuboriladi.
- 6. 2 oygacha bolalarga fenobarbital (200mg/kg eritmada) 20mg/kg dozada yuboriladi:
  - 2 kg vaznida – boshlang'ich doza 0,2 ml, agar talvasa davom ctsa 30 minutdan keyin Yana 0,1 ml qilinadi.

- Vazni 3 kg bo'lganda boshlang'ich doza 0,3 ml, agar talvasa davom etsa 30 minutdan keyin yana **0,15 ml qilinadi**

Bemor yoshi/vazni	Diazepam To'g'richakka 10 mg/2 ml	Paraldegid To'g'richakka
2 xtaftadan to 2 oylikkacha (to 4 kilogramgacha)	<b>Doza 0,1 ml/kg</b> 0,3 ml (1,5 mg)	<b>Doza 0,1 ml/kg</b> 1,0 ml
2 oylikdan to 4 oygacha (4-6 kilogramgacha)	0,5 ml (2,5 mg)	1,6 ml
4 oylikdan to 12 oygacha (6 – 10 kilogramgacha)	1,0 ml (5 mg)	2,4 ml
1 yoshdan to 3 yoshgacha (10 – 14 kilogramgacha)	1,25 ml (6,25 mg)	4 ml
3 yoshdan to 5 yoshgacha (14 – 19 kilogramgacha)	1,5 ml (7,5 mg)	5 ml

#### Talvasadan keyin

- Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash
- Kislord ingalyatsiyasini ko'llash
- Qonda qandni miqdorini aniqlash va kerak bo'lganda glyukoza critmasini yuborish.
- Travmatik shikastlanishda yordam ko'sratish
- Yuqori xarorat kuzatilganda bemorni uy xaroratida machalkani xar 5 minutda 4 martagacha qo'llab tanasini artishni to xushi tiklanguncha qilinadi va shu oraliqda bemorga tabletkalar berilmaydi ( aspiratsiya xavfligi).
- Yuqori mushak tarangligida (yoq-qo'lni pasiv xaraktlanrilganda qarshilik ko'rsatilishi yoki engakni va oyoq-qo'lni tremori) – talvasaga qarshi dori vositalarini qo'llash (oldini holatda talvasa sodir bo'lganin etiborga olib ).
- Kerak bo'lganda transportirovkaga ko'rsatma (Bemorda talvasa birinchi martoba bo'lganda shifoxonaga trasportirovka qilish kerak bo'ladi).

#### Gospital bosqichda:

- Davolash taktikasi talvasa sababiga bog'liq. Sababini anmnez va fizikal tekshiruvlar bilan taxminan aniqlash mumkin.
- Og'ir bosh chanoq-miya shikastlanishida, bosh miya ichi bosimi oshgan yoki miya tiqilishi belgilari kuzatilsa tezlikda mannitol quyilib, KT yoki MRT qilinadi. Ba'zida neyroxirurgik operatsiya amalga oshirilishi talab etiladi.
- Xarorat ko'tarilganda, meningial simptomlar kuzatilganda lyumbal punktsiya buyuriladi va antibiotiklar qo'llanadi.
- Davomiy sopor yoki komada, metabolik buzilishlar, zaxarlanish va Reya sindromini bor yo'qligini inkor etish zarur.
- Qaysidir talvasaga qarshi dori vositasiga allergiya bo'lsa, boshqa talvasaga qarshi dori vositasi qo'llanadi.

#### Nazorat savollari:

- Xush foliyatini buzilish sabablarini sanab bering
- Xush foliyatini buzilish ikkilamchi sabablarini sanab bering
- AVPU shkalasi bo'yicha xush darajasi qanday baxolanadi?
- Glazgo shkalasi bo'yicha xush darajasi qanday baxolanadi?
- Glazgo shkalasi bo'yicha olingen ma'lumotlar qanday taxlil qilinadi?
- Xush darajasi buzilgan bolalardan yo'naltirilgan anamnezda qanday savollar beriladi?

- Bemorni fizikal tekshirishda xush darajasi buzilganlikka xos qanday belgilarni kuzatish mumkin?
- Xush darajasi buzilgan bolalarni tekshirishda qaysi standart va maxsus labarator, instrumental tekshirishlar o'tkaziladi?
- 2- oylikdan katta bolalarda xush darajasi buzilganda qaysi kasalliklar bilan diferentsial qiyoslash kerak?
10. 2- oylikdan kichik bolalarda xush darajasi buzilganda qaysi kasalliklar bilan diferentsial qiyoslash kerak?
11. Xush darajasi buzilgan bemorlarda ketma-ket amalga oshiriladigan tadbirlarni yoritib bering
12. Bosh miya ichi bosimi oshish belgilarini sanab bering
13. Bosh miya ichi bosimi kamayishi belgilarini yoritib bering
14. Talvasani to'rtta fazasini yoritib Bering
15. Talvasa statusiga aniqlik kritib bering
16. Talvasa tutqanog'i vaqtida kilinadigan tadbirni ketma-ketligini yoritib bering
17. Talvasa tutqanog'idan keyingi davrda kilinadigan tadbirni ketma-ketligini yoritib bering
18. Bolalarda talvasaga qarish qaysi dori vositalari qanday dozalarda qo'llanadi?

## **UTKIR ZAXARLANISHLAR**

### **Bojalarda dori peredozirovkasi va o'tkir zaharlanishlarda, shifoxonagacha bulgan boskichda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.**

Har yili 6 mln ga yaqin bola dori moddalar ta'siriga uchraydi. 5 yoshdan kichik bolalarda bu holatlarning 80% ro'yxtatga olingen. Ko'p zaharlanishlari oqibati yaxshi bo'lib, o'mim ko'rsatkichi past va asorlatan kam. 5 yoshdan kichik bolalarda zaharlanishlarning asosiy sababi o'simliklar, maishiy kimyoiyi moddalar, kosmetik moddalar, retseptsiz dorivor moddalardir. Kichik yoshdagagi bolalarda zaharlanishni qandaydir bitta modda keltirib chiqarsa, o'smirlarda esa bir vaqtda bir nechta keltirib chiqaradi (giyohvandlik, o'zini o'dirishga harakat qilish va boshqalar). Zaharlanishlarni tashhislash qiyin bo'lib, o'ta ehtiyojkorlikni talab qiladi. Zararlanganlar va boshdan kechirganlardan olingen ma'lumotlar ko'pincha ishonchli emas. Preparatlarning nomini, miqdorini va qabul qilgan vaqtini qarindoshlari, do'stlari, vrach va sotuvchilardan surishtirib bilish mumkin.

**Zahar deb, har qanday moddani tana yuzasi bilan kontaktda bo'lishiда yoki organizmga kirishi natijasida odam hayotiga, sog'ligiga xavf soluvchi holatga aytildi. Bu moddalarning bir necha turlari mavjud: o'simliklar, maxsulotlar, gazlar, kimyoiyi yoki farmakologik moddalar. Zaharlanishlar favqulodda ro'y berib, asosan bolalarda oldindan o'ylab qilinmaydi. O'smirlar ko'proq suitsid holatlarga toksik moddalar bilan zaharlanish ta'sirida qo'l uradilar. Ammo zaharlanishlar har qanday yoshda uchrashi mumkin. Asosan 8 va undan katta yoshdagagi bolalar zaharlanadilar. Kichik yoshdagagi bolalarda ko'proq maishiy tozalovchi vositalardan zaharlanishlar va dori vositalarini bolalar uchun qulay joyga qo'yish natijasida uchraydi. Iloji boricha dorining idishini topish zarur. Bunday zaharlanishlarni oldini olish uchun toksik moddalarini bolalar qo'li etmaydigan joyda saqlash va bolalar bilmaydigan idishga solmaslik kerak. Dorining nomini, miqdorini va qabul qilgan vaqtini qarindoshlari, do'stlari, vrach va sotuvchilardan surishtirib bilish mumkin. Imkonli boricha dorining idishimi topish kerak.**

Zaharning og'riq qoldiruvchi ta'siri bevosita ta'sirlovchi yoki moddaning emiruvchi effekti yoki zaharning ta'siri natijasidan keyin organizmga so'riliши asoslangan bo'lishi mumkin. Biror moddaning organizmga ta'siri isbotlanguncha, potentsial toksik modda bilan zaharlanish taxmin qilib turiladi. Ko'pincha toksik ta'sirlar faqat quvvatlantiruvchi terapiyaniga va moddaning so'riliши kamaytiruvchi tadbirlarini talab qiladi.

Bolalarga zaharni ta'siri, toksinni turi, uning tushishi vaqtidan ShTBYo (EMPP) belgilangan vaqtgacha, organizmga tushish yo'li va usuli, ekspozitsiyasi, moddaning kuchi va miqdori, bemorning vazni, yoshi va umumiy ahvولiga qarab aniqlanadi.

Zaharlanishga sabab bo'lgan moddani aniqlash uchun ko'p hollarda to'liq anamnez yig'ish kitoya:

1. Zaharlanish sababini (bunda qadog'i yordam berishi mumkin), moddaning soni baholanadi, organizmga tushishi (3 yosh bola xalqumining hajmi taxminan 5 ml, 10 yosha-10 ml, o'smirlarda 15 ml) vaqt, zaharlanishgacha bo'lgan vaqt va bolaning holatini aniqlashtiriladi.
2. Fizikal tekshirishda ko'pincha toksik moddani aniqlashga imkon beruvchi qo'shimcha belgilari topiladi.
3. Zaharlanishning sababini tasdiqlash uchun toksik moddani qonda va siyidkagi miqdorini sinchkovlik bilan tekshirish lozim. Imkonli boricha zaharovchi moddaning qondagi miqdori o'lchanadi. Oshqozondagi massalarni tahlil qilish zaharlanishdan keyin 2-3 soat ichida o'tkazilsa ma'lumot olib bo'lmaydi.

#### **Gospitalizatsiya bosqichigacha yordam ko'sratishning asosiy qoidalar quydagicha:**

- hodisa joyida birlamchi zveno vrachini xavfsizligini ta'minlash va baholash.
- bolalarni zaharlanish manbaidan uzoqlashtirish.
- nafas yo'llari o'tkazuvchanligini baholash va stabillash.
- adekvat nafasni ta'minlash.
- adekvat qon aylanishini baholash va ushlab turish.
- bolalarga ta'sir qilgan toksik moddani aniqlashni osonlashtirish mumkin bo'lgan qandaydir kimyoviy dalillarni yig'ish.
- ta'sir qilishda davom etayotgan zaharni kamaytirish maqsadida bola va atrof muhitni zararsizlantirish.

#### **Patofiziologiyasi**

Zahar organizmga har xil yo'llar bilan ta'sir qiladi. Bolalar 4 xil yo'l bilan toksik ta'sirga uchrashlari mumkin:

1. peroral
2. rezorbтив
3. ingalyatsion
4. in'ektsion

#### **Baholash.**

##### **Hodisa joyini baholash**

Birinchi navbatda EMPP vrachi atrofdagi sharoitni baholashi kerak. Ingalyatsion yoki rezorbтив zaharlanish holatlarda EMPP vrachi hodisa joyida zaharovchi modda yoki xavfli material bor yoki yo'qligini aniqlashi kerak. EMPP vrachi uchun xavfli maydonga kelganda xavfsizlik birinchi darajali masala bo'lib hisoblanadi.

EMPP vrachi hodisa joyining xavfsizligiga ishonch hosil qilgandan keyin himoyalangan holda birinchi navbatda bemorni nafas yo'llarini o'tkazuvchanligini, adekvat nafas va qon aylanishni aniqlashi kerak. Keyin hush darajasini aniqlash va nafas yo'llari mustaqil o'tkazuvchanligini ushlab turishi kerak.

Agar Glazgo shkalasi bo'yicha hush darajasini baholashda 8 balldan kam bo'lsa, traxeyani intubatsiya qilish uchun zaruriyat tug'ilishi mumkin. Agar EMPP vrachi toksikologik markaz bilan konsultatsiyalashishini hohlasa, u holda undan bo'lib o'tgan hodisa haqida ko'proq ma'lumot olishi kerak. Shuningdek EMPP vrachi bolaga ta'sir qilgan moddaning SO<sub>2</sub> ni mumkin qadar aniqlashga harakat qilib ko'rishi kerak. Hushdan ketganda yoki qusganda tabletkalari yoki boshqa dorivor moddalar (o'simlik moddalari) xonada yoki bola atrosida sochilib yotgan bo'lishi mumkin. Bolalar suyuq moddani ichayotganda to'kib yuborishlari mumkin. Bunda polda bemor atrosida katta ko'lmak mavjud bo'lsa, qutqaruvchi shaxs zaharovchi moddaning ko'p qismi organizmga tushmasdan polga tushganligi haqida fikr yuritishi kerak.

Zaharlovchi moddani aniqlash va bemorga terapiya rejasini tuzish uchun zaharlanish joyida har qanday moddani yig'ish va xavfsiz sharoitlarda shifoxonaga moddani bola bilan birga olib borish kerak. Transportirovka uchun har qanday potentsial xavfini yoki zaharlangan predmetni germetik konteynerga joylashtirish zarur. Bemor atrofidan topilgan butulkalar, poroshok yoki tabletkalar zaharlanish holatini topishga yordam berishi mumkin. Vrach hodisa joyidagi hidga, qusuv moddalarning rangiga yoki bola atrofidagi qandaydir moddalarga ahamiyat berishi kerak.

#### Anamnez.

Bola yoki uning oila a'zolaridan ma'lumot yig'ish agar ular hodisa joyida ishtirok etган bo'lsalar juda muhimdir.

Birinchi navbatda simptom va belgilarga tegishli ma'lumotlarni yig'ish kerak. Agar bolada quisish aniq bo'lsa uning soni va xarakteri bolaga tashhis qo'yishda asosiy omillardan bo'lishi mumkin. Qusish qoridan og'riq yoki ich ketishi bilan birliglikda uchrashi mumkin. Shuningdek MNS ni zararlanish simptomlari, hushning yo'qolishi, qo'zg'aluvchanlik, bosh og'rig'i, uyquchanlik, tutqanoq va shu bilan birgalikda ularning davomiyligini oshkor qilish zarur. Nafas sonining ortishi yoki kamayishi, qon tuflash, hansirash, stridor, tsianoz, yo'tal yoki xirillashlar aniqlanishi mumkin.

Bolalarda ko'krakda og'riq yoki yurak tez urishi kabi kardiologik belgililar haqida so'rab surishtirish kerak. Ba'zi zaharlar kechiktirilgan ta'sirga ega, shuning uchun birlamchi baholash o'tkazilganda EMPP vrachi va atrosgalar uchun bola normal ko'rinishi mumkin. Shuning uchun bolaning ahvoli yomonlashishini hisobga olgan holda ko'pgina zaharlarga shubha qilish mumkin. Bola qabul qilgan nisbiy dori moddalar shuningdek yoki qandaydir dorivor moddalar allergik reaksiyalar bermasligi haqida so'rab-surishtirish va anamnez yig'ish zarur. Zaharli moddalar bolalarga yuqorida ko'rsatilgan har qanday sharoitlarda ta'sir qilishi mumkin. EMPP vrachi bolaga ipekkaku siropi buyurilganini aniqlashi kerak, chunki uni qabul qilganda kuchli qayt qilish kuzatilishi mumkin. Shuningdek bolaga ta'sir qilgan toksik moddaning turini va miqdorini aniqlash muhimdir. Bola o'tkazgan kasalliklari haqida erta ma'lumot yig'ish muhim hisoblanib, bu aniqlangan kasallik zaharlanish bilan birga bolaning holatiga ta'sir qilishi mumkin.

Anamnezda oxirgi marta ovqatlangan vaqt va zahar qabul qilish vaqtini yana bir hayotiy muhim omillardandir. Zaharlovchi modda absorbatsiyasida organizmdan umumiy qon oqimidan topilishi muhimdir. Bu ma'lumotlar bolaga yordam ko'rsatish taktikasini tanlashda foydali ma'lumotlar berishi mumkin: oshqozonni yoki antidotlarni qo'llash. Agar bemor anamnezida moddani qabul qilgandan keyin quisish aniqlangan bo'lsa, EMPP vrachi quisiq massalarini xarakterini va sonini aniqlashga harakat qilib ko'rishi kerak. Agar quisiq massalar bo'lsa, qo'shimcha ma'lumot sifatida bola bilan birga tibbiyot muassasasiga ularni yig'ish va jo'natish kerak. Zaharlanish sababini aniqlashda zaharlanishlar ro'y bergandagi sharoitlar haqida ma'lumotlar foydalidir.

#### Fizikal tekshiruvlar.

Nafas yo'llari o'tkazuvchanligi, nafas, qon aylanishi. Har qanday bemorga yordam ko'rsatishda hodisa joyini xavfsizligini aniqlangandan keyin birinchi navbatda nafas yo'llari o'tkazuvchanligini, nafas va qon aylanishini baholash hamda stabillash kerak. EMPP vrachi yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni bajarayotganda chalg'ishga yo'l qo'ymasligi kerak. EMPP vrachi jabrlanuvchi nafas olayotganligini bilgan zahoti 60 sekund ichida nafas xarakatlar chastotasini sanash va ishonch xosil kilish kerak. Pulsmi elka yoki uyqu arteriyasida 1 minutidagi urishlar soni bilan kon aylanishiga baxo beriladi. Shunga kushimcha tezda arterial bosim ulchanadi. Tana harorati ham haetiy belgilarga kiradi.

#### Markaziy nerv sistemasi.

Nevrologik tekshirishning asosiy aspekti nafas yo'llarini himoya mexanizmni qusish refleksi hisoblanadi. Bola hushida bo'lganda, gapirganda va ba'zilarda so'lak ajralmaganda nafas yo'llari o'tkazuvchanligini mustaqil ushlab turish mumkin. Hushii buzilgan bolalarda qusish refleksi til ildizi bilan va xalqunning orqa devoriga shpatel bilan bosib chaqirladi. Bu odadta qusishga olib keladi. Ba'zan qusish refleksi normal sharoitlarda ba'zi bolalarda bo'lmaydi, bunda EMPP vrachi klinik ko'ruv bilan bolaning tekshiruv ma'lumotlarini solishtiradi. Bolalarda qusish refleksining yo'qligida aspiratsiyalar yuqori xavf hisoblanadi va shuning uchun ularda katta e'tibor talab qilinadi. Yuqoridagi aytilganlarga qo'shimcha ravishda gospitalizatsiyalashgacha bo'lgan davrda aktivlangan ko'mir ichmaslik kerak, chunki qusish yoki aktivlashgan ko'mir aspiratsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Nevrologik baholashda bolaning birlamchi statusini aniqlash va yordam ko'satish davrida takrorlab turish kerak. Hush darajasini 4 kategoriyasi tavsiflenadi. Bola hushini saqlagan, verbal stimulyatsiyaga javob beradi, og'riq stimulyatsiyaga javob beradi, hushsiz bolalar.

### **Yurak qon-tomir sistemasi**

Nostabil gemodinamik qandaydir belgilarni aniqlashda predmetlarni, bola holatini baholashni o'tkazish mumkin. Anomaliyalu puls yoki arterial bosim ko'satkichlari bolaning ahvolini keyinchalik yomonlashuvini ko'rsatadi.

**Teri.** EMPP vrachi toksik moddalar bilan bevosita kontaktdan zaharlangan bolalar bilan ishlaganda birinchi navbatda teri yuzasida toksik moddalar bor yoki yo'qligini aniqlash kerak. Zahar bilan ifloslangan kiyimlarni bola ustidan echib tashlash kerak. Terida qavarchiqlar, qizarishlar, deskvamatsiya yoki boshqa patologik belgilarni tashlash kerak. Ko'p tarqalgan moddalar shulardan barbituratlar va is gazi teridagi bullyoz zararlanishni sababi bo'lishi mumkin. Teridagi tsianoz zaharli moddalardan nafas olganda yoki yutinganda to'qimaga kislorod etib bormasligidan yuzaga keladi. Bolalarda is gazididan zaharlanishda teri qatlamlari va shilliq qavatlar intensiv qizaradi.

**Ko'z.** EMPP vrachi asosiy e'tiborni ko'z yoshi ajralishiga va ko'zni qizarishiga qaratishi kerak. Keyin ko'rishni buzilish darajalarini aniqlash:

bola ko'rayaptimi?

Bola bir ko'zi yoki ikki ko'zi bilan ko'rayaptimi?

Bolada normal ko'rish o'tkirligi qanday?

Progressirlashgan ko'rish o'tkirligini pasayish darajasini farqlash uchun quyida 4 kategoriya keltirilgan:

1. Ko'rishning yo'qolishi.
2. Korong'ilik va yorug'likni ajrata olish.
3. 1 metr masofadan barmoqlarni sanay olish.
4. ish hujjalardagi mayda shriftlarni yoki venna ichiga qo'yish uchun sistemalarni upakovkasidagi yozuvlarni o'qiy olish.

### **Nafas sistemasi.**

Patologik nafas shovqinlari masofadan yoki auskulatsiyada eshitiladi. Yuqori nafas yo'llari yet jism obstruktsiyasi va shilliq qavatlari shishganda: stridor nafasda ovoz shovqinli bo'ladi, bular shishda, shilliq ko'p ishlab chiqarganda, nafas yo'llari atrofidagi mushaklar spazmida kelib chiqadi.

#### **Asosan:**

Tez baholash o'tkazishda boshdan oyoqqacha terisiga asoslangan holda hamma belgilarni yiqilib tushishi yoki kollaps yoki suitsid holatlarini oldindi holatlarini aniqlash mumkin. EMPP vrachi boladan yoki hodisa joyidan kelayotgan har qanday hidga ahamiyat berishi kerak.

Perioral zaharlanish. Perioral zaharlanish holatlarida toksik modda og'iz orqali tushadi. Toksin yutgandan keyin oshqozon-ichak traktini pastki qismida so'riliishi yoki og'iz bo'shligi orqali tushishi mumkin. Korroziyali toksik modda yutilganda faqat shilliq qavatlar emas chuqurroq to'qimalarni zararlanishidir. Zararlanish darajasi yutilgan toksik moddani

miqdori, kontsentratsiyasi, toksik modda bilan kontaktda bo'lgan yuzasi va davomiyligiga bog'liq va aksincha. Korroziya ta'sirli moddalar masalan, bemor ishqor yutganda og'riq reaksiyasi chaqirilmasligi mumkin, lekin shu bilan birga og'iz, qizilo'ngachda shulliq qavatlarini spazmini yallig'lantiradi, qizilo'ngachda perforatsiyaga xavf yuqori bo'ladi. EMPP vrachi bunda shoshilinch holatlarga tayyor bo'lishi kerak. Nafas yo'llarida shish rivojlanishi mumkin. Organizmga tushgan toksinining ko'p qismi yo'g'on ichakda so'rildi. Shuning uchun oshqozondan toksinni chiqarish 12 barmoqli ichakka tushguncha organizmga tushgan zaharni chiqarish kerak. Bunday holatlarda ko'pincha oshqozonni yuviladi va aktivlangan ko'mir beriladi. Oshqozonni yuvishga ko'rsatma. Agar ipekakuanani 2 marta ichganda ham quisish kuzatilmasa zond uzun bo'lishi kerak (28-36 F). Hushning buzilishi yo'tal refleksining pasayishi, intubatsiyasiga qiyosiy ko'rsatma bo'ladi. Oshqozonni iliq fiziologik eritma bilan (200 ml) toki toza suv chiqquncha yuviladi. Oshqozon yuvilgandan so'ng aktivlangan ko'mir va stabil magniy tsitrat eritmasi 4 ml/kg (300 ml dan ko'p bo'lmasligi), sorbitol 1-2 g/kg (150 g dan ko'p emas), magniy sulfat yoki natriy sulfat 25-30 g. Buyrak etishmovchiligidagi magniy tuzlari berilmaydi. Bolalar korroziyalı vositalar, neft maxsulotlari bilan zaharlanganlarda quisish kuzatilmaydi. So'rildigan moddalarini chiqarib tashlash. Maxsus bo'limda forsirlangan diurez, gemodaliz, gemasorbtсиya qilinadi. Forsirlangan diurez kislota-ishqor va elektritolitlar buzilishi miya va o'pka shishini chaqiradi. Faqat maxsus ko'rsatma bo'lгandagina qilinishi mumkin. Buyrak etishmovchiligi, yurak etishmovchiligi, elektritolitlar balansining buzilishi forsirlangan diurezga qarshi ko'rsatma hisoblanadi. Bunday vaqtida jabrlangan shaxsdan aniq anamnez yig'iladi. Bunga kiradi:

- qanday modda yutilgan?
- Bu qachon sodir bo'lgan?
- Qancha miqdorda modda yutgan?
- Doza va zaharlanish kuchi?
- Toksil moddalarini yutish (tushishi) qancha vaqt davom etgan?
- EMPP vrachi kelgunga qadar qanday chora tadbirlar qilingan?
- Bolaning og'irligi.
- Bu holat ota-onasi tomondan oldindan uyuşhtirilib bolaga zarar keltirish uchun qilinganmi?
- Oxirgi marta qabul qilgan ovqati va suyuqligi, shuningdek tibbiy dori vositalari?
- Yutilgan zararli moddalar bilan birga biror narsa bo'lganmi?

Agar qaysi modda zaharlanish chaqirganligi aniqlansa, zaharlanish markazi bilan bog'lanib, shu zaharga qarshi antidot borligini va bor bo'lsa uni qanday qo'lash kerakligini aniqlash kerak. EMPP vrachi anamnez yig'ish bilan birga har qanday belgi va simptomlari va quyidagilarni aniqlashi kerak:

- Hush buzilish darajalari.
- Nafas yo'llari o'tkazuvchanligi, nafas va qon aylanishi.
- Bolaning umumiy ko'rinishi.
- Ko'ngil aynish.
- Quisish.
- Ich ketish.
- Qorinda og'riq.
- Og'iz atrofida kimyoiy kuyish.
- Nafas chiqarganda keladigan hid.

#### **Shoshilinch yordam.**

EMPP vrachi quyidagi etaplarini bajarishi lozim:

- Nafas olish o'tkazuvchanligini ta'minlash.
- Bola og'zidagi tabletkalar, fragmentlar bo'lsa olib tashlash, bunda o'z xavfsizligini ta'minlash uchun qo'lqop kiyiladi.

- Bosh xodim konsultatsiyasi bilan aktivlangan ko'mir yoki ipekakuana siropi ba'zi holatlarda beriladi
  - Bola xushsiz bo'lganda chap yonboshga yotqizib, boshi orqaga tashlangan holatda bo'lishi kerak, quishish natijasidagi aspiratsiyani oldini olish uchun.
  - Har qanday fakt yig'ilishi kerak. Bola tomonidan yutilgan zaharli moddalar identifikasiya qilish uchun.
  - Keyingi yordam ko'rsatish va tckshirish uchun bolani tibbiy muassasaga transportirovka qilinadi.
  - Bemorni qayta baholash davom ettiriladi.
  - Zaharlanish markazi bilan bog'lanishi kerak.
  - Talvasaga qarshi dorilar vena ichiga yuboriladi Quyidagilar tanlanadi:
- Benzadiazepaminlar (diazepam, nazepam), feniton yoki fenobarbital. Paraldegid qo'llash mumkin. Ba'zi toksik moddalarni antidotlari masalan: izoniaziddan zaharlanganda pridoksin yuboriladi.
- Uzoq vaqt davom etgan komada davolash muhimdir.

Buyraklar. Buyrak etishmochiligi. Ko'pincha etilenglikol va NPS dan zaharlanganda kuzatiladi. Buyrak funktsiyasi monitoringi muhim ahaniyatiga ega, ba'zan gemodializ qilinadi. Toksik moddalarni hazrn traktiga so'riliшини oldini olish. Toksik moddalar ko'zga va teriga tushganda ko'p miqdorda oqib turgan suvda yuviladi. Nafas yo'llariga zaharli modda tushganda toza havoda nafas oldiriladi. Oshqozon-ichak traktiga tushgan bo'lsa, so'riliшини oldini olish uchun oxirgi vaqtida quyidagi 3 ta yo'l qo'llanilmoqda:

- Oshqozon massalarini chiqarib tashlash.
- Adsorbirlovchi moddalar odatda aktivlangan ko'mir va kuchsizlantiruvchilar yuborish.
- Axlat bilan toksik moddalarini chiqib ketishini tezlashtirish.

Bu usulni matjaviyligi zaharlanishdan 1 soat o'tgach pasayadi. Bunday holatda boshqa usul qo'llanadi. Qusish chaqiruvchi moddalar. Ipekakuana siropi yagona quishish chaqiruvchi modda bo'lib oshqozonni bo'shatish uchun qo'llaniladi. Ipekakuana siropi 0,14% ipekakuana alkaloidini o'zida saqlaydi. Quishni stimulyatsiya qilish uchun qo'llaniladi. 6 oygacha bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin emas. 6 oydan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga 5-10 ml ni 10-20 ml/kg bilan beriladi. Agar ta'siri bo'lmasa 20 minutdan keyin qaytariladi. 1-12 yosh bolalarda 15 ml preparatni 100-200 ml hajmdagi suv bilan qabul qilish. Ta'siri bo'limganda 20 minutdan keyin qaytariladi. Ipekakuana siropini bola xushsiz bo'lganda xush darajasi pasayganda korroziya ta'siri kislota va ishqorlar bilan zaharlanishlarda, neft maxsulotlari bilan zaharlanishlarda yoki moddani yutgandan keyin 1 soat o'tgach bolaga buyurilmaydi. Ipekuana faqat xushida bo'lgan bolalalarga beriladi. Ipekakuuanani ichish mumkin emas. Bu oshqozon massalarini ichakka o'tishini tezlashtiradi. Qarshi ko'rsatmalar. Xushning buzilishi, quishish reflesining yo'qligi, kislota va ishqorlar bilan zaharlanish, tutqanoqlar yoki tutqanoq chaqirishi mumkin bo'lgan moddalar bilan zaharlanish, quishish qarshi ko'rsatma bo'lgan kasalliklar, noma'lum modda bilan zaharlanishlar. Nojo'ya ta'siri: diareya, uyquchanlik, yo'tal, bo'g'ilish, depressiya va hazm qilishning buzilishi kiradi. Ipekakuana siropi EMPP vrachining to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmasiga qarab berilishi kerak.

#### **Qustiruvchi moddalar:**

**Ipekakuana siropi oshqozonni bo'shatish uchun qo'llaniladigan yagona qustiruvchi modda:**

1.Ipekakuana siropi-agar zaharlovchi moddani qabul qilinganiga kam vaqt bo'lganda oshqozon massalarini chiqaruvchi vosita 85% bemorlarda 1 dozani qabul qilgandan keyin 15-20 minutda 2 dozani qabul qilganda 96% bemorlarda 15-20 minutdan keyin qusadi. Agar ipekakuana zharlanishning 1 soatlarida qo'llanilsa toksik moddalarning 30-40% chiqariladi. Ipekuana siropi

retsept talab qilmaydi va uzoq vaqt saqlanadi. Shuning uchun uni uy aptechkasida saqlash mumkin. Odatiy dozalarda xavfsiz hisoblanadi.

2. 6 oydan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda 10 ml suv bilan ichiriladi. Preparat vrach nazorati ostida beriladi.

3. 1 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda 15 ml suv bilan ichiriladi. Agar 20 minutda quish bo'lmasa qayta qabul qilinadi.

4. 10 yoshdan kattalarda 30 ml suv bilan ichiriladi. Agar quish bo'lmasa 20 minutdan so'ng qaytariladi.

5. ipekakuana siropiga qarshi ko'rsatma ishqor va kislotalar, uglevodorodlar bilan zaharlanish, shuningdek koma va epileptik tutqanoqlar hisoblanadi. Nisbiy qarshi ko'rsatma komani tez chaqiradigan moddalar bilan zaharlanish.

### Aktivlangan ko'mir.

Adsorbtsiyalovchi modda aktivlangan ko'mir ta'msiz, hidsiz qora rangli ko'mir bo'lib o'tinning yonish maxsulotidir. U turg'un moddalar bilan bog' hosil qilib ularning so'rili shiga to'sqinlik qiladi. Aktivlangan ko'mirning kichik zarralari katta yuza hosil qilib ta'sir qilinadi. Aktivlangan ko'mir metall, spirt, uglevodorod, ishqor va kislotalar bilan zaharlanishda ta'sir qilmaydi; ipekakuana siropini qabul qilishdan oldin berilmaydi. 1 g/kg ichishga beriladi. Preparat 250 ml yoki suyuq surgi vositalar bilan eritiladi. Aktivlangan ko'mir quishcha qarilgandan keyin beriladi yoki oshqozonni yuvgandan keyin zond orqali beriladi. "Universal antidot" (aktivlangan ko'mir magniy gidroksid va qotiradigan kislotalar aralashmasi) u faqatgina effektsiz bo'lishi bilan uning dozasi 1 kg/kg dir. Yutilgan moddaning massasidan 5-10 marta ortiq massada beriladi. Maxsus holatlarda aktivlangan ko'mirni 1 yoshda bo'lgan bolalarga har 4-6 soatda, 1-12 yosh bolalarga har 2 soatda qayta berish mumkin. Agar bolada aktivlangan ko'mir berilganda so'ng tezda quish kuzatilmasa u yana beriladi. Ipekakuana siropi berilgan bo'lsa quish to'xtagandan so'ng aktivlangan ko'mir beriladi. Aktivlangan ko'mir 50-100 g suv yoki sorbitolga aralashtirilib, gospitalizatsiyagacha bo'lgan vaqtda qo'llanilishi mumkin. Aktivlangan ko'mir ipekakuana siropi bilan birga va gastroskopiyada qo'llanilmaydi. Qayta sorbitol va surgi moddalar berilganda qo'llanilmaydi.

**Oshqozonni yuvish.** Ipekakuana siropidek natija bermaydi. Bolaning qabul bo'limiga yotqizilguncha quishish moddalar berilmagan bo'lsa oshqozon yuviladi. Usulning afzalligi zond orqali aktivlangan ko'mir, surgi moddalarini zond orqali tez yuborish mumkinligi. Zond qo'yishdan oldin traxeya intubatsiya qilinadi. Jihozlar:

1. 18-40F (6-13 mm) diametqli zondlar, 120 ml hajmdagi maxsus shprits.
2. bolani chap yonbosh bilan yotqiziladi, ko'krak yoshidagi bolalar yo'rgaklanadi.
Ja'mi maksimal ball — 30. Umumiyl ballning 24dan pastligi delireya yoki dementsiya hakida ma'lumot beradi: bunda umumiyl ballning 18-23gacha bo'lishi engil yoki o'rtacha	

og'ir buzilishdan darak beradi. 17 balldan past bo'lsa og'ir buzilishdir

\* Agar 1-marta bemor uchchala predmetni sanab bera olmasa, qayta olti martagacha aytadi. Bu kechki ilg'ab olishni tekshirish uchun juda muhimdir.

Suitsidal va tajovuzkor bemorlarga yordam ko'rsatish paytida ko'p muammolar yuzaga keladi. Shuning uchun quyidagi baholash va yordam ko'rsatish tamoyillariga amal qilish lozim:

### **Suitsidal bemorlarni baholash tamoyillari**

- 1 Shikastlanishlar va somatik holatlар suitsid urinishi bilan bog'liq bo'lsa ustunlik shu tarafda bo'ladi
- 2 Bemorni diqqat bilan eshitish
- 3 Bemorni shikoyati va hissiyotini qabul qilish
- 4 Bemor uchun ahamiyatli bo'lgan biror bir narsa qilish
  - 5 Qo'rqinch va o'ta chтиyotkorsizlikga diqqatingizni qaratmang
  - 6 Suitsiddan tez bosh tortishiga ishonmang
  - 7 Suitsid bo'lganligini inkor etishga shoshilmang
- 8 Bemor boshlagan narsasini davom ettirishiga hech qachon ruxsat bermang

### **Tajovuzkor bemorlarni baholash tamoyillari**

- 1 Bemorda kuch ishlatish, taxtid solish, tajovuzkorlik va urushish kayfiyati bor-yo'qligini aniqlash
- 2 Bo'lishi mumkin bo'lgan tajovuzkorlikga bemorning hatti harakatini baholash
- 3 Tajovuzkorlikga shubha qiluvchi bemorni nutqini baholash
- 4 Jismoniy faoliyat va harakatlarni nazorat qilish
- 5 Bemor uchun tushunarli va qattiyatli bo'lish
- 6 Agar zarurat bo'lsa bemorni majburiy ushlashga tayyor turish

### **Suitsidal bemorlarga yordam berish tamoyillari**

- 1 Agar bunga shubha bo'lsa bemorga uning hatti harakatlari to'g'risida savol berish
  - Bemorda o'z joniga qasd qilish yoki shikast etkazishi mumkinligiga hohish bortligini aniqlash
  - Bemorda o'zini o'ldirishi bo'yicha aniq rejasini bormi?
- 2 Agar biror rejasini bo'lsa shoshilinch aralashuv. Bemorga malakali yordam ko'rsatmasdan tashlab ketmang
  - 1 Agar o'zini o'ldirishga urinish sodir bo'lsa:
    - Voqeja joyini xavfsizligini va o'zining xavfsizligini ta'minlash
    - Birlamchi AVS
  - 2 Bunday bemorlarda ikkita shoshilinch holat mavjud bo'ladi
    - Jarohat
    - Bemorning ruxiy holati
  - 3 Sizning xavfsizligingiz birinchi o'rinda
  - 4 Shikastlanish va somatik shoshilinch holat ustun turadi
  - 5 Bemorni tinchlantirish va uni yolg'iz qoldirmaslik
  - 6 Zarurat bo'lsa o'zining, bemorniga atrofdagilarning xavfsizligini ta'minlash, bemorni majburiy bog'lash chora tadbirlarini qo'llash
  - 7 Bemorni maxsus shifoxonaga tibbiy xodim nazoratida olib borish

### **Ruxiy shoshilinch holatlari**

O'tkir psixoz o'z ichiga fikirlash va idrok qilish qobiliyati buzilishi bo'lgan bir guruh holatlarni oladi.

Bemorlarda alahsirash, galyutsinatsiyalar, xulq atvorining qo'pol buzilishlari kuzatiladi. Bemor tajovuzkor bo'lib, o'zini o'ldirish fikri ustun turadi.

### Etiologiyasi

Endogen psixozlar: shizofreniya, paranoyya. Bosh miya shikaslanishi kuzatilmaydi. Organik psixozlar metabolik buzilishlarda infektsiyalar, yomon sifatlari o'smalar, yurak qon tomir kasalliklari, shikastlanishlar va zaharlanishlarda uchraydi

### Diagnostika

Birinchi navbatda organik shikastlanishni inkor qilish kerak. Ushbu holatga shubha qilinadi:

- 1 Es- hushi yomonlashsa
- 2 Ko'rav galyutsinatsiyalarda
- 3 Oilada endogen psixoz bo'lmasa

Albatta ruxshunos maslahati zarur

### Shoshilinch yordam

1) Gospitalizatsiyaga ko'rsatma:

- 1 Bemor tajovuzkor yoki o'zini o'ldirish fikri bilan band bo'lsa
- 2 Es- hushi yomonlashib uy sharoitida parvarishning iloji bo'lmasa
- 3 Oila a'zolari zarur parvarishni ta'minlash imkoniyatida bo'lmasa
- 4 Noma'lum sababli psixozlar

Medikamentoz davo. Agar tajovuzkorlik, qo'zg'alish kuchayib boshqa usullar samara bermasa shoshilinch

medikamentoz davo boshlanadi.Neyroleptiklarni boshlashdan oldin atropinli psixoz holatini inkor qilish zarur

O'z joniga qasd qilish. Qizlarda ushbu holat ko'proq uchrab, ug'il bolalarda o'lim ko'p kuzatiladi

Eng ko'p tarqalgan sabablari maktabdagagi qiyinchilik, oiladagi janjal, tushkunlik holati do'stlari bilan arazlashish,tasodifiy homiladorlik.

**Tekshirish.** Har qanday o'zini o'ldirishga bo'lgan harakati ostida jiddiy kelishmovchilik yotadi. Quyidagi holatlarda o'zini o'ldirish harakati chtimoli yuqori:

- 1 Og'ir tushkunlik,o'zini aybdor his qilish, umidsizlik, vegetativ buzilishlar
- 2 Avvallari reja qilingan o'zini o'ldirish harakati
- 3 Oldin o'zini o'ldirishga harakat bo'lgan, lekin sababi bartaraf etilmagan
- 4 Alahsirash va galyutsinatsiya fonida yuzaga kelgan o'zini o'ldirish harakati.

### Shoshilinch yordam

- 1 Agar bolada o'z joniga qasd qilishga asosli shubha bo'lsa gospitalizatsiya qilish
- 2 Faqat ruxshunosning chuqr tekshiruvidan keyin uy sharoitida davolanish mumkin.Majburiy sharoit - uzoq muddat nazorat qilish imkoniyati.
- 3 Aralashuvning asosiy maqsadi bolaga maqbul holda uning hayot tarzini va sharoitlarini o'zgartirish.
- 4 Bola hojhlagan paytida maslahat va ruhiy dalda olishi juda muhim ahamiyatga ega.

### Tajovuzkorlik

Bolalarda tajovuzkorlik ko'p uchrab odatda xavfsiz hisoblanadi, bunda bolani tinchlantirish uchun oddiy tanbch etarli bo'ladi. Ammo ba'zida faol aralashuv zarur bo'ladi:

- 1 Agar bola xavfli holatda tashlanayotgan bo'lsa va uni tinchlantiradigan har qanday harakat samarasiz bo'lsa .
- 2 Agar bola o'ta qo'zg'aluvchan bo'lib xavf solishga, yanada tajovuzkor harakatga urinactgan bo'lsa bolani tinchlantirish qiyin.

### Shoshilinch yordam

Bolani jismoniy kuch bilan iloji boricha engil shaklda tez to'xtatmoq zarur. Dori- darmon

chityotkorlik bilan qo'llaniladi va iloji boricha ularni jismoniy kuch ishlatishdan oldin tayyorlab olish kerak.

- 1 Neyroleptiklilar — xlorpromazin, 0,5 mg/kg m/o har 4—6 s., qo'zg'alish va tajovuzkor paytida ishlataladi. Ular xolinoblokatorlar va narkotik analgetiklar ta'sirini kuchaytirib, AQBni pasaytiradi, ekstrapiramidal buzilishlar, taxikardiya va xiqqidoq spazmini chaqiradi.
- 2 Benzodiazepinlar — diazepam, 0,1 mg/kg v/i yoki ichishga, maksimal — 10 mg beriladi. Odatda kuchli vahima bosishda samara beradi. Ular katta dozada nafasni to'xtatadi va alkogol, MAO ingibitorlari, fenotiazinlar, tritsiklik antidepressantlar va barbituratlarning MATga nojo'ya ta'sirini oshiradi.
- 3 Keyinchalik ruxiy tekshiruv o'tkaziladi va bola maxsus ruxiy shifoxonaga yoki internatga joylashtiriladi.
- 4 Har doim ham tajovuzkor harakat asosida ruxiy kasallik yoki adolatsizlik, xafagarchilik yotishini qayd qilishning iloji bo'lmaydi. Shu sabab qachonki bola atrofsgalar uchun xavfli bo'lsagina jismoniy to'xtatib qolish yoki dorillardan foydalanish tavsisi etiladi.

### Bolalar psixobi

2 guruh bolalar psixobi farqlanadi:

Erta bolalar psixobi (Ko'krak va maktab yoshigacha bo'lgan bolalar psixobi)

Kechki bolalar psixobi (prepubertat va pubertat yoshdagagi bolalar psixobi)

### Erta bolalar psixobi

Autizm – bu bolaning boshqa insonlar bilan muomala qilishga harakatining yo'qligidir. Birinchi belgisi: nutq o'shining jiddiy orqada qolishidir.

**Anamnez:** bola quvnoq emas, kulmaydi yoki kech kulishni boshlaydi.

### Ko'ruv:

- 1 Bola g'amgin. Bir necha soatlab yolg'iz qolishi mumkin
- 2 Nutq o'shining orqada qolishi. Taxminan yarim bolalarda nutq keyinchalik ham rivojlanmaydi. Maktab yoshida bolalar bir muncha suhabatga aralasha boshlaydi
- 3 Bog'langan ritual harakatlar (mahkamlangan tartibda narsalarga turtinib ketish) va giperkinezlar beinomi o'rab turgan sharoitni o'zgartirmaslik maqsadida.
- 4 Boshini ko'tarmasdan o'ynaydi, boshqa insonlar ko'ziga qaray olmaydi, uning o'yiniga boshqalar aralashishiga ahamiyat bermaydi
- 5 Uning dasturini uzib qo'yish g'azabini qo'zg'atadi ( erga yotib oladi, boshini uradi, tishlarini g'ijirlatadi )
- 6 Ko'pincha epileptik tutqanoqlar uchraydi
- 7 O'z qo'lini, barmog'inini harakatlarni kuzatib boradi va narsalarni ta'mini bilishga harakat qiladi
- 8 Og'riqqa reaksiyasi kam
- 9 Tasodifiy baland tovushga reaksiyasi yo'q
- 10 Exolaliya, nutq ritmini buzilishi.

Quyidagi simptomlar asosida **tashhis qo'yiladi**:

- 1 Begonasirash, tushkunlik (bola suhabatdosh ko'ziga qaramaydi, odamlarni farqlay olmaydi, kulmaydi, jismoniy muloqatdan o'zini tiyadi).
- 2 Nutq buzilishi (tushummovchilik, exolaliya, joylarni noto'g'ri aytish), qiyin suhabat qurish
- 3 Rituallar, bir xillikni qattiy talab qilish.
- 4 O'ttiz oylikgacha kasallik boshlanadi.
- 5 Kasallik sababi aniq emas. Miyaning organik zararlanishi yoki retikulyar formatsiyaning etishmovchiligi sabab bo'lishi mumkin. Bolalar autizmi fenilketonuriya, qizilchaning fetal sindromi, sinuvchan X-xromosoma sindromida uchraydi. Kasallik ota-onalar harakatiga bog'liq emas.

**Oqibati:** kam sonli bolalar o'ziga xizmat ko'rsatish qobiliyatiga hisobiga oila bilan yashaydi.

Aksariyat b�morlar umr bo'yи shifoxonada davolanadi. Kattalarda autizm va shizofreniya o'rтасидаги aloqa aniqlanмagan.

**Davolash:** xulq atvor davosi. Tajovuzkor xulqni nazorat qilish uchun trankvilizatorlar tavsiya qilinadi.

**Indutsirlangan psixoz** – bu klinik ko'rinishi aniq bo'Imagan sindrom bo'lib, 2-5 yoshlarda uchraydi. Dastlab sezgirlik oshib ketadi. Quzg'atuvchi omillar bolada keskin vahimani uyg'otadi va aqliy, ijtimoiy xulq pasayishi kuzatiladi. Bola o'z yaqinlariga o'ta bog'lanib qolganligini ko'rsatadi. Nutqi o'zgarib komunikativ funktsiyasi yo'qoladi. Ikkilamchi autizm bilan asoratlanishi mumkin.

**Sababi:** noaniq.

**Oqibati:** autizmga nisbatan yaxshiroq .

### Kechki bolalar psixози

#### Bolalar shizofreniyasi

- 1 7 yoshdan avj oladi
- 2 Fikirlash qobiliyati buziladi
- 3 Alahsirash
- 4 Galyutsinatsiya
- 5 Tartibsiz xulq atvor
- 6 O'zaro munosabatdan o'zini tiyish
- 7 Reallikni sezmaslik
- 8 Ko'nikmalarni yo'qolishi

Oqibati: yomon, 20 yoshga borib kattalar oddiy shizofreniyasi rivojlanadi. Ota-onalar bunda o'zini ayblab ba'zan tajovuzkor harakat qilib qo'yishi mumkin. Shifokor ota- onalarga o'zini tutish tartiblarini tushintirishlari zarur. Maktab yoshigacha va kichik mакtab yoshidagi bolalarni ota-onalarisiz ko'rikdan o'tkazgan ma'qul.

#### Anti ijtimoiy xulq

**Etiologiya.** Anti ijtimoiy xulq asosida noto'g'ri tarbiya va ota-onalarning farzandlari bilan yomon munosabada bo'lishi yotadi.

#### Tekshirish

- 1 Yolg'on gapirish, urushqoqlik, bezorilik, o'g'irlik, olov o'ynash bunday holat uchun xos.
- 2 Agar bunday holatlar bir marta qayd qilingan bo'lsa xavfli sanalmaydi. Chunki 4-7 yoshdagи bolalar ushbu harakatlarni qiziqqonligi tufayli sodir ztgan bo'lishi mumkin.
- 3 Ko'pincha o'qishga layoqatni pastligi, engiltaklik ularga xos.
- 4 Ko'pincha diqqat c'tibor buzilgan bo'ladi.
- 5 Antijitimoiy xulq ostida emotsiонаl buzilishlar ( masalan depressiya) yotishi mumkin.

Agar bola kamida 6 oy davomida yuqoridagi harakatlarni amalga oshirsa va bu narsa bola yoshining me'yoriy ko'rsatkichlariga to'g'ri kelmasa, bu harakat antijitimoiy xulq deb tashhis qo'yishga asos bo'ladi. Agar antijitimoiy xulq asosida emotsiонаl buzilishlar yotsa bolalar ruxshunosi maslahati tavsiya etiladi.

#### Alkogolizm va narkomaniya

**Etiologiya.** Alkogolizm va narkomaniya sabablari odatda oilada yashiringan bo'ladi. Tarbiyaning noto'g'riliq, bola bilan doimiy qo'pol bo'lish, ota-ona o'z ma'suliyatini bajara olmasligi asosiy omillardan birdir. Bunday bolalarga o'zini past baholash, etuk emaslik, bahillik xosdir. Ba'zan o'z tengdoshlarining tazyiqi ham bunga sabab bo'lishi mumkin.

#### Tekshirish

- 1 Anamnez yig'ish paytida narkotik modda turi, uning miqdori, necha marta qabul qilishi, jismoniy va ruhiy bog'lanib qolish belgilari bor- yo'qligi, odatda alkogolizm va narkomaniya bor -yo'qligi aniqlanadi.
  - 2 Odatda alkogolizm va narkomaniya antiijtimoiy xulq va maktab mashg'ulotlarini o'tkazib yuborish bilan birga kechadi.
  - 3 Odatda bolalar alkogol va narkotiklarni qiziqonlikdan emas balki kayf olish uchun qabul qiladi. Shu sabab bir vaqtning o'zida bir necha narkotiklarni qabul qiladi.
- Tashhis:** agar bir oyдан kam bo'limgan davrda alkogol va narkotiklarni qabul qilsa va u ijtimoiy holati hamda o'qishiga ta'sir qilsa tashhis qayd qilinadi .

### Emotsional buzilishlar

#### Asab anoreksiya

**Etiologiya.** Asab anoreksiya turli hil ruhiy kasaliklarda uchraydi. Odatda 10 – 30 yoshdagি, oilaviy ahvoli o'rta va yuqori bo'lgan qizlarda uchraydi. Kechishi turlicha bo'lib 5-20% holatlarda o'lim kuzatiladi.

#### Tekshirish

##### Erta belgilari

- 1 Doimiy vazn yo'qolishiga olib keluvchi qattiy parhuz ushlash.
- 2 Ma'yorigi ishtaha va doimo fikr xayoli ovqatda bo'lish
- 3 O'zining tana tuzilishi haqida yomon fikirlash va semirishdan qo'rqish.

##### Kechki belgilari

- 1 O'zini nazorat qila olmaslik.
- 2 Ochko'zlik huruji va undan keyin bemon o'zida quşish chaqirish, ich suruvchi va peshob haydovchi dorilarni tartibisz qo'llash, ortiqcha jismoniy mashg'ulot.

Tashhis qo'yish uchun shizofreniya, depressiya, somatik kasalliklar va vazn kamayishiga olib keluvchi endokrin kasalliklari, ichak kasalliklarini inkor qilish zarur.

**Fizikal tekshiruv.** Gipotermiya, arterial gipotoniya, soch to'kilishi, shish aniqlanadi. Birlamchi yoki ikkilamchi aminorreya bo'lishi mumkin. Kechki davrda esa osteoporoz va jismoniy o'sishdan to'xtash aniqlanadi

**Gospitalizatsiya ko'rsatma:** og'ir vazn yo'qotish, yurak urish sonini va AQBni, nafas sonini va tana haroratini turg'un bo'lmasligi, o'tkir suvsizlanish, suv- tuz almashinuvining buzilishi, ambulator davoning samarasizligi.

#### Asab bulimiya

**Etiologiyasi** noaniq.

#### Tekshirish

Asab bulimiysi ko'pincha o'smirlarda uchraydi. Kechishi surunkali bo'lib, mehnatga layoqatsizlik kam kuzatiladi. Bosh miya o'smalari, Kleyne—Levina sindromi, Klyuvera—Byusi sindromini inkor qilish kerak.

**Tashhis** quyidagi belgilar asosida qo'yiladi:

- 1 Har ikki soatda o'ta to'yib ovqat eyish.
- 2 O'z xulqini noto'g'riligini his qilmaslik, o'z ustida nazoratni yo'qotish.
- 3 Doimiy ravishda vazn yo'qotishga harakat qilish.
- 4 Vazni va tana tuzilishi haqida o'ta qayg'urish.
- 5 3 oy davomida haftasiga ikki marta ochko'zlik hurujini takrorlanishi.

### Bolalar ruhshunosи maslahati tavsiya qilinadi

#### Notabilly buzilgan ishtaha

**Etiologiya.** Taxminiy sabablari – ayrim ozuqa moddalarinig etishmovchiligi va emotsiyal

talabni qoniqtira olmaslik.

#### Tekshirish

- 1 Odatda bunday ishtaha 18 oylikdan 5 oygacha uchrab bolalar turli bo'yoq soch va balchiqlarni iste'mol qiladi. Ko'krak yoshidagi bolalarning hamma narsalarni og'ziga solishini bunday ishtaha bilan dashtirmaslik zarur.
- 2 Ishtahaning bu turi mineral moddalarning etishmovchiligidagi, bolalar autizmida, shizofreniyada va bola yomon parvarish qilinganida kuzatiladi.
- 3 Asoratlari ichak tutilishi, qo'rg'oshin bilan zaharlanish , allopetsiya va gelmintozlar.

#### Tavsiya qilinadi

- 1 Bolani kuzatuvini kuchaytirish, ko'proq etibor berish, va notabiyyi ishtaha sabablarini yo'qotish. Agar bu harakatlar samara bermasa bolalar ruxshunosi maslahati zarur.
- 2 Zaharli moddalarga bolaning qo'li etishini bartaraf qilish zarur.

### Depressiya

**Etiologiya.** Depressiyaning yuzaga kelishida biologik va ijtimoiy omillar katta rol o'yndaydi.

#### Tekshiruv

- 1 Bolaning emotsiyonal holati tekshiriladi: buning uchun unga «sen hech xafa bo'lganmisan?», «tez yig'lab turasanmi?», «senga og'imi?» kabi savollar beriladi. Bu savollar bolanining qayg'usini kamaytiradi va terapeutik aralashuvni engillashtiradi.
- 2 Anamnez yig'ish paytida oiladagi yomon muhit, somatik kasallik,antijitimoj xulq maktabdan qo'rqish, darslarni o'zlashtira olmaslik, uyquning buzilishi, yaqin insonlarini yo'qotish kabilalar so'rab surishtiriladi. Iloji boricha ma'lumotlarni har hil manbalardan-boladan, ota-onalardan, o'qituvchilardan yig'ish lozim.
- 3 Boladagi depressiya holati ko'pincha ota-onalarining depressiyasi bilan bog'liq bo'ladi.
- 4 Bolalarda kayfiyat yomonlashadi,lekin xulq atvori o'zgarmaydi.
- 5 Kayfiyatini pasayishi infektsion kasalliklar, gipoterioz va ba'zi dorilarni qabul qilish hisobiga bo'lishi mumkin.

#### Tashhis quyidagi belgilarni asosida qo'yiladi.

Uzoq vaqt kayfiyatining pasayib ketishi (g'amginlik, o'zini eb qo'yish, o'ta bosiqlik, yuz ifodasining g'amgin tus olishi) yoki befarqlik va ba'zi narsalardan qoniqish olmaslik:

- uyqusizlik yoki doimiy uyquchanlik;
- anoreksiya va ozib ketish yoki ishtahaning ochilib ketishi va vazn yig'ish;
- ishsizlik yoki doimiy charchoqlik;
- o'zini to'laqonli his qilmaslik va naf keltirmaslik;
- maktabda va uuda ish qobiliyatining pasayib ketishi;
- diqqat e'tiborming pasayib ketishi, o'zini qo'lga ola bilmaslik, fikrini jamlay olmaslik;
- atrofdagilardan o'zini olib qochish, ularni uchratish va gaplashishdan qochish;
- ota-onsa yoki tarbiyachiga nisbatan xafagarchilik;
- maqtov va unvonlardan qoniqish ololmaslik;
- kelajak haqida noto'g'ri fikirlash yoki bo'lgan voqeani uzoq o'ziga olish;
- yig'lovchanlik;
- ertalabki siniqlik (charchash, holsizlik, uyquchanlik, badjahillik).
- o'zini o'ldirish va o'lim haqida o'yash.
- sanab o'tilgan belgilarni har kuni va hech bo'lmaganda 2 hafta davomida kuzatilsa depressiya hakida o'ylash mumkin.

Qattiy depressiya holatida ruhshunos maslahati tavsiya etiladi

#### Vahimaga tushish:

**Etiologiya.** Vahimaga tushish bu bolaning xarakteri, doimiy stress va boshqa sabab natijasida

bo'lishi mumkin.

#### Tekshirish

- 1 Anamnez yig'ish paytida bolani aynan nima bezovta qilishi aniqlanadi
- 2 Vahimaga tushish bolaga nisbatan uy yoki maktabda talab ko'payganda, yoki bolida o'ziga bo'lgan ishonch yo'qligi bois kuchayishi mumkin
- 3 Bolalar baxtsiz hodisalariga o'ta moyil bo'lib, kattalardek fikirlashga tushadi, yomon uxdayıva o'zi haqida atrofdagilar qanday fikrda ekanligini ko'p o'ylaydi
- 4 Ota-onalarning vahimaga tushishi ham katta rol o'yaydi
- 5 Bezovta bo'lish uchun yaqin odamidan ayirish etarli bo'ladi.

**Diagnostika.** Asosiy diagnostik belgi – bu qattiy vahimaga tushish bo'lib, bir oydan ko'p davom etadi va quyida keltiriladigan belgilarning kamida to'rtiasi aniqlanadi.

- 1 Keljajak haqida asossiz qayg'urish.
- 2 O'zining oldingi xulq atvori haqida doimiy fikirlash.
- 3 O'z yutuqlari bilan me'yordan ortiq maqtanish.
- 4 Asossiz somatik shikoyat.
- 5 Tinchlantirishga talab zarurligi.
- 6 Uyatchanlik.
- 7 O'zini doim notinch his qilish. Qaltirash va bezovtalik.
- 8 Vegetativ buzilishlar: tinch paytida nafas va pulsini oshishi, ko'p terlash, yurak urib ketishi, og'iz qurishi, ich ketishi.

Agar vahimaga tushish saqlanib, o'qishga va tengdoshlari yoki ota-onasi bilan o'zaro muloqatga halaqit beradigan bo'lsa ruhshunos maslahati tavsiya qilinadi.

#### Konversion buzilishlar

**Etiologiya.** Psixoanaliz shuni ko'rsatdiki konversion buzilishlar es- hushdan vahimani siqib chiqarib uni somatik simptom sifatida qayta shakillanishini ta'minlaydi.

#### Tekshirish

- 1 Eng ko'p somatik ko'rinish harakat va sezgi buzilishlari.
- 2 Anamnezida noma'lum sababli somatik simptomlar aniqlanadi.
- 3 Somatik simptomlarni aniqlash konversion buzilishlarni inkor etmaydi.
- 4 Somatik simptomlarni paydo bo'lishi ko'pincha emotsiyal stress yoki biror inson bilan (aynan shu simptomlari bor) muloqat natijasida yuzaga keladi.

**Differentialsial tashhisot** sistemali qizil yugurik va tarqalgan skleroz bilan o'tkaziladi.

#### Tashhisot

- 1 Bosh simptom - biror bir somatik kasallik haqida o'yashga undovchi ma'lum bir a'zo ish faoliyatining buzilishidir.
- 2 Simptomlar bemor hohish irodasini chetlab paydo bo'ladi va ularni ma'lum patofiziologik mexanizmlar bilan tushuntirib bo'lmaydi.
- 3 Kasallikning ruhiy tabiatи haqida ma'lumot:
  - 4 Somatik simptomlar emotsiyal stress natijasida yuzaga keladi;
  - 5 Kasallik bolada yoqimsiz ish oldida bo'yin egishga olib keladi yoki atrofdagilardan dalda oladi.
- 6 Ruhshunos maslahati tavsiya qilinadi.
- 7 Ota-onalarga bolaning og'ir kasallikga chalinmaganligi tushuntiriladi.
- 8 10—30% holatlarda konversion buzilish deb qabul qilingan holatlар somatik kasallik bo'lib chiqadi. Shuning uchun bunday bemorlar pediatr nazoratida bo'lishi kerak.

#### Bemorlarni bog'lash

Bog'lashning asosiy to'rtta turi: kursi, Pozi kamari, qo'llarning plastmassali kishanlari va to'rtta nuqtada bog'lash (ikkita bilak va ikkita to'piq). Nam choyshab va siquvchi kiyimlar bilan

bog'lash kam holatlarda amalga oshiriladi va ancha xavflidir. Bog'lashning har qanday turida bemorni doimiy kuzatuvi va parvarishi zarur. Bog'lashni amalga oshirish va keyingi kuzatuv uchun etarli tibbiy xodimi ajatiladi. Bog'lashga bo'lgan ko'rsatma maxsus hujjatga yozma ravishda ko'rsatiladi.

### Usullar

**Kursi** asosan dementsiya holatida ishlataladi. Uning asosi keng bo'lib, maxsus taxtadan iborat bo'ladi va bu taxta tirsak ostiga qo'yish uchun mahkamlangan bo'ladi. Qo'zg'aluvchan, muvozanati buzilgan bemorlar ushbu usul yordamida bog'lanib, ularning palata va xonalar bo'yicha daydib yurishingdi olinadi.

**Afzalliklari:** bemor quay holatda o'tiradi, qo'llari erkin, mustaqil ovqat eyishi, yozishi va foydalı mehnat bilan mashg'ul bo'lishi mumkin. Bundan tashqari doimiy muloqatda bo'ladi.

### Asoratlari

#### Kontakt shikastlanishlar

- 2 Timalishlar
- 3 Qorinни bosib qo'yish
- 4 Yotoq yaralar
- 5 Qon aylanishning buzilishlari, jumladan venoz dimlanish, tromboz.
- 6 Bu asoratlар texnik xato natijasi hisoblanadi.

#### Bog'lashning o'zining asoratlari

- 1 Qochishni nazarda tutish, bemorni kursiga o'tqazgandan so'ng yaxshi parvarish qilmaslik, ovqatlanish va parvarishning etarli bo'imasligi, muloqotning kamligi.
- 2 Qo'zg'alishga olib keluvchi sensor deprivatsiya.
- 3 Tibbiy xodimda bemor bilan hammasi joyida qabilida noto'g'ri ma'lumot uyg'otish.

**Pozi kamari** — bu teri yoki matodan yasalgan keng kamar bo'lib, bemorni belini o'rab oladi va bemor yetgan o'rinning asosiga mahkamlanadi. Bu kamarda dementsiyadagi bemorlar yurishi to'xtatiladi. Asorati: qon aylanishining buzilishi, qorinни bosib qo'yish, timalish, ba'zan bo'g'ib qo'yish. Oxirgi holat ushbu kamarning amaliy avfzalligini kamaytirib yuboradi. **Plastmassali kishanlar**. Agar bemor tajovuzkor va vahimada bo'lsa, uni shoshilinch evakuatsiya qilish zarur bo'lsa qo'lliga maxsus kishan taqilaqdi. Kishanlar bemorni ko'chirib o'tkazish uchun va atrofdagilarning xavfsizligi uchun qulaydir. Holat normallashgandan keyin kishanlar echiladi.

**To'rt nuqtada bog'lash**. Ushbu moslama maxsus terili qovuzloqdan iborat bo'lib bilak va to'piqga mahkamlanadi. Bemorning oyoq- qo'li harakatini to'liq cheklamaslik maqsadida qovuzloqlar krovat asosiga biroz bo'sh qilib bog'lanadi. Ushbu usul bemorni boshqarish juda qiyin bo'lsa va dori- darmonlar samara bermasa qo'llaniladi. Intoksikatsion psixozlarda zaharlovchi modda organizmdan chiqib ketguncha yoki antidot ta'siri boshlanguncha bemorlar ushbu usul bilan mahkamlanadi. Shuningdek paranoid va manniyalik hurujlarda, vahimali depressiyalarda, o'zini o'ldirish harakatida, a'zoni yo'qotish (ko'zni yulib olish)da ham bu usul qo'llaniladi.

#### Bog'lashni qo'llash mumkin emas:

- 1 Agar boshqa samarali usullar bo'lsa.
- 2 Kuzatish va parvarish qilish maqsadida.
- 3 Agar xarakterida doimiy tajovuzkorlik bo'lib, lekin ruhiy adovati bo'lmasa.

### Asorati

Tasma, kamar yoki krovatdan bevosita shikast olish

Ovqat yoki qusuq massalari aspiratsiyasi.

### Nazorat savollari:

1. Xulq atvor shoshilinch holatlari belgilari aytинг
2. Xulq atvor shoshilinch holatlarining jismoniy, ijtimoiy-madaniy sabablarini aytинг.
3. Xulq atvor shoshilinch holatidagi bemorlarni tekshirish tamoyillari
4. Suitsidal harakatdagi bemorlarga shoshilinch yordam ko'rsatish

5. Tajovuzkor bеморларга shoshilinch yordam ko'rsatish
6. Erta bolalar psixozining belgilarini aytинг
7. Kechki bolalar psixozining belgilarini aytинг
8. Bolalarda emotsiнал buзilishlar belgilarini aytинг
9. Xulq atvor shoshilinch holatidagi bеморларни bog'lab qo'yishning to'rtta asosiy usullarini aytинг.

## TAShKI MUXIT OMILLARI TA'SIRI NATIJASIDA YuZAGA KELUVChI ShOSHILINCh XOLATLAR

Atrof muhit omillari ta'siri natijasida kelib chiqadigan shoshilinch holatlarga tashqi muhitning yuqori va sovuq harorati tasiri, shuningdek suvdagi baxtsiz hodisalar (cho'kish) kiradi. Kasallik belgilarini to'g'ri aniqlash va bеморларни to'g'ri yunaltira olish - atrof muhit tasiri ostida paydo bo'ladigan shoshilinch holatlarni davolashda samarali yordam beradi.

**Cho'kish.** Odamning suvga yoki boshqa suyuqlikga g'ark bo'lishi hayot uchun muhiim bo'lgan tizimlarning (M.A.T. nafas olish va qon aylanish tizimlari) o'tkir shikastlanishiga olib keladi. Cho'kishga olib keluvchi omillarga suzishni bilmaslik, alkogol va narkotiklar istenol qilish (baroshikastlanish- chuquurliga sho'ng'ish moslamasi yordamida cho'milish), buyin va boshning shikastlanishi, hushdan ketish, tutqanoq, o'zidan ketish, yurak faoliyatining buzilishi kiradi. Cho'kish hamma yoshdagilarda ham uchraydi, lekin bolalar va o'smir yoshdagilarda ko'proq kuzatiladi. *Cho'kish quyidagi holatlarda yuzaga keladi:* Dengiz va daryo kemalari halokati, havo kemalarining suvga qulashi, tabiiy ofatlar, suv sporti bilan shug'ullanish vaqtida, ochiq suvga tasodifan tushib ketish, suv havzalarida cho'milish natijasida. Suvga cho'kish sabablarini orasida alohida o'rinni emotsiнал omil ya'ni, o'z-o'ziga ishonchszilik, qo'rquv hissi egallaydi. Yana bir muhim omillardan biri suvning past haroratidir. Suvning past harorati teri va o'pka qon tomirlari spazmlarini chaqirib, yurak va nafas olish tizimi faoliyatining o'tkir buzilishiga olib keladi. Suvga qulash yoki bevosdan tushib ketish oqibatida sog'лом odamda kollaps yoi sovuq shok paydo bo'ladi va bu tananing suv ostiga cho'kishiga, bazan o'limga sabab bo'ladi. Bu holat faqat sovuq suvda emas balki iliq, yani (22-25) haroratlari suvda ham, tananing quyoshda qizishi, jismoniyo zo'riqishidan so'ng suvga tushish oqibatida ham sodir bo'lishi mumkin. Burun shilliq qavatining orqa bo'limlari suv bilan tasirlanganda (nazokardial refleks, laringokardial refleks) eshitish nervi bilan bog'liq holatlarda tezkor cho'kish va o'lim yuzaga keladi.

Suvning tez oqishi, to'fonlar, turli suzish vositalari bilan to'qnashuvlar ham cho'kishning omillari hisoblanadi.

### *Cho'kish turlari.*

- 1.Sinkopal cho'kish –yurakning reflektor to'xtashi
- 2.Asfiksik yoki to'liq bo'lmagan /quruq/ cho'kish, bunda dastlab reflektor laringospazm, gipoksiya, giperkapniya va qorinchalarning fibrilyatsiyasi yoki yurakning reflektor to'xtashi /sinkopal cho'kish/ kuzatiladi
- 3.To'liq yoki chin /ho'l/ cho'kish, o'pkaga suv tushishi oqibatida yuzaga keladi.

### *Cho'kish oqibatiga ta'sir qiluvchi omillar;*

1. Ichimlik suviga cho'kganda, gipotonik suv surfaktantni yuvadi va qon tomirlarga tez so'rildi, mikroateklektazlar chaqiradi, o'pkaning shishi, plazma osmolyarligini kamaytiradi, gemoliz, giperkapniya, yurak qorinchalari fibrilyatsiyasiga olib keladi.
2. Dengiz suvida cho'kkanda gipertonik suv alveola epiteliyalarini shikastlab alveoladagi plazma hajmini oshiradi va natijada o'pka shishini keltirib chiqaradi.Qon tomirlarda plazma

hajmi kamayib, giperkaltsiemiya, gipermagnicemiya (suvdan so'rildi) va yurak to'xtashi kelib chiqadi.

3. Sovuq suv krioshok keltirib chiqaradi, lekin shu bilan birgalikda miyaning kislorodga bo'lgan chitiyoxini kamaytiradi. Bu esa o'pka- yurak reanimatsiyasi vaqtini uzaytirishiga yordam berishi mumkin.

4. Suvning iflosligi, suv o'tlarining mayjudligi nafas yo'llari obstruktsiyasini keltirib chiqaradi.


5. Suvning kimyoviy moddalar bilan iflosanishi o'tkir zaharlanishni keltirib chiqaradi.

6. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning cho'kishida ularda rudimental refleksning, yani sho'ng'uvchining muhofaza refleksining mayjudligi bilan kattalardan farq qiladi. Ulardagi bu xususiyat cho'kish holatidagi uzoq asfiksiyani va o'pka-yurak reanimatsiyasi vaqtini uzaytirishni ta'minlaydi.

7. Suvga sho'ng'ish oqibatida bosh va umurtqalarning qattiq jismga urilishi natijasida ularning shikastlanishi kelib chiqishi mumkin.

#### **Cho'kishda:**

- 1.Jahrlanuvchini qutqardingiz;
- 2.Ahvoli og'irligini baholang.
- 3.Kelib chiqish sababini aniqlang.



- жарохат йўклигига ишонч хосил килиш ;
- беморни юз тубан ётқизиб кураклари орасиги урган ҳолда сувин чикариб юбориш;
- чалқанча ётқизиб бошини ёнга буриш;
- огиз бўшлиғи ва халкумни тозалаши;
- оёкни 20°C га кўтариш;
- иложи борича декомпрессия амалга ошириш;
- оксигенотерапия бошлаш;
- хўл кийимларини счиш ва бадани спирт билан артиш.



#### Нафас бузилган, пульс периферияда аникланмайди- чин чўкиш

- бош пастта, бўйин ёнга караган, кўкрак кафаси икки ёнидан 15 сония қисилицаб сув чикарилади;
- ЮЎРни бошлаш;
- иложи борича электрофибриляция ўтказиш;
- иложи борича ошкозонни бўшатиш ва кислород ингаляцияси

*Cho'kish holatida bemor darhol sovuq muhitdan chiqarilib keyingi suv yo'qotishining oldi olinadi. Buning uchun bemordagi ho'l kiyimlar darhol echilib, bemor issiq o'raladi. Shuningdek qon aylanishiga to'sqinlik qiluvchi buyumlar echib qo'yilishi lozim. Davolash jontlantirish chora tadbirlaridan boshlanadi. Buning uchun birinchi galda nafas olish yo'llari o'tkazuvchanligi tiklanadi va ushlab turiladi. 100% kislorod bilan o'pka ventilyatsiya amalga oshiriladi. Vena ichiga fiziologik eritma yoki Ringer eritmasi yuboriladi.*

1. Agar bemor hushidan ketmagan bo'lsa, ho'l kiyimlari echilib badani spirt bilan ishqalanadi va issiq suyuqlik ichiriladi. Bemor issiq o'ralib agar qo'zg'aluvchanlik kuzatilsa sedatatsiya qilinadi.

2. Bemor hushida bo'lmasa nafas olishi baholanadi.

3. Agar nafas olishda buzilishlar bo'lmasa (bradipnoe, retraktsiya) -sinkopal cho'kish aniqlanadi.

-bo'yin umurtqalari shikastlanmaganligiga ishonch hosil qilish kerak.

-bemor yuzi bilan pastga qarab yotqiziladi.

-ikki kurak o'rtafiga urib suvdan xolos etiladi.

-chalqancha yotqizilib, bosh yon tomonga o'giriladi.

-og'iz bo'shlig'i tozalanadi.

-oyoqlar 20° ko'tariladi.

- iloji boricha dekompressiya o'tkaziladi.
  - iloji bo'lsa 100% kislorod bilan ingalyatsiya qilinadi.
  - ho'l kiyimlar echiladi, badani spirt bilan ishqalanadi.
  - buyin umurtqalar shikastlanish belgilari bo'lsa bo'yin va bosh fiksatsiya qilinadi. Bosh tanaga sinxron buriladi.
  - 4. Agar nafas olishda o'zgarishlar bo'lsa, (bradipnoe, retraktsiya) qon aylanishi baholanadi.
  - Agar periferik arteriyada puls bo'lsa:
  - "qurruq" cho'kish tashhisi qo'yiladi.
  - bo'yin shikastlangan yoki shikastlanmaganligiga ishonch hosil qilish kerak.
  - yuqoridagi usul bilan suv nafas yo'llaridan chiqariladi.
  - og'iz xalqum bo'shlig'i tozalanadi.
  - Labord usulidan foydalaniladi.
  - agar 30 sekund ichida natija bo'lmasa. O'pka -yurak reanimatsiyasi qilinadi.
  - kislorod ingalyatsiyasi beriladi.
- 5 Agar periferik arteriyada puls sezilmasa, xaqiqiy cho'kish tashhisi qo'yiladi.
- 15 sekund ichida bosjni pastga, bo'yinni yon tomonga qaratgan holatda ko'krak qafasi ikki yon tomondan sigilib nafas yo'llaridan suv chiqarilib tashlanadi.
  - o'pka -yurak reanimatsiyasini boshlash kerak.
  - iloji bo'lsa elektrodefibrilyatsiya qilinadi.
  - iloji bo'lsa oshqozon dekompressiyasi va kislorod ingalyatsiyasi o'tkaziladi.

### O'ta qizib ketish

O'ta qizib ketish - bu organizmning tashqi muhitning yuqori haroratiga nisbatan, gomeostazni bir me'yorda ushlab turish qobiliyati bo'lmasisligi bilan bog'liq holatdir.

Organizmda issiqlik ushlanib qolinishi issiq havoda bolani qalin o'rash qo'yish va quyosh nurlarining to'g'ridan to'g'ri ta'siri natijasida issiqlik ajralishini boshqaruvchi fiziologik mexanizmlarning maksimal darajada zo'rayish hisobiga kelib chiqadi.

O'ta qizib ketish sabablariga quyosh nurlarining to'g'ridan to'g'ri ta'siri, tashqi muhit haroratinig va namlikning oshib ketishi, bolani issiq paytda qalin o'rash va har hil kasalliklarni kiritish mumkin. Issiqlik spazmlari odatta elektrolitlarni o'tkir yo'qotish va gipotonik suyuqliklarni qabul qilish natijasida kelib chiqadi. Bu ko'proq oyog' ish faoliyatida ishtirok etuvchi katta mushaklarda kuzatiladi. Ko'rvu paytida teri qoplamlari nam va sovuq, tana harorati me'yorda, umumiylar deyarli yo'q bo'ladi.

**Shoshilinch yordam:** tinchlik,sovutish,tuzli eritmalarini qabul qilish. Tuzli eritmalarini vena ichiga yuborish kamdan- kam holatlarda tavsya qilinadi.

**Issiqliki olishi:** odatta natriy va sunvi birlgalikda yuqotish bilan bog'liqidir. Bu og'riq, ko'ngil aynish, quish, taxikardiya, arterial gipotoniya, qo'zg'aluvchanlik va tutqanoqlar bilan namoyon bo'ladi. Badani nam ter bilan qoplangan, tana harorati me'yor yoki sezilarsiz darajada ko'tarilgan bo'ladi. Bir yoshgacha bolalarda ter bezlari kamligi hisobiga bu davr kuzatilmaydi.

**Davosi:** salqin sharoidta tinchlik yaratish, elpish yordamida issiqlik ajralishini kuchaytirish va tuzli eritmalar yordamida yo'qotilgan suyuqlik o'mini to'ldirishdan iborat. Quish va gemodinamika buzilishlarida vena ichiga to'mehilatib fiziologik eritmalarini yuborish tavsya etiladi.

**Issiqlikdan toliqish-** bu suyuqliklarning ter orqali ko'p chiqib ketishida uchrab, bunda aylanuvchi qon hajmi keskin kamayib ketishi hisobiga tomirlar kengayib ketishi va miya perfuziyasi pasayib ketishi kuzatiladi. Bu bosqich nam va issiq sharoidta ishlochchi kishilarda,qariyalarda (chanqash kamligi hisobiga) va qon bosimi yuqori bermorlarda uchraydi. Bu bosqich uchun bosh og'rishi,bosh aylanishi, holsizlik,ko'ngil aynash, muvozanat buzilishlari, hushdan ketish, ko'p terlash, rangparlik, taxikardiya, gipotensiya, taxipnoe va o'zgarmagan tana harorati xosdir. **Shoshilinch yordam** ko'rsatish paytida bermorlar salqin joyga o'tkaziladi va jismoniy faoliyk chegaralanadi.Bermorlar chalqanchasiga oyog'i yuqoriga ko'tarilgan holatda

yotqizilib sovuq suv shimdirligani mato bilan badani arttildi. Ko'toq suyuqlik ichishi so'ralib, aga bemorda ko'ngil aynashi bo'lsa tomir teliqaga suyuqliklari yuborildi. Bemorda ~~es~~ hush buzilishi kuzatilsa glyukoza miqdorini tekshirish lozim. Agar bushimi yo'qotish yoki yuraksining qo'shimcha kasalliklari mavjud bo'lsa bemortlar shufoxonaga olib bortildi. Hoji boricha kislorod ingleylatsiyasini va kardiomonitorini yo'lga qo'yish lozim. **Issiq urishi** – bu hayot uchun xavf tug'diruvchi holat bo'lib, bunda yuqori harorat va havoning namligini oshganligi hisobiga issiqlik ajralishi buziladi. Tana haroratining oshib ketishi natajasida gipotalamus zararlanib issiqlikni boshqarish mehanizmi buziladi. Bunda issiqlikning tanada ushlantib turishi 40,6 S dan oshib ketadi. Issiq urishdan o'lish holati 21-50% ni tashkil etadi. Issiq urishda sut kislotasi to'planib qolishi hisobiga metabolik atsidoz va hujayradan kalib tuzlarining chiqishi hisobiga giperkalemiya holati kuzatiladi. Bu narsa buyrak etishmovchiligi bilan birgalikda yurak aritmiyalarini ham chaqirishi mumkin.

#### **Issiq urishning ikkita tipi farqlanadi:**

**Jismoniyo zo'riqish hisobiga yuzaga keluvechi issiq urishi:**

- issiq sharoitda ishlaydigan sog'lom yoshlarda
- bunda issiqlik to'planishi chiqarishiga nisbatan tez bo'ladi
  - gipotalamus zararlanish kuzatiladi
  - ko'p terlash kuzatiladi.

#### **Klassik issiq urish:**

-qariyalarda, spirtli ichimliklarni ko'p ichuvchilarda, semizva yurak kasalliklari mavjud kishilarda kuzatilib, bunda issiq organizmda sekin bir necha kun mobaynida yig'iladi va teri quruq bo'lib ter ajralishi bo'lmaydi. Agar issiq sharoitda ishllovchi odamda hush yo'qotilishi kuzatilsa bиринчи navbatda issiq urishni taxmin qilish zarur. Yana shuni nazarda tutish lozimki ter ajralishining yo'qligi har doim ham issiq urishdan darak beravermaydi. Shoshilinch yordam:

#### 1. AVS yordam

2. Bemorni iloji boricha tez shamollatish, barcha kiyim boshlarini ehib tashlash, 20-25S li suvdan tez -tez cho'miltirish, havosovutgichlar yordamida bemorni Sovutish lozim.

3. Markaziy venaga katater qo'yilib tomir ichiga suyuqliklar infuziyasi amalga oshiriladi va buyrak faoliyatini nazorat qilinadi.

4. Ikkilamchi asoratlarga tekshiriladi.

5. Bemorlar tez trasportirovka qilinib, yo'lda yurak aritmiyalari va o'pka shishi belgilariga tekshiriladi, doimiy kuzatuv analga oshiriladi.

6. Metabolizmni kuchaytiruvchi va ter ajralishini susaytiruvchi dorilar: vazopressorlar va antixolinergik moddalar qo'llanilmaydi.

#### **Gipotermiya**

Gipotermiya deb – tana hroratini  $35^0$  dan pastga tushib ketishiga aytildi. Bolalarda gipotermiyani asosiy sababi cho'kish xisoblanadi. Gipotermiya tanani sovushi va qon tomirlarni torayishi natijasida katexolaminlarni qonga ko'plab chiqishi, yurak qisqarishlar sonini ortishi, nafasni zo'riqishi, qon bosimni ortishi, qaltilashdan to glyukoza zaxirasini sarflanib bo'lshigacha olib keladigan holat hisoblanadi. Tana harorati  $32^0$  pastga tushishida qaltilash to'xtaydi, sababi faol glyukoza zaxirasini sarflanib bo'lganligi uchun bemor hushsizlanadi va tana sovyudi. Bu holatda yurak qisqarishlari, nafas olish soni kamayadi va qon bosimi tushadi. Tana harorati  $28^0$  dan pastga tushib ketsa qorinchalar xilpirashi yuzaga kelib yurak faoliyatining to'xtashiga olib keladi.

Shoshilinch yordam ko'rsatish asosan to g'ri ichak harorati natijalariga qarab amalga oshiriladi.

- Nisbiy gipotermiya -  $34 - 36^{\circ}\text{C}$
- O'rta gipotermiya -  $30-34^{\circ}\text{C}$
- Og'ir gipotermiya -  $<30^{\circ}\text{C}$

#### **Shoshilinch yordam:**

1. AVS- yordam

2. Xo'l kiyim-boshlarni echish
3. Bemorni xarorat yo'qotishdan saqlash va shamoldan himoya qilish
4. Chalqancha yotqizish
5. Aktiv va tex xarakat qilishdan qochish
6. Tana haroratni nazorat qilish
7. Bo'yin, ko'krak sohasiga, bosh va chov sohasiga issiqlik manbaini qo'yish
8. Nazorat qilish qiyin bo'lgan qaltirashdan keyin iliq suyuqliklarni ichirish
9. Spirli ichimliklar, kofe bermaslik yoki chekishni taqiqlash kerak. Engil yoki o'rta og'irlikdagi holatlarda ham yuqorida ko'rsatilgan extiyotkorlik tadbirlarga amal qilish
10. Namlangan va iliq kislород berishni yo'lga qo'yish
11. Tomirga quyiladigan suyuqliklarni 43° gacha isitilgan xolda bemor tana xaroratini xar soatda 1 gradusga ko'targan xolda infuzion davoni amalga oshirish.
12. Isitilgan va namlangan kislородни ingalatsiya qilish (tana xaroratini 1 soatda 1 gradusga oshirib borish).
13. Dori vositalari metabolizmni susaytirishini hisobga olib bemorga yuborish tavsiya etilmaydi.
14. Yurak to'xtab qolishi kuzatilsa reanimatsion tadbirmi quyidagi ko'rinishlarni hisobga olib bajarish zarur:
  - < 30° C – faqat defibrilatsiyani ketma-ket 3 ta zaryadini qo'llash va dori vositalarini bemorga yubormaslik
  - > 30° C – defibrilatsiya razryadq talab etilgan xolda xarorat ko'tarilishiga qarab kyatirilib boriladi va dori vositalari tanaga yuborilishi intervaliga etibor beriladi.
  - Bemorda to'g'ri ichakda tana xarorati 23 ° dan yuqori ekan reanimatsiya tadbirlari to'xtatilmaydi, chunki miya to'qimasini kislородга bo'lgan talabi sust bo'lishi va u uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

#### **Mahalliy tanani shikastlovchi sovuq ta'siri**

Sovuq ta'sirida maxalliy tanani shikastlovchi quyidagi turlari farq qilinadi:

- Sovuq qotishni muzlashsiz ke'rinishi
  - Shamol ta'sirida
  - Transheya tavoni
- Sovuq qotishni muzlash bilan kechishida
  - Junjukush
  - Muzlash

Shamol ta'sirida sovuq qotish surunkali namligi past harorat ta'siri natijasida rivojlanadi. Bunda kuyidagi ko'rinishlar kuzatiladi:

- Tanani ochiq soxalaridagi yallig'lanish, shikastlangan soxadagi og'riqli holat yoki yurakdan uzoqda joylashgan sohalar kaft, qulqoq, boldir soxasi, tovondagi og'riqlar.
- Qichish, achishish, teri sezuvchanligini pasayishi

Bu shikastlanishlar qaytalanish holatiga ega bo'lib, sovuq ta'sir qilishi natijasida kayta rivojlanadi.

**Shoshilinch tibbiy yordam** – iliq suvdva isitish yoki shikastlangan sohani isitilgan bog'lam bilan bog'lash, agar shikastlangan soha oyoq bo'lsa uni ko'tarib qo'yish.

«Transheya tavoni» odatda past namli xaroratning teriga uzoq vaqt ta'siri natijasida yuzaga keladi. Bunda sovuq ta'sir kilgan terida qizil toshmalar va sezuvchanlikning yo'qolib borishi kuzatiladi. Sovuq urgan sohada gangrena yoki strapon kuzatilishi mumkin.

**Shoshilinch tibbiy yordam** – shikastlangan soxani ko'tarish, uni tozalash va quruq bog'lam qo'yib isitish kerak.

**Junjukush** – muzlash oldi holati bo'lib, shikastlangan soxa isitilgan xolda kasallik simptomlari yo'qolib, bunda to'qima yo'qotilishi kuzatilmaydi. Bunda oraliq to'qimada muz kristallari xosil bo'lmaydi. Bu holatga oyoqlarda oqarish va shu soxada diskomfort kuzatiladi.

**Muzlash** - sovuq ta'sirida yumshoq to'qimalarni shikastlanishi oraliq to'qimalarda muz kristallarini xosil bo'lishi bilan kechib, to'qimalarda qayta tiflanmaslik holati yuzaga keladi. Muzlashda to'qimalar qavatma-qavat xuddi kuyishdag'i kabi shikastlanadi. Muzlashni 4 ta bosqichi farqlanadi:

- 1-chi bosqich. Bunga xos bo'lgan ko'rinish:
  - Teri qavatini qismansovushi
  - Qizarish
  - Nisbatan kuzatiladigan shish
  - Pufaklarni kuzatilmaligi
- 2-chi bosqich. Bunga xos bo'lgan ko'rinish:
  - Barcha teri qavatlari sovushi
  - Tarang kurinishdag'i shishlar
  - Aniq pufaklarni xosil bo'lishi
- 3-chi bosqich. . Bunga xos bo'lgan ko'rinish:
  - Barcha teri qavatlari va teri osti yog' qavatini xam sovushi
  - Qonli xosilaga ega bo'lgan pufaklar
  - Nekroz koji, tsianotichnaya okraska
- 4-chi bosqich. Bunga xos belgilar:
  - Terini barcha qavatlarini, mushaklar, paylarni, suyaklarni shikastlanishi bilan kechishi
  - Kuchli bo'limgan shish
  - Oldiniga qizil yoki ko'kargan rangdag'i toshma keyin teri quruqlashadi, qorayadi, mumlashadi.



#### **Shoshilinch tibbiy yordam:**

- ABC yordam
- Gipotermiya zo'riqishini oldini olish va kerakli yordamni ko'rsatish
  - Siqib turuvchi va nam kiyimboshlarni echish
  - Bemorni qurutish
  - Tomir ichiga iliq eritmalmarni yuborish
- Extiyotkorlik choralar - shikastlangan sohani qor bilan ishqlab bo'lmaydi, chunki hosil bo'lgan muz kristallari to'qimani yanada ko'proq shikastlashi mumkin.
- Muzlagan sohani ishqlash
  - Ishqlashdan oldin bemorni dori vositalari(analgetiklar) bilan oriqsizlantirish kerak.
  - Ishqlash paytida odatda tog'orachadagi suv harorati  $37,8 - 41,1^{\circ}$  da bo'lishi kerak. Suv xarorati tez tushushi sababli issiq suv quyib turish kerak bo'ladi.
- Shikastlangan soxaga quruq bog'lamni siqib turgan holda qo'yib bo'lmaydi Shuningdek hosil bo'lgan pufaklarni yorish va bemorning yurishi tavsija qilinmaydi.

#### **Nazorat savollari**

1. Cho'kishda kuzatiladigan uchta turdag'i holat farqlarini ayitib bering.

2. Cho'kish turlariga qarab ko'rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordam ketma- ketligini yoritib bering
3. Cho'kkan bemorni qismatiga ta'sir qiladigan salbiy omillarni sunab bering.
4. Issiqdan tomir tortishi yuzaga kelganda kuzatiladigan klinik belgililar va unda ko'rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordamni yoritib bering
5. Issiqdan xolsizlanishda kuzatiladigan klinik belgilarni va unda ko'rsatiladigan tibbiy yordamni ketma-ketligini yoritib bering.
6. Issiq urishni klinik belgilarini va unda ko'rsatiladigan ketma - ketlikdagि tibbiy yordamni ayтиb bering
7. Gipotermiyani klinik belgilarini va unda kursatiladigan ketma - ketlikdagи tibbiy yordamni ayтиb bering
8. Shamollatishning klinik belgilarini va unda ko'rsatiladigan ketma - ketlikdagи tibbiy yordamni ayтиb bering
9. "Transheya tavoni" ko'rinishining klinik belgilarini va unda ko'rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordam ketma-ketligini ayтиb bering
10. Junjukush va muzlashda kuzatiladigan klinik belgilarni va shoshilinch tibbiy yordam ketma-ketligini ayтиb bering.

